

NASHR KO'RSATKICHI 1404



URGANCH
INNOVATION
UNIVERSITETI



AHMAD DONISH

INNOVATSIYA VA TARAQQIYOT



URGANCH INNOVATION UNIVERSITETI

Ijtimoiy tarmoqlari va manzili



@urganch_iu



@uriu.xz



(91) 436-20-22
(90) 436-20-22
(88) 909-22-20



@uriu



Xorazm viloyati Urganch
shahri "Mustaqillik" MFY
Gurlan ko'chasi, 2-uy



2025 (10)

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
URGANCH INNOVATION UNIVERSITETI NTM

INNOVATSIYA VA TARAQQIYOT

Ilmiy-metodik, ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy
JURNAL

2025-yil, 10-son

Hamkor tashkilotlar:

Xorazm viloyat turizm boshqarmasi.

Respublika ma’naviyat va ma’rifat markazi Xorazm viloyat bo‘limi.

“Jaloliddin Manguberdi” fondi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 24-sentabrdagi № 375/5 qaroriga ko‘ra “«Innovatsiya va taraqqiyot» jurnali Tarix va filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Bosh muharrir:

M.J.Eshmurodov – Filologiya fanlari doktori, dotsent.

Bosh muharrir o‘rinbosari:

S. Samandarova – Filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

Mas’ul kotib:

U.Bekmuhammad – Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

Tahrir hay’ati:

G.Durdieva – Arxitektura fanlari doktori, professor.

M.Isxoqov – Tarix fanlari doktori, professor.

F.Maqsudov – Tarix fanlari doktori, professor.

A.Ashirov – Tarix fanlari doktori, professor.

G‘.Boboyorov – Tarix fanlari doktori, professor.

S.Hoshimov – Tarix fanlari doktori, professor.

O.Komilov – Tarix fanlari doktori, professor.

D.Jamalova – Tarix fanlari doktori, dotsent.

F.Boboyev – Tarix fanlari doktori, professor.

I.Xaydarov – Tarix fanlari doktori, professor.

O.Radjabov – Tarix fanlari doktori, dotsent.

M.Alixojiev – Tarix fanlari nomzodi, dotsent.

B.Abdirimov – Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori.

M.Xo‘jamov – Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

N.Mahmudov – Filologiya fanlari doktori, professor.

Z.Do‘simov – Filologiya fanlari doktori, professor.

Ulug‘bek Hamdam – Filologiya fanlari doktori, professor.

Bahodir Karim – Filologiya fanlari doktori, professor.

Jabbor Eshonqul – Filologiya fanlari doktori, professor.

M.Asadov – Filologiya fanlari doktori, professor.

A.D.O‘razboyev – Filologiya fanlari doktori, professor.

D.Q.G‘ayipov – Filologiya fanlari doktori, professor.

M.Pirnazarova – Filologiya fanlari doktori, dotsent.

I.Ismoilov – Filologiya fanlari doktori, dotsent.

A.I.Primov – Filologiya fanlari doktori, dotsent.

M.Tillayeva – Filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

R.Y.Xudoyberganov – Filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

R.B.Maxmudov – Filologiya fanlari doktori, dotsent.

Sh.Alimova – Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent.

Qozoqboy Yo‘ldosh – Pedagogika fanlari doktori, professor.

M.Salayeva – Pedagogika fanlari doktori, professor.

S.K.Salayev – Iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

I.Abdullayev – Iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

D.Xudayberganov – Iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

M.Xoshimxonov – Falsafa, pedagogika, filologiya fanlari doktori, professor.

M.S.Xajiyeva – Falsafa, pedagogika fanlari doktori, professor.

O.N.Naumenko – Tarix fanlari doktori, professor (Rossiya).

Y.A.Naumenko – Psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya).

Y.M.Gancharov – Tarix fanlari doktori, professor (Rossiya).

K.V.Karpinskiy – Psixologiya fanlari doktori, professor (Belorus).

L.S.Zelensova – Iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Rossiya).

V.A.Barmin – Tarix fanlari doktori, professor (Rossiya).

A.A.Veryayev – Pedagogika fanlari doktori, professor (Rossiya).

A.G.Abdullin – Psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya).

Almaz Ulviy – Filologiya fanlari doktori, professor (Ozarbayjon).

Azizullah Aral – Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent (AQSH).

H.H.Tadjiyev – Turkologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent (Qozog‘iston).

ISSN 3030-3206

Innovatsiya va taraqqiyot: ilmiy-metodik, ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy jurnal.
№ 10 (31), Urganch innovatsion universiteti, 2025-yil.

MUNDARIJA:

TARIX

M.TILOVBOYEVA. Eneolit davri jamiyatining ijtimoiy va etnomadaniy munosabatlar rivojlanishining iqtisodiy omillari.	4
F.JUMANIYOZOV. Qadimgi Xorazmdagi sinkretik diniy an'analar: ossuariylar tahlili.	8
M.JUMANIYOZOVA. Xorazmda norasmiy bilimlarning o'rta asrdagi taraqqiyoti.	14
M.DAVLETOVA. Xiva xonligi soliq tizimining rivojlanishi va uning transformatsiyasi.	22
D.JAMOLOVA. Ahmad Donishning ilmiy merosida islohotchilik g'oyalari.	27
S.SAMANDAROVA. Jadid maktablari tashkilotchilari va homiylari.	37
U.BEKMUHAMMAD. Xorazm jadidlarining xonlik davridagi siyosiy kurashlari va islohotlari.	47
F.JUMANIYAZOVA. Xorazmda matbuot sohasining tashkil topishi va rivojlanish tarixi.	58
O.KOMILOV. O'zbekiston SSRda milliy maorif tarixi	63
S. DAVLETOV , A. MATYAKUBOV . XX asrning 60-80-yillarida Xorazm viloyatida xalq xo'jaligini rivojlantirish muammolari.	68
S.XUDAYBERGANOV. Yangi O'zbekiston sharoitida Xorazm viloyatining madaniy-gumanitar yo'nalishdagi xalqaro aloqalari.....	74
G.MADRIMOVA. Mustaqillik davrida Xiva shahrining iqtisodiy va madaniy yuksalish bosqichlari.....	80
X.DAVLETOV, Sh.SOBIROVA. Yangi O'zbekiston yoshlarining iqtisodiy holati: yangiliklar va tendensiyalar.....	85
I.ISMAILOVA. Xorazm matematika maktabi ilmiy an'alarining davomchisi.	90
G.MAMASOLIYEVA. Farg'ona vodiysi tibbiyot muassasalarida mutaxassis shifokorlar faoliyatining yo'lga qo'yilishi.	97

FILOLOGIYA

Z.DO'SIMOV. Joy nomlari – muhim tarixiy-lisoniy manba sifatida.	105
M.TILLAYEVA. Antroponimlar leksik asoslarining nomlanishida o'xshatish tamoyilining ahamiyati.	110
Sh.ALIMOVA. Xorazm vohasi o'zbek xalq shevalari leksikasining lug'at tarkibi xususida.	115
X.MATYAKUBOV. O'zbek va ingliz tillaridagi ayrim onomastik birliklarning qiyosiy tahlili	120
G.AZATOVA. Xorazm bolalar folklor qo'shiqlarida atoqli otlarning qo'llanilishi.	127
D.YUSUPOVA. Ingliz va o'zbek siyosiy nutqida hissiy ifoda vositalarining lingvistik modellari.	135
G.KENTAYEVA. Habibiy (Habibullo Oxund) ning tasavvufiy dunyoqarashi va ijodiy merosi.	141
F.MASHARIPOVA. Badiiy matnda giperbola san'atining istifoda etilishi.	147
N.SOBIROVA. Ingliz va o'zbek adabiyotida mifologik obrazlarning qiyosiy tahlili.	152
E. NIYOZMATOV. O'zbek she'riyatida "sen" va "men" so'zlari ishtitokida tazodning tadriji.	157
S.MATNAZAROVA. Shoir adabiy-estetik qarashlarida davr ruhi.	164
A.ALLAMBERGENOV, A.ULVIY. Ikki qardosh adabiyot – bir onaning ikki dilbandi.	170
D.RUSTAMOV. Jadid dramaturgiyasida pragmatik manzara: nutqiy aktlar, sukut strategiyalari va ma'rifatparvar diskursning sotsiokognitiv asoslari.	174

TARIX**ENEOLIT DAVRI JAMIYATINING IJTIMOIIY VA ETNOMADANIY
MUNOSABATLAR RIVOJLANISHINING IQTISODIY OMILLARI**

**Tilovboyeva
Mardona,
Urganch davlat
universiteti
mustaqil izlanuvchisi**

UO‘K: 947 (575.1)

Annotatsiya: Maqolada yurtimizning tarixiy-geografik hududlarida eneolit davri jamiyatining ijtimoiy-iqtisodiy va etnomadaniy munosabatlari rivojlanishi omillari yoritiladi.

Аннотация: В статье освещаются факторы развития социально-экономических и этнокультурных отношений энеолитического общества в историко-географических регионах нашей Родины.

Annotation: The article highlights the factors of the development of socio-economic and ethno-cultural relations of the Eneolithic society in the historical and geographical regions of our homeland.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston, Ustyurt, Sulton Uvays, Farg‘ona, Zarafshon, Surxondaryo, Ko‘lbuloq, Selung‘ur, Ijond, Teshiktosh, Burli-3.

Ключевые слова: Узбекистан, Устюрт, Султан Увайс, Фергана, Зарафшан, Сурхандарья, Кулбулак, Селунгур, Иджонд, Тешикташ, Бурли-3.

Key words: Uzbekistan, Ustyurt, Sultan Uvays, Fergana, Zarafshan, Surkhandarya, Kulbulak, Selungur, Ijond, Teshiktash, Burli-3.

Eneolit davri (mil. avv. IV–III ming yilliklar) O‘zbekiston hududida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyotning yangi bosqichi bo‘lib, bu davrda ishlab chiqaruvchi xo‘jalik shakllari rivojlandi, dastlabki mulkiy tabaqalanish, mehnat taqsimoti va jamoa munosabatlarining shakllanishi kuchaydi. Ayniqsa, Quyi Amudaryo, Zarafshon, Surxondaryo va Farg‘ona vodiysi hududlarida bu jarayonlar yaqqol ko‘zga tashlanadi. O‘zbekiston Respublikasi hududida turli nomda faoliyat olib borgan arxeologik ekspeditsiya va guruhlarining aholi tomonidan qoldirilgan turar-joylarda olib borgan izlanishlari natijalarini asos qilib olgan adabiyotlarda qayd qilingan tarixiy ma’lumotlarning nazariy-qiyosiy tarzda tahlilidan kelib chiqib, ularni umumlashtirgan holda tarixiy-xronologik izchillik asosida eneolit davri aholisining ekin-tekinklikni olib borishiga imkon yaratgan iqtisodiy-madaniy omillar ma’nosini quyidagicha yoritish mumkin:

Arxeologik tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, O‘zbekistonning bir qator tabiiy-iqtisodiy hududlarida tosh davri ilk bosqichidayoq tog‘ va tekislikda shakllangan

hududlar ibtidoiy ovchilik manfaatlariga xizmat qilgan. Masalan, Ustyurt hududi Shaxpaxta havzasi atrofiga tosh davri quyi bosqichida ibtidoiy ovchilar oʻrnashib, Shaxpaxta havzasida, Churuq va Qoraquduq atroflarida iqtisodiy manbalardan uddaburonlik va epchillik bilan hozirgiga yaqin boʻlgan iqlim sharoitidan foydalanib etnik jarayonlar geografik holatini hosil qilishdi[1-C.65-68]. Ilk tosh davrida togʻ va togʻ tizmalarida joylashgan ibtidoiy ovchilarga qulay iqtisodiy omillar mavjud boʻlgan. Fargʻona vodiysida Haydarkon qishlogʻidagi Soʻx daryosi tizimida 2000m balandlikdagi tabiiy gʻor makon Selungʻur ilk tosh davri odamzoti tomonidan oʻzlashtirilib, etnik makon boʻlgan. [2-B. 14-15] Toshkent vohasi Ohangaron vodiysi Chotqol togʻi Qizilolmasoy hududi chashma atrofi ovchilarning makoni boʻlgan, oʻsha qazishma ishlari natijasida olingan tosh qurollar ilk tosh davriga oid boʻlgan, manzilgoh adabiyotlarda Koʻlbuloq nomi bilan maʼlum. [3-C. 5-25].

Zarafshon vodiysi shimoliy hududida Vaush, Ijond manzilgohlarida oʻrnashgan ovchilarning olib borgan turmush tarzi ilk tosh davriga mansub boʻlgan.[4-B. 20] Oʻzbekistonning boshqa hududlarida ilk tosh davri ovchilari turar-joylari toʻgʻrisida tarixiy maʼlumotlar tadqiqotchilarning nashrlarida kuzatilmaydi. Tosh davrining oʻrta davrida Ustyurt hududida Shaxpaxta ovchilari etnik munosabatlarni davom ettirganlar, bu holat Fargʻona vodiysida ham kuzatiladi. Shu bilan birga, ibtidoiy odamzotning tarix taqozosiga koʻra, oʻrta tosh davri ovchilari tomonidan Oʻrta Zarafshon va Surxondaryoda Boysun togʻidagi Teshiktosh gʻor makoni etnik makon boʻlgan.[5-C. 25-33].

Mezolit, neolit va eneolit davrida Ustyurt hudud doirasida urugʻ-jamoalari etnik munosabatlarni olib borganlar.[6-C. 61-65] Mazkur tarixiy davrda Xorazm shimolida Sulton Uveys togʻi etagiga ulanib ketgan hududda oʻrnashgan ibtidoiy ovchilar oʻrta tosh, mezolit va ilk neolit davrlarida etnik jarayonlarni olib borganlar, bundan koʻrinadiki, etnik munosabatlar Toshkent vohasi, Fargʻona, Surxon(Machay), Boʻzsuv I-V, Obishir-1, Madyor manzilgohlarida kechgan.[7-C. 16-38] Quyi Amudaryo va Zarafshon vodiysi quyi va oʻrta hududlarida ham etnik munosabatlar kechgan, bunga iqtisodiy omillar imkon bergan. Togʻlardan oqib tushgan suvlar togʻoldi hududlarida soy etaklari sernam va serunum boʻlgan Xorazm, Quyi va Oʻrta Zarafshon hududlarida Amudaryo va Zarafshon daryolari harakati iqtisodiy omillarni hosil qilgan. Oʻzbekistonning Surxon vohasidan tashqari neolit davri urugʻ-jamoalari xoʻjalik sohalarida erishgan natijalari eneolit davrida ham ahamiyati saqlanib qolgan, iqtisodiy omillar zahirasi yetarli darajada boʻlgan.[8-C. 14-37], [9-C. 167], [10-B. 38-56].

Geologik jarayonlarning taraqqiyoti natijasida tarkib topgan O'rta Osiyo hudud tuzilishi tog'lik va tekislik tasvir qilib, ularning turli geografik koordinatlarda joylashish xususiyatlari aholining muayyan hududlarda joylashish imkoniyatini bergan. Shu jihatdan olganda, iqtisodiy omillarning aholiga xizmat qilishida o'ziga xos geografik holat bilan belgilanadi. Arxeologik tadqiqotlar natijasida tabiiy manbalarga ega bo'lgan ba'zi hududlar ibtidoiy odamlar kundalik faoliyatlarini olib borishi mumkin bo'lgan tog'larda tabiiy g'or-makonlar, tog' tizmalarida hamda tekislikda harakat qilgan buloqlar ularning organik dunyosi, buloq sohili etaklarida antropogen landshaft, ekologiya odamzotga iqtisodiy omillardan unumli foydalanib, xo'jalik sohasini kashf etib, etnik jarayonlarni olib borganlar. Toshkent vohasi Ohangaron vodiysida Ko'lbuloq tog' tizmasida harakatda bo'lgan Ko'lbuloq ochiq tipdagi manzilgoh bo'lgan. Asosan, tog'lar iqtisodiy omillar makoni bo'lgan. Ustyurt hududida Shaxpaxta havzasida Churuq, Shaxpaxta manzilgohidagi quduqlar atroflari ibtidoiy ovchilarga qulay iqtisodiy omillar mavjud bo'lgan. Bu jarayon neolit, eneolit davrlarida ham davom etgan. Toshkent, Farg'ona, O'rta va Janubiy Zarafshon, Surxon vohalari hududlarida o'rnatilgan aholining kasbi-korlarini olib borishida tog'larning iqtisodiy zahirasi muhim ahamiyat kasb etgan, bu jarayon hozirgi vaqtda ovchilarning asosiy manzilgohi bo'lgan, ular albatta mavsumiy xarakterda bo'lgan.

O'rta Osiyo mintaqasida eneolit davrida tabiiy-iqtisodiy hududlarning iqtisodiy omillarini quyidagicha ajratish mumkin:

1-hudud: tog' va tog'oldi hududlarining iqtisodiy zahirasi doimiy;

2-hudud: tekislik hududlari iqtisodiy zahirasi va omillari tabiat in'omi va qoplanib yog'gan muzliklarning erish holatiga bog'liq.

O'zbekiston hududida eneolit davri jamiyatining ijtimoiy va etnomadaniy munosabatlari asosan iqtisodiy omillar – dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik, ayirboshlash va jamoa mehnati asosida shakllangan. Bu jarayonlar:

- mehnat taqsimoti va mulkiy tabaqalanishni yuzaga keltirgan,
- ijtimoiy boshqaruv va diniy tuzilmalarni rivojlantirgan,
- etnomadaniy birlashuvni ta'minlab, ilk shahar va davlat tizimlariga poydevor yaratgan.

Insoniyatning kundalik mashg'ulotlarini olib borishga bo'lgan iqtisodiy omillari tabiat hadyasiga bog'liq bo'lgan. Bunday iqtisodiy omillardan Farg'ona vodiysida Selung'ur, Toshkent vohasida Ko'lbuloq, Ustyurt hududida Churuq, Shaxpaxta, Qoraquduq, Zarafshon vodiysi yuqori qismida Vaush, Ijond manzilgohlari aholisi bronza davrigacha tabiat in'omidan unumli foydalanganlar.

Oʻrta, soʻnggi tosh, neolit va eneolit davrlarida Quyi Amudaryo, Quyi va Oʻrta Zarafshon hududi aholisi tabiiy manbalar asosida amaliy kasbi-korlarini olib borganlar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Бижанов Е.Б. О народных памятниках каменного века в районе впадины Шахпахты на Устюрте // Вестник Каракалпакского филиала Академии наук УзССР. – Нукус, 1983. – №1. – С. 65–68.
2. Ibragimov R.Z. Oʻrta Osiyo arxeologiyasi–Toshkent: “Asian Book House” 2020–B 14-15
3. Касимов М.Р. Многослойная палеолитическая стоянка Кулбулак в Узбекистане // Материалы и исследования по археологии. – М.: Наука, 1972. – №185. – С. 5–25.
4. Kabirov J., Sagdullayev A. Oʻrta Osiyo arxeologiyasi–Toshkent.: ”Oʻqituvchi”,1990–B.20
5. Окладников А.П. Средний палеолит — мустерское время в Средней Азии // Средняя Азия в эпоху камня и бронзы. – М.–Л.: Наука, 1966. – С. 25–33.;
6. Бижанов Е.Б. Открытие памятников мезолита на юго-восточном Устюрте // Вестник Каракалпакского филиала Академии наук УзССР. – Нукус, 1982. – №3. – С.61-65.
7. Исламов И.И. К выделению локальных вариантов мезолита Узбекистана // ИМКУ. – Ташкент: “Фан”, 1975. – Вып. 12. – С. 16–38.
8. Бижанов Э.Б. Мезолитические и неолитические памятники северо-западного Устюрта // Археология Приаралья. – Ташкент: “Фан”, 1983. – Вып. 1. – С. 14–37.
9. Виноградов А.В. Древние охотники и рыболовы среднеазиатского междуречья // ТрХАЭЭ – М.: Наука, 1981. – Т. XIII. – С. 167.
10. Oʻzbekiston tarixi–Toshkent; “Oʻzbekiston”, 2023-B.38-56

TARIX**QADIMGI XORAZMDAGI SINKRETİK DINIY AN'ANALAR:
OSSUARIYLAR TAHLILI**

**Jumaniyozov Furqat,
Urganch davlat
universiteti mustaqil
tadqiqotchisi**

UO'K 902.34

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xorazmdagi mahalliy e'tiqodlar va zardushtiylik an'alarining o'zaro uyg'unlashuv jarayoni arxeologik va etnografik tadqiqotlar, shuningdek "Avesto" matnlari asosida va ossuariylar misolida tahlil qilingan. Maqolada qadimgi Xorazmdagi diniy marosimlar, suyak saqlash urf-odatlar, ossuariylardagi ramzlar va ularning ma'naviy-simvolik ma'nolari yoritilgan.

Аннотация: В статье анализируется процесс синкретизации местных верований и зороастрийских традиций в Хорезме на основе археологических и этнографических исследований, а также текстов Авесты и примера оссуариев. В статье рассматриваются религиозные обряды в Древнем Хорезме, обычаи сохранения костей, символы в оссуариях, их духовное и символическое значение.

Annotation: The article analyzes the process of syncretization of local beliefs and Zoroastrian traditions in Khorezm based on archaeological and ethnographic research, as well as the texts of the Avesta and the example of ossuaries. The article examines religious rites in Ancient Khorezm, customs of preserving bones, symbols in ossuaries, their spiritual and symbolic meaning.

Kalit so'zlar: Xorazm, sinkretizm, zardushtiylik, mahalliy e'tiqodlar, ossuariy, qadimgi sivilizatsiya, diniy marosimlar, arxeologik topilmalar, madaniy uyg'unlik.

Ключевые слова: Хорезм, синкретизм, зороастризм, местные верования, оссуарий, древняя цивилизация, религиозные обряды, археологические находки, культурное слияние.

Key words: Khwarezm, syncretism, Zoroastrianism, local beliefs, ossuary, ancient civilization, religious rituals, archaeological findings, cultural integration.

Qadimgi Xorazm madaniyati Markaziy Osiyo sivilizatsiyasida o'ziga xos o'rin egallaydi. Shimoliy Baqtriyaning dinamik haykaltaroshligi, So'g'dning nafis naqshlari mahalliy san'at maktablarining yorqinligi va betakrorligini namoyon etsa, Xorazm qal'alarining buyuk xarobalari, ularning quruvchilari

mahoratini yaqqol ko'rsatadi. Biroq, Markaziy Osiyo madaniyatining diniy jihatlarini to'liq tadqiq etilmagan. Garchi S.P.Tolstov, A. Yu. Yakubovskiy, M. M. Dyakonov, A. M. Beleniskiy kabi olimlarning ishlarida bu borada ayrim jihatlar ochib berilgan bo'lsa-da, diniy mavzudagi ma'lumotlar yetarli emas, asosiy manbalar esa juda kam va ular ba'zi bir matnlarning parchalaridan iborat. Shu sababli bu davrning diniy e'tiqodlari masalasi arxeologik yodgorliklar misolida o'rganilgan. Aytish joizki, Yu.A.Rapoportning "Из истории религии древнего Хорезма (оссуарий)", S.P.Tolstovning "По следам древнехорезмской цивилизации" [2], A.A.Askarovning "Древнеузбекская культура и ее истоки" [3], Abu Bakr Narshaxiyning "Tarixi Buxoro" [4], V.V.Bartoldning "Сочинения" [5], S.G.Isakovning "Очерки по истории культуры Узбекистана" [6], B.A. Litvinskiyning "Культура и искусство центральной Азии в древности и средневековье" [7], B.Nazarovning "Xorazmdagi arxeologik topilmalarning din tarixini o'rganishdagi ahamiyati" [8] kabi tadqiqotlari ham arxeologik materiallarga tayanadi.

Ushbu mintaqada shakllangan diniy qarashlar turli etnik va madaniy ta'sirlar oqibatida murakkab sinkretik xususiyatga ega bo'lganligini ko'proq Yu.A. Rapoport [1] Xorazmga bag'ishlangan tadqiqotlarida ossuariylar asosida yoritib berishga harakat qilgan. Albatta, "ossuariylar" deb ataluvchi topilmalar, ya'ni o'liklarning tozalangan suyaklari saqlanadigan maxsus idishlar antik Xorazm aholisi tomonidan keng qo'llangan va dafn marosimida alohida o'rin tutadi.

Xorazmda din jamiyatning siyosiy va madaniy hayoti bilan chambarchas bog'liq bo'lgan. Xorazm sivilizatsiyasining dastlabki davrlarida aniq shakllanmagan animizm va totemizm elementlari mavjud bo'lib, keyinchalik ular zardushtiylik, mahalliy urf-odatlar va boshqa tashqi ta'sirlar bilan uyg'unlashgan. Shu o'rinda sinkretizatsiya atamasiga to'xtalib o'tish maqsadga muvofiq. Sinkretizm - bu turli din, e'tiqod yoki falsafiy qarashlarning bir-biri bilan uyg'unlashuvi, aralashishi va yangi shaklga kelishi jarayonidir. Qadimgi sivilizatsiyalarda, ayniqsa madaniy va savdo aloqalari kuchli bo'lgan mintaqalarda bu holat juda keng tarqalgan. Taniqli arxeograf olim Yu.A.Rapoportning tahlillariga ko'ra, Xorazmda topilgan ba'zi ossuariylar zardushtiy ta'sirlar bilan birgalikda mahalliy "poklash" marosimlari va maxsus timsollar — qushlar, hayvonotlar, kosmosga oid ramzlar bilan boyitilgan. Bu, o'z



navbatida, dinning faqat bir manbaga emas, balki ko'p manbali, sinkretik tusga ega ekanini ko'rsatadi [1.16] .

Rapoport ossuariylar haqida arxeologik nuqtai nazardan V.V.Bartold, N.I.Veselovskiy, N.A.Istratovich kabi mashhur olimlarning gipotezalari mavjud bo'lsa-da, ularning asarlarida ossuariylarning yetarlicha o'rganilmagan jihatlari, jumladan ularning turlari, paydo bo'lish vaqti va boshqalari aniqlanmaganini aytadi. Masalan ular Avestoning (ayniqsa "Videvdat" qismida) ko'rsatmalariga asoslanib, ossuariylarni zardushtiylik dini bilan bog'lashgan. Avesto zardushtiylari o'liklarning tana qismlarini yoqib yoki yo'q qilib, faqat suyaklarini saqlaganliklarini dalil sifatida keltiradilar. Biroq keyinchalik, Iroq va Eronda keng tarqalgan zardushtiylik bilan Markaziy Osiyoda topilgan ossuariylar o'rtasida muayyan farqlar mavjudligi aniqlangan. Bu ossuariylar ba'zan zardushtiylik qonunlariga mos kelmaydi va shu bois, olimlar bunday topilmalar mahalliy, ya'ni zardushtiylikdan oldingi diniy e'tiqodlar bilan bog'liq, deb taxmin qiladilar. Ossuariylar nafaqat diniy e'tiqodlarni, balki qadimgi jamiyatning urf-odatlarini, madaniyati va dunyoqarashini ham o'rganishga yordam beradi. Arxeologik ma'lumotlarning maxsus tahlili, shu jumladan ossuariylarning shakli va uslublari bizga qadimgi Markaziy Osiyo xalqlarining ma'naviy dunyosi haqida yangicha tasavvur imkonini beradi.

Markaziy Osiyoda topilgan ilk ossuariylar N. I. Veselovskiy tomonidan 1885-yili Samarqand yaqinidagi Afrosiyob xarobalarida olib borilgan ishlar paytida aniqlangan. Ular parchalangan, suyak qoldiqlari bilan birga bo'lmagan holda topilgan va tadqiqotchining zehni tufayli ular "suyaklar saqlanadigan qabrlar" deb taxmin qilingan. Biroq, keyinroq jamlangan bir nechta ossuariylar N. I. Veselovskiyning ushbu gipotezasini tasdiqlamadi, ya'ni ularda butun inson skeletini joylashtirishning imkoni yo'q edi. Shuning uchun bu fikrlar qayta ko'rib chiqildi.

Fors olimi Djamshidji Djivanji Modi ham bunga o'xshash holat haqida ma'lumot bergan. U Parsiyadagi Perasion qal'asi yaqinida shunday topilmalar aniqlanganini aytgan. 1888-yilda olim Bombey arxeologiya jamiyati yig'ilishida ossuariylar haqida chiqish qilgan va 1889-yilda ushbu maqolasini e'lon qilgan. Unda Bushir shahri yaqinidagi Dizoon Maltomom deb atalgan joyda topilgan tosh ossuariy tahlil qilingan. Tobut shaklidagi idishda (kattaligi taxminan 70 sm bo'lgan) katta yoshli insonning suyaklari saqlanganligi va bu moddiy yodgorlikni Modi "ostadon", ya'ni "forsiy" kitoblarda tilga olingan "suyak saqlovchi" deb ataluvchi buyum sifatida baholaydi. [9]

Muallifning ta’kidlashicha, zardushtiylarning muqaddas kitoblaridan biri (Videvdat)dagi ko’rsatmalarga ko’ra, jasadlar baland tosh platformalarga qo’yilgan, qushlar tomonidan tozalangan suyaklar esa maxsus idishlar – ostadonlarga joylashtirilgan. Modi o’z tahlillarida bu so’zni “izadana” (ya’ni “ibodatxona”) so’zi bilan bog’lagan (Vid. VI, 49–51). Modining fikricha, ostadonlar – doimiy emas, balki vaqtincha saqlash vositasi bo’lib, u yerda suyak qoldiqlari vaqtincha saqlangan. Ayrim tadqiqotchilar esa bu idishlar ma’naviy ahamiyatga ega bo’lgan urf-odat bilan bog’liq, deb hisoblashadi. Modi ta’kidlaganidek, ba’zi zardushtiylik matnlarida ostadonlar kabi idishlar haqida ham ma’lumotlar mavjud.

Sovet arxeologlarining keng qazishma ishlari boshlanmasdan oldin ossuariylar haqida mavjud bo’lgan tasavvurlarning qisqacha xulosasini V.V.Bartold o’zining so’nggi ishlaridan birida bayon qilgan. U zardushtiylikning dafn marosimi uchun mo’ljallangan uch xil bino (kata, dahma va kaus)ni tilga olib, kauslar ostadon ekanini ta’kidlagan. Manbalarga ko’ra, Bartold “pausa”larni nisbatan katta binolar deb tushungan va “ehtimol, u yerga ossuariylar — o’lik suyaklari saqlangan to’rtburchak yoki ovalsimon ossuariylar qo’yilgan”, deb hisoblagan. Mahalliy aholi ossuariyni qanday nom bilan atagani noma’lum. Bartoldning fikricha, figurali rasmlar va yozuvlar bilan bezalgan ossuariylar faqat Turkistondagina uchraydi, uning bu fikri “Turkistonda murda suyaklariga boshqa zardushtiylarga qaraganda ko’proq e’tibor qaratilgan” degan xulosaga olib keladi. Turkistonga xos ossuariylarni zardushtiylarga xos deb hisoblagan holda Bartold ularning o’ziga xos xususiyatlarini alohida ta’kidlab, bu O’rta Osiyo zardushtiyligining lokalligini ko’rsatadi, degan fikrni ilgari surgan.

Yu.A. Rapaportning ossuariylarga oid tahlillari esa Xorazmda zardushtiylik bilan mahalliy e’tiqodlar o’rtasida uyg’unlik (sinkretizm) borligini ko’rsatadi. Quyida bu uyg’unlikning ayrim misollarini ko’rib o’tamiz:

1.Ossuariylar orqali oxiratga ishonish. Zardushtiylikda inson joni o’limdan so’ng “Chinvat ko’prigi”dan o’tadi va u yaxshi yoki yomonligiga qarab taqdiri hal bo’ladi. Xorazmdagi ossuariylar (suyak idishlar) bu ishonchni aks ettirish bilan birga mahalliy ruhlar dunyosiga ishonch bilan uyg’unlashib ketgan.

2. Bezaklar va ramzlar. Ossuariylarda uchraydigan ramzlar: Olov timsoli — zardushtiylik ta’siri; Qush va hayvon tasvirlari — totemizm va mahalliy e’tiqodlar; Geometrik naqshlar — ezoterik ma’nolar va madaniy belgilar. Bu

ramzlar dinning faqat bitta oqim emas, balki ko'p xil ta'sirlarga uchraganligini ko'rsatadi.

3. Marosimlar va suyakni qayta dafn qilish. **Rapaportning ma'lum qilishicha, ba'zi holatlarda dafn qilingan shaxsning suyaklari vaqt o'tib qayta qazib olinadi va maxsus ossuariylarga joylashtiriladi. Bu marosim zardushtiylkning “poklash” g'oyasi bilan mahalliy qabilalarning ruhni tinchlantirish marosimlarining uyg'unlashuvidir.**



Avestoni o'rganish unda zardushtiylkning uzoq va murakkab shakllanish jarayoni aks etgan qatlamlilikni ko'rsatdi. Ayni o'rinda, zardushtiylk dafn marosimlari ham turli komponentlardan asta-sekin shakllangan. Vaqt o'tishi bilan bu marosimlarning diniy tushunchalari ham o'zgarib borganiga shubha yo'q. Misol uchun, jasadni hayvonlarga berish (dahma marosimi) avvalda faqat amaliy chora – o'likdan xalos bo'lish usuli bo'lgan. Ammo totemik va animistik tasavvurlar paydo bo'lganidan so'ng bu harakat o'likning totem jonzotda tirilishi va ijtimoiy guruhga qaytishini ta'minlovchi marosimga aylangan. Massagetlarning dafn urf-odatlaridagi ba'zi elementlar (masalan, Ardansura Anaxita kabi ilohlar bilan bog'lanishi) shu ruhiy evolyusiyaning izlaridir.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, Qadimgi Xorazm dini tarixi sinkretizm — turli din va e'tiqodlarning o'zaro uyg'unlashuvi jarayonining yaqqol namunasidir. Xorazmdagi ossuariylar nafaqat marosimlar va urf-odatlarining moddiy ifodasi, balki mahalliy aholining dunyoqarashi va ma'naviy qarashlarini o'rganishda muhim manba hisoblanadi. Yu.A. Rapaportning ilmiy izlanishlari va arxeologik topilmalar asosida shuni aytish mumkinki, Xorazm dini faqat zardushtiylk bilan cheklanib qolmagan. U mahalliy an'analar, anemizm, totemizm, hatto boshqa mintaqalardan kelgan diniy

g'oyalarni o'z ichiga olib, o'ziga xos sinkretik tizimni shakllantirgan. Ossuariylardagi ramzlar, suyaklarni qayta dafn qilish marosimlari va arxeologik dalillar Xorazm aholisining hayot, o'lim va oxirat to'g'risidagi falsafiy fikrlari nechog'li murakkab va boy bo'lganini ko'rsatadi. Bu jarayonni chuqurroq o'rganish, bizga nafaqat Xorazm, balki butun Markaziy Osiyo xalqlarining ma'naviy dunyosi, tarixiy taraqqiyoti va sivilizatsiyalararo aloqalarini anglashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

- [1] Rapaport Yu.A. Из истории религии древнего Хорезма (оссуарии). – Moskva: “Nauka”, 1971.
- [2] Tolstov S.P. По следам древнехорезмийской цивилизации. – М.: “Nauka”, 1948.
- [3] Askarov A.A. Древнеузбекская культура и её истоки. – Tashkent: “Fan”, 1980.
- [4] Narshaxi Abu Bakr. Tarixi Buxoro. – Toshkent: “Fan”, 1993.
- [5] Bartold V.V. Сочинения. Том III. – Moskva, 1963.
- [6] Isakov S.G. Очерки по истории культуры Узбекистана. – Toshkent: “Fan”, 1983.
- [7] Litvinskiy B.A. Культура и искусство центральной Азии в древности и средневековье. – М.: “Vost. Lit”. 1996.
- [8] Nazarov B. Xorazmdagi arxeologik topilmalarning din tarixini o'rganishdagi ahamiyati. // O'zbekiston tarixi, 2021, №4.
- [9] Modi J.J. Astodan (ostodon) va bo'ri yoki yirtqich qushlar tomonidan tarbiyalangan bolalar haqidagi qaydlar. Bombay Antropologiya va Tabiiy Tarix Jamiyati (1889 yil, 1-16 betlar); «Jamiyat Milliy Muzeyga Bushridan Malkolm jo'natgan, 3000 yillik deb atalgan fors tobuti haqida». «Bombay Antropologiya Jamiyati jurnali», 1-jild, 7-son. Bombay, 1889, 426-441-betlar.

TARIX**XORAZMDA NORASMIY BILIMLARNING O'RTA ASRDAGI
TARAQQIYOTI**

**Mamlakat
Jumaniyozova,
Urganch davlat
universiteti “Tarix”
kafedrasi professori,
tarix fanlari nomzodi.**

UO‘K 523.26

Annotatsiya: Maqolada bilimning norasmiy turi bo‘lmish marosim va mahalliy e’tiqodlarga asoslangan qismi yoritiladi. Xorazm uyg‘onish davrining mashhur namoyandalarining norasmiy bilim haqidagi qarashlari keltirilishi bilan birgalikda, bu bilimning asosiy qo‘lyozma manbasi bo‘lgan Xorazm “Fol “ kitobi haqida ma’lumot beriladi.

Аннотация: В данной статье рассмотрена часть неформального знания, основанного на ритуалах и местных верованиях. Наряду со взглядами известных деятелей Хорезмского Возрождения на неформальное знание, приводятся сведения о хорезмийской книге «Фол», являющейся основным рукописным источником этих знаний.

Annotation: This article will focus on the part of the informal type of knowledge, which is based on rituals and local beliefs. The article presents the views of famous figures of the Khorezm Renaissance on informal knowledge, as well as information about the Khorezm book "Fol", which is the main manuscript source of this knowledge.

Kalit so‘zlar: rasmiy bilim, norasmiy bilim, fol, fol turlari, shamanizm.

Ключевые слова: формальное знание, неформальное знание, гадание, виды гадания, шаманизм.

Key words: formal knowledge, informal knowledge, horoscope, types of horoscope, shamanism.

Xorazmda diniy madaniyat o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, unda islomiy va noislomiy elementlar (mahalliy avliyolarga, so‘fiy siymolar va boshqalarga sig‘inish) birgalikda yashashida namoyon bo‘ladi. Ilk o‘rta asrlarda Xorazm aholisi mahalliy diniy e’tiqodlarga amal qilgan bo‘lib, shamonizmning turli ko‘rinishlari mavjud edi. A.R.Beruniy islomdan oldingi davrlarni “johiliyat davri” yoki “ma’jusiylilik” deb atagan [1].

IX-XII asrlarda Xorazmda islom dini o‘ziga xos tarzda rivoj topib, Kaspiy bo‘yi, Volga bo‘yi, Dashti-Qipchoq, Makka, Madina, Qrim, Kashmir va

Hindiston bilan aloqalarni mustahkamlashda soʻfiylik tariqati yuqori darajada rol oʻynagan [2. 883]. Xorazmshohlarning poytaxti Koʻhna Urganchning asosiy aholisi hanafiylar va moʻtaziliylar boʻlib, uning yarim aholisi teologiya bilan shu qadar faol shugʻullanganki, hatto koʻchalarda va bozorlarda ham teologik munozaralar qizgʻin boʻlgan. Bu yerda oddiy dindorlardan farqlanadigan gʻayritabiiy xislatli ruh kishilarining maktablari va silsilalari shakllangan. Ular “ahlulloh”, “avliyo”, “ahli hol”, “ahli botin”, “arbohi tariqat”, “darvesh”, “qalandar”, “faqir”lar deb yuritilgan. Aynan soʻfiylikning oriflik deb ataluvchi qismi XIII asrlarda Xorazmda oʻzining yuksak darajasiga koʻtarildi. Ular koinot tuzilishi, odamlarning xususiyatlari, olam va odam munosabatlari, komil inson tushunchalari haqida bosh qotirib, ilohiy ilmlar bilan dunyoviy ilmlarni oʻzaro bogʻlashga harakat qilganlar. Bogʻdoddagi “Donishmandlar uyi”, Koʻhna Urganchdagi “Maʼmun akademiyasi”ning faoliyati natijasida juda katta tarjimonlik maktabi shakllandiki, natijada azaldan, empirik va psixologik davolash usullaridan foydalanadigan Xorazm aholisi bu davrda diniy-mistik davolanishning arab modulini oʻzlashtirib oldi. Arab moduli esa Makka va Madinaning qoʻshni Aleksandriya, finikiyanlar, forslar, hindlar, yahudiylar va greklarning taʼlimotlari asosida rivojlangan edi. Arab sivilizatsiyasida arab-semitlari boʻlgan yahudiylar muhim rol oʻynagan [3.9]. Turli xalqlar va eʼtiqodlar asosida yaratilgan va islom bilan boyitilgan arab meditsinasi ilmining tarjimai bilan shugʻullangan yuqoridagi akademiya olimlari xristian va yahudiylarning Aleksandriya maktabi, nestorianlar Jondisopur tibbiyot maktabi, xaldey falsafiy tabobati, alkimyogarlar, platon maktabi ilmi bilan tanishdilar. Tabobatga oid asarlarning tarjimai Oʻrta Osiyo xalqlarining tibbiy madaniyatida jiddiy oʻzgarishlar qildi. Islom dini shamanizmni qoralasa-da, uning gʻoyalaridagi diniy davolash, yaʼni soʻz orqali davolash aholining qadimiy usullariga (qohinlarning afsun bilan davolash usullariga) moslashtiriladi va islom eʼtiqodi ham mahalliy sehrli davolanishni targʻib qilishda muhim rol oʻynadi.

Bu davr tadqiqotchilari oʻrta asr islom madaniyatini ikki turga ajratadilar, yaʼni hujjatlarga asoslangan olimu ulamolarning islom madaniyati va marosimlarga asoslangan saroy islom madaniyati [4]. Shu davrdan boshlab Islomda tabobat, kasallik va afsunlar *uch qismga* boʻlindi, ularning *birinchi qismi* zaharga, *ikkinchisi afsunga*, *uchinchisi sehriga* bagʻishlandi. Islom dini va shariat asoslari zikr etilgan Qurʼoni Karim kitobi va hadislar [5] diniy tabobatda qoʻllanila boshladi. Unga oid halol va harom haqidagi bilimlar, uning inson

salomatligiga ta'siri masalalari, ruhiy buzilishlarga doir kasalliklarning sabablari, diniy davolanishda tavsiya etilayotgan va qo'llanilayotgan shifo oyatlari, "maxfiy bilimlar", folbinlik, sehr qilish, ko'z tegish va jin konseptlarini shakllanish va rivojlanish tendensiyalarini ochib berish o'sha davr tabobatini qay darajada ekanini ko'rsatadi. Bu manbalarning qimmatligi shundaki, unda empirik tabobat (asal, zafar'on va suvning foydalari) va diniy-mistik tabobatning sinkretizatsiyasi mavjud. O'zida Muhammad payg'ambarning 300 dan ortiq maslahat va ko'rsatmalari, 50 dan ortiq retseptlarni va empirik, diniy-mistik davolanishga oid 9 ta usuli jamlangan, jumladan, 8 va 9-si "nazar" va "sehr" dan davolanish masalalari ko'rsatilgan "At-Tibb al-Navabiy", ya'ni "Payg'ambar tabobati" [6] asarlari o'sha davrning eng muhim tibbiy ko'rsatmalari hisoblangan.

Biz norasmiy bilimning o'rta asrlardagi taraqqiyotini Xorazm turkiysidagi "Fol" kitobi misolida ham ko'rishimiz mumkin. Turkiyaning To'pqopi muzeyida saqlanayotgan "Fol kitobi" [7] 1362-yilda turkiy adabiyotda Xorazm turkiysida islom ta'sirida yozilgan birinchi fol kitobi bo'lib, u 129 betdan iborat. Uning dastlabki 75 varag'i "Siroj ul-qulub" deb nomlanib, 2016-yilda turkiyalik tilshunos Yaman tomonidan o'rganilgan, qolgan 58 varag'i "Folnoma" deb nomlanib, u tilshunoslik nuqtai nazaridan turkiyalik olim Onur tomonidan 2022-yilda o'rganilgan. Unda yulduz foli, devnoma (davolashning mistik usuli) bilan bir qatorda, Qur'on oyatlari va hadislar orqali diniy davolanish usullari ham berilgan. Bu qo'lyozmadan marosim mutaxassislariga qo'yilgan tabular, shartlar, marosimlar va amaliyotlar haqida yetarlicha ma'lumot olish mumkin. Bugungi kunda bunday kitoblardan 20ga yaqini Istanbulda, Anatoliyadagi "Nurusmoniya kitoblighi"da va Beyazit Devlet kitoblighi (kutubxonasi)da saqlanadi. Yevropaning Britaniya muzeyi kutubxonasida 1067 raqami bilan, "Falnama-i-Kafer-i-Sodik" ning 10 dan ortiq nusxalari esa Rossiya kutubxonalarida saqlanadi. Ular orasida "Xiva muchali" kitobi ham mavjud. "Usmonli fol kitobi" [8] ham mavjud bo'lib, u Xorazm "Folnoma"si asosida yaratilgan [8. 3-8]. Uch qismdan iborat bu kitobning birinchi qismi "Folnomalar" deb atalib, unda Qur'on foli, Kitob foli, Qur'a foli bayon etilgan. Ikkinchi qismi "Raml" deb ataladi, uchinchi qismi yulduz foli va yulduznomalar deb nomlangan. Bu qo'lyozma yozilishi jihatdan Xorazm turkiysidagi "Fol" kitobiga yaqin turadi.

Folchilar risolasidan biri "Matla-ul-Ulum" kitobi bo'lib, u N.Likoshin tomonidan Toshkent sartlaridan olib o'rganilgan. U Xorazm diniy-mistik tabiblari tomonidan qo'llaniladigan "Kenz-ul-Husayniy" asarining nusxalaridan biridir. Beruniy o'zining asarlarida Xorazmlik Xusayniy tomonidan yozilgan

“Kanzul-Husayniy” asari haqida to‘xtalib o‘tadi. As-sayyid Sulaymon al-Xusayniy qalamiga mansub bo‘lgan bu kitob aslida “Havas-ul Qur’on Kanz-ul Havas” [9] deb atalgan, ammo, Xorazm marosim mutaxassislari uni “Kanzul-Husayniy” nomi ostida qo‘llashadi. 1136 betdan iborat bo‘lgan bu kitob 4 bobdan iborat bo‘lib, uning har bir bobida muallifning kirish so‘zi ifoda etilgan. Bu asarda “maxfiy bilim”larning qanday egallanishi yoki berilishi, uning vositachilari, qo‘llanilishi, qo‘llaniladigan usullar, tilsimli duolar haqida yozilgan. Shu bilan birgalikda arab harflarining sehrli va yashirin ma’nolarini, og‘irlik o‘lchovlarini matematik va astronomik hisob-kitoblarda aniqlash tartiblari berilgan. Manbaning eng zarurligi shundaki, unda bu bilimning tarixi bir qadar to‘liqroq ifoda etilgan. Asar ko‘pgina tadqiqotchilar tomonidan yuzaki ko‘rib chiqilgan marosim yoki urf-odatlarining va “maxfiy bilim”lar bilan shug‘ullanuvchilarning amaliyotini va bilim darajasini aniqlashda yordam beradi. Shuningdek, Xorazmda mavjud “Qur’on foli”, “Kitob foli”, Qur’a foli, Yulduz foli kabi tushunchalarga oydinlik kiritadi.

O‘rta asrlarda fan, din va marosim o‘rtasida murosasiz kurashlar bo‘ldi. Oltin O‘rdaning turk hukmdorlarining so‘fizm namoyandalarining ilmlariga ixlosi baland bo‘lgan. So‘fizm namoyandalariga bo‘lgan kuchli ehtirom natijasida ularning maqbaralari paydo bo‘ldiki, aholi bu joylarni “kuch manbai” deb davolanish maskani sifatida qaradilar. Aholining shifo topuvchi maskanlari va turli kasallik va qiyinchiliklarda murojaat qilinuvchi mashhur kishilar haqida tazkiralarda bayon etilgan. Shu bilan birgalikda qadimgi Xorazm inonchlari turkiy qabilalarning inonchlari bilan boyiydi.

Tazkiranavis Farididdin Attorning “Tazkirat ul-avliyo” [10] asarida, Abduholiq G‘ijduvoniyning “Maqomati ul-Yusuf Hamadoni” [11] asarida Xorazm vohasida mashhur bo‘lgan va xorazmliklarning Sulton Uveys Qaroniy (626–657) va Yusuf Hamadoni (1048–1138) kabi bir necha avliyolari va ularning xislatlari, kishilarning kasalliklarini davolashdagi ilohiy qudrati haqida gapiriladi. O‘rta Osiyoda eng ko‘p hurmat qilinadigan avliyolardan biri – Xorazmdagi Najmiddin Kubro mozori ekanligi va u tasavvuf tariqati markazi ekanligi ta’kidlanadi. Ibn Batuta musulmonlarda it vafodorlik ramzi bo‘lsa ham, odatda, u muqaddaslashtirilmasligi, ammo ziyoratchilar “eski musulmon” bo‘lsa ham, Najmiddin Kubro iti haqidagi qadimiy rivoyatlarni rad etmaydilar”, deya ta’kidlaydi [12]. Biz uning bu asari orqali Xorazmda mavjud it bilan bog‘liq sehrli davolash ishlarining ildizlarini izlaymiz. Zotan, qadimgi Xorazm



mifalogiyasida it muhim o‘rin tutadi va u bilan bog‘liq magik davolanish (logopedik kasalliklarda, ya’ni til tutilishi, vaqtda gapirmaslik) usullaridan aholi hanuzgacha foydalanadi.

Al-Xorazmiy, Al-Farg‘oniy, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, so‘fizm allomalari Jaloliddin Rumiy, Najmiddin Kubro, Ahmad Yugnakiy, Abu Abdulloh Al-Xorazmiy, tabiblik ilmining namoyandalari Ar-Roziy, Abulxayr ibn Hammor, Abu Sahl Masihiy, Ismoil Jurjoniy, Mahmud Zamaxshariy, Umar Chag‘miniylarning asarlari ham muhim manba bo‘lib xizmat qildi. Bu allomalarning asarlaridan ruhiy xastaliklarni mehnat va mantra orqali davolash, qalb, ruh, tana, hissiyot haqidagi bilimlarni olish mumkin. Ularning fikricha, qalb insonning ichki dunyosi, ruhiy holati va his-tuyg‘ularini ifodalovchi markaz hisoblanadi, his-tuyg‘ular esa insonning aqli va qalbi bilan bevosita bog‘liq. Bu mutafakkirlarning qalb, aql va his qilish haqidagi fikrlari islom falsafasi va tibbiyotining rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan. Ular yulduzlar yoki astrologiyaga asoslangan folni rad etgan, shuningdek, bunday amaliyotlarning ilmiy asosga ega emasligini va inson hayotining faqat yulduzlar yoki tashqi kuchlar tomonidan belgilanishi fikrini inkor etganlar. Mutafakkirlarning ilm-fan va tajriba asosida, insonning salomatligi va kelajagini aniqlashda bunday mistik yondashuvlarning foydasizligini ta’kidlaganlar, yulduzlar va folni, odatda, haqiqatga mos kelmaydigan, tasodifiy va bilimga asoslanmagan deb hisoblaganlar. Shunday bo‘lsa-da, ular o‘z zamonasi nuqtai nazaridan “maxfiy bilim” konstruksiyasiga va bu ilmga befarq bo‘lmaganlar. Masalan, Zamaxshariyning yuqoridagi asaridagi “Ushbu nusxa qoralamadan oqqa ko‘chirilgan birinchi asl nusxa bo‘lib, u muborak haramda yozilgan asl Kashshof, deyiladi. Odamlar uni yuz-ko‘zlariga surtishga, uni o‘qib, osmondan barakatlar yog‘ilishi, qurg‘oqchilik yillarida yomg‘ir yog‘ishini so‘rab vasila qilishlariga loyiqdir”, degan so‘zlari yomg‘ir chaqirish duolaridan foydalanib marosim o‘tkazganliklariga ishora beradi.

Aytish joizki, bu davrda astronomiya va astrologiya faniga e’tibor katta edi. Shu sababdan olimlarning deyarli barchasi munajjimlik sohasida qalam tebratganlar, va bu sohaga u yoki bu darajada munosabat bildirganlar. A.Beruniyning asarlari tahliliy xarakterga ega bo‘lib, uning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarining “Xorazmliklarning hayitlari xususida”, “Payg‘ambarlar va payg‘ambarlikka davogarlar”, “Eroniylarning majusiyligidan oldingi hayitlari va bayramlari” deb nomlangan qismida, “At-tahfim” [13] (“Munajjimlik san’atining asosiy tushunchalari”), “Hindlarning aqlga sig‘adigan

va sig‘maydigan ishlari” asarlarida duoxon va azaimxonlarga keskin qarshi chiqadi. Bu toifa odamlarni u “yolg‘onchilar va pastkashlar” deb ataydi, shuningdek, Hindistonda bu toifa odamlar ko‘pligini va azaimxonlarning maxsus kitoblari borligini eslatib o‘tadi [14.33]. Mutaakkir axborotchilardan ilon yoki chayon chaqqanda duo va musiqa orqali davolanganlar borligini eshitgach, “bizning davrimizda unga qarshi biron narsa deyolmayсан, shunday bir davrda yashayapmizki, bu davrdagi bilimlarning hammasi qadimiy davrlarda qanday bo‘lsa, shundayligicha qolgan” [14.33], deydi. Oldiniga haqiqat bo‘lib ko‘rinadigan, ammo tajribada isbotlanmagan narsalarga amaliyotsiz ishonmaslik kerakligini ta‘kidlar ekan, olim shu bilan birga buyuk hodisalar sodir bo‘lib turishini ham inkor etmaydi. Ammo, ulug‘ mutaakkir biron ilmning, urf-odatning odamlar hayotiga jiddiy ta‘sir ko‘rsatadigan marosimlarini tekshirganda, ilmiy tahlil va qiyoslash metodlarini qo‘llaydi. O‘zining ilmiy xulosalariga qaramasdan so‘zining yakunini “Alloh ko‘proq bilguvchidir”, “Alloh o‘z rahmati bilan haqiqatga yo‘llovchidir”, deb nihoyalaydi [13.16]. Uning zamondoshlarining yozishicha, Beruniyning o‘zi birovning fikrini o‘qish va niyatini bilib olishda serfahm va o‘tkir bo‘lgan. XII asr tarixchisi Nizomiy Aruziy Samarqandiy o‘zining “Chahor maqola” nomli asarida Beruniy Mahmud G‘aznaviyning fikrini mohirlik bilan o‘qiganligi va o‘zining aql-zakovati o‘tkiriligini isbotlaganligini hikoya qilgan [15.18]. Astrologiyaga matematika va astronomiyaning samarasi deb qarash Ptolomeyning “Meva” (kvadripatrium) asarida keltirilgan [16]. Beruniy astronomik bilimlarni o‘z ustoz Ar-Roziydan olgan. Ar-Roziy esa Ptolomey metodikasi asosida dars bergan.

“Tafxim” asarining 8-bobi ahkomi nujumga bag‘ishlangan. Beruniy o‘z asarlarida munajjimlik bilan folbinlik o‘rtasida katta farqni ko‘rsatib o‘tadi. Uning astrologiyaga oid asarlarini o‘qir ekanmiz, inson tole‘ini tug‘ilish vaqtlariga qarab aniqlash juda katta astronomik va matematik amallarni bajarishni talab etishini ko‘rsatib o‘tganligiga guvoh bo‘lamiz. Beruniy folbinlarni qoralaydi. Ular biror narsani aniqlashdagi amallarni bajarishga qiynalsa, Ptolomeyning namunasidan foydalanishlarini aytadi: “Bundan ular juda qo‘pol xatolarga yo‘l qo‘yib, savol-javob usullaridan foydalanadilar, ya‘ni aldashga moyil bo‘lgan munajjimlar so‘rovchi umrini o‘tgan qismlarini oladilar va juda ko‘plab savollar beradilar, so‘ngra uch kecha uxlashga va bir kechada butun diqqatini savol berishga buyurishlarini” aytadi. Bekitilgan narsalarni topish va maxfiy fikrlarni o‘qish borasida ham ularning katta tajribaga ega bo‘lganlari va odamlari ko‘p bo‘lganlari

savol berishdagi tajribalari tufayli fikrni tez ilg'ay olishliklarini Beruniy ta'kidlab o'tadi [13]. Mutaфakkir g'ayb ilmlarini va ularni biluvchi kishilarni inkor etmaydi, ammo, ularning yolg'onchilari va bilimsizlari ko'pligini ta'kidlaydi [13.8-10]. Umuman olganda, "Tafhim" asarining 2-bobida fol, bashorat va mistik davolash jarayonida muhim rol o'ynab kelgan arab hafrlarining raqamlanishiga (harfiy numeratsiya) oid 12 ta savol-javob, 8-bobda "ahkomi nujum", ya'ni yulduzlardan hukm chiqarishga bag'ishlangan [13.7].

Ibn Sinoning "Tib qonunlari" [17] asarining barcha jildlarida (4ta jilddan iborat) xalq tabobati, kasalliklarning turlari va sabablari, ularning davolari, tana va ruhni davolash usullari (psixoterapiya, tana harakati bilan davolash, xalq tabobatida artterapiya) va ulardan tabiblar qay tarzda foydalanishi haqida ilmiy aspektdagi ma'lumotlarni ko'ramiz. Uning "Al-ishorot vat-tanbeh" (Ishoralar va tanbehlar) asari esa aynan, ilohiy bilimlar sifatiga qaratilgan. Arab sayyohi Yoqut ibn Hamaviy ham "Mo'jam ul-buldon" asarida Xorazmdagi ziyorat maskanlari va u yerlarga tashrif buyurish sabablari, tartiblari haqida gapirib, islom olamining taniqli kishilarining mozorlari odamlarning najot topuvchi maskanlariga aylanganligini aytib o'tadi.

Olimlarning fikricha, O'rta Osiyoning boshqa regionlariga qaraganda Xorazmda islomlashtirish va turklashtirish asosan adabiyotlar orqali amalga oshirilgan bo'lib, ilmiy va diniy asarlar arab va fors tilidan turkiyga tarjima qilinganligida ko'rinadi. Bugungi kunda xalpalardan tomonidan dafn va diniy marosimlarda o'qiladigan Qul Ali tomonidan 1232-yilda yozilgan "Qissai Yusuf" asari, xorazmlik shoir Rabg'uziy tomonidan yozilgan "Qissai anbiyo" asarlari turk tilida yozilgan dastlabki asarlardir [2.825]. 1363-yilda Qur'onning xorazm turkiysidagi tarjimasi paydo bo'lgan [2.87-152].

Xulosa qilib aytganda, o'rta asrlarda norasmiy bilimlar xalq bilimlarining asosiy qismi bo'lgan. Hujjatlangan rasmiy bilimning, ya'ni Qur'onning targ'ib qilinishi aholining og'zaki tarzda avlodlardan-avlodga o'tib kelayotgan norasmiy bilimlarining yozma manba va qo'llanmalarga aylanishiga sabab bo'lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Beruniy A.R. TA.1.-T.: "Fan".-1988. –B.525.
2. Маликов А. Некоторые особенности исламской культуры Хорезма в эпохи золотой орды. //Золотоординское обозрение. 2023, 11(4), -S.817-833
3. Конвер С. История арабской медицины. –Киев: Тип.я Импер.кого Университета. Св. Владимира.-1893, -S.9

2. Şimşek Y. Türkçe ilk kur'an tercümelerinden meşhed nüshasının (293 No.) Türk dili tarihindeki yeri ve önemi." Türk Dili Araştırmaları Yıllığı-Belleten, 67, 2019, pp. 87–152. (In Turkish)
4. Shoshan B. High culture and popular culture in medieval Islam // Studia Islamica 73, 1991, pg. 69.,75.
5. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf . «Qur'oni Karim» va o'zbek tilidagi ma'nolari tarjiması . –T.: «HILOL NASHR» nashriyot-matbaasi. 2017, - B.628; Rezvan M. Ye. Koran v sisteme musulmanskix magicheskiy praktik. -Sankt-Peterburg: Nauka, 2011.-S.220.
6. Mohammed Shakeel Shamsi. Tibb-e-Nabawi Part-1. Medical Guidance & Teachings of Prophet Muhammed. Copyright Forsiy tildagi qo'lyozma. Mohammed Shakeel Shamsi .May 2016. -850 pg.
7. Falnama. Turkiya. To'p qopi muzeyi kutubxonasi. Inventar. K1057.
8. Sennur Sezer. Osmanlı'da Fal ve Falnameler. -ISTANBUL: AD Kitapçılık AŞ, 1998, - sayifa 160.
9. Es Seyyid Suleyman El Husayniy. Havas-ul Kur'on Kenz-ul Xavas. Salelestiren Mustafo Varli. Turkiye. Stanbul.. Yayınevi: Esmā nashrlari. 2003. (1136 sayifa)
10. Attor F. Tazkirat ul-avliyo. – T.: G'afur G'ulom, 2013. – 464 b.
11. G'ijduvoni A. Maqomat ul-Yusuf Hamadoni. – T.: “Yangi asr avlodi”, 2003. – 46-b.
12. Ibrohimov N. Ibn Battuta va uning O'rta Osiyoga sayohati. – T.: Sharq bayozi, 1993. – 104 b.
13. Beruniy Abu Rayhon. Tafhim. Tanlangan asarlar. 6-jild. –Toshkent – Urganch - Xiva. UrDU noshirlik bo'limi, 2006.-B.293
14. Irisov A. Beruniy va Hindiston. -T.: O'zbekiston SSR Fanlar Akademiyasi nashriyoti. 1963.
15. Низами Арузи Самарканди. Собрание редкости или четыре беседы. Перевод С.И. Под.ред. А.Н.Болдырева. Под ред. А.Н.Болдырева. -М.: 1963.-S.18
16. Klavdiy Ptolomey. Almagest . –M.: Izdatelstvo: Fizmatlit, 1998. – S.671
17. Abu Ali Ibn Sino. Tib qonunlari. 2-kitob -T.: “Sharq”.2020,-B.776; O'sha muallif. Tibbiy o'gitlar.-T.: “Mehnat”, 1991.- B.190; Tibbiyot. O'quv va metodik qo'llanma. 3-kitob -T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi.1992,-B.315

TARIX**XIVA XONLIGI SOLIQ TIZIMINING RIVOJLANISHI VA UNING TRANSFORMATSIYASI**

Manzura Davletova,
Xorazm viloyati
pedagogik mahorat
markazi,
Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar
metodikasi kafedrası
katta o'qituvchisi

UO'K 523.26

Annotatsiya: Ushbu maqolada XIX asrning o'rtalaridan to so'nggi choragigacha bo'lgan davrda Xiva xonligidagi soliq tizimining shakllanishi va rivojlanishi, shuningdek uning ekspansiya ta'siridagi transformatsiyasi tahlil qilinadi.

Аннотация: В данной статье анализируется формирование и развитие налоговой системы Хивинского ханства в период с середины до последней четверти XIX века, а также её трансформация под влиянием экспансии.

Annotation: This article examines the formation and development of the tax system of the Khiva Khanate from the mid to the late 19th century, focusing on its transformation under Russian expansion.

Kalit so'zlar: Xorazm, Xiva xonligi, soliq tizimi, qo'lyozma, ekspansiya, dehqonchilik, etnik guruhlar.

Ключевые слова: Хорезм, Хивинское ханство, налоговая система, рукопись, экспансия, земледелие, этнические группы.

Key words: Khwarezm, Khiva Khanate, tax system, manuscript, expansion, agriculture, ethnic groups.

Xorazm xonligi o'zining ko'p yillik tarixi davomida murakkab siyosiy va iqtisodiy tuzumlarga ega bo'lgan. Asrlar davomida davlatning iqtisodiy asosini tashkil etgan soliq tizimi jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotini tartibga solishda muhim o'rin tutgan. Soliqlar davlat xazinasini to'ldirish, armiyani ta'minlash, davlat amaldorlarini boqish va turli ijtimoiy-iqtisodiy loyihalarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan. XIX asrning ikkinchi yarmi, ayniqsa, Xorazm xonligi uchun muhim davr bo'lib, Rossiya imperiyasining ta'siri natijasida ushbu hududda iqtisodiy va siyosiy o'zgarishlar yuz berdi. Bu davrda soliq tizimi ham turli o'zgarishlarga uchragan.

A.Boltayevning qo'lyozmasi mazkur davrdagi soliq tizimining amaldagi, ya'ni "juda tez va amaliy" tartibda olib borilgan tizimini yoritib berishi bilan alohida ahamiyatga ega. Undagi bayonlar, rasmiy hujjatlarda yozilmagan yoki unchalik aniq bo'lmagan jihatlarni ochib beradi. Aynan shu jihatdan ushbu

qo'lyozma Xorazmning XIX asr o'rtalaridagi iqtisodiy-ijtimoiy hayotini, xususan, soliq tizimining amaldagi ko'rinishlarini o'rganish uchun noyob va qimmatli manba hisoblanadi.

Yillar davomida Xiva xonligiga, 1920-yildan XXSHJga turli soliqlarni to'lab, qator majburiyatlarni bajarib kelgan turkman va qoraqalpoq yetakchilarining biri qismi, aholining XXSHJ hukumatidan norozi bo'lgan qatlami milliy chegaralanish siyosatini qo'llab-quvvatlagan bo'lsa, XXSHJning amaldagi rahbarlari va ularning tarafdorlari bu islohotga qarshi bo'lgan [3. 26 bet].

Tarixchi olim I.Alimov "O'zbekistonda vaqf mulklarining tugatilishi (1917-1929)" nomli tadqiqot ishida "Vaqf xo'jaliklari boshqaruvini nazoratga olish maqsadida XXSHJ Maorif nozirligi qoshida vaqf bo'limi tashkil etildi. Bu bo'limga vaqf xo'jaliklarini boshqarish bo'yicha ma'suliyatli vazifalar berildi. Butun Xorazm xalq vakillarining II qurultoyi (1921-yil, may) hukumatning diniy siyosatini takomillashtirdi va vaqf masalasiga aniqlik kiritdi", kabi xulosalar beradi [3].

XXSHJda din va vaqf xo'jaligi O. Sobirov, E. Qozoqovlar tomonidan tadqiqotga tortildi. "XXSR davrida bu hududdagi barcha yerli xalqlarga aloqador madrasa va an'anaviy maktablar, masjid va muqaddas qadamjolar o'z faoliyatini olib bordi. 1923-yil oktyabr oyigacha XXSR da 89 ta an'anaviy diniy maktab, 195 ta qorixona, 55 ta muqaddas joy, 645 ta masjid, 88 ta qiroatxona ishlab, ularda 189 nafar oxun, 1011 nafar mulla, 284 nafar qori, 346 nafar imom, 3395 nafar shogird faoliyat yuritayogan edi. Respublika ular ixtiyoriga 475217 tanob yer, suv, to'qay, o'tloqlarni ajratib bergan edi" [5].

Jumhuriyatning vaqf, madrasa va eski usul maktablari faoliyatiga doir E. Qozoqovning nomzodlik dissertatsiyasida asosli ilmiy xulosalar berildi: "Markazning ko'rsatmasi bilan XXSHJda 1924-yildan boshlab madrasa va eski usul maktablarining o'rniga sovet maktablarini tashkil etish jarayoni boshlangan edi. XXSHJ Xalq nozirlar kengashi 1924-yil 18-noyabrda qabul qilingan vaqf to'g'risidagi Nizomda bu g'oya o'z aksini topadi. Xorazm Respublikasi hukumati ko'rsatmasiga asoslanib, Xorazm viloyati Vaqf bo'limining vaqf to'g'risidagi asosiy qoidalarini ishlab chiqqan edi" [2].

Xorazm Xalq Sho'rolar Jumhuriyati hayotida katta o'rin tutgan savdo-sotiq va tashqi iqtisodiy aloqalar tarixi Sh. Saidovning bir qator izlanishlarida o'z aksini topdi [4]. Tadqiqotchi masalaga sovet davri tarixshunosligida shakllantirilgan



qarashlardan ancha farqlanuvchi fikrlarni ilm ahliga yetkazib bergani bilan diqqatga sazovordir [3. 92 bet].

“Solg‘it oling‘on 2 nchisig‘a hamda 3nchisig‘a bevatan dehqonlardin 10 tanob 5 tanob yerlarig‘a yuqoridag‘i oling‘on (34) tangani har tanobg‘a bo‘lib nimadin tushsa shul solg‘itni undirib olg‘onlar. Yersiz faqat joyi yeri bo‘lmag‘oni uchun 18 tangani to‘lashi bular ham yer ochib dehqonchilik qilish uchun aytilgandur. Yuqorida yozilg‘on 1 xo‘jaliq 54 tanga solg‘it to‘lagan qishloqlar tubandagicha.

“1873-yildin keyin Xiva xoni Muhammad Rahimxon II ni vaqtida Rossiyadin ko‘p miqdor rus askarlari kelib alarg‘a boshliq bo‘lib kelgan general Kaufman Xiva xonliqini Rossiyaga qo‘shib bo‘lib Muhammad Rahimxon birlan general Kaufman ikkalasini o‘rtasida 18 bobdan iborat shartnoma tuzuladi. Mazkur shartnomani 17 nchi moddasida ko‘rsatilgandur. Sayyid Muhammad Rahim Bahodirxon 12-iyun oyida 1873-yilda mamlakatdagi qullarni ozod qilmoq va mundin keyin hamma vaqt qul qilmoq va odam sotmoqliq mutlaqo yo‘q bo‘ladur deb yozib ma‘lum qilg‘on e‘lomnomasi komil barqoror turadur. Xiva mamlakatdori ushbu ish xususida qo‘llaridin kelgancha mahkamlik va ehtiyotlik bilan bajo keltirib turmoqni zimmalariga oladur deb yozilgan. Ushbu shartnomani 17-nchi moddasiga binoan Xorazm bo‘yicha xonlar va xon avlodlari va amaldorlar va beklar, qozilar va raislar va boylar tomonidan qul do‘g‘malarni sotin olib eshiklarida ishlatar edilar. Bu qullarni ko‘pchiligi eron tobe‘laridindur. Taka va turkman xalqlari eronistonni chegaralariga borib dehqonchilik qilib o‘g‘irlab olib qochib kelib, mazkur aka turkmanlari tomonidan har bir rayonlarga olib borib soturlar edi. Bu qullarni o‘g‘irlab olib kelib Xivaga keltirib sotadurg‘on alohida qul bozori deb od qo‘yilg‘on bozori bor edi. Hozirda Xiva shahrini Sayidboy minorasini orqa tamonida edi. Hozir ham shul joyda katta bozor bo‘lib turmoqda. Shul bozorga keltirib sotilgan qullarni baholari 100 tillodan 200 tillogacha, 60 tillodan 70 tilloga mazkur qulni xotini bo‘lsa, ikkalasini bahosi 100 tillodan 150 tillogacha sotin olur edilar. Mazkur yuqorida yozilgan xonlar va amaldorlar va boylar mazkur qullarni sotin olib xizmat buyururlar edi” [1].

Dehqonchilikka soliq solish va uning tafovutlari A.Boltayevning qo‘lyozmasiga ko‘ra, Xorazmda dehqonchilik bilan shug‘ullanuvchi aholidan soliq (solg‘it) yig‘ish tizimi mavjud bo‘lgan. Bu soliqning miqdori va tartibi aholining yerga egaligi, etnik mansubligi va mahalliy hududiga qarab farqlangan.

“Bevatan” dehqonlar: mazkur aholi guruhi, ya‘ni yerga ega bo‘lmagan yoki ijaraga olib dehqonchilik qilganlar uchun soliq tizimi alohida edi. Ular 10 tanob

yoki 5 tanob yerdan kelgan hosiliga qarab yuqoridagi (34) tangani har tanobga bo'lib, undirib olingan. Agar yerga ega bo'lmasa-yu, lekin dehqonchilik bilan shug'ullanish imkoniga ega bo'lsa (masalan, ijara yerlarda), ular 18 tanga to'lashga majbur bo'lganlar. Bu soliq, asosan, yerni o'zlashtirish va dehqonchilikni rivojlantirish maqsadida belgilangan bo'lishi mumkin.

54 tanga soliq to'lagan qishloqlar (O'zbek va "sort" xalqlari uchun): Qo'lyozmada keltirilishicha, bir xo'jalik 54 tanga soliq to'lagan 10 ta rayon aniq ko'rsatilgan. Bular: Xazorasp, Beshariq, Xonqo, Urganch, Xiva, G'ozibod, Gurlan, Kot, Shohobod, Xo'jayli. Bu ro'yxat, asosan, Xorazmning markaziy va o'zbeklar yashovchi tumanlarini qamrab olgan. Bu yerlarda dehqonchilik rivojlangan bo'lib, soliq yuki nisbatan yuqori bo'lgan.

36 tanga soliq to'lagan rayonlar: Boshqa 10 ta rayonda soliq miqdori 36 tanga bo'lgan. Bular: Zey, Oq masjid, Manoq, Toshhovuz, Ilonli, Fursiy, Qilichboy, Oq qum Xitoy, Qipchoq, Ko'hna Urganch. Lekin bu hududlarda soliq yuki 54 tangalik guruhdan pastroq bo'lgan. Bu farqlar, ehtimol, yerlarning hosildorligi, sug'orish imkoniyatlari yoki iqtisodiy rivojlanish darajasi bilan bog'liq bo'lgan [1].

A.Boltayevning qo'lyozmasi XIX asr o'rtalaridan so'nggi choragigacha bo'lgan davrda Xorazm xonligidagi soliq tizimining amaldagi turli guruhlar va hududlar uchun farqlanuvchi murakkab tizim ekanligini ko'rsatadi. Ma'lumotlar soliq tizimi nafaqat iqtisodiy, balki etnik va ijtimoiy masalalar bilan ham bog'liq bo'lganligini tasdiqlaydi.

"Bevatan" dehqonlar uchun belgilangan 18 tangalik soliq, yersiz fuqarolarni yer egallashga va dehqonchilikka jalb etish siyosatining bir qismi sifatida izohlanishi mumkin. Bu davlatning aholini o'troqlashtirish va qishloq xo'jaligini rivojlantirishga qaratilgan iqtisodiy siyosatini aks ettiradi.

54 tanga va 36 tanga soliq to'lagan rayonlarning taqsimoti Xorazmning iqtisodiy markazlari va chekka hududlaridagi soliq yukining farq qilganligini bildiradi. Markaziy, hosildor va sug'orish imkoniyatlari yaxshi bo'lgan hududlarda soliq miqdori yuqori bo'lishi tabiiy hol. Bu, o'sha davrdagi soliq siyosatining asosan yer va hosilga asoslanganligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, A.Boltayevning qo'lyozmasida keltirilgan ma'lumotlar Xorazmda XIX asr o'rtalaridan so'nggi choragigacha bo'lgan davrdagi soliq tizimining ancha o'ziga xos, turli ijtimoiy, etnik va iqtisodiy guruhlar uchun



farqlangan, shuningdek, tashqi siyosiy o'zgarishlar ta'sirida rivojlangan tizim bo'lganligini ko'rsatadi.

XIX asr o'rtalari hamda so'nggi choragi Xiva xonligi uchun juda muhim iqtisodiy va siyosiy o'zgarishlar davri bo'ldi. Rossiya imperiyasining ekspansiya siyosati natijasida xonlik iqtisodiy jihatdan tashqi ta'sir ostiga tushib, uning an'anaviy soliq tizimida ham jiddiy transformatsiya yuz berdi.

A.Boltayev qo'lyozmasi tahlili shuni ko'rsatadiki, soliq tizimi faqat iqtisodiy emas, balki ijtimoiy va etnik munosabatlarni ham tartibga soluvchi muhim vosita bo'lgan. Soliq stavkalari aholining yerga egaligi, etnik mansubligi va iqtisodiy imkoniyatlariga qarab farq qilgan. "Bevatan" dehqonlar uchun belgilangan maxsus to'lovlar, davlatning aholini o'troq turmush tarziga o'tkazish va dehqonchilikni rivojlantirish siyosati bilan bog'liq bo'lgan.

Natijada Xiva xonligidagi soliq tizimi XIX asr oxiriga kelib an'anaviydan ma'muriy-byurokratik tizimga o'ta boshladi. Bu esa xonlikning iqtisodiy mustaqilligini zaiflashtirib, uni Rossiya iqtisodiy tizimiga integratsiyalashuviga zamin yaratdi.

A.Boltayevning manbalari bu jarayonlarning bevosita ishtirokchisi sifatida soliq tizimining ichki mexanizmlarini yoritib berishi bilan juda qimmatlidir. Shu jihatdan ushbu tadqiqot Xorazm iqtisodiy tarixini yangi ilmiy manbalar asosida qayta baholash uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Boltayev A. № 5-daftar. O. Abdullayev shaxsiy kutubxonasida saqlanadi, Xiva shahri, qo'lyozma. – 82-varaq.
2. Qozoqov E. Xorazm Respublikasi hukumatining islom dini va ruhoniylarga nisbatan olib borgan siyosati (1920-1924 yillar): Tarix fan.nom. ... diss. –Urganch, 1996. –B. 141-142.
3. Raximov N.Sh. Xorazm Xalq Sho'rolar Jumhuriyati tarixini o'rganish muammolari va yondashuvlar (1920-2020 yillar). Monografiya/ T.: "Lesson Press" nashriyoti. 2022. 121-bet.
4. Saidov Sh. Xorazm respublikasining tashqi savdo aloqalarida sho'ro Rossiyasining mustamlakachilik siyosati (1920–1924 yillar) // O'zbekiston tarixi. – 1999, – №3. – B. 24-29;
5. Sobirov O., Qozoqov E. Davlatning dinga, dindorlarning siyosatga munosabati (1920-1924) // O'IF. 1994. –№8. – B. 39.

TARIX AHMAD DONISHNING ILMIY MEROSIDA ISLOHOTCHILIK G‘OYALARI

UO‘K 523.26



Dilnoza Jamolova,
O‘zFA Tarix instituti
direktorining
ilmiy ishlar bo‘yicha
o‘rinbosari,
tarix fanlari doktori,
professor

Annotatsiya: Ushbu maqolada buxorolik ma’rifatparvar Ahmad Donishning hayoti va faoliyati, ilmiy merosi tahlil qilinadi. Shuningdek, ilmiy merosidagi islohotchilik g‘oyalari va uning ahamiyati yoritilgan.

Аннотация: В статье анализируется жизнь и деятельность бухарского просветителя Ахмада Дониша, его научное наследие. Отмечаются реформаторские идеи и их значение в его научном наследии.

Annotation: This article analyzes the life and work of the Bukhara enlightener Ahmad Donish, as well as his scientific legacy. It also highlights the reformist ideas and their significance in his scientific legacy.

Kalit so‘zlar: Buxoro, amirlik, davlat, boshqaruv tuzilmasi, amaldorlar, kitob, ilm, islohot, g‘oya, adolatparvarlik.

Ключевые слова: Бухара, эмират, государство, административное устройство, чиновники, книга, наука, реформа, идея, справедливость.

Key words: Bukhara, Emirate, state, administrative structure, officials, book, science, reform, idea, justice..

Turon zaminida Ikkinchi Uyg‘onish davridan keyin boshlangan, qariyb 300 yil davom etgan tanazzuldan so‘ng, Buxoro amirligida 19-yuzyillik boshlaridayoq yangicha qarashlar, jamiyatni isloh qilishga oid qarashlar vujudga kela boshladi. Buxoro madrasalari mudarrisleri, taraqqiyparvar ulamolar Solih Nodir Abdulloh Xo‘jandiy, Muhammad Safar Xo‘jandiy, Domla Fozil G‘ijduvoni (1854/1855-yilda vafot etgan), Abdulmo‘min Afshondiy, Xudoyberdi Boysuniy, Bobo Rafi’ Xo‘jandiy, Sharifota hoji Buxoriylar Qur’oni Karimdagi har qanday diniy masalaga kishilar o‘zlari tushungan holda erkin fikr yuritishi kerakligi, madrasalarda o‘qitiladigan hoshiya va sharh kabi quruq mazmunga ega bo‘lgan va madrasa o‘quvchilari uchun foydasiz bo‘lgan hamda ularning 8-10 yil vaqtini bekorga oluvchi fanlarni dars jadvallaridan olib tashlash, madrasalarda Qur’oni Karim, hadis, ularning tarjimalari va islom tarixi kabi fanlar o‘tilishi, arifmetika, tarix, jo‘g‘rofiya, tabobat, handasa, mantiq, falsafa va boshqa dunyoviy fanlarni o‘tishga qarshilik ko‘rsatilmasligi haqida fikrlarni bildirganlarini ta’kidlash joiz.

Ushbu diniy-ma'rifiy islohotlarning g'oyaviy davomchisi Ahmad Donish (1827-1897) bo'lib, u ma'rifatparvar va donishmand inson edi.

Ahmad Donish Mahdum ibn Nosir 1827-yil 21-sentabrda Buxoro shahrining Ko'chai Sangin guzarida tug'ilgan. Unga onasi Sakina Abdurahmon qizi boshlang'ich ta'limni, otasi Nosir ibn Yusuf arab tilini o'rgatgan va 10 yoshida Qur'oni Karimni yod oldirib, qori qilish niyatida o'z guzaridagi maktabga bergan. Maktab domlasi Ahmad Mahdumning otasiga o'g'lining tili chuchukligini, gapirganda va o'qiganda tili tutilib qolishini, mabodo u Qur'onni yodlaganda ham yaxshi qori bo'lmasligini, shuning uchun bu fikrdan voz kechish ma'qulligini aytgan. Nosir ibn Yusuf nochor bu taklifga rozi bo'lgan. Ahmad Donish 1841-yildan boshlab madrasada bilim ola boshlaydi. O'qib yurgan chog'larida husnixat, lavha, jadvallar chizish bilan shug'ullangan va qisqa muddatda yaxshi hattot, mohir lavhakash bo'lib yetishgan. Ahmad Donish madrasalardagi rasmiy darslarga qanoat qilmay, astronomiya, handasa va hisob mutaxassislarini topib, o'qib-o'rgangan. O'zining aytishiga qaraganda, Mirza Abdulfattoh munajjim ismli kishi unga astronomiyaga oid bilimlarni o'zlashtirishga ko'maklashgan ustozidir. Qomusiy bilim sohibi bo'lganligi bois zamondoshlari tomonidan "Ahmad mahdum", "Ahmad mahdumi donish", "Ahmad mahdumi muhandis", "Ahmad mahdumi munajjim", "Ahmad kalla" nomlari bilan ulug'langan¹. Buxoroda 1917-yili bir muddat qozikalonlik qilgan Sadri Ziyo ham Ahmad Donishning ilmiy salohiyatini yuqori baholagan: "...*rasm chizishda Behzodu moniy, astronomiyada Ulug'bek Ko'ragoniy, xattotlikda Mir Ali, musiqada Zuhrai falak, jadvalshunoslikda Mir Shafe'ro Soniy, shifokorlik va tabobatda Abu Ali, sahovatda Hotam Toy, she'r yozishda Sa'di Sheroziy, nasrda Husayn Koshifiy darajasiga yetgan edi*"².

Ahmad Donish 1890-1891-yillari Sadri Ziyo, Abdulmajid Zufunun, Yahyo Xo'ja, Sodiq Xo'ja Gulshaniy, Homidbek, Abdulla Xo'ja Tahsin, Qori Abdukarim Ofarin (Do'zaxiy) dan iborat demokratik qarashdagi shogirdlari va safdoshlarini o'z atrofida birlashtirdi. Ular Donishning ma'rifatparvarlik g'oyalarini qo'llab-quvvatlab, amirlikdagi mavjud muammolarga o'z munosabatlarini bildirdilar.

Ahmad Donish 20 ga yaqin ilmiy-badiiy asarlar muallifi bo'lib, ularda jamiyatni isloh qilish haqidagi fikrlarini ilgari surgan. Uning muhim asarlaridan biri "Navodirul-vaqoe" bo'lib, 1870-1885- yillarda yozilgan³. Sadr Ziyo bu asarga quyidagicha baho bergan: "... u *"Navodir ul-vaqoe"* kitobini yozdi.

¹ Rajabov Q., Inoyatov S. Buxoro tarixi. Toshkent: Tafakkur, 2016. B. 332.

² Sadri Ziyo. Navodiri Ziyoiya. Tojik tilidan tarjima, kirish, izohlar muallifi B. Aminov. Toshkent: Bayoz, 2017. B. 60.

³ Ahmad Donish. Navodir ul-vaqoe. B. 18.

Asarning bir necha fasl boblari podshohlik va raiyatparvarlik tartibi, xodimlar-u navkarlar munosabatlari va viloyat xarobligining sabablari va mamlakat obodligining vositalari, oliy qarorgoh xizmatchilaridan loyiq e'tibor va mehr kimga qaratilishi va qaysi toifadan parhez qilish-u, uzoqlashish sodda va ravshan iboralar bilan bayon qilingan. Kitob shu qadar sodda yozilganki, undan har qanday inson foydalanishi mumkin"¹.

“Navodir ul-vaqoe” asari 23 bobdan iborat bo‘lib, mustaqil asar sifatida kitobga kiritilgan “Mamlakatni boshqarish va xalqni ma’rifatli qilish” haqidagi risola asarning eng yirik bobidir. Ushbu risolada mutafakkirning siyosiy qarashlari ifodalangan bo‘lib, muqaddima, 3 qism va xotimadan iborat. Birinchi qismda amir, raisning fe’l-atvori va boshqa davlat arboblarning xalq bilan odilona munosabatda bo‘lishlari; ikkinchi qismda hukmdorlarning askarlar, davlat arboblari va xizmatchilari bilan qanday yo‘l-yo‘riq tutishlari; uchinchi qismda shohlarning yurti, elni idora qilish usullari, adolatli bo‘lishlari lozimligi haqida so‘z boradi.

Donish risolaning muqaddimasida asar hukmdorlarga nizomnoma sifatida yozilganligini ta’kidlab, podsho va uning amaldorlarida bo‘lishi zarur bo‘lgan fazilatlarni sanab o‘tadi. U davlat amaldorlari insofli, ishonchli va to‘g‘riso‘z bo‘lsa, davlatni boshqara olishi, agar ahloqsiz, adolatsiz bo‘lsa, farmonlari va qarorlari xalqqa ta’sir etmasligini uqtiradi². Ahmad Donish “Siyosiy risola”sida islohotlarni amalga oshirishga qodir “odil hukmdor” timsolini yaratdi. Podshoh odil bo‘lishi uchun o‘nta shartga amal qilmog‘i lozim, deb ularni birma-bir sanab o‘tgan:

1. Biror masalani ko‘rib chiqqanda, ishni adolatli hal qilish uchun o‘zini shu vaziyatda ko‘ra bilish;
2. Tez, hozirjavob bo‘lib, kishilarni kuttirmaslik;
3. Shariatga qarshi chiqmaslik;
4. Yaxshilik qilish, xudbin bo‘lmaslik;
5. Olimlar, ma’rifatli donishmandlar bilan maslahatlashish;
6. Mamlakat xavfsizligini ta’minlash;
7. Ovqatlanish va kiyinish odobiga rioya qilish;
8. Qo‘pollik qilmay, har bir ishni isboti bilan ko‘rish;
9. Qo‘l ostidagilarni adolatli, vijdonli bo‘lishga chaqirgan holda o‘tgan xalifalar izidan borish;

¹ Sadri Ziyoyi. Navodiri Ziyoiya. B. 103-104.

² Ahmad Donish. Navodir ul-vaqoe. B. 38.

10. Kamtar va muruvvatli bo‘lish¹.

Shuningdek, Ahmad Donish xalq manfaatlarini ta’minlash uchun quyidagi 5 shartni bajarish lozimligini ta’kidlaydi:

- *adolatli va kuchli podsho bo‘lishi;*
- *davlat lavozimidagi shaxslar adolatli, vijdonli bo‘lishi;*
- *har bir shaharda yetarlicha tabib va shifokorlar bo‘lishi;*
- *musofir, yordamga muhtoj kishilarga g‘amxo‘r va mehribon bo‘lishlari;*
- *dehqonchilik uchun suv yetarli bo‘lishi shart².*

Ahmad Donish podshoga iqtisodiy-ijtimoiy sohaga oid ham o‘z takliflarini beradi:

1. *Banklar tashkil etish.* Bunda davlat hukmdori soliqlardan yig‘ilgan mablag‘lar hisobiga banklar tashkil etishi, hunarmandlar va savdogarlarga belgilangan muddatlarda qaytarish sharti bilan past foizli kreditlar berishi kerak³.

2. *Mehnatga qobiliyatli kishilarni ishga jalb etish.* Podshoh sog‘lom kishilarni majburiy bo‘lsa ham, yo‘l tuzatish, ko‘prik solish, binolar qurish kabi ishlarga jalb etishi lozim, deb ta’kidlaydi Ahmad Donish.

3. *Nogironlarga podshoh xazinasidan nafaqa ajratish.* Shu bilan birga ularning qobiliyatiga yarasha biror hunar o‘rgatish.

Ahmad Donish mansabdor shaxslarni lavozimlarga tayinlash bo‘yicha ham o‘z fikrlarini taqdim etgan. Jumladan, podsho nomzodni ijtimoiy kelib chiqishiga qarab emas, balki bilimi va hulqiga qarab tanlab olishi, mansabini suiste‘mol qilmasliklari uchun faoliyatlarini vaqti-vaqti bilan nazorat qilib turishi, ularga davlat xazinasidan maosh tayinlashi kerak, deb hisoblaydi⁴.

Mutaffakir konstitutsion monarxiya tarafdori bo‘lib, amirlikda Yevropa mamlakatlaridagi kabi Parlament⁵ tuzishni tavsiya qiladi va: “*Sulton bo‘lsin, albatta har bir tabaqadan vakili bo‘lsin, har bir kattaroq, muhimroq ish uchun har qavmda yig‘ilish qilsin. Dorulmashvarat (Parlament) tayinlansin, unda munosib rais bo‘lsin, har kun tabaqalar vakillari to‘planib, mamlakat ishlari, iqtisodiyoti, obodonchiligi haqida yig‘ilish qilsinlar, har bir ishning yaxshiyomon tomonlarini maslahatlashib, bir fikrga kelsinlar*”, deb yozadi⁶.

¹ Ahmad Donish. Navodir ul-vaqoe. B. 41 – 46.

² Ahmad Donish. Navodir-ul-vaqoe. B. 47-48.

³ Ahmad Donish. Navodir-ul-vaqoe. B. 49.

⁴ Ahmad Donish. Navodir-ul-vaqoe. B. 53-54.

⁵ Parlament – (inglizcha, “parliament”, fransuzcha “parlement”) vakillik muassasasi bo‘lib, qonunchilik hokimiyatini amalga oshiradi, ya’ni davlatning qonunlarini qabul qilishda mutlaq huquqqa ega bo‘ladi.

⁶ Ahmad Donish. Navodir-ul-vaqoe. B. 59-60.

Donish hukmdor huzurida bosh vazir, kirimlar va chiqimlar bo'yicha vazir, harbiy ishlar vaziri, maorif vaziri, umumiy ishlar vaziri, ichki ishlar vaziri, kanselyariya boshlig'i, bosh suv tarqatuvchi (mirobboshi) kabi yuqori lavozimlarni joriy qilishni taklif qiladi¹.

Donish amirlikning barcha mansablarini davlatning foyda-ziyoni bilan qiziqmaydigan, mamlakat va xalq uchun manfaatli bo'lmagan xushomadgo'y kishilar egallab olganligini ta'kidlab, buning oldini olish uchun ilm ahliga, hunar egalariga qobiliyatlariga yarasha mansab berish kerak, deb hisoblaydi. Ular o'z bilim va hunarlarini mamlakat taraqqiyoti yo'lida sarflaganda, mamlakat obod bo'lib, xazina boyishi va saltanat mustahkamlanib, davlatning qudrati oshishi mumkinligini ta'kidlaydi va: *“Kimning so'z va fahm quvvati kuchli bo'lsa, unday kishini elchilikka, qaysi odam shijoatli va haybatli bo'lsa, uni askar boshlig'i etib, agar insofli va diyonatli bo'lsa, qozilik va hokimlik mansablariga, agar oliyhimmat va aqlli bo'lsalar, u holda vazirlar hamda amirlar shunday odamlardan tayinlasin”*, deb yozadi².

Ahmad Donishning fikricha, davlatning eng birinchi vazifasi – xalq haqida g'amxo'rlik qilish bo'lib, buning uchun hokimlar davlat iqtisodiyotining yuksalishi, kanallar qazish, suv omborlari, yo'l, ko'priq qurish, yerlarni o'zlashtirish, yer osti boyliklarini qayta ishlash, xalqni ma'rifatli qilish, fan va texnikani rivojlantirish, maktab, maxsus o'quv yurtlari ochish haqida qayg'urishlari lozim bo'lgan. Bu bilan Ahmad Donish davlat manfaatlarining xalq hohishlariga bo'ysunishini ko'rsatgan edi³.

Ahmad Donish asarida davlat bir guruh kishining ehtiyojlarini qondirish uchun emas, xalq uchun, mamlakatni obod qilish uchun xizmat qilishi zarurligi, buning uchun hukmdor bilimdon, ma'rifatli, odil bo'lishi, qanday masalani hal qilmasin, eng avval o'zini fuqaro o'rnida, ularni esa o'z o'rnida tasavvur qilishi kerakligini shart qilib qo'ygan.

“Navodir ul-vaqoe” asarida ilm-fanga alohida bob ajratilgan bo'lib, *“Farzandlarga vasiyat. Kasb va hunarning foydalari”* deb nomlangan. Ushbu bobda bilim olishning inson hayotidagi ahamiyati ko'rsatib berilgan. Donish shariat asoslarini – eng hurmatli ilm, fiqh, din qonunchiligi, fatvo ilmi, yuridik hujjatlarni yozish ilmi, xattotlik, tibbiyot, mirzolik, astronomiya, she'riyat – ijtimoiy fikrni, inson aqli va ruhini tarbiyalovchidir, deb ta'riflaydi. Ilm o'rganishning farzligi haqida ham to'xtalib o'tadi: *“Har bir musulmon odam eng*

¹ Ahmad Donish. Navodir-ul-vaqoe. B. 63-64.

² Ahmad Donish. Navodir-ul-vaqoe. B. 64.

³ Ташкулов Дж. Туси. Дониш. Москва: Наука, 1990. С. 128.

avvalo o‘ziga zarur bo‘lgan ilmlarni o‘qishi farzdir. Shundan so‘ng tirikchilik uchun biror kasb-hunar o‘rganishi lozim. Qaysi ilm va hunar kishining aqliga, ruhiga tarbiya berar ekan, unday ilm va hunar o‘z egasini bu dunyoda ham, u dunyoda ham qo‘llab-quvvatlaydi. Agar ilm va hunar ruhga tarbiya bermay, tanni semirtirib, orzu-havasni ko‘paytirib, nafs shaytonga yordam beradigan bo‘lsa, unday ilm va hunarlar egasining ofati, Xudoning la‘natidir. Shariatda ilm o‘qishda xalqni to‘g‘ri yo‘lga solish, ularga ilm-amal o‘rgatishdan boshqasini zinhor o‘ylamanglar”¹.

Ahmad Donish Sharq xalqlari ijtimoiy-siyosiy fikrlarini umumlashtirib, Buxoro va Rossiya davlat qurilishi hamda qonunchiligini o‘rganib, o‘zining qarashlar tizimini ishlab chiqqan. Uning “Navodir ul-vaqoe” asari va undagi taraqqiyparvar g‘oyalari XIX asr oxiridagi ma‘rifatparvarlarning ijtimoiy-siyosiy qarashlari shakllanishida asosiy manba bo‘lib xizmat qilgan.

Ahmad Donishning yana bir asari Buxoro amirligi tarixiga bag‘ishlangan “Risola”si² bo‘lib, 1936-yili rus sharqshunosi Ye.E.Bertels bu asar qo‘lyozmasini topishga muvaffaq bo‘lgan va uni o‘rgangan³. 1967-yilda I.Najafova ushbu tanqidiy matn asosida asarni rus tiliga tarjima qilib, chop etgan⁴. Shuningdek, nemis olimasi Anke fon Kyugelgen tomonidan ham “Tarixiy risola” o‘rganilgan⁵. 2014-yilda ushbu asar Qiyomiddin Yo‘ldoshev tomonidan o‘zbek tiliga tarjima qilinib, nashr etilgan⁶.

Asar tanqidiy ruhda yozilganligi bois, juda tor doiradagi ziyolilar orasidagina ma‘lum bo‘lgan. O‘sha davrda yaratilgan biror-bir asar yoki tazkirada bu risola to‘g‘risida ma‘lumot uchramaydi. Ahmad Donishning “Risola”si muqaddima va 8 bobdan iborat.

Donish muqaddimada mamlakatning taraqqiy etishiga yoki tanazzulga yuz tutishiga sabab bo‘ladigan omillar to‘g‘risida fikr yuritadi. Mamlakatning

¹ Ahmad Donish. Navodir-ul-vaqoe. B. 326.

² Ahmad Donish tomonidan 1895-1897-yillarda yozilgan bu asariga nom bermagani uchun tadqiqotchilar tomonidan “Risola”, “Tarjimayi ahvoli amironi Buxoro az Amir Doniyol to asri Amir Abdulahad” (Amir Doniyoldan Amir Abdulahadgacha bo‘lgan Buxoro amirlarining tarjimai ahvoli), “Risola yo muxtasare az tarixi saltanati xonadoni Mang‘itiya” (Risola yohud Mang‘itlar sulolasi hukmronligining qisqacha tarixi), “Risolayi sayohat” (Sayohat haqida risola), “Tarixchayi Buxoro”, “Tarixcha”, “Tarixiy va tanqidiy risola” kabi nomlar bilan atab kelinmoqda.

³ Бертельс Е.Э.Рукописи произведений Ахмада Каллэ // Труды Тадж. базы АН СССР. 1936. Том 3. С. 9 – 28.

⁴ Дониш А. История мангитской династии. Перевод, предисловие и примечание И.А.Наджафовой. Душанбе: Дониш, 1967.

⁵ Анке фон Кюгельген. Легитимация среднеазиатской династии мангитов в произведениях их историков (XVIII-XIX вв.). Алматы: Дайк-Пресс, 2004.

⁶ Donish A. Risola yohud Mang‘itlar xonadoni saltanatining qisqacha tarixi. Tarjima, izohlar va kirish so‘zi muallifi Q. Yo‘ldoshev. Toshkent: O‘zME Davlat ilmiy nashriyoti, 2014.

rivojlanishida olimlarning tutgan o‘rni xususida alohida to‘xtalib o‘tadi: *“Taraqqiyot va vayronalik olam va uning ahli hayotiga ta’sir qilish orqali ming yilgacha davom etadi. Dunyo tarixining ming yilliklari, yuz yilliklari yaqinida dindor va taqvodor shaxslar har millatda yetishib chiqib, unga “ming yillik yangilovchisi” va “yuz yillik yangilovchisi” deyiladigan iqtidorli podshohlar va keng qamrovli qomusiy olimlar sifatida yangidan hayot baxsh etadilar... Shubhasiz, har bir millatda din va mazhabning rivojlanishi o’sha xalqdan yetishib chiqqan yetuk olimlar tufayli sodir bo‘ladi”*¹.

Asarning asosiy qismida Amir Doniyolbiydan Amir Abdulahadxon hukmronligi davri tarixi yoritilgan bo‘lib, yarmidan ko‘prog‘i Amir Muzaffarxon hukmronligi davri voqealari bayoniga bag‘ishlangan. Asarning bu qismida amirlikning Rossiya imperiyasi tomonidan zabt etilishi hamda XIX asr ikkinchi yarmida Buxoro amirligi ijtimoiy hayotida ro‘y bergan adolatsizliklar tanqid ostiga olinadi. Unda muallif tomonidan taklif etilgan islohot loyihalari, safar xotiralari va muallifning shaxsiy mulohazalari tez-tez uchrab turadi.

Donish Amir Doniyolbiy hukmronligi davrini qisqagina yoritgan: *“Amir Doniyol davrida amirlik poytaxti Buxoro din va davlat ishlari uchun ochiq ixtilof maydoniga aylandi”*². Haqiqatdan ham, Amir Doniyolbiy davrida yirik qabilalarning markaziy hokimiyatga qarshi qo‘zg‘olonlari odatiy holga aylangan va hukmronligining so‘nggi yillarida mamlakatda ahvol nihoyatda og‘irlashgan edi.

Donish Amir Shohmurod faoliyatiga juda yuqori baho berib, uni kelgusidagi hukmdorlarga o‘rnak qilib ko‘rsatgan. Shuning uchun ham uning davri voqealari boshqa amirlarnikiga qaraganda ancha kengroq yoritilgan: *“Islom davrida amir ma’sum Shohmurod kabi mujaddid chiqqani yo‘q. Zero, uni “Ikkinchi Umar” deb atasalar ham arziydi. Binobarin, Umar ibn Abdulazizda bo‘lmagan fazilat va xislatlar amir ma’sum Shohmurodda mavjudligini ko‘radilar. U Foruq³ adolati va Sulaymon alayhissalom faqrining kamoliga ega bo‘lib, faqr libosida amirlikda tartib o‘rnatib, zulm va dushmanlar ildizini jahonning bog‘ida yanchib tashladi hamda adolat va ehson niholini parvarish etdi”*⁴. Amir Shohmurod huquq, ahloq, ta’lim sohasiga e’tibor qaratgani boshqa manbalarda ham ko‘p ta’riflangan, jumladan, Abdulazim Somiy quyidagilarni yozadi: *“Uning hukmronligi davrida jami bid’atlar bekor qilinib, sunnati Rasul*

¹ Donish A. Risola yohud Mang‘itlar xonadoni saltanatining qisqacha tarixi. B. 12.

² Donish A. Risola yohud Mang‘itlar xonadoni saltanatining qisqacha tarixi. B. 18 – 19.

³ Foruq – Payg‘ambarimizning 4 xalifalaridan ikkinchisi Umar nazarda tutilmoqda.

⁴ Donish A. Risola yohud Mang‘itlar xonadoni saltanatining qisqacha tarixi. B. 17 – 18.



qaytadan kuchga kirdi. U shariatni mustahkamlab, tashlab qo'yilgan vaqflarni qayta tikladi, masjidlar, muqaddas qadamjolar va madrasalarni obod etdi"¹.

Ahmad Donish "Amir al-mo'minin" unvonini olgan Amir Haydar (1800-1826)ning otasi singari taqvodor bo'lib, uning siyosatini davom ettirganini ijobiy baholaydi: *"Tarixda bunday boshqaruv shakli bo'lganligi hech kimning yodida yo'q. Buning ovozi butun islom diyoriga tarqalib, turli maskanlardan odamlar ilm olish uchun Buxoroga kela boshladilar. Buxoroda diniy ilmlar, shariat qoidolari shunchalik rivojlandiki, islomiyat davrida hech bir podsholikda olimlar bunchalik yutuqlarga erishmagan edilar"*².

Ahmad Donish Amir Nasrulloh davrida o'zaro urush-janjallarga barham berilgani va Buxoro davlati markazlashib, amirlik sarhadlari kengayganligini qayd etadi. Shunga qaramay, u 1834-yilda Amir Nasrullohning sipoh ahlining mulkini musodara qilib, ularga jarima solganligi, xalqqa jabr-zulm yetkazganligini aytib, aynan shu yildan din va davlat ishlari tanazzulga yuz tutdi, deb xulosalaydi. Donish Amir Nasrullohning davlat boshqaruvida yo'l qo'ygan xatolarini qayd etgan bo'lishiga qaramay, uni qudratli hukmdor sifatida qadrlagani seziladi³.

Ahmad Donish O'rta Osiyoning Rossiya tomonidan bosib olinishi tafsilotlarini to'liq yoritmaydi. U asosiy diqqatini Amir Muzaffarxon qo'shinining qisqa fursat ichida tor-mor etilishi sabablarini ko'rsatishga qaratadi. Asarda yozilishicha, amir ham, dindorlar ham dushmanning harbiy qudrati to'g'risida aniq tasavvurga ega bo'lmagan. Qo'shin va xalq lashkarini boshqaradigan mard, jasur sarkardalar oz bo'lgan. Qariyb barcha lashkarboshilar amirning maktabdoshlari bo'lib, ular *"umrida jang maydonini ko'rmagan va o'q ovozini eshitmagan"* kishilar edi. Jang harakatlari harbiy nizom asosida tashkil etilmagan, qo'shin yangi harbiy texnika bilan qurollanmagan edi. Askarlarga juda oz miqdorda maosh ajratilgan bo'lib, ular jangda vafot etgan taqdirda ularning oilasini moddiy jihatdan ta'minlash hukumat tomonidan kafolatlanmagan, bu esa o'z navbatida, qo'shin orasida jangovarlikning susayishiga sabab bo'lgan. Eng asosiy sabab Buxoro davlatida tartib-intizomning yo'qligi, deb ko'rsatgan⁴.

Risolada Amir Muzaffar davrida amaldorlar yo'l qo'ygan adolatsizliklar, xalq ommasining huquqsizligi va qashshoqligi hayotiy misollar bilan ko'rsatib berilgan. Unda yozilishicha, amir va uning hukumati mehnatkashlarga hisobsiz

¹ Mirza Abdal Azim Sami. Tarixi Salatini-i mangitiya (Istoriya mangytskix gosudarey). S. 52.

² Donish A. Risola yohud Mang'itlar xonadoni saltanatining qisqacha tarixi. B. 17 – 18.


³ Donish A. Risola yohud Mang'itlar xonadoni saltanatining qisqacha tarixi. B. 33 – 34.

⁴ Donish A. Risola yohud Mang'itlar xonadoni saltanatining qisqacha tarixi. B. 45 – 46.

solliqlar solib, ularni xonavayron qilgan. Hatto bozorlarda ham xalqning sotish uchun keltirilgan mahsulotlari turli yo‘llar bilan o‘zlashtirilgan¹.

Aholiga suv tarqatishda yo‘l qo‘yilgan adolatsizliklar to‘g‘risida ham tanqidiy fikrlar bildirib, miroblar ariqlarga hali suv kelmasdanoq uni tozalash uchun viloyatlardan odamlarni chaqirtirishi va ishlatishi, hasharda ishtirok etganlardan tozalash ishlarida ishtirok etmaganlar qatori ikki tangadan soliq olingani va to‘plangan mablag‘ amir xazinasiga jo‘natilgani haqida ma’lumotlar beradi².

Ahmad Donish o‘z fikr-mulohazalariga xotima yasab, ushbu xulosasini taqdim etadi: *“Bu davrda islom dinida biror zamonda ro‘y bermagan, biror tarixda bitilmagan misli ko‘rilmagan zaiflik hukm surardi”*. Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, Ahmad Donish tomonidan Amir Muzaffarxon haqida yozilgan fikrlarning hammasi ham to‘g‘ri bo‘lmay, bo‘rttirib qoralab yozish holatlari ko‘zga tashlanadi. Mutafakkir mulohazalarining ayrimlarini arxiv hujjatlari, mahalliy va xorijiy manbalar inkor etadi.



Risolada Amir Abdulahadxon davri nihoyatda qisqa berilgan. Oxirida muallifning fikri shuki, hokimiyat yangi hukmdor qo‘liga o‘tgan bo‘lsa-da, raiyat ahvoli yaxshilanmagan. Ammo Amir Abdulahadxon davrida Buxoro Rossiya ta’siri ostida bo‘lsa-da, Yevropa ilm-fani, texnikasi va madaniyati kirib kelgan

¹ Donish A. Risola yohud Mang‘itlar xonadoni saltanatining qisqacha tarixi. B. 73.

² Donish A. Risola yohud Mang‘itlar xonadoni saltanatining qisqacha tarixi. B. 74.

edi. Donishning tanazzul va taraqqiyot almashinuvi borasidagi nazariyasiga binoan, hijriy 1300-yildan keyin yana rivojlanish davri boshlanishi kerak edi. Biroq, amalda bunday bo'lmaydi. Buning sababi, Donishning fikricha, o'n to'rtinchi yuzyillikning mujaddidi paydo bo'lmaganidadir. Donish bu borada yangi amir – Abdulahadga umid bog'lagan, biroq ko'p o'tmay umidi puchga chiqqan ¹. Amir Abdulahadxon mutafakkir tomonidan bildirilgan tanqidiy fikrlarga qarshi o'laroq, anchayin islohotparvar va bunyodkor hamda zamonaviylikni qo'llab-quvvatlagan hukmdorlardan biri edi.

Asar xotimasida u mang'it amirlari muqarrar ravishda halokatga mahkumdir, deya hukm chiqaradi: *“Kelajakda tirik qolganlar, xususan, amirlar, mulkdorlar tomonidan zo'rlik bilan xazinaga yig'ilgan boylik kofirlar va gunohkorlar mulkiga aylanishiga shohid bo'ladilar. Hukmdorlar, oxir-oqibat, o'z boshlarini dorda qoldiradilar, amirlar va yuqori mansabdorlar esa xor-zor bo'ladilar”* ². Yulduzlarning joylashuviga asoslanib, u kelgusida buyuk to'qnashuv va hayratomuz o'zgarishlar yuz berishi, Buxoroda podshohlik qilish mang'itlar sulolasi qo'lidan ketishini bashorat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, Ahmad Donish Buxorodagi mutaassib ruhoniylar va saroy amaldorlari tomonidan har qancha ta'qibga uchramasin, o'zining ma'rifatparvarlik, islohotchilik g'oyalarini dadillik va qat'iylik bilan olg'a suraverdi. U umrining oxiriga qadar yaratgan barcha asarlarida Buxoro davlatining ijtimoiy-siyosiy tuzumini qonuniylik, odillik, insonparvarlik asosida tubdan qayta qurish, amir hokimiyatini cheklash, Buxoroga Yevropa madaniyatini joriy etish mavzusiga qayta-qayta murojaat qilaverdi. Uning mamlakatni obodonlashtirish, xalq farovonligini ta'minlash, Buxoroni obod o'lkaga aylantirish borasida bildirgan fikrlari o'z davri uchun muhim ahamiyatga molik edi. U Buxoro jamiyati siyosiy, ijtimoiy va madaniy jihatdan inqirozga yuz burgan bir pallada o'z o'tmishdoshlari hamda zamondosh ma'rifatparvarlarning fikrlarini yangicha mazmun bilan boyitgan holda hamyurtlariga yetkazib berdi. Buxoroliklarga jamiyat hayotiga tanqidiy ko'z bilan qarash va uni ijobiy tomonga o'zgartirishga harakat qilish lozimligini ko'rsatdi hamda bu borada ularga o'mak bo'ldi.

¹ Donish A. Risola yohud Mang'itlar xonadoni saltanatining qisqacha tarixi. B. 124 – 132.

² Donish A. Risola yohud Mang'itlar xonadoni saltanatining qisqacha tarixi. B. 139.

TARIX

JADID MAKTABLARI TASHKILOTCHILARI VA HOMIYLARI



**Sayyora
SAMANDAROVA,
Filologiya fanlari
nomzodi, dotsent**

UO‘K 95(575.171)“1898/1920”

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xorazmdagi jadid maktablarining tashkilotchilari va ta’lim dargohlariga homiylik qilgan shaxslar faoliyati tahlil qilinadi. Homiylarning maktab o’qituvchilari va o’quvchilariga qilgan yordami, darslik bilan ta’minlashdagi xizmatlari yoritib beriladi.

Аннотация: В статье анализируется деятельность организаторов джадидских школ в Хорезме и лиц, оказывавших спонсорскую помощь образовательным учреждениям. Отмечена помощь спонсоров учителям и учащимся школ, а также их заслуги в обеспечении учебниками.

Annotation: This article analyzes the activities of the organizers of Jadid schools in Khorezm and the individuals who sponsored the educational institutions. The sponsors' assistance to school teachers and students, and their services in providing textbooks are highlighted.

Kalit so‘zlar: Maktab, darslik, gazeta, pedagog, o’quvchi, Qrim, Qozon, Xorazm, Xiva xoni, bosh vazir, qozikalon, mahram, homiy.

Ключевые слова: Школа, учебник, газета, учитель, ученик, Крым, Казань, Хорезм, хивинский хан, премьер-министр, казикалон, махрам, покровитель.

Key words: School, textbook, newspaper, teacher, student, Crimea, Kazan, Khorezm, Khan of Khiva, prime minister, qazikalon, mahram, patron.

Ta’lim, xususan maktabning millatni yuksaltirish, vatanni taraqqiy qildirishda ahamiyati katta. Shu bois Rossiya imperiyasi asoratidagi turkiy musulmon xalqlarni bu asoratdan chiqarish, mudroq g’ururlarni qayta uyg’otish uchun tashlangan dadil qadamlar Qrimdan boshlandi. Ya’ni, Ismoil Gaspralining matbuot, so’ngra maktab sohalariga olib kirgan yangiligi, keyinchalik imperiya hududidagi turkiylarni jipslashtiribgina qolmay, dunyo tamadduni asosida yashash, ular bilan bir safda yurish uchun boshlangan ijtimoiy-siyosiy jarayonga aylandi.

Bu jarayonlarning boshlanishi esa Qrimdagi Ismoil Gaspralining ta'lim islohotidan yangi – usuli jadid maktabidan boshlandi. Ozgina vaqt o'tib ushbu jadid maktablari Qozon, Ufa va tabiiyki O'rta Osiyo hududlarida ham tashkil etila boshlandi. Dastlab Ismoil Gaspralining jadid maktablari uchun yaratgan darslik, qo'llanmalari o'qitilgan bo'lsa, qisqa davr ichida Avloniy, Behbudiy, Ibrat, So'fizoda, Hamza Hakimzoda, Boboxxun Salimovlarning ham darsliklari yaratildi.

Tabiiyki, o'lkada jadid maktablari paydo bo'lgan davrda unga nisbatan to'siqlar ham yuzaga keldi. Bu eski-an'anaviy maktablar, rus-tuzem maktablari, madrasalar raqobatchi sifatida faoliyat ko'rsatayotgan jarayonlar edi. Shunday vaziyatda ma'rifatga intilgan xalq ishonchini qozonish, raqobat muhitida oldga intilish uchun taraqqiyparvar pedagoglarga ehtiyoj katta edi. E'tiborli jihati, shunday jarayonda xalq ichidan yangi avlod pedagoglari yetishib chiqdi. Ana shunday pedagoglar faoliyat ko'rsatadigan maktablarning tashkilotchi va homiylari ham xalq orasidagi taraqqiyparvar aslzodalar, mulkdor boylar bo'lib, ularning faoliyati tarixda muhim iz qoldirdi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD. Mavzuni yoritish uchun Qrimda nashr etilgan "Tarjimon", shuningdek Toshkentda chop qilingan "Turkestanskiy kurer" gazetalari, O'zbekiston Milliy arxivi hujjatlari, o'sha davrga oid ilmiy adabiyotlardan foydalanildi va manbalar bir-biriga taqqoslangan holda haqqoniy, ilmiy xulosalar chiqarildi.

MUHOKAMA. Jadid maktabi o'z nomi, pedagogik uslubiga ko'ra zamonaviy, yangi uslubdagi o'qitish tizimiga ega ta'lim dargohi edi. Xorazmda jadid maktablari esa aynan Feruxxon, Asfandiyor va bosh vazir Islomxo'ja, Mamat mahramlarning tashabbuslari, mablag'lari asosida tashkil etilgan va qisqa paytda o'z natijasini bergan. Ya'ni, jadid maktablari, ularning pedagoglari, o'quvchilari jamiyatdagi jarayonlarga ta'sir qiladigan kuchga aylangandi.

Ismoil Gaspralining Qrimda nashr etilgan "Tarjimon" gazetasining 1887-yil 15-avgust sonidagi xabarga ko'ra, "Xivada xon tarafidan maktab ochilib, unda bolalar rus tili o'rganadilar; maktab xon sarmoyasi bilan ta'minlanadi; maktab uchun 34 xonali bino qurilgan; 2 yil oldin Xiva xoni dunyoviy ilmlar ham o'qitiladigan yangi madrasa ochmoqchi edi, bu ishning boshi bo'lsa kerak"(1).

Matbuotdagi bu xabar Komil Xorazmiy tashabbusi va Feruxxon ijozati bilan tashkil etilgan rus-tuzem maktabiga oiddir. Yangi usuldagi jadid maktabi esa Xorazmda birinchi marotaba 1898-yilda Xiva xoni Feruxxonning xayrihohligi bilan tashkil qilingandi. Professor Zaynobiddin Abdirashidovning tadqiqotiga

ko'ra, "1898-yili Xivada orenburglik Muhammad Vafo va mulla Abdurahmon afandilar tomonidan usuli savtiya maktabi ochildi. Lekin bir oy davom etgan faoliyatidan keyin "taassubning ziyoda o'ldig'ini anglayib, Urganch shahrina ketdilar va u yerda usuli savtiya maktabi kushod etdilar".

Ya'ni, yangilikka ko'nikish, ta'lim tizimiga dastlab qiziqish sustligi bois, Xivada tashkil etilgan maktab faoliyatini Yangi Urganch shahrida davom ettiradi. Qolaversa, poytaxt shahardagi diniy ulamolarning ta'siri ham dastlab zamonaviy yangi maktablarning faoliyatiga to'sqinlik qilgandi. Aynan Yangi Urganchda ushbu maktabga qiziqishning ustunligi bu vaqtga kelib ushbu shaharning o'z davrida zamonaviy shaharga aylanayotganida hududdagi mulkdor, taraqqiyparvar insonlarning ko'pligida edi.

Shuningdek, 1905-yilda xon amaldori, ma'rifatparvar Mamat mahram Feruzxon bilan maslahatlashgan, uning roziligini olgan holda Xivada jadid maktabiga asos soladi. Mamat mahram Deshonqal'adagi uyini jadid maktabi uchun foydalanishga topshiradi. So'ngra bosh vazir Islomxo'ja ham Xivada ikkinchi bo'lib, zamonaviy bino barpo etdiradi va bu dargohni jadid maktabiga aylantiradi. Xivada dastlab tashkil etilgan usuli savtiya ta'lim maskanlari "Maktabi Mahramiya "(Mamat Mahramning maktabi), "Maktabi jadid" (Islomxo'janing mablag'iga barpo etilgan) deya xalq tomonidan nomlangan.

1907-yil 30-martda "Tarjimon" gazetasi Asfandiyorning "Xiva valiahdi usuli savtiya maktabi ochdirish uchun Barudiy madrasasini tamomlagan ikki muallimni chaqirtirdi, 25-fevralda keldilar, kelishlari bilan maktabda dars boshlaganlari haqida" gi xabarini ham chop qilgan (2).Ya'ni, valiahd shahzoda Asfandiyor ham otasi singari shoir, zamonaviy ta'limga hayrihohligi bois aynan o'zi boshqa davlat arboblari ibrat tarzida Xivada jadid maktabini tashkil qiladi. Shu tarzda 1907-yilda Xivada uchta jadid maktabi faoliyat ko'rsatar va ushbu ta'lim maskanlarida matematika, tarix, geografiya, rus tili va adabiyoti, turkiy adabiyot, islom dini tarixi fanlari o'qitilardi."Tabiiyki, o'zlarining tashkilotchiligida faoliyat olib borayotgan ushbu maktablardagi ta'lim-tarbiya, o'qitish uslublari doimo nazorat qilib borilgan. Bu borada 1907-yilning 28-mayida Asfandiyor va Islomxo'ja, 31-may kuni Qozikalon Salimoxun, mudarris, oxunlardan iborat hay'atga Xivadagi ikkala maktabning 113 nafar o'quvchisi imtihon topshirishgan hamda a'lo baho olishgan. Asfandiyor asos solgan uchinchi jadid maktabi 1907-yil bahorida faoliyatini boshlagani uchun imtihon kuz fasliga qoldirilgan. Shu faktdan ko'rinadiki, Mamat Mahram va Islomxo'jalarning jadid maktablarida jami 113 nafar o'quvchi zamonaviy jihozlangan sharoitda yangi uslubda ta'lim olishgan.

Dunyoviy fanlar asosida o'qitilayotgan bu maktab o'quvchilarining yutug'i, tabiiyki valiahd Asfandiyor va bosh vazir Islomxo'jani g'oyatda ruhlantirgan"(3). Natijada imtihondan so'ng Asfandiyor, Islomxo'ja va Qozikalon Salimoxunlar o'zaro maslahatlashib, Qozon shahridan ushbu maktablar uchun yana ikkita o'qituvchi taklif qilishga qaror qilishadi. Xorazmda jadid maktablarini ko'paytirish, o'quv jihozlari, adabiyotlari bilan ta'minlash, ulardagi ta'lim sifatini nazorat qilish uchun Ramazon Muhammad Karimzoda Xorazmdagi jadid maktablari noziri qilib tayinlangan.

Aytish mumkinki, keyinchalik sovet davrida xalq ta'limi bo'limi, boshqarmasi deya atalgan o'quv-uslubiy, ta'lim boshqaruvidagi idoraga ham aynan Xorazmlik jadidlar tomonidan Xivada asos solingandi. Ramazon Muhammad Karimzodaga bosh vazir Islomxo'ja tomonidan jadid maktablarini faqat Xivadagina emas, xonlikning boshqa hududlarida ham tashkil etish, maktablar uchun joy tanlash, zamonaviy holatda qurish, o'quv adabiyotlari bilan ta'minlash vazifasi qo'yiladi. Natijada vaqt o'tib, nafaqat Xiva va Yangi Urganch, balki Gurlan, Qo'ng'iro't, Xo'jayli, Xonqa, Toshhovuz hududlarida ham yangi usul maktablari tashkil etila boshlandi. Ismoil Gasprali Qrimdan boshlangan jadid maktablarining Xorazmda tashkil etilishini, borayotgan jarayonni "Tarjimon" gazetasida doimo yoritib, qo'llab-quvvatlab turgan.

Jumladan, 1908-yil 18-yanvarda "Tarjimon" gazetasida "Xivada usuli jadida maktablari"nomli maqola chop etilgan va undagi ma'lumotga ko'ra, 1898-yil dekabrda Orenburgdan Muhammad Rifo Karvonboshi bilan muallim Abdurahmon afandi Xivaga keldi va bir oy turdi, taassub kuchliligidan Urganchga ketdi va usuli savtiya maktabi ochib, 1 yil bola o'qitdi, vafot etdi. Keyinroq Muhammad Mahram (Mamat mahram) ochgan maktab xalq tarafidan yaxshi qabul qilindi va xalq 1907-yili valiahdga murojaat qildi, yana Muhammad Rifo Karvonboshi vositasida Qozondan ikki muallim keltirdi, maktabi mahramiy va maktabi jadidaga muallim qilib tayinlandi, bu maktablarga nozir tayinlandi, may oyida imtihonlar bo'ldi, valiahd ularni ko'rib Qozondan bir muallim chaqirib yana 1 maktab ochdi, kelayotgan may oyida rushdiya maktabi ochiladi, uning sohibi vazirlardan Islomxo'ja, muallimi Ahmad Nuriddin; "Tarjimon":valiahdning maorifparvarligi tarixga bitiladi"(4). Bu Xorazmda ta'lim sohasida yangi jarayonlarning boshlanish davriga xos Gasprali uchun quvonchli xabarlarning dastlabkisi edi. Keyinchalik u bosh vazir Islomxo'ja bilan xat orqali muloqot qilib, maktab, umuman jamiyatdagi islohotlarning borishini qo'llab, o'zining maslahatlarini berib turgan.

Shu kabi Ismoil Gasprali 1908-yilning 4-aprelida yana “Tarjimon” gazetasida maqola chop qilgan va unga ko‘ra, “O‘tgan yil Xiva xoni Qozondan ikki muallim chaqirib 2 usuli jadid maktablari ochgan, muallimlar Yusuf va Husayn afandi, 4-5 oy o‘tgach imtihonlar bo‘ldi, Husayn afandining maktabi yaxshi natijalar ko‘rsata olmadi, uni ishdan bo‘shatdi, yangidan Qozondan 3 muallim chaqirildi, ular ishga jiddiy kirishdilar”.

Ismoil Gasprali Xorazmda jadid maktablari ko‘payayotgani, ularni bevosita hukmdor Feruzxon, valiahd Asfandiyor va Islomxo‘ja singari taraqqiyparvarlar qo‘llab quvvatlayotganini e‘tirof etgan holda, “Tarjimon” gazetasining 1909-yilgi 40-sonida “maktablarning ochilishi, ko‘payishi lozim. Boqchasaroydan olingan dars kitoblari, Qozondan chaqirilgan muallimlar Xivaga endi to‘g‘ri kelmaydi, yarashmaydi. Endi Xivaning o‘zidan muallimlar yetishtirmoq kerak va Xivada chop etiladigan alifbolarni yaratmoq kerak. Bunda ham hech bir kimsa zarar ko‘rmaydi”, deya istiqbolli vazifani qo‘yadi. Shundan kelib chiqqan holda, Xorazmda jadid maktablari tashkilotchilari, homiylari va ta‘lim sohalari fidoyilari hayoti, faoliyatiga qisqacha to‘xtalib o‘tsak.

“Tarjimon” gazetasidagi tarixiy faktlardan ma‘lumki, Xiva xoni Feruzxon (1844-1910) faqat hukmdorgina emas, ma‘rifatparvar shoir va ko‘plab ilmu ijod ahlini qo‘llab-quvvatlagan, ularga zarur shart-sharoitlar yaratib bergan, davlatda o‘z davridagi yangiliklarni joriy etishga intilgan islohotchi ham bo‘lgan.

Feruzxonning bu taraqqiyparvarligi 1873-yildagi Rossiya istilosidan so‘ng ham davom etdi. Ayniqsa, Ismoil Gaspralining jadid maktablari, ulardagi o‘qitish tizimidan voqif bo‘lgach, bu ta‘lim maskanlarini Xorazmda tashkil etishga hayrihohlik ko‘rsatdi. Natijada valiahd Asfandiyor, bosh vazir Islomxo‘ja, Mamat mahram va qozikalon Salimoxunlar ham bu tashabbusni qo‘llab-quvvatlashdi. Asfandiyor hali valiahdlik davridayoq jadidlar g‘oyasi, ularning maqsad, vazifalari bilan tanishib borgan. U tabiatan otasi singari iqtidorli bo‘lib, bolaligidanoq ko‘p sohalarni o‘rganishga intilgan. Saroy tarjimoni Ahmad Agaevdan rus va turk tillarini mukammal o‘rgangan. Shuningdek, soatsoz va qilich yasovchi usta sifatida ham tanilgan. Feruzxon tomonidan qozikalon Salimoxun Asfandiyorning ustozlari qilib tayinlangandi. Otasi va hamrohlari bilan Moskva, Nijniy Novgorod, Sankt-Peterburg shaharlariga borib, iqtisodiyotga oid xalqaro ko‘rgazmalarda qatnashadi va dunyo fan-texnika yutuqlarini Xorazmgaga tadbiq etishga intiladi. 1907-yilning 30-martida “Tarjimon” gazetasida chop etilgan maqolaga ko‘ra, Asfandiyor jadid maktabi ochib, Barudiy madrasasini

bitirgan ikkita o'qituvchini Xorazmga taklif qilgan. 25-fevral kuni Xivaga kelgan o'qituvchilar maktabda o'z faoliyatini boshlashgan.

Doktor Boymirza Hayitning fikricha, "Xivaning Muhammad Rahim (Feruzxon) va Asfandiyor kabi xonlari zamonaviylik tushunchasiga qarshi emas edilar. Shu sababli jadidchilikka ham monelik qilmasdilar"(5).

1910-yil avgustda Feruzxon vafot etgach, valiahd Asfandiyorxon taxtga o'tiradi va 1918-yil oktabr oyiga qadar hukmdorlik qiladi. Bu davrda bosh vazir va qaynotasi Islomxo'ja tashabbusi bilan jadidlarni, taraqqiyparvar insonlarni qo'llab-quvvatlaydi.

Tabiiyki, jamiyatda keng miqyosda olib borilgan islohotlar, xususan ta'lim sohasi, jadid maktablari tashkil etishining chinakam fidoyisi Islomxo'ja edi. Xiva xonligining bosh vaziri va jadidlar harakatining liderlaridan biri Islomxo'ja Xorazmda eng nufuzli bo'lgan Said Otoy xo'jalardan Said Muhammadxo'ja mutavallining nabirasi, asli Xonqa bekligidan bo'lib, 1872-yilda tug'ilgan. Otasi Ibrohimxo'ja Xiva xoni Feruzxonning tog'asi, qolaversa Xonqa hokimi, keyinchalik bosh vazir lavozimida faoliyat ko'rsatgan nufuzli shaxs edi. Xivadagi maktab va madrasa tahsilini olgan Islomxo'ja oldiniga xon saroyida zakotchi sifatida ishlaydi. 1889-yilda esa 17 yoshli Islomxo'jani Feruzxon Xivadan keyin ikkinchi o'rinda turuvchi Hazoraspga hokim qilib tayinlaydi. Oradan vaqt o'tib, davlat boshqaruvida ma'lum bir tajribaga ega bo'lgan Islomxo'ja 26 yoshida Feruzxonning bosh vaziri sifatida yana Xivada faoliyatini davom ettiradi.

Xonlikdagi tamoyilga ko'ra, otasi Ibrohimxo'ja vafotidan so'ng Islomxo'ja bosh vazir lavozimiga tayinlangan. Garchi u xonning yaqin maslakdoshi bo'lsa-da, Podsho Rossiyasi mustamlakasi bo'lgan xonlikda o'z islohotlarini faqatgina Feruzxon vafotidan keyin amalga oshirishga kirishdi.

1910-yil avgust oyida Xiva xoni Muhammad Rahimxon 2-Feruzxonning vafotidan so'ng o'g'li Asfandiyor valiahd sifatida taxtga chiqadi. Asfandiyorxon Islomxo'janing qiziga uylangan bo'lib, qaynotasining qo'llab-quvvatlashi bilan xonlikda islohotlar o'tkazdi va 10 banddan iborat dasturini tasdiqlab beradi.

Shuningdek, 1910-1913-yillar oralig'ida Islomxo'janing tashabbusi va bevosita mablag'i hisobiga Xivadan tashqari Yangi Urganch, Shovot, Gurlan, Qo'ng'iro't, Toshhovuz, Xo'jayli shaharlarida ham jadid maktablari tashkil etiladi. Xivadagi jadid maktabi tamomila zamonaviy ko'rinishda bunyod etilgandi. Yangi Urganchda esa Islomxo'ja o'g'il va qiz bolalar uchun alohida jadid maktablari tashkil etadi hamda ularga 60 nafardan ortiq o'g'il-qizlar qabul etiladi.

O'quvchilarga ta'lim berish uchun Orenburg, Qozon, Toshkent, Astraxan singari shaharlardan muallimlar taklif qilinadi. Bu boradagi vaziyatni o'rgangan Amudaryo bo'limi boshlig'i Turkiston general-gubernatoriga yo'llagan ma'lumotida, "Xiva xonligidagi jadid maktablari muallimlarining qariyb yarmini tatarlar tashkil etadi. Ular xonlikda o'qituvchilik faoliyati bilan bir qatorda siyosiy tashviqot ishlarini ham olib bormoqdalar", deb yozgandi(6).



Islomxo'ja tashabbusi va moliyaviy yordami bilan tashkil etilgan rus-tuzem va jadid maktablarida eski maktabdan farqli ravishda parta, doska kabi jihozlar bo'lib, rus tili, chizmachilik, tarix, geografiya, matematika, adabiyot va boshqa fanlar o'qitilardi. Ushbu maktablarda Agaev, Abdurashidov, Ramazon Saydashev, Husayin Qo'shaev, Fotima Qo'shaeva, K. Batirov, A. Sazonov, S. So'fijonov, Yu. Ahmedov kabi o'z davrining ilg'or pedagoglari ishlashgan. Ular qo'lida yaxshi ta'lim olgan yoshlar Islomxo'janing qo'llovi bilan Orenburg, Toshkent, Peterburg shaharlariga, hattoki Bekjon

Rahmon Istanbulga o'qishga yuboriladi. Islomxo'janing o'zi ham shu zamonning eng old ziyolisi bo'lib, 1908- yili Xivaga kelgan rus sharqshunosi A.N. Samoylovich yozganidek, "Bosh vazir Islomxo'ja rus tilini yaxshi biladi, rus va musulmon tillarida nashr qilingan gazetalarni olib, ularni mutoala qilib boradi".

"1909-yilning sentabr-oktabr oylarida Xivada bo'lgan Rossiya tashqi ishlar vazirligining vakili Minorskiy ham o'z hisobotida, "Islomxo'ja rus tilida bimalol so'zlashadi. U musulmon mamlakatlarida chiqadigan adabiyotlarni sinchkovlik bilan kuzatib boradi," deyiladi. Darhaqiqat, Islomxo'ja "Tarjimon", (Qrim) "Taraqqiy", "Najot", "Turkestanskiy kurer", "Turkestanskiye vedomosti", "Turkiston viloyatining gazetasi" (Toshkent), "Vaqt" (Orenburg), "Iqtisod va taraqqiyot", "Ixdam" (Turkiya), "Habl ul-Matin" (Hindiston) kabi nashrlarni o'qib borar, ularni jadid maktablarida ham o'qitishni muallimlarga tavsiya etardi" (Umid Bekmuhammad, "Hazrat Sayyid Islomxo'ja". "Manzara" gazetasi: Urganch, 1995-yil, mart).

1908-yil dekabrda Orenburgdan Muhammad Rifo karvonboshi bilan Abdurahmon afandi nomli o'qituvchini Islomxo'ja Xivaga taklif qilgandi. Biroq Feruzxon unga Xivada emas, Yangi Urganch shahrida jadid maktabi ochishga ruxsat beradi. Ya'ni, hukmdor poytaxtdagina emas, boshqa hududlarda ham jadid maktablarni ko'paytirish, ularga o'quvchilarni jalb etish orqali keng ommani savodxon, ziyoli qilish, yangi avlodni shakllantirishga e'tibor qaratgandi. Natijada Yangi Urganchdagi jadid maktabiga yana Qozon shahridan ikki nafar-Yusuf va Husayin afandi ismli o'qituvchilar ham taklif qilinib, faoliyatini boshlab yuborishadi. Vaqt o'tib esa Xonqa, Gurlan, Xo'jayli, Qo'ng'iro't shaharlarida ham jadid maktablari o'z faoliyatini boshlaydi.

Gaspraliga xos jadid maktabini Xivada tashkil etgan taraqqiyparvar amaldor Mamat mahram edi. O'sha davrda xonlikda ikkita shu nomdagi mahram bo'lgan-birinchisini katta Mamat mahram, ikkinchisini kichik Mamat mahram deya atashgan. Jadid maktabi ochgan va me'moriy obidalar-madrasa, masjid va minora barpo ettirgani katta Mamat (Muhammad) mahram bo'lgan. Kichik Mamat mahram Feruzxon va Asfandiyorxon davrlarida saroydagi eng ishonchli amaldor darajasiga erishgan va 1912-yilda Asfandiyorxon boshliq delegatsiya tarkibida Sankt-Peterburg shahriga borgan. Katta Mamat Mahram taraqqiyparvar shaxs sifatida "Tarjimon" (Qrim), "Taraqqiy" (Toshkent) va boshqa gazetalarga obuna bo'lgan va boshqa amaldorlar, savodxon qatlamga ham gazetani targ'ib qilgan. Shuningdek, Ramazon Saydashev, Ahmad Agiev singari tatar o'qituvchilarini qo'llab-quvvatlagan holda, ular bilan maslakdoshlikda Xorazmda jadid maktablari ochilishi uchun sa'y-harakat olib borgan. 1905-yilda Deshon qal'aning janubiy-g'arbiy qismidagi Kaltaminor mahallasida masjid, madrasa, minora ham barpo ettirgan. Saroy amaldorlariga ibrat tarzida o'z uyida jadid maktabini ham 1905-yilda tashkil etgan va unda Qozon shahridan kelgan tatar o'qituvchilari ta'lim berishgan. Mamat (Muhammad) mahram 1909-yilda vafot etgan.

Xorazmdagi jadid maktablarini qo'llab-quvvatlagan shaxslar orasida Muhammad Rifo karvonboshi ham bo'lgan. U IXI asr oxiri va XX asr boshlarida Xorazmda yashab o'tgan bo'lib, Eron, Rossiya hududlariga savdogarlarning yuklarini qatnaydigan karvonga va Orenburg, Qozon, Mashhad, Xiva, Yangi Urganchdagi savdo do'konlariga egalik qilgan. Dunyo taraqqiyotini bevosita ko'rib, kuzatgan va Xorazmning ham rivojlanishi istagida o'z davri uchun zamonaviy do'konlar tashkil qilgan. Daromadidan esa jadid maktablarini ta'minlab turgan. 1898-yili Orenburg, 1907-yili Qozon shaharlaridan Xorazmdagi jadid maktablari uchun o'qituvchilarni olib kelishga boshchilik qilgan.

XX asr boshlarida Xorazmning turli hududlarida jadid maktablarining ko'payishi sabab ushbu ta'lim dargohlarini o'qituvchilar, zarur o'quv adabiyotlari bilan ta'minlash, umuman olganda barcha jadid maktablarining faoliyati bilan bog'liq ishlarga taraqqiyparvarlarni jalb etish uchun, xayriya yo'nalishidagi jamoat tashkilotiga ehtiyoj paydo bo'ldi. Shu tarzda Xorazm taraqqiyparvar mulkdorlari tomonidan "Ta'sisoti xayriya" jamiyatiga asos solindi. TA'SISOTI XAYRIYA-Xorazm jadidlarining ta'lim, ma'rifatparvarlik g'oyalarini qo'llab-quvvatlash uchun bosh vazir Islomxo'ja tashabbusi bilan 1912-yilda Xivada tashkil etilgan. Ismoil Gaspralining 1912-yil 24-fevralda "Tarjimon" gazetasida yozilishicha, "Islomxo'ja Xivada "Ta'sisoti xayriya"ni vujudga keltirish uchun o'zidan 100 ming rubl xayriya qilgan". Bosh vazirning bu saxovati, ma'rifatparvarligi bois, Husayinbek Matmurodov, Boboovun Salimov, Xudoybergan Devonov, Nazir Sholikorov, Polvonniyoz Yusupov va boshqa jadid mulkdorlari ham tashkilotni qo'llab, xayriya ishlarini olib borishgan. O'sha davrda yana "Ta'sisoti xayriya"dan tashqari, shu yo'nalishdagi "YANGI URGANCH SAVODXONLIGI JAMIYATI" ham 1913-yilda jadidlar tomonidan tashkil etilgan edi. Ushbu jamiyat tashkilotchilari Islomxo'janing o'limidan so'ng uning taraqqiyparvarlik ishi ko'lamini kengaytirish, jadid maktablari sonini ko'paytirish, ularga o'qituvchilar taklif qilish, darslik va qo'llanmalarini yaratish, maktab bitiruvchilarini xorijga yuborishni maqsad qilib olishgan.

Bu maqsad yo'lida 1914-yilda Yangi Urganchdagi zamonaviy binoda Qozon shahridan kelgan o'qituvchilar ikkinchi jadid maktabini tashkil qilishadi. Biroq, 1916-yil qo'zg'olonlari va 1917-yildan keyingi tazyiqlar sabab Chorjo'y shahriga ketib faoliyatini davom ettirishadi. Jamiyat ham 1917-yil kuzida o'z faoliyatini to'xtatadi.

NATIJALAR. Xorazmda 1898-yildan yangi usul maktabiga dastlab Xiva, so'ngra Yangi Urganch shahrida, so'ngra vohaning turli hududlarida asos solinishi faqat diniy ta'lim berib kelingan ta'lim jarayonida islohotchilik harakatini boshlab berdi. "Tarjimon" gazetasi taxlamlaridagi ma'lumotlardan ma'lum bo'ladiki, Xorazmda jadid maktablari ochish 1898-yildan boshlangan va XX asr boshlariga kelib nafaqat Xiva va Yangi Urganch, balki Gurlan, Qo'ng'iro't, Xo'jayli, To'rtko'l shaharlarida ham yangi usuldagi jadid maktablari tashkil qilingan va uning bitiruvchilari orasidan keyinchalik Xorazmdagi siyosiy jarayonlarda faol qatnashgan Bekjon Rahmon, Nizomiddinoxun, Inoyatovun, Jumanioy Ollaquliyev, Ibrohim Ollaquliyev, Qurbon Beregin, Karim Boltayev, Maryam Sultonmurodova, Olimjon Qodiriy singari ko'plab namoyandalar yetishib chiqdi. Jadid maktablari o'quvchilari orasidan Istanbul universitetida

o‘qigan Bekjon Rahmon, 1922-28-yillarda Germaniyada tahsil olish darajasiga yetgan Maryam Sultonmurodova, Olimjon Qodiriylarning yetishib chiqqani ta’lim maskanlarida o‘qitish tizimi yaxshi yo‘lga qo‘yilganining dalolatidir.

Jadid maktablari tashkilotchilari, homiylari, ta’lim maskanidagi o‘qitish tizimi, darsliklar yaratilishi, pedagoglar hayoti, faoliyati, o‘quvchilarining keyingi jarayonlardagi ishtiroki Xorazm tarixining fundamental tadqiq qilinadigan sahifalaridir.

XULOSA. Biroq Xorazmdagi jadid maktablari, ularning faoliyati bo‘yicha fundamental, alohida ilmiy tadqiqot ishi olib borilmagan. Shu o‘rinda professor Ulug‘bek Dolimovning “Turkistonda jadid maktablari” (“Universitet” nashriyoti, Toshkent, 2006-yil), Dilrabo Tursunovna Amridinova tomonidan “Samarqand jadidchilik maktabi” (“Navro‘z” nashriyoti, Toshkent, 2017-yil) monografiyalari yaratilganini mamnuniyat bilan qayd etish joiz. Qolaversa, Ulug‘bek Dolimovning 2008-yilda “Jadid maktablari: ularda ona tili va adabiyoti o‘qitishning ilmiy-nazariy hamda amaliy asoslari” mavzusidagi pedagogika fanlari doktorligi uchun tayyorlangan dissertatsiyasi o‘zbek jadidshunosligi, jadid maktablari bo‘yicha katta ilmiy yangilik bo‘lganligini ham alohida e’tirof etish kerak.

Xorazmdagi jadid maktablari, pedagoglari Turkiston, Buxoro hududlaridagidek ta’qiblarga uchramagan, ularga nisbatan Xiva xonlari Feruzxon, Asfandiyorxon va boshqa amaldorlarning munosabati ijobiy bo‘lgan. Hukmdor va a’yonlar jadid maktablarining ochilishi, ularni pedagoglar, zamonaviy o‘quv qurollari, darsliklar bilan ta’minlashga homiylik qilishgan. O‘zlari hamni jadid maktablarini, ta’limga oid jamiyatlarni tashkil etishgan. Shu bois, Xorazm jadid maktablariga oid ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish davr zarurati, pedagogika va tarix fanlari oldidagi ma’suliyatli vazifadir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. “Tarjimon” gazetasi. 1887-yil, 15-avgust.
2. “Tarjimon” gazetasi. 1907-yil, 30-mart.
3. S.Samandar, U.Bekmuhammad. “Xorazm jadidchiligi: islohotlar, ta’lim va adabiyot”, Urganch, 2024-yil.
4. “Tarjimon” gazetasi. 1908-yil, 18-yanvar.
5. Boymirza Hayit. “Turkiston Rossiya va Xitoy oralig‘ida”, “Yangi asr avlodi” nashriyoti, Toshkent, 2023-yil.
6. “Turkestanskiy kurer” gazetasi, 1913-yil, 21-avgust.

TARIX

XORAZM JADIDLARINING XONLIK DAVRIDAGI SIYOSIY KURASHLARI VA ISLOHOTLARI



**Umid
BEKMUHAMMAD,**
Tarix fanlari bo'yicha
falsafa doktori, dotsent

UO‘K 94(575.171)“1900/1924”

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xorazm jadidlarining xonlik davrida Rossiya imperiyasi mustamlakachilari, shuningdek taraqqiyotga, islohotlarga to'siq bo'lgan xon hukmdorlariga qarshi siyosiy kurashlari yoritilgan. Bosh vazir Islomxo'ja, "Yosh xivaliklar" harakati liderlari Husayinbek Matmurodov, Boboohun Salimovlarning islohotlari o'sha davrga oid manbalar, arxiv hujjatlari asosida tahlil qilinadi.

Аннотация: В данной статье освещается политическая борьба хорезмских джадидов против колонизаторов Российской империи, а также против ханских правителей, которые были препятствием для развития и реформ. Анализируются реформы премьер-министра Исламходжи и лидеров движения "Младохивинцев" Хусейнбека Матмуродова и Бобоохуна Салимова на основе источников и архивных документов того времени.

Annotation: This article examines the political struggle of the Khorezm Jadids against the colonizers of the Russian Empire, as well as against the khanate rulers who hindered progress and reforms. Particular attention is paid to the reforms of Prime Minister Islamkhoja and the leaders of the "Young Khivans" movement, Khusainbek Matmurodov and Bobookhun Salimov. The analysis is based on contemporary sources and archival documents.

Kalit so'zlar: Imperiya, xonlik, mustamlaka, islohot, taraqqiyot, siyosat, amaldorlar, dastur, iqtisod, temir yo'l, shifoxona, maktab, siyosiy kurash.

Ключевые слова: Империя, ханство, колония, реформа, развитие, политика, чиновники, программа, экономика, железная дорога, больница, школа, политическая борьба.

Key words: *Empire, khanate, colony, reform, development, politics, officials, program, economy, railway, hospital, school, political struggle.*

Jahon tarixidagi har bir davlat, jamiyat taraqqiyotidagi islohotlar davr zarurati sifatida yuzaga kelgan. Biroq, islohotlarni to'laqonli amalga oshirish hamisha to'siqlar va qarshiliklarga uchragan. Bu borada islohotchi va uning tarafdorlarida siyosiy iroda, qat'iylik bo'lsagina nazariyadagi islohot dasturlari amaliyotga joriy qilingan, konservativ kuchlar qarshiligi yengib o'tilgan. Afsuski, tarixdagi hamma islohotchilar ham o'z orzu-maqсадlariga erishib, jamiyatning rivojlanishi, davlatning taraqqiyotiga asos yarata olishmagan.

Xiva xonligi tarixida o'tkazilgan islohotlar, xususan XX asr boshlaridagi jarayon to'g'risidagi tadqiqotlarda asosan bosh vazir Islomxo'ja tomonidan jamiyatda amalga oshirilgan o'zgarishlarga alohida urg'u beriladi. Bu to'g'ri bo'lib, Xorazm taraqqiyparvarlari lideri bo'lgan Islomxo'janing islohotlari jamiyatda keskin o'zgarish, burilish davri bo'ldi. Garchi ushbu islohotlar uning vafotidan so'ng to'xtab qolgan bo'lsa-da, tarixning yorqin sahifasi bo'lib qoldi. Ayni paytda jamiyatni o'zgartirish mumkinligini keng ommaga isbotlab, keyingi davr islohotchilari uchun harakat maydoni bo'lib xizmat qildi.

Mavzuni tadqiq etishda Polvonniyozhoji Yusupov, Bobooxun Salimovlarning memuarlari, "Turkestanskiy kurer" gazetasi, M.G'oyibov, Sh.Jumaniyozov, U.Abdurahmonov, U.Bekmuhammad, S.Samandarlarning monografiyalaridagi manbalar bir-biriga taqqoslangan holda ular asosida xolis ilmiy xulosalar chiqarildi.

1910-yil avgustda 47 yil Xiva xonligiga hukmdorlik qilgan Feruzxon vafot etgach, valiahd Asfandiyorxon taxtga o'tiradi va 1918-yil oktabr oyiga qadar hukmdorlik qiladi. Asfandiyorxon hukmdorlik davrining boshlanish yillarida bosh vazir va qaynotasi Islomxo'ja tashabbusi bilan jadidlar, taraqqiyparvar insonlarni qo'llab-quvvatlashni davom ettiradi.

Xususan, Islomxo'janing islohotlar dasturini qo'llab, amaliyotga joriy etish bo'yicha imzo chekkan va Xivada pochta, telegraf, shifoxona barpo etilishi tashabbusini qo'llab-quvvatlagan.

Asfandiyorxonning davrida islohotchi sifatida tanilgan va qisqa fursat ichida shiddat bilan xonlikda islohotlar o'tkazgan bosh vazir Islomxo'ja (1872-1913) edi. Xivadagi maktab va madrasa tahsilini olgan Islomxo'ja oldiniga xon saroyida zakotchi sifatida faoliyat boshlagan. 1889-yilda esa 17 yoshli Islomxo'jani Feruzxon Xivadan keyin ikkinchi o'rinda turuvchi Hazoraspdek

muhim strategik, savdo shahriga hokim qilib tayinlaydi. Oradan vaqt o'tib, davlat boshqaruvida ma'lum bir tajribaga ega bo'lgan Islomxo'ja 26 yoshida Feruzxonning bosh vaziri sifatida yana Xivada faoliyatini davom ettiradi.

Qrimlik jadidlar lideri Ismoil Gasprali bilan maktublar orqali muloqotni yo'lga qo'ygan, "Tarjimon" va boshqa jadidlar matbuoti bilan doimo tanishib boradigan Islomxo'ja xorazmlik jadid maktablari tashkilotchilaridan edi. Uning islohot dasturiga ko'ra, poytaxt Xiva shahrining yangi loyihasi tuzilib, unga ko'ra shahar eniga uch barobar kengayishi kerak edi. 1910-1913-yillar oralig'ida Xivaning o'zida islohot dasturiga ko'ra pochta-telegraf binosi, Nurillaboyda qishki saroy, zamonaviy kasalxona, yangidan yana bitta jadid maktabi barpo etiladi.

Islomxo'janing jamiyatda keskin o'zgarishlarni boshlab bergan islohot dasturida tibbiyotga ham muhim o'rin ajratilgandi. Negaki, Xivada "1882-84-yillarda faqat xon va oila a'zolarini, amaldorlarini davolash uchun rus vrachlari Korvello, Kolponov, Kolosovskiylar, 1887-yilda shifokorlardan Popov, Kosenko, feldsher N.Kosyanenkolar, 1891-yilda I.I.Avdakushin, 1897-yilda I.Yu.Kumberg, 1901-yilda V.P.Shumeykolar ham qisqa muddat faoliyat ko'rsatishgan. Biroq ularning faoliyati uchun maxsus shifoxona barpo etilmaganligi, kerakli dori-darmonlarning Rossiyadan olib kelinishi, qolaversa voha iqlimiga ko'nikishning qiyinligi sabab, o'zlari kelgan hududlarga ketib qolishgan"(1). Tibbiyotga oid ana shu voqealardan to'la xabardor Islomxo'ja Xivada zamonaviy shifoxona ochish zarurligini, qolaversa ayollar uchun ham tibbiy ko'rikni, davolashni yo'lga qo'yish lozimligini anglab, bu ishga qa'tiy kirishdi. Tabiiyki, barpo etiladigan shifoxona milliy ko'rinishda, ammo tibbiy uskunalar bilan jihozlangan holatda bunyod qilinishi lozim edi. Shu bois, bosh vazir Islomxo'ja 1911-yilda Moskva shahriga qilgan tashrifida Soldatenkov shifoxonasiga borib, inshoatning qurilish uslubi va loyihasini ko'zdan kechiradi. 1911-yilda Asfandiyorxon Moskva shahri meri Guchkovdan shifoxona bunyod qilish uchun loyiha tayyorlashda yordam berishni so'raydi. Guchkov bo'lsa, Moskva va Sankt-Peterburgda shunday dargoh hamda boshqa inshootlarni qurishda qatnashgan me'mor A.M. Roop nomzodini tavsiya qiladi.

Shunga ko'ra, Islomxo'ja Moskvaga borib, Roop bilan maslahatlashadi. Me'mor bosh vazirdan shifoxona qurilishi uchun ajratiladigan joy to'g'risida mukammal ma'lumot oladi. Shundan so'ng Roop bor bilimini ishga solib, 1911-yilning sentabrida loyihani Xivaga yuboradi.

Loyihaga ko'ra, bino uchta alohida korpusdan-shifoxona binosi, oshxona va tibbiyot xizmatchilari uchun turar joydan iborat bo'lishi kerak edi. Rejaga muvofiq har biri 15 o'ringa ega beshta bo'lim shifoxona uchun faoliyat ko'rsatishi lozim bo'lgan. Bular zahm, ko'z kasalliklari, jarrohlik, ichki xastaliklar, qorin tifi va sibir yarasini davolash bo'limlari edi. 50 nafar erkak va 25 nafar ayolni qabul qilish, maxsus dorixona ochish ham mo'ljallangandi. Loyihaga asosan, shifoxonani qurish uchun o'sha vaqtda 250 000 so'm pul kerak bo'lgan.

Xon farmoniga ko'ra, Dishon qaladagi Ollobergan qorining bog'i sotib olinib, shu yerda Rahmonbergan mahram boshchiligida qurilish ishlari boshlab yuboriladi. 1913-yil sentabrda esa shifoxona ishga shay holga keltirilib, xalqqa to'y beriladi.

Shu tarzda 1913-yil 23-sentabr kuni tantanali ravishda ochilgan shifoxona bepul ish boshlaydi. Uning shifokori Moskva universitetini tugatib, Samara guberniyasida ishlab tajriba orttirgan, ichki kasalliklar, jarrohlik va ko'z xastaliklari bo'yicha mutaxassis Aleksey Fyodorovich Anisimov edi. Ayollarni davolash uchun esa Farg'ona viloyatida uchastka feldsher-akusherlik bo'limida ishlayotgan Ummi-Gulsum Asfandiyorova taklif qilinadi. Uning otasi Sayid Ja'far Asfandiyorov qozoq ziyolilaridan bo'lib, Turkiston general gubernatorligida harbiy tarjimon bo'lib ishlagan va ma'lum bir muddat Xiva, Buxoro hukmdorlarining tarjimoni bo'lib ham faoliyat ko'rsatgan. Otasining Xivada ishlagani ham Ummi-Gulsum uchun voha sharoitiga ko'nikishiga katta dalda, yordam bo'ldi.

1913-yildan esa Islomxo'ja taklifiga ko'ra Xivaga kelib, tibbiyot sohasidagi faoliyatini davom ettiradi. U yerda Aleksey Anisimov va Ummi-Gulsum Asfandiyorova shaxsan bosh vazir Islomxo'ja bilan shartnoma tuzib, ish boshlashadi. Ma'lumki, xonlikdagi o'sha davrdagi vaziyatga ko'ra, garchi shifokor ayol kishi bo'lsa-da, voha ayollarining tibbiy ko'rikdan o'tishi, inson sog'lig'i uchun zarur bo'lgan dori-darmonlarni iste'mol qilishi qiyinchilik bilan boshlangan. Ummi-Gulsum qozoq farzandi bo'lishiga qaramay, xorazmlik ayollar bilan o'zbek tilida muloqot qilib, ularni zamonaviy tibbiyotga ko'niktirish uchun ko'p mehnat qildi. Tabiiyki, tibbiyot borasidagi bu islohotlar jadidlar lideri Islomxo'janing sa'y-harakati tufayli yuzaga kelgan edi.

Islomxo'ja tashabbusi va moliyaviy yordami bilan tashkil etilgan jadid maktablarida eski maktabdan farqli ravishda parta, doska kabi jihozlar bo'lib, rus tili, chizmachilik, tarix, geografiya, matematika, adabiyot va boshqa fanlar o'qitilardi. Ushbu maktablarda Agayev, Abdurashidov, Ramazon Saydashev,

Husayin Qo'shayev, Fotima Qo'shayeva, K.Batirov, A.Sazonov, S.So'fijonov, Yu.Ahmedov kabi o'z davrining ilg'or pedagoglari ta'lim berganlar.

Ulardan tahsil olgan yoshlar Islomxo'janing qo'llab-quvvatlashi bilan Orenburg, Toshkent, Peterburg shaharlariga, hattoki Bekjon Rahmon Istanbulga o'qishga yuboriladi. Islomxo'janing o'zi ham shu zamonning eng old ziyolisi bo'lib, 1908-yili Xivaga kelgan rus sharqshunosi A.N.Samoylovich yozganidek, "Bosh vazir Islomxo'ja rus tilini yaxshi biladi, rus va musulmon tillarida nashr qilingan gazetalarni olib, ularni mutoala qilib boradi". 1909-yilning sentabr-oktabr oylarida Xivada bo'lgan Rossiya tashqi ishlar vazirligining vakili Minorskiy ham o'z hisobotida, "Islomxo'ja rus tilida bemalol so'zlashadi.U musulmon mamlakatlarida chiqadigan adabiyotlarni sinchkovlik bilan kuzatib boradi", deb ta'kidlaydi.

Bundan tashqari, "Islomxo'janing islohot dasturida Xorazmni markaziy shaharlar bilan bog'laydigan temir yo'l qurilishiga alohida ahamiyat berilgan. Islohotchining loyihasiga ko'ra, 1912-1913-yillari xonlik hududiga temir yo'l keltirish bilan aloqador tadqiqot ishlari o'tkaziladi. Unga binoan temir yo'l tarmog'i Chorjo'ydan xonlikning shimolidagi Qo'ng'iro't shahrigacha tortilishi va keyinchalik u davom qilinib, O'rol-To'rg'ay guberniyasi orqali Aleksandrov-Gay bilan bog'lanishi kerak edi. Temir yo'lning uzunligi 700 vyorstga yetadi. Uning qurilishini rus sanoatchilaridan A.O.Brikelmeyker va K.Ye.Nikolayevlar sheriklikda o'z zimmasiga olgan edilar."(3).

Afsuski, Islomxo'janing 1913-yildagi o'limidan so'ng bu loyiha amaliyotga joriy qilinmay qoldi.

Shuningdek, 1910–1912-yillarda bosh vazirning topshirig'iga ko'ra, tajribali miroblardan iborat komissiya tashkil etilib, xonlikdagi barcha kanal va ichki ariqlar nazoratdan o'tkaziladi. Komissiya loyqalardan tozalanadigan, ta'mirlanadigan va yangidan chiqariladigan ariqlarning aniq rejasini ishlab chiqadi va Polvon, G'ozovot, Qilich Niyozboy, Shovot kanallariga mustahkam temir ko'priklar qurishning loyihasini ishlab chiqadi. Ichki oraliq yo'llar hamda ichki ariq-yoplarga quriladigan inshootlar va ko'priklar mahalliy hokim hamda oqsoqollar zimmasiga yuklanadi. 1911-yilning bahor va kuzida Xorazmdagi barcha kanal hamda daryo qirg'og'idagi ixota dambalarda tuproq ishlari, tozalash va ta'mirlash o'tkaziladi, to'g'onlar va ko'priklar qurishga kirishiladi. 1911-yili Rossiyadan Polvon, G'ozovot, Qilich Niyozboy va Shovot kanallariga qurish uchun 4 ta ko'priikka yetadigan temir konstruksiyalar olib kelinadi.Ushbu temir

ko'priklardan ikkitasi Polvonyop va G'azavot kanallariga qurilgan edi. Shu tarzda islohot dasturining bajarilishi asta-sekin bo'lsa-da, amalga osha boshlaydi. Bu islohotlar Qrimdagi "Tarjimon", Orenburgdagi "Vaqt", Istanbuldagi "Yosh turklar"ning "Tanin" gazetalarida e'tirof etilib, taraqqiyparvarlik namunasi sifatida ko'rsatiladi.

"Turkestanskiy kurer" gazetasi 1911-yil 17-aprel sonida Xorazmda amalga oshirilayotgan islohotlarni eng zamonaviy reformalar deya baholab, Islomxo'jani buyuk reformator deb atagandi. Shu gazetaning 1913-yil avgustidagi sonida Islomxo'ja muxbirga intervyu berib, "Endilikda xonlik butun kuchini mamlakat ichki taraqqiyotiga qaratmog'i lozim. Birinchi navbatda ma'rifatga, so'ngra savdo-sanoatga. Xiva xonligini Osiyoning qoloq davlatlari qatoridan chiqarish vaqti keldi. Xalq erkin nafas olmog'i kerak" degan fikrlarni bildirgan edi.

Mustamlakachilikka qarshi isyonkorlik ruhidagi Islomxo'janing faoliyati Rossiya imperiyasi jandarmeriyasi tomonidan doimo kuzatib borilgan. Xususan, Amudaryo bo'limi tomonidan 1912-yil 12-avgustda general-gubernatorlikka yo'llangan axborotda bosh vazirning uyidagi holat haqida ham ma'lumotlar berilgan: "Vaziri Akbar Islomxo'ja jadid maktabining va uyidagi farzandlarining o'qituvchisi yosh tatar muallimi Abdurashidovning faoliyati alohida e'tiborga ega. Afsuski, Abdurashidov o'qituvchilik ishlaridan tashqari Xiva xonligining ichki siyosatida ham faol qatnashmoqda. U Islomxo'janing uyida yashab, yashirin kengash o'tkazib turadi. Bu kengashga Abdurashidov maslahatchilik va rahbarlik qiladi. Islomxo'ja ishtirokidagi kengash majlislarida asosan Xiva-Rossiya munosabatlari muhokama qilinadi. Abdurashidov yig'ilgan xivaliklar ongiga Xiva xonligini Rossiya qaramog'idan ozod qilish va xonlikni taraqqiy ettirish g'oyalarini singdirmoqda".

Tabiiyki, bunday chor mustamlakachiligi uchun zararli bo'lgan xufiya axborotlarni olgach, general gubernatorlik Abdurashidovni vohadan yo'qotish choralari ko'radi. Natijada "Amudaryo bo'limi 1913-yil yozida Abdurashidov va boshqa jadidlarni Xivadan o'z yurtlariga jo'natib yuboradi"(4). Biroq, Islomxo'janing 1913-yil 9-avgustidagi fojiali o'limi ana shu islohotlarning to'xtab qolishiga sabab bo'ldi. Biroq Islomxo'janing vafotidan so'ng taraqqiyparvarlar siyosiy kuch sifatida shakllanishda davom etishdi va dastlab harakat, keyin siyosiy partiya sifatida birlashishdi. Aynan Islomxo'jadek islohotchi vafotidan so'ng Xorazmlik jadid taraqqiyparvarlarini birlashtirib, siyosiy kuchga aylantirgan Husayinbek Matmurodov bo'ldi. U Bobo'xun Salimov, Polvonniyozhoji Yusupov va boshqa 50ga yaqin maslakdoshlarini o'z

atrofiga jipslashtirib, 1914-yilda keyinchalik partiya sifatida shakllangan “Yosh xivaliklar” harakatiga asos soldi.

Xorazm jadidlari, xususan Bobooxun Salimov, Xudoyberganbek Matniyozovlar 1916-yildagi qo‘zg‘olonda ham faollik bilan isyonkorlarni qo‘llab-quvvatladilar va siyosiy kurashni davom ettiridilar. “Yosh xivaliklar” harakatining yo‘lboshchisi Polvonniyozhoji Yusupov(1861-1936)ning xotiralariga ko‘ra, “Asfandiyorxon kayfi safosi birlan mashg‘ul bo‘laverdi. Fuqarolarning dodu faryodi osmonga chiqdi. Uning huzuridagi mahramlari ko‘ngliga tushgan jabr zulmlarini qila boshladilar. Alhosil, fuqarolar bunga toqat qila olmadilar. Shu tariqa Xudoyberganbek, Otash Mirob, Avazxonxo‘ja, Mahmudjonxo‘ja, Qozoq Salloh, Isomaddin eshon, Qutlimurod inoq, Abdullabek, Dorrobeklar boshchiligida xalq g‘alayon ko‘tardi” (5).

Natijada Xudoyberganbek, Otash mirob va uning Xo‘jayli, Mang‘it, Gurlan va xonlikning boshqa hududlaridagi maslakdoshlari 1916- yildagi xalq qo‘zg‘olonini boshlab, Asfandiyorxonni va uning navkarlari-yu, Xivadagi garnizoniga ham bas kelib, Xivani qamal qilishadi. Xon qo‘zg‘olonchilar bilan muzokara olib borib, ularning talabi - soliqlarni kamaytirishga, davlatda tartib-intizom o‘rnatishga so‘z berdi. Ammo taxtni saqlash umidida ayyorlik qilib, muzokaradagi talabni bajarish muddatini cho‘zib turdi va shundan foydalangan holda Toshkentdan general Galkin qo‘shinini yordamga chorladi. Natijada Galkinning 6000 kishilik qurollangan qo‘shini xonlikka yetib kelib, mart-aprel oylarida qo‘zg‘olonchilarga qarshi kurashga otlandi.

Xonning aytganiga ishonib, talablari qondirilishini kutib Gurlanda yurganlarida, Xudoyberganbek va Otash Mirobni dastlab hibsga olishadi. Biroq vaqt o‘tib, ular qamoqdan ozod qilinadi. Afsuski, Gurlanga kelib yashay boshlashganida, ularni izlab xon navkarlari va general Galkin qo‘shini bu yerga bostirib kelishadi. Polvonniyozhoji Yusupovning “Xotiralari”ga ko‘ra, “General Galkin Gurlanga kelib Xudoyberganbek, Qilich Inoq va Otash Miroblarni osib o‘ldirdilar”.Ushbu xalq qahramonlari Gurlan bekligi markazidagi Qora A‘lam bobo qabristoniga dafn etiladi.Garchi Xudoyberganbek va Otash Miroblar boshlagan qo‘zg‘olon mag‘lubiyatga uchragan bo‘lsa-da, biroq ular jasorati yoshlar uchun matonat va g‘urur, faxr timsoli bo‘lib qoldi.

Jipslashgan va siyosiy kuch sifatida shakllangan Xorazm jadidlarining islohotlar sari tashlangan dadil qadamlaridan yana biri davlat boshqaruvi bilan bog‘liq bo‘lib, bu boradagi harakat 1917-yilning aprel oyida boshlandi.

Ma'lumki, imperiya poytaxti Petrograddagi 1917-yil fevral inqilobidan so'ng Xivadagi rus garnizoni soldatlari ham xuddi Rossiyadagi kabi o'z sovetlarini tashkil qilishgan. Bu paytda Rossiyada Nikolay 2 taxtdan chetlatilgani bois Davlat duması deputati, huquqshunos Kerenskiy boshchiligida muvaqqat hukumat tuzilgan. Natijada imperiyaning barcha hududlari, jumladan mustamlaka Xiva xonligida ham siyosiy harakatlar, erkinliklar avj olgan edi. Polvonniyoz hoji Yusupovning "Yosh xivaliklar: quvonchlar, iztiroblar, fojialar" nomli memuariga ko'ra, "hukumatga qasamyod qilish uchun Xiva shahrida rus askarlari to'planishadi. Bu vaziyatdan foydalangan "Yosh xivaliklar" - Husayinbek Matmurodov, Nazir Sholikorov, Boboovun Salimov va boshqalar tomonidan Xivadagi harbiy otryad boshlig'i polkovnik Merzlyakovdan yordam so'rashadi. Merzlyakovning qo'llab-quvvatlashi bilan "Yosh xivaliklar"ning katta guruhi Xiva xoni saroyi oldida to'planishadi. Ular nomidan Polvonniyoz Hoji Yusupov va Nazir Sholikorovlar Asfandiyorxon huzuriga kirib, xondan davlatni konstitutsiya asosida boshqarish, xonning ayrim mulozimlarini ular qo'lga topshirilishini talab qilishadi".

Rossiyadagi siyosiy voqealar, chor hukumatining ag'darilishi va Xivadagi rus garnizonining ham "Yosh xivaliklar" tarafini olishi bois, ro'y berayotgan voqealardan xavfsiragan Asfandiyorxon "Yosh xivaliklar" talablarini qabul qilishga majbur bo'ladi hamda ular tomonidan tayyorlangan manifestga imzo chekadi. Yetti banddan iborat manifestning birinchi bandida shunday so'zlar bor edi: "Men, Xiva xoni Said Asfandiyor Bahodirxon mening sodiq fuqarolarimga "Idorai mashrutiya" berdim, toki ular o'zlari hohlagancha mamlakatni shariatga muvofiq ham zamon taqozosiga muvofiq idora qilsinlar. Chunonchi, o'zlari hohlagancha fuqarolarning maslahati bilan saylov qilib, hukumat ishlariga o'zlari hohlagan odil odamlarni tayin qilsinlar".

1917-yil 6-aprelda bu manifest Xivadagi Ko'hna Ark maydonida ko'pining kishilik xalqqa o'qib eshittiriladi. Mamlakatni boshqarishda yangi tuzilgan tashkilot - "Idorai mashrutiya"ga "Yosh xivaliklar" harakati a'zolaridan Husayinbek Matmurodov, Polvonniyozhoji Yusupov va Boboovun Salimovlar saylanadilar.

Manifestni shu joyning o'zida Asfandiyorxon va uch nafar qozi-domullo - Ibrohim xun a'lam, qozi ul-quzzot domulla Hikmatulla oxun, qozi ul-quzzot domulla Xudoybergan oxun imzolab, o'z muhrlarini bosishadi. Shu kunning o'zida Asfandiyorxon va Husayinbek Matmurodov imzosi bilan Petrogradga-Rossiya Davlat duması raisi M.V.Rodzyanko, Ministrlar kengashi raisi knyaz

Lvov, tashqi ishlar vaziri Milyukov nomiga telegramma yuborib, unda xonlik shariat asosi konstitutsiyaviy boshqaruvga o'tganligi va Nozirlar kengashi tuzilganligi ma'lum qilinadi.

Manifestda ta'kidlangan "Idorai mashrutiya"ni tashkil etishga erishgan "Yosh xivaliklar"ning o'z dasturi bo'lib, o'sha davr talablariga javob beruvchi bu dasturda xonning istibdod tuzumini tugatish, xonlar, beklar, qozilar, shahzodalar qo'lidagi ortiqcha boylikni xalq mulkiga aylantirish, yirik zamindorlar qo'lidagi ortiqcha mulklarni kambag'allarga bo'lib berish, vaqf yerlaridan tushadigan mablag'lar hisobidan xalq maorifini rivojlantirish, bolalarni bepul o'qitadigan maktablar ochish, kasalxonalar qurish, aholining kambag'al qismiga xon tomonidan tortib olingan yerlarni qaytarib berish, yo'llar va ko'priklar qurish, majburiy ishlarni bekor qilish kabi talablar ilgari surilgan edi.

Manifestda yangi jadid maktablari ochilishi, mamlakatda temir yo'l, pochta, telegraf barpo etilishi zarurligi, davlat xazinasi nazorat ostiga olinishi, barcha amaldorlarning saylanishi va maosh bilan ta'minlanishi, butun aholining shariat oldida tengligi ta'kidlangan.

"Islohotlar amalga oshirilishini nazorat qilish uchun 30 vakildan iborat muvaqqat qo'mita tashkil topadi. 8 aprelda mamlakatni boshqarish uchun Xivada "Idorai marshrutiya"-parlament (raisi-Boboovun Salimov) va Nozirlar Kengashi (raisi-Husayinbek Matmurodov) tuziladi. E'tiborli jihati, mustamlakachilardan qutilish, mustaqil davlatni tiklash uchun tashkil etilgan har ikkala tuzilma rahbarligiga jadid liderlar saylangan edilar. Polvonniyozhoji Yusupov (1861-1936)ga esa Rossiya hukumati va rus qo'shinlari bilan munosabatlarni barqarorlashtirish vazifasi yuklatilgan. Muvaqqat qo'mita tarkibiga keyinchalik yana 19 kishi, shuningdek, 7 nafar turkmanlar vakili kiritilgan.

Natijada "Yosh xivaliklar" Xiva xonligida hokimiyatni boshqaruvchi hukmron kuchga aylandi. 1917-yil mayda parlament raisi Boboovun Salimov boshchiligidagi delegatsiya Muvaqqat hukumat vakillari bilan muzokara o'tkazish uchun Toshkentga boradi.

Asfandiyorxon Muvaqqat hukumatning Xivadagi vakili general Xo'ja Mirbadalov (millati tatar) boshchiligidagi harbiy kuchlarga tayanib, iyun oyida parlamentni tarqatib yuboradi. Xon o'ziga ma'qul kishilardan yangi tarkibdagi parlament (raisi - Ortiq Oxun) va Nozirlar Kengashi (raisi-Ishoqxo'ja Xo'jaev)ni tayinlaydi va "Yosh xivaliklar"dan shafqatsiz o'ch olishga kirishadi. Husayinbek Matmurodov boshchiligidagi sobiq parlamentning 17 nafar a'zosi qamoqqa

olinadi, Boboovun Salimov muhojirlikka ketishga majbur bo'ladi, "Yosh xivaliklar" partiyasining barcha a'zolari kofir deb e'lon qilinadi.

1917-yil sentabrda Xivaga polkovnik Zaysev katta qo'shinli kazak otryadi bilan yetib keladi. 21 noyabrda "Yosh xivaliklar" ustidan "qozilarning shariat sudi" o'tkaziladi. 1917-yil noyabrda Asfandiyorxon rus kazaklari yordamida parlamentni butunlay tugatdi. Natijada xonning istibdod tuzumi bilan kurashda mag'lubiyatga uchragan "Yosh xivaliklar" butunlay mamlakatdan chiqib ketishga majbur bo'lishdi" (5).

1917-yil noyabr-dekabr oyilarida Polvonniyoz Yusupov, Nazir Sholikorov Toshkentga, Jumaniyoz Sultonmurodov-Petro-Aleksandrovs (hozirgi Qoraqalpog'istonning To'rtko'l tumani)ga qochishga majbur bo'lishadi. Xivada qolib, qochishga muvaffaq bo'lmagan "Yosh xivaliklar" partiyasining liderlaridan Husaynbek Matmurodov, Ishoqxo'ja Xo'jaev, Abdusalom Hoji Islomxo'jaev, Hoji Avazberdi Eshonov Asfandiyorxon buyrug'i bilan 1918-yil 18- mayda qatl qilinadi.

1918-yil boshlarida Toshkentda yashayotgan muhojirlikdagi jadidlarning "Yosh xivaliklar" qo'mitasi tuziladi (raisi-Polvonniyoz Yusupov). Vaziyat taqozosi bilan "Yosh xivaliklar" taktik maqsadlarni ko'zlab, najotkor kuch sifatida bolsheviklar bilan yaqinlashishga majbur bo'lishadi. To'rtko'ldagi "Yosh xivaliklar"dan bir guruhi esa 1919-yil boshida kommunistik guruh (fraksiya) tuzganligini e'lon qiladi (raisi-Jumaniyoz Sultonmurodov). Natijada To'rtko'l zavodlaridagi ishchilar qo'shilishi bilan To'rtko'ldagi "Yosh xivaliklar" partiyasi a'zolari soni orta bordi va ularni Qizil Armiya qurollantirgan holda o'z saflariga jalb etdi. Natijada bu harbiy kuch 1920-yil yanvarda daryodan o'tib, Xiva xonligiga zarba berishni boshlaydi.

"Yosh xivaliklar"ning yangi dasturiga ko'ra Xiva xoni, to'ralar va beklarga qarashli butun mol-mulkni xalqqa berish, katta boylarning yerlarini kambag'allarga taqsimlash, bepul shifoxonalar va maktablar ochish, yo'llar va ko'priklar qurish, siyosiy erkinlik, milliy tenghuquqlilik, xonlik tuzumini ag'darib tashlab, demokratik xalq hokimiyati - respublikani barpo qilish ko'zda tutildi. Vaziyatni kuzatib turgan Rossiya va Turkistonning bolshevik rahbarlari Xiva xonligini tugatib, sotsialistik tuzumga o'tkazish uchun barcha muxolif kuchlarni jipslashtirishga zo'r berib intildilar.

Natijada vaziyat taqozosi va madadni, najotni bolsheviklardan deb adashgan "Yosh xivaliklar" 1918-20-yillardagi Xiva xoni Said Abdullaxonni taxtdan qulatish, monarxiyaga chek qo'yish uchun kurashda ularga tayanishga

majbur bo'lishdi. Shu tarzda 1920-yilning fevralida Xiva xonligi tugatilgach, uning o'rniga muvaqqat inqilobiy hukumat tashkil etiladi va Xiva xonligi ag'darilib, Xorazmda respublika tuzilganligi haqida manifest e'lon qilinadi.

XULOSA. Xorazm jadidlarining namoyandasi Islomxo'janing ta'lim, irrigatsiya, yer egaligi, tibbiyot sohalaridagi islohotlari 1910-13-yillarda Xorazmni taraqqiyot tomon boshlagan bosqich bo'ldi. Ammo Islomxo'jaga qarshi xon atrofidagi mahalliy amaldorlar, qolaversa, general-gubernatorlikning Amudaryo bo'limi rahbariyati bosimlari bilan bu jarayon ko'p davom etmadi. Islomxo'janing 1913-yil avgustidagi vafotidan keyin islohotlar to'xtab qoldi. 1914-yildan taraqqiyparvar jadidlarni o'z atrofiga birlashtirgan Husayinbek Matmurodov o'sha davr taqozosiga ko'ra siyosiy kuch sifatida shakllanayotgan harakatga asos soldi va unga "Yosh xivaliklar" degan nom berildi. Ushbu harakat to xonlik tugatilguncha va 1920-24-yillardagi respublika davrida ham o'zining faoliyati bilan jamiyatga ta'sir qilib turdi. Garchi "Yosh xivaliklar" partiyasi respublika davrida rasman tugatilgan va a'zolarining aksariyati kommunistik partiyaga a'zo bo'lgan bo'lishsa-da, vatan manfaatini, yurtni taraqqiy qildirishni oliy maqsad deb bildilar. Garchi Xorazm jadidlarining xonlik davridagi faoliyati qadimchi radikal kuchlar, mustamlakachi amaldorlarga qarshi siyosiy kurash bilan kechgan bo'lsa ham, ularning islohotlari Xorazmni taraqqiyot sari boshlagan dadil bosqich sifatida tarixda qoldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. M.G'oyibov, Sh.Jumaniyozov, U.Abdurahmonov. "Xiva tibbiyoti", "Istiqlol nuri" nashriyoti, Toshkent-2013-y, 26-b.
2. "Туркестанский курьер", 1913 йил, 21 август.
3. "Туркестанский курьер", 1913 йил, 14 апрель.
4. "Туркестанский курьер", 1913 йил, 21 август.
5. P.Yusupov. "Yosh xivaliklar tarixi", "Xorazm" nashriyoti, Urganch-1999-yil, 68-bet.
6. Umid Bekmuhammad. "Xorazm jadidchilik harakati ensiklopediyasi", "Milleniumus print" nashriyoti, Urganch, 2024-yil, 180-bet.

TARIX**XORAZMDA MATBUOT SOHASINING TASHKIL TOPISHI
VA RIVOJLANISH TARIXI**

**FIRUZA
JUMANIYAZOVA,**
Xorazm Ma'mun
akademiyasi katta
ilmiy xodimi, tarix
fanlari bo'yicha
falsafa doktori
(PhD)

UO'K 811.512.133'373.2:254.2-24

Annotatsiya: Maqolada Xorazmda gazeta ishining paydo bo'lishi tarixi, nashrga mas'ul shaxslar faoliyati va dastlabki hududiy davriy nashrlar to'g'risidagi tarixiy ma'lumotlar tahlil qilinadi.

Аннотация: В статье анализируется история возникновения газетного дела в Хорезме, деятельность ответственных за издание, а также приводятся исторические сведения о первых региональных периодических изданиях.

Annotation: This article analyzes the history of newspaper production in Khorezm, the activities of those responsible for its publication, and provides historical information about the first regional periodicals.

Kalit so'zlar: davriy matbuot, Xorazm, O.Abdalov, Mulla Bekjon Rahmon, "Inqilob quyoshi", "Xorazm xabarlari", toshbosma, nashriyot.

Ключевые слова: периодические издания, Хорезм, О. Абдалов, Мулла Бекжон Рахмон, «Солнце революции», «Хорезмские вести», литография, издательство.

The keywords: periodicals, Khorezm, O. Abdalov, Mullah Bekjon Rahmon, "Solntse Revolyutsii", "Khorezmskie Vesti", lithography, publishing.

Bugungi globallashuv sharoitida internet tarmoqlarida axborot oqimi tezlashgan bo'lishiga qaramasdan, insoniyat tarixida va bugungi kunida ham davriy matbuotning o'rni va roli alohida ahamiyat kasb etadi.

Jahonda sodir bo'layotgan voqea-hodisalar internet tarmoqlari orqali tez va oson yetib kelayotgan bo'lsa ham, kun o'tib bu ma'lumotlar tarix sahifalarida saqlanib qolmaydi. Shuningdek, bu materiallar aniq dalillar asosida ham yoritilmaydi. Davriy nashrlarda chop etilgan materiallar esa yillar o'tishi bilan ham o'z ahamiyatini yo'qotmasdan, ko'plagan tadqiqotchilarga haqqoniy tarixni yoritishda manba vazifasini o'taydi.

Xorazmda gazeta ishining shakllanishi 1920-yilga to'g'ri keladi [1, b.11]. Bu ishga o'z davrining yetuk usta noshiri, matbaachisi Otajon Abdalov boshchilik

qiladi va u O'rta Osiyoda birinchi matbaaga asos soladi [2, b.22]. 1874-yilda Xivaga Muhammad Rahimxon soniyning qo'llab-quvvatlashi va rahnamoligida toshbosma usulida kitob nashr qilish uchun uskunalar keltiriladi va birinchi bo'lib 1876-yilda Farobiyning "Nisob-us-sibyon" ("Bolalar nisbasi") nomli asari matbaaxonada chop qilindi [3, b.15].

O.Abdalovning fidoyiligi natijasida 1876-1910-yillar davomida Xiva matbaasida 10 dan ortiq: 1880-yilda A.Navoiyning "Hamsa" asaridagi "Hayrat-ul Abror" qismi, 1881-yilda "Hazoyin-ul Maoniy", 1882-yilda "Chor devon" va Muhammadrizo Erniyozbek o'g'li Ogahiyning "Taviz-ul oshiqin", 1897-yilda Muhammad Rahimxon Feruzning g'azallari va 1900-yilda "Majmuat ush-shuaro" nomli kitoblar toshbosma usuli orqali nashr qilindi [3, b.16].

Shuningdek, O.Abdalov tarixiy hujjatlarni, Xiva shahrida o'zbek, rus, turkman, qoraqalpoq tillarida nashr qilinadigan gazetalarni chop qilish ishlariga ham boshchilik qildi.


Adabiyotlar tahlili. Xorazmda gazeta ishining paydo bo'lishi va rivojlanish jarayoni bo'yicha bir qancha qisqa ma'lumotlar keltirilgan maqolalar nashr qilindi. Ularda O.Abdalovning matbaachilikka asos solishi, gazeta va jurnallar nashr qilishga boshchilik qilgani to'g'risida ma'lumotlar berildi. Jumladan, U.Bekmuhammad va S.Samandar hammuallifligida nashr qilingan "Matbaachilik asoschisi va jadid ma'rifatparvari" nomli risolada O.Abdalovning hayoti va faoliyati, matbaachilikka asos solishi, unga gazeta va jurnallar nashr qilishda ko'maklashgan insonlar to'g'risida ma'lumot berilgan bo'lsa [2, b.148], yana o'sha mualliflarning "Xorazm matbaachiligi va matbuoti tarixi" nomli risolasida ham Xorazmda matbuot ishining paydo bo'lishi va unga boshchilik qilgan tarixiy shaxslar faoliyati, matbaachilik va matbuot, O.Abdalov merosi yoki uning Umar Qurboniy bilan hamkorligi va shu kabi boshqa masalalar yoritilgan [4, b.88]. Bundan tashqari tadqiqotchi D.Atamurotovaning maqolalarida gazeta ishi bo'yicha qisqacha materiallar berilgan [5, b.75-78].

Metodlar. Xorazm viloyati tumanlarida nashr qilingan gazetalari va ularning sahifalarida keltirilgan maqolalar tarixiy-qiyosiy tahlil metodidan foydalangan holda o'rganildi.

Tahlil va natijalar. 1920-yil 8-martda Otajon Abdalov va Mulla Bekjon Rahmon Xorazmda ilk nashr hisoblangan "Inqilob quyoshi" gazetasining birinchi sonini chop qilishdi. Gazetaning o'lchami dastlab toshbosma o'lchamida 30x42,5 sm bo'lgan va u haftada bir marotaba uch yuz nusxada chiqarilgan [1, b.11]. Ushbu gazetaning nashr qilinishi mutaxassislardan og'ir qo'l mehnati va katta kuch talab qilgan. Chunki og'ir qolip (tosh)ni qo'lda bosmaga tayyorlash, keyingi

sahifa uchun toshlarni o'zgartirish, bosish uchun bo'yoq tayyorlash lozim edi [6, b. 108]. Bu esa o'z navbatida ko'p vaqtni olgan.

Bu davrda davriy nashr materiallarining kam chop qilinishiga sabab matbaa texnikasining kamligi, ularda ishlay oladigan kadrlarning yo'qligi, shuningdek, barcha ishlarning qo'l mehnatiga asoslanganligi edi. Shunday qiyin sharoitga qaramay, O.Abdalov, O.Rahimov, O.Miskinov kabi tajribali mutaxassislar toshbosma usulida gazeta bosishni yo'lga qo'yidilar. 1923-yilda O.Abdalov dastlab Toshkentda, keyin Moskvada matbaachilik bo'yicha malaka oshirib, o'z tajribasini N.Shamsutdinov va S.Halimovlarga o'rgatadi [6, b. 108].



Xorazm hukumati iltimosiga ko'ra yangi bosmaxona uchun jihozlar, elektromotor va harflar yuboriladi [7, b.3]. Shundan so'ng Xorazmda matbaa ishlari rivojlana boshlaydi. Xorazmga 1921-yilning oktabr oyida va 1922-yilning sentabr oyida ikki juft matbaa uskunolari bilan birgalikda matbaachi mutaxassislar, 700 kg ruscha va o'zbekcha (arab alifbosida) harflar, kichik elektr yoritgich va bosma mashinasi keltirildi [6, b.109]. Turkiston hukumati yo'llanmasi bilan Xorazmga kelgan va "Inqilob quyoshi" gazetasiga bosh muharrirlik qilgan Afzal Tohirov ham matbaachilikda faoliyat ko'rsatdi.

1921-1922-yillarda Turkiston hukumatinin farmoyishi bilan Xivaga Toshkentdan 100-150 pud arab va rus harflari hamda bosma mashina keltirildi. Ushbu asbob-anjomlarni Aleksey Ivanovich Salopov olib keldi. Otajon Abdalovga mahalliy millat vakillaridan matbaaxona uchun mutaxassis tayyorlash ishiga A. Salopov va Gustav Shneydel yordam berdi [8, b.39]. Bu davrga kelib matbaaxonada yangi kadrlar: Otamaxsum Yusupov, Sadaddin Obidov, Rahimbergan Xudoyberganov, Mahmud Abdullin, Rahmonqul Otajonovlar yetishib chiqdi. "Inqilob quyoshi" gazetasining 1923-yil 1-may soni yangi bosmaxona harflari bilan terilib, tegelli bosma mashinada bosilishi Xorazm matbuoti tarixida yangi davr boshlanganligining dalili edi.

Xorazmda 1924-yilning oxirlarigacha "Inqilob quyoshi" gazetasidan tashqari yana bir qancha gazetalar nashr qilingan. Jumladan, 1920-yilning oktabr oyidan Rosta (Rossiya telegraf agentligi gazetasi), Xorazm sho'rolar

jumhuriyatining qaror va buyruqlari berilgan byulleten-gazeta, 1921-yilning iyul oyidan “Izvestiya”, shu yilning sentabr oyidan esa “Posledniye vesti”, “Qizil yoshlar ovozi”, “Hunarmandlar cho‘kichi”, “Yordam”, “Ishchi dovushi” nomli gazetalar bilan birgalikda “Qizil Xorazm”, “Maorif”, “Qopqon” jurnallari nashr etildi. Keyinchalik Xorazmda “Inqilob quyoshi” gazetasi o‘z faoliyatini davom ettirdi[3, b. 16].

“Inqilob quyoshi” gazetasi Xorazm hukumatining chaqiriqlari va qarorlari muntazam berib borilganligi uchun 1921-yilning mart oyidan 1922-yilning may oyigacha bo‘lgan davrda “Xorazm xabarlari” nomi bilan ham nashr etilgan[6, b. 108]. 1922-yilning may oyidan boshlab “Inqilob quyoshi” gazetasi haftada ikki marta ming nusxada chiqarila boshlagan.

1923-1925-yillarda respublikada devoriy gazetalar faoliyati ham ancha kengaygan. Jumladan, Xorazmda ham “Umid yolqini”, “Mazlumlarni ozodligi” devoriy gazetalar kabi yana 20 ta devoriy gazetalar faoliyat olib borgan, shulardan 4 ta gazeta xotin-qizlarniki edi[10, b.32].



“Xorazm haqiqati”ning o‘tmishdoshi hisoblanuvchi “Inqilob quyoshi” gazetasi ilk sonlaridanoq o‘lkaning ijtimoiy hayotiga oid materiallar yoritila boshlandi. Jumladan, 1920-yilning 16-avgust sonida “Xorazm yoshlari” birinchi marta shanbalik o‘tkazish uchun 16-avgust kuni pochta oldidagi maydonga 100 kishi kelib, tekislash ishlarini olib borgani, olti soatlik ish davomida maydonda tuproq-tekislash ishlari o‘tkazilgani haqida xabar beradi. Yoki 27-avgust sonida shu oyning 15-sanasida Xivada muallimlar tayyorlovchi 3 oylik kurs ochilgani, mehnatkash hunarmandlarni, dehqonlarni, ularning bolalarini o‘qitib, ilmga

o'rgatish uchun muallimlar zarurligi sabab eski savodli kishilar kursga kelayotganlari aytiladi[11].

Xulosa. Xorazmda matbuot sohasining paydo bo'lishi va rivojlanishi uchun Otajon Abdalov bilan Mulla Bekjon Rahmon boshchilik qildilar. Viloyatda dastlab "Inqilob quyoshi" gazetasi o'z faoliyatini olib bordi. Uning ilk sonlarida asosan qishloq xo'jaligiga oid ma'lumotlar yoritildi. Keyinchalik viloyatda bir qancha gazetalar o'z ish faoliyatini boshladi. Ular ham o'z ruknlarida asosan agrar sohaga oid materiallarni bera boshladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. S.Rahimberganova. Voha solnomasi. Urganch. 2010. "Xorazm" nashriyoti. – B.11.
2. U.Bekmuhammad, Sayyora Samandar. Xorazm matbaachiligi va matbuoti tarixi (Otajon Abdalov matbaaxonasi faoliyati va shu davrdagi soha hujjatlari asosida: 1874-1938 yillar). Buxoro. "Sadriddin Salim Buxoriy". 2025. – B.22.
3. D.Bekchonova. Xorazm matbuoti, matbaachilik, nashirlik: tarixi va buguni. – Xorazm. "Ogahiy" nashriyoti. 2025. – B.15.
4. U.Bekmuhammad, Sayyora Samandar. Matbaachilik asoschisi va jadid ma'rifatparvari [Matn] .- Buxoro. "Sadriddin Salim Buxoriy", 2025. -88 b.
5. D.Atamurotova. Xorazm davriy matbuotida "Inqilob quyoshi" hamda "Izvestiya" gazetalarining o'rni: tarixi va tahlili // "O'tmishga nazar", 2022. №1. – B.73
6. Boboxonov A. Asrdan oshgan ziyo maskanlari. T., "O'zbekiston". 2011. 108-b
7. "Хорезмская правда". Подъём народного хозяйства за 20 лет. № 251. 24 декабря, 1944 г.
8. Boboxonov A. Asrdan oshgan ziyo maskanlari. T., "O'zbekiston". 2011. 109-b
9. Hayot. Toshbosma ish boshlaganda. № 4. 28-yanvar – 3- fevral, 2010-yil.
10. Bekmuhammedov U. Gurlan hayoti. T., "Yangi asr avlodi". 2011.
11. Toshpo'latova D. Matbaachilik tarixidan. Voha solnomasi. Urganch., "Xorazm". 2010.

TARIX

O'ZBEKISTON SSRDA MILLIY MAORIF TARIXI

(XX asrning 20-yillari misolida)



OYBEK KOMILOV,
Andijon davlat
universiteti professori,
tarix fanlari doktori
(DSc)

UO'K: 947 (575.1)

Annotatsiya: Maqolada sovet hokimiyatining XX asrning 20-yillarida O'zbekiston SSRdagi milliy maorif faoliyatini cheklashga doir amalga oshirgan siyosati, oliy diniy ta'lim maskani - madrasalarga tegishli vaqf mulklarining ekspropriatsiya qilinishi hamda uning salbiy oqibatlari masalalari arxiv manbalaridagi materiallar va ilmiy adabiyotlar yordamida tahlil qilingan.

Аннотация: В статье с помощью материалов архивных источников и научной литературы проанализированы проводимая советскими властями в 20-х годах XX века политика по ограничению национальной образовательной деятельности в Узбекской ССР, экспроприация имущества фонда, принадлежащего высшему религиозному учебному заведению - медресе, и ее негативные последствия.

Annotation: The article analyzes the policy of restricting national educational activities in the Uzbek SSR, the expropriation of the property of the fund belonging to the higher religious educational institution - madrasah, and its negative consequences, carried out by the Soviet authorities in the 1920s, using archival sources and scientific literature.

Kalit so'zlar: Turkiston, O'zbekiston, cheklash siyosati, milliy maorif, maktab, madrasa, masjid, vaqf, ekspropriatsiya.

Ключевые слова: Туркестан, Узбекистан, ограничительная политика, национальное образование, школа, медресе, мечеть, вакф, экспроприация.

Key words: Turkestan, Uzbekistan, restrictive policy, national education, school, madrasah, mosque, waqf, expropriation.

Mustaqillik yillari O'zbekiston ta'lim tizimidagi modyernizatsion jarayonlar, diniy ta'lim muassasalari faoliyatidagi muhim islohotlarning yildan-yilga jadallashib borishi sohani atroflicha ilmiy tahlil etishga jiddiy ehtiyoj borligini ko'rsatdi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2018-yil 28-dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida ta'kidlaganidek: "Ma'rifat insonni kamolga, jamiyatni taraqqiyotga etaklaydi"[1;30]. Biroq, sovet hokimiyati yillari O'zbekistonda islom dini va uning asosiy ta'lim muassasalari bo'lgan milliy maktab va madrasalar faoliyatini

cheklashga doir siyosat olib borildi. Ma'lumki, islom diniy ta'limoti nuqtai nazaridan vaqflar xayriya mulklari hisoblanib, ular asosan xayriya ishlari uchun ta'sis etilgan. Shuningdek, ular madrasalarning iqtisodiy asosi vazifasini ham o'tar edi. Ta'kidlash joizki, XX asr 20-yillarining ikkinchi yarmida ham madrasalar faoliyat olib bordi.

Turkistonda sovet hokimiyati o'rnatilgandan so'ng bolsheviklar tomonidan vaqflarni davlat ixtiyoriga majburiy yo'l bilan o'tkazish, ya'ni ekspropriatsiya qilishga harakat qilindi. Vaqf mulklarining davlat ixtiyoriga o'tkazilishi 1917-yil oktabr to'ntarishidan so'ng boshlandi. Bu masala sovetlarning 1917-yil 26-oktabrdagi II Butunrossiya syezdi qabul qilgan "Yer to'g'risida"[2;13]gi dekretga asoslandi, chunki unga ko'ra barcha yerlar, jumladan cherkov, diniy muassasalarning yerlari ham "umumxalq mulki" deb e'lon qilinib, yerga bo'lgan xususiy mulkchilik bekor qilingan edi. 1918-yilda Turkistonda Millatlar xalq komissarligi ta'sis etildi, dekabr oyida esa Millatlar xalq komissarligida vaqf mulklarini boshqarish bo'limi tuzildi [3;8]. Millatlar xalq komissarligi xodimlari o'z faoliyatlarining dastlabki kunlaridanoq vaqflarni davlat mulkiga aylantirish tarafdori bo'ldi. Komissarlik rahbarlarining fikricha, sovet hokimiyatining qonunlari bilan, jumladan, yer haqidagi dekret bilan ishlab chiqarish vositasiga bo'lgan xususiy mulkchilik tugatildi. Shu sababli vaqf yerlar va boshqa mulklar davlat mulkiga aylantirilishi kerak edi [3;5]. Turkiston Respublikasi Markaziy Ijroiya Komitetining 1920-yil 26-fevraldagi qaroriga ko'ra, vaqflar Maorif xalq komissarligi tasarrufiga berildi [3; 1, 2]. Turkiston ASSR Maorif xalq komissarligi kollegiyasining 1920-yil 6-martdagi majlisida vaqf bo'limini tuzish masalasi ko'rib chiqildi. Kollegiya o'z qarori bilan vaqf bo'limini tashkil qildi, mudirlik vazifasi vaqtincha Munavvar Qori Abdurashidxonovga yuklatildi va unga vaqf bo'limi mudirligiga nomzod topish masalasi topshirildi [4;118]. Munavvar Qori tavsiyasiga ko'ra, Maorif xalq komissarligi qoshidagi vaqf bo'limi mudirligiga B.Xo'jaev tayinlangan. Tez orada Maorif xalq komissarligi "Vaqflarni boshqarish to'g'risida Muvaqqat Nizom" ishlab chiqdi [4;128,132]. Nizomda ko'rsatilishicha, vaqflarni idora qilish uchun Maorif xalq komissarligi qoshida Markaziy vaqf bo'limi tashkil qilingan. Madrasa, masjid va boshqa diniy tashkilotlar vaqf mulklarini bevosita boshqarish ikki kishidan iborat kollegiya bilan birga mutavalli zimmasiga yuklatilgan.

Turkiston MIQning 1920-yil 26-fevraldagi qarorida vaqf mulklari daromadidan qanday maqsadlarda foydalanish to'g'risida aniq ko'rsatmalar berilmagandi. Turkiston hukumatining vaqflarga tegishli bo'lgan keyingi qabul qilgan qarorlarida bu masalaga ozroq bo'lsa-da aniqlik kiritildi. 1920-yil 14-apreldagi RKP (b) MQ Turkiston o'lka qo'mitasining yer masalasi bo'yicha tezislarida: "Vaqf mulklari yer ishlari xalq komissarligi ixtiyoriga beriladi. Bu

yerlardan tushadigan daromadlar maorif komissarligiga beriladi va musulmon aholisi orasida madaniy – ma’rifiy ishlar olib borish uchun foydalaniladi”[5;108] – deyilgan. Turkiston Respublikasi MIQning 1920-yil 17-noyabrda “Turkiston Respublikasida yerdan foydalanish va yer tuzilishi to’g’risida”gi Nizomga asosan Turkiston hududidagi barcha yer va suv, kim tomonidan foydalanilishidan qat’iy nazar, davlat, xalq mulkiga aylantirildi. Jumladan, “Vaqf yerlarining hammasi bolalar bog’chalari, yetimxonalar, kommuna - maktablar va boshqa madaniy – ma’rifiy tashkilotlar tashkil qilish uchun Maorif xalq komissarligiga o’tadi, bu maqsadlar uchun foydalanilmaganlari esa umumiy tartibda yer tuzish ishlariga beriladi”[6;38] – deb ko’rsatildi. Hukumatning bu nizomida vaqf yerlari davlat mulki ekanligi qayd etildi va ulardan foydalanish huquqi Maorif xalq komissarligiga berildi. Ana shu tariqa, 1920-yilning noyabr oyidan boshlab, Turkistondagi madrasalarning iqtisodiy asosini tashkil etgan vaqf yerlari davlat tasarrufiga o’tkazildi [7;17]. Bu esa mahalliy musulmon aholisi o’rtasida ma’lum norozilik kayfiyatini keltirib chiqardi.

O’rta Osiyoda qarshilik harakatining kuchayib borishi hukumat va partiya organlarini ham tashvishga soldi. RKP (b) Markaziy Qo’mitasi 1922-yil 18-mayda “Turkiston - Buxoro ishlari to’g’risida” qaror qabul qilib, unda “Vaqf yerlarini ularning sobiq egalari qaytarib berish” zarur deb mahalliy sovet va partiya organlariga ko’rsatma berdi. Markazning vaqf to’g’risidagi bu muhim yo’l-yo’riqlarini Turkiston Markaziy Ijroiya Qo’mitasi 1922-yil 26-maydagi Plenumida muhokama qildi [8; 952]. 1922-yil 20-iyunda Turkiston MIQning “Turkiston Respublikasi madrasa va masjidlariga vaqflarni qaytarish to’g’risida”gi 75-sonli dekret chiqarildi [9; 145, 149]. Unga ko’ra, vaqflar avvalgi egalari qaytarib berildi. 1922-yil 29-oktabrda Turkiston Kompartiyasi MIQning Respublika Ichki ishlari, Yer-suv ishlari va Adliya xalq komissarliklari hay’atlari vakillari bilan yig’ilishi o’tkazildi. Unda U.Eshonxo’jayev, I.Xidiraliyev, A.Solovyev va Adliya xalq komissarligi vakilidan iborat komissiya hay’ati tuzildi [10;18]. Komissiya o’z ishida vaqflardan tushadigan daromadlarning asosiy qismini madrasalarga sarflashni ta’minlash, vaqf mulklarining amal qilish muddatlari va keyinchalik davlat ixtiyoriga o’tishini belgilab berdi [11; 297]. 1922-yil 28-dekabrda Turkiston MIQning 173-sonli “Vaqflar to’g’risida”gi yangi dekreti imzolandi. Unga ko’ra, 1922-yil 20-iyundagi 75-sonli dekret bekor qilindi. Bu dekretga binoan vaqf mulklari tegishli bo’lgan idoraning yo’nalishiga qarab ajratildi, ya’ni diniy maqomga ega bo’lgan madaniy-oqartuv va homiylikka sarflanadigan madrasa, maktab, yetimxona, mozorlarga tegishli vaqflardan o’z ehtiyojlari yo’lida foydalanishiga ruxsat etildi. 1923-yil 11-yanvarda 173-sonli dekretga muvofiq Turkiston ASSR Maorif xalq

komissarligi qoshida Bosh vaqf boshqarmasi va uning bo'limlari tashkil etildi [12;2]. Boshqarma tashkiliy-axborot, akademik (ilmiy muassasa), moliya – xo'jalik bo'limlaridan iborat bo'ldi. Bosh vaqf boshqarmasi shtatlar tarkibi 14 kishidan, vaqf bo'limlari 12 nafar shaxsdan iborat qilib belgilandi. Bosh vaqf boshqarmasining asosiy vazifasi qilib vaqf mulklarini hisobga olish, vaqflarning asl hujjatlarini tekshirish, shuningdek, madrasalarni sovet tarzida qayta qurish, ulardagi madaniy-oqartuv ishlarini nazorat qilish ishlari yuklatildi [13;81]. Yuqoridagilardan kelib chiqib, Bosh vaqf boshqarmasi tomonidan tegishli chora-tadbirlar belgilandi. Madrasalarni qayta qurish va ularda madaniy-oqartuv ishlarni tashkil qilish dasturi ishlab chiqilib, hayotga tatbiq qilindi. Yuqorida keltirilgan 173-sonli dekretning 14-bandidagi ilovasiga ko'ra yangi dasturlarni qo'llamagan madrasalar vaqf daromadlaridan foydalanish huquqidan mahrum qilindi. Madrasalar hamda boshqa diniy muassasalarning vaqflaridan olinadigan daromadlardan foydalanish tartibi sovet hokimiyatining doimiy diqqat markazida bo'ldi. Bunga dalil sifatida Turkiston Respublikasi XKSning 1923-yil 17-martdagi kengaytirilgan yig'ilishini misol tariqasida keltirish mumkin. Mazkur yig'ilishda vaqf mablag'lari haqidagi masala muhokama qilindi. XKS madaniy-ma'rifiy ahamiyatga ega bo'lgan vaqflarnigina tan olish zarur, degan qarorga keldi. Bu mablag'lar birinchi navbatda sovet maktablarini ta'minlashga, ularning bir qismigina madrasalar uchun ajratilgan edi [13; 89]. Bundan shuni ko'rish mumkinki, sovet hukumati 1923-yildan boshlab madrasalar faoliyatini tugatish maqsadida ularning iqtisodiy asosini cheklashga kirishdi.

1928-yil 18-noyabrda O'z SSR MIQ Sovetlarining ikkinchi chaqiriq IV sessiyasi "Eski usul maktab va madrasalarni tugatish to'g'risida"gi qarorni qabul qildi [14]. Ushbu qarorning 3-bandi boshqa diniy maktablar qatori madrasalar faoliyatining tugatilishiga doir, ya'ni diniy maktablar, shu jumladan madrasalar, qorixonalar masalasida mavjud maktablar va din o'qitish haqidagi qonun hamda buyruqlarni qat'iy suratda tatbiq qilib turish okrug ijroiya qo'mitalari zimmasiga yuklatilgan. Yuqoridagi qaror asosida O'zSSR dagi barcha madrasalar yopib qo'yildi. Shu bilan sovet ta'lim tizimining yakka hukmronligi to'laqonli kuchga kirdi [15; 26].

Xulosa tarzida ta'kidlash joizki, XX asrning 20-yillari boshlaridan Turkiston ASSRda diniy oliy ta'lim maskanlari bo'lgan madrasalar isloh qilindi, lekin islohotlar jarayoni uzoqqa cho'zilmadi. Sovet hokimiyatining O'zbekistondagi milliy ta'lim faoliyatini cheklash siyosati yildan-yilga kuchayib bordi. Xususan, 1924-yildan madrasalar Bosh vaqf boshqarmasi tashabbusi bilan ikkinchi bosqich yagona mehnat maktabi dasturiga o'tkazilib, sovetlashtirildi. Ular ham turli xil cheklashlarga qaramay, 1928-yilgacha faoliyat olib bordilar. Sovet organlari madrasalarning iqtisodiy asosi bo'lgan vaqf mulklarini davlat

ixtiyoriga o'tkazishga zo'r berib harakat qildi. Shunday qilib, ming yillik tarixga ega bo'lgan madrasalar faoliyati to'xtatildi va ularga tegishli vaqf mulklari musodara qilindi. Bu cheklash siyosati esa o'zbek xalqi ma'rifati va ma'naviy qiyofasining shakllanishiga, shubhasiz, salbiy ta'sir etdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2018-yil, 28 dekabr.-Toshkent: "O'zbekiston", 2019-y.
2. Съезды Советов (в документах). Сборник документов в 3-х томах. - Москва: Госюрлитиздат, 1959. Т.1.
3. O'zbekiston Milliy arxivi, R.36-fond, 1-ro'yxat, 24-ish.
4. Alimov I.A. Eski maktab islohoti tashabbuskori//Xalq ta'limi.- Toshkent, -№10-12.
5. O'zbekiston Milliy arxivi, R.34- fond, 1-ro'yxat, 394-ish.
6. O'zbekiston Milliy arxivi, R.94- fond, 1-ro'yxat, 320-ish.
7. Социалистическое переустройство сельского хозяйства в Узбекистане (1917-1926 гг.). Документы и материалы.-Ташкент: Узбекистан, 1962.
8. O'zbekiston Milliy arxivi, R.17- fond, 1-ro'yxat, 43-ish.
9. Andijon viloyat davlat arxivi, 59- fond, 1-ro'yxat, 38-ish.
10. O'zbekiston Milliy arxivi, R.17- fond, 1-ro'yxat, 55A – ish.
11. O'zbekiston Milliy arxivi, R.17- fond, 1-ro'yxat, 302-ish.
12. O'zbekiston Milliy arxivi, R.34- fond, 1-ro'yxat, 2277-ish.
13. Образование и деятельность Коммунистической партии Туркестана (Летопис событий).-Ташкент: Узбекистан, 1966.
14. Правда Востока, 17 декабря 1928 г.
15. Чориев А.Х. Народное образование и подготовка педагогических кадров в Узбекистане в условиях советского тоталитаризма: противоречия между системами традиционно-национальной и советской (20-30-е годы): Автореф. дис. ... докт. ист. наук. -Ташкент: ИИ АН РУз, 1998.

TARIX**XX ASRNING 60-80-YILLARIDA XORAZM VILOYATIDA XALQ
XO‘JALIGINI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI**

**SANJARBEK
DAVLETOV,**
Tarix fanlari
doktori, professor



**ALISHER
MATYAKUBOV,**
Tadqiqotchi

UO‘K 512.71

Annotatsiya: Ushbu maqolada XX asrning 60-80-yillarida Xorazm viloyatida ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirishga qaratilgan islohotlar va ularning natijalari tahlil qilingan. Unda sovet davridagi ma'muriy-hududiy o'zgarishlar, agrar sohani modernizatsiya qilish, yangi yerlarni o'zlashtirish va sug'oriladigan ekin maydonlarini kengaytirish kabi choralar ko'rilishi, shuningdek, sanoat, energetika va infratuzilmani rivojlantirish masalalari bayon etilgan.

Аннотация: В статье анализируются реформы, направленные на развитие производительных сил в Хорезмской области в 1960-1980-х годах, и их результаты. В нем описываются административно-территориальные изменения в советское время, такие меры, как модернизация сельскохозяйственного сектора, освоение новых земель и расширение орошаемых пахотных земель, а также вопросы развития промышленности, энергетики и инфраструктуры.

Annotation: The article analyzes the reforms aimed at developing productive forces in the Khorezm region in the 1960-1980s and their results. It describes the administrative-territorial changes in the Soviet era, such measures as modernization of the agricultural sector, development of new lands and expansion of irrigated arable lands, as well as issues of industrial, energy and infrastructure development.

Kalit so'zlar: islohot, Xorazm viloyati, xalq xo'jaligi, sanoat, ishlab chiqarish, qishloq xo'jaligi, kolxoz, sovxoz.

Ключевые слова: реформа, Хорезмская область, народное хозяйство, промышленность, производство, сельское хозяйство, колхоз, совхоз.

Key words: reform, Khorezm region, national economy, industry, production, agriculture, collective farm, state farm.

Sovet davlatida 1957-yilda asosiy ma'muriy-hududiy birliklarning eng yuqori darajadagi parchalanishiga erishilgandan so'ng ularni qayta yiriklashtirishga biroz qadam tashlandi. Bu davrdagi ma'muriy-hududiy o'zgarishlar jarayoni N. S. Xrushyov davridagi sovnarxozlar (1957-1965-yillar) islohoti bilan hamroh bo'ldi. SSSRning ma'muriy-hududiy bo'linishini isloh qilish 1962-1963-yillarda xalq xo'jaligini boshqarish tizimini isloh qilish doirasida amalga oshirildi. Islohotlar davrida Sovet Ittifoqi tarkibidagi ma'muriy tuzilmalar sezilarli darajada kengaytirildi, ular tarkibida sanoat va qishloq okruglari shakllantirildi (o'tgan davrda tumanlarning umumiy soni – 1962-yil

oxiri – 1963-yil boshida - 3421 tadan 1711 taga qisqartirildi; bir qator viloyatlarda sanoat tumanlari tashkil etildi). KPSSning mahalliy organlari va ishchilar deputatlari kengashlari tegishli iqtisodiy rayonlarni boshqarish uchun sanoat va qishloq xo‘jaligiga bo‘lindi, bu esa partiya-sovet boshqaruvining mahalliy organlari sonini ikki baravar oshirdi. Islohot tezda samarasiz bo‘lib chiqdi va 1964-yil dekabr – 1965-yil yanvar oylarida orqaga qaytarildi. Sanoat va qishloq tumanlari tugatilib, oddiy ma‘muriy tumanlar tiklandi.

O‘zbekiston SSR Oliy Kengashi Prezidiumining 1962-yil 24-dekabrdagi Farmoni bilan respublika bo‘yicha jami 55 ta tuman tugatildi. Xususan, Xorazm viloyatida 8 ta tuman o‘rniga 5 ta tuman va 2 ta viloyatga qarashli shahar tashkil etildi. Shunday qilib, 1963-yilda Qo‘shko‘pir, Urganch va Xonqa tumanlari tugatildi.

1960-yillarga kelib agrar sohani jadal rivojlantirish uchun sug‘oriladigan yangi ekin maydonlarini ochish va mavjudlarini yiriklashtirish dehqonchilik madaniyatini oshirishning asosiy shartlaridai biri, deb baholandi. Xorazm viloyatida yangi yerlarni o‘zlashtirish ishlarini ilmiy asosda tashkil qilish maqsadida “O‘zsuvxo‘jalikloyiha” tashkiloti tomonidan “Yangiariq”, “Rossiya”, “Begovot”, “O‘zbekiston” davlat xo‘jaliklari uchun Bosh reja va texnik-iqtisodiy asoslanish hujjatlari ishlab chiqildi.

Mavzuning ayrim jihatlarini yuzasidan bir qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Tarixchi olimlar jamoasi tomonidan hammualliflikda yaratilgan “O‘zbekiston tarixi (Xorazm tarixi). XI-jild” kitobida Xorazmning madaniy, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tarixi uzviy xronologik izchillikda yoritilgan [1].

Professor X.Yunusova o‘z maqolasida sovet davlatida iqtisodiy-ma‘muriy hududlar – alohida viloyatlar, o‘lka, ittifoqdosh va avtonom respublikalar yoki kichik viloyatlar guruhining ixtisoslashgan hududiy ishlab chiqarish komplekslari yig‘indisidan iborat bo‘lganligini, O‘zbekistonning umumittifoq manfaatlari yo‘lida xizmat qiluvchi qishloq xo‘jalik tarmoqlari bu yerda yangi paxtachilikka ixtisoslashgan kolxoz va sovxozlarni qurishni, muntazam “yangi yerlarni o‘zlashtirib borishni taqozo etganini yozadi [2]. Z.Toirova maqolasida O‘zbekistonda amalga oshirilgan iqtisodiy rayonlashtirish siyosatining mazmuni tahlil qilingan [3].

M.Jumaniyazovning “Esimda qolgan onlar” kitobida muallifning hayot yo‘li va o‘zi faoliyat ko‘rsatgan muhandislik va qishloq xo‘jaligi sohalari haqidagi xotiralari aks etgan [4]. “Tuyamo‘yin va tuyamo‘yinliklar” nomli kitobda Amudaryo daryosini boshqarish va suv omborining qurilishi haqida so‘z boradi [5].

Mazkur maqolani tayyorlashda qiyosiy tahlil usuliga asoslanib, tarixiy manbalar, ilmiy adabiyotlar, zamonaviy tadqiqot natijalaridan foydalanildi.

1960-yillarning boshlarida mamlakat miqyosida rahbarlik shakllarini o‘zgartirish, ishlab chiqarishning rolini oshirishga qaratilgan islohotlar amalga oshirilib ko‘rildi. 1962-yilning oxirida hududiy boshqarish boshqarmalari tuzildi. Sanoat bo‘yicha viloyat partiya komitetlari, qishloq xo‘jaligi bo‘yicha viloyat

partiya komitetlari tuzildi. Tuman partiya komitetlari tugatilib, boshqarma partkomiga aylantirildi. Ehtimol bu ishlar xalq xo'jaligini partiya bo'yinturug'idan xalos etishga urinishning natijasi bo'lgandir. Biroq, bu islohotga tez barham berilib, eski rahbarlik uslubiga qaytildi [4, 83-84].

1950-yillar oxiri, 1960-yillar boshlariga kelib Xorazm viloyati qishloq xo'jaligida keskin o'zgarishlar yuzga bera boshladi. Bog'ot tumanidagi Narimonov nomli jamoa xo'jaligi raisi Iskandar Do'sov o'z davrining eng dongdor raislaridan biri bo'lib, qishlog'ini shahar tipida qayta qurishga boshchilik qildi. Shuningdek, qishloqda mahsulot ishlab chiqarishga mo'ljallangan 5 ta zavod hamda issiqxona qurilib, ishga tushirildi. Jamoa xo'jaligining o'z asfalt zavodi orqali qishloqdagi barcha ichki ko'chalargacha asfalt yotqizildi. Shu kabi 1960-yillar o'rtalariga kelib, Narimonov nomli jamoa xo'jaligi viloyatda birinchilardan bo'lib elektr va gaz tarmog'iga ulandi.

1964-yilda Amudaryoning chap qirg'og'idagi to'qay yerlarida Xonqa tumanida Al-Xorazmiy nomidagi yangi sholi yetishtiruvchi sovxoz tashkil etildi. Birinchi kunlardan o'z xo'jalikni Nikolay Vasilyevich Kim boshqargan. Guruch yetishtiruvchi dehqonlar dalalarni ekishga o'z vaqtida tayyorlash uchun ko'p mehnat qilishlari kerak edi. Ekin maydonlari har yili kengayib bordi, guruch hosildorligi oshdi va bu xo'jalikning yutuqlari boshqa viloyatlarga ham tarqaldi [6]. 1973-yilda sovxoz direktori N.V Kim Sotsialistik mehnat qahramoni unvoni bilan taqdirlandi.

O'zbekiston SSR KP MKning 1964-yil iyun plenumi qarori asosida xutor xo'jaliklarda yashayotgan aholini posyolkalarga ko'chirish harakati boshlandi. Yakka xo'jaliklarda yashayotgan aholi jamoa xo'jaliklari markazda qurilgan yangi uylarga ko'chirilib, ularning turmush sharoitini yaxshilashga harakat qilindi. Natijada viloyatda 1500 ga yaqin xutor xo'jaliklarning tugatilishi evaziga qo'shimcha 7 ming ga yer maydoni ochildi [7, 31]. 1965-yilga kelib, Xorazm viloyatining yer fondi 240 ming gektarga yetgan bir vaqtda, yuqori darajada sho'rlangan yerlar 29100 gektarni, tuz konlari 43615 ga, botqoqlik va ko'llar - 29673 ga va qum bosgan yerlar - 14854 ga ni tashkil qilardi [8].

Xorazm viloyatida Qo'shko'pirdagi "Amirqum", Urganchdagi "Begovot", Xivadagi "Qoraqum", Shovotdagi "Bozovot-Davdon" massivlari o'zlashtirilgach, ulardan birinchi yildayoq 1,5 mln. rubldan ziyod daromad olindi. Dastlabki 5 yil davomida yangi o'zlashtirilgan yerlardan olingan umumiy samaradorlik 83 mln. rubldan oshib ketdi [9].

1960-yillardan boshlab, respublika va uning hududlari qayta tiklanish jarayonini boshdan kechirdi. Xorazm viloyatida ham ba'zi tugatilgan tumanlar qayta tashkil etildi. Xususan, 1964-yilda Urganch tumani, 1967-yilda Qo'shko'pir tumani, 1970-yilda Bog'ot tumani, 1973-yilda Xonqa tumani qayta tiklandi. 1980-yillarga kelib, Xorazm viloyatida yana bir qator ma'muriy o'zgarishlar sodir bo'ldi. Jumladan, 1981-yilda Yangibozor tumani qayta tiklangan bo'lsa, 1983-yilda Xonqa va Shovot shaharlari, 1984-yilda Gurlan shahri tashkil qilindi.

O'zbekiston SSR Ministrlar Sovetining 1965-yil 21-apreldagi "O'zbekiston SSR Qishloq Sovetlari ijroiya qo'mitalari holati va faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida ularning ishiga rahbarlikni tubdan

takomillashtirish, uni har kuni yo‘naltirish zarurligi to‘g‘risida so‘z yuritildi. O‘zbekiston SSR Ministrlar Soveti viloyat va tuman davlat boshqaruvi organlarini o‘z hududida joylashgan kolxoz va sovxozlar, korxona va tashkilotlarning xalq xo‘jaligi rejasi topshiriqlarini qishloq kengashlariga yetkazish, qishloq kengashlari ijroiya qo‘mitalariga ularning tashkiliy va ommaviy ishlarining shakl va usullarini takomillashtirishda yordam ko‘rsatish, jamoat ishlariga keng ko‘lamli tamoyillar joriy etish majburiyatini yukladi.

KPSS Markaziy Komiteti va SSSR Ministrlar Sovetining 1966-yil 16-mayda qabul qilingan “Kolxozchilarning ijtimoiy ishlab chiqarishni rivojlantirishdan moddiy manfaatdorligini oshirish to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq 1966-yil 1-iyuldan kafolatlangan ish haqi birinchi marta kolxozlarda joriy qilindi. Agar kolxozlarning o‘z mablag‘lari kafolatlangan ish haqini ta‘minlash uchun yetarli bo‘lmasa, ish haqi xarajatlari Davlat bankining ssudalari hisobidan qoplanadigan bo‘ldi[10, 49].

Xorazm viloyati Ijroiya qo‘mitasining 1967-yil 15-dekabrda qabul qilingan qarorida navbatdagi 5 yillikda yana 10 ming gektar yerni o‘zlashtirish vazifasi qo‘yildi. 1970-85-yillarda Xorazm viloyatida qishloq xo‘jaligini kompleks rivojlantirishga ajratilgan mablag‘ 4 baravarga oshirildi. Ammo, bular ko‘proq paxta yakkahokimligini mustahkamlashga xizmat qildi.

Viloyatda 1971-1985-yillarda paxta yetishtirish qariyb 45 ming tonnaga ko‘paydi. Shu davrda dehqonchilikning yetakchi tarmoqlaridan biri sholichilik ham rivojlandi. Agar To‘qqizinchi besh yillikda davlatga 45,5 ming tonna sholi sotilgan bo‘lsa, O‘ninchi besh yillikda - 82,3 ming tonnaga, O‘n birinchi besh yillikda - 108,1 ming tonnaga yetdi. Xonqa tumanidagi “Al-Xorazmiy”, Gurlan tumanidagi “Guliston”, Bog‘ot tumanidagi “Bog‘ot”, Shovot tumanidagi “Kolos”, Yangiariq tumanidagi “Yangiariq” jamoa va davlat xo‘jaliklari sholi yetishtirishning asosiy bazasi bo‘lib qoldi.



Professor X.Yunusova bu davrda sovet hukumati tabiatni asrash masalalariga alohida e‘tibor qaratsa-da, lekin, “kimyolashtirish-davr talabi” shiori ostida kimyoviy moddalarning haddan ziyod ishlatilishi, zaharli kimyoviy moddalardan ko‘p va nazoratsiz foydalanilishi oqibatida tuproq sifati yomonlashib ketganligi, uning kishilar hayotiga xavf soluvchi omilga aylanib qolganligini ta‘kidlaydi [2, 11]. Oziq-ovqat masalasi keskinlashib, don, sabzavot, sut va

go‘sht mahsulotlari yetishtirish imkoniyatlari kamayib ketdi. Ko‘pgina hayotiy muhim manbalarga ziyon yetkazildi, paxta maydonlari yildan-yilga kengayishi, ilmiy asoslangan almashlab ekishlar tartibi buzilganligi, dalalarning kimyoviy moddalar bilan zararlanganligi, tuproqning sho‘rlanishi oshganligi, suv manbalarining imkoniyatlari tobora kamayib borganligi qishloq xo‘jaligi va

aholining turmushiga katta zarar yetkazdi. Viloyatda aholi jon boshiga go'sht, sut, kartoshka, sabzavot va poliz mahsulotlari iste'mol qilish kamaydi.

Viloyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning yana bir muhim omili - elektrlashtirish edi. 1958-yilda Urganch shahrida 250 ming KVT quvvatga ega bo'lgan energopoezdning o'rnatilishi, 1960-yilda Taxiotosh GRESi birinchi navbatining ishga tushirilishi va 1963-yilda Taxiotosh-Urganch elektr uzatish liniyasining qurilishi viloyat hayotida katta voqea bo'ldi.



Yuqoridagi omillar viloyatda qator yirik zavod va fabrikalarni qurish va sanoat mahsulotlarining yangi xillarini ishlab chiqarish imkoniyatini yaratdi. Yetti yillik (1959-1965-yy) va Sakkizinchi besh yillik (1966-1970-yy)lar mobaynida viloyatda bir qator yirik sanoat korxonalari, jumladan: selikat, temir beton, yog'sut zavodlari, qurilish materiallari, yirik panelli uy-joy qurish va non kombinatlari, Xiva tikuvchilik fabrikasi, Shovot, Yangiariq, Yangibozor paxta tozalash zavodlari, shinaremont zavodi, parrandachilik fabrikasi hamda bir qancha mahalliy sanoat kombinatlari qurilib, ishga tushirildi.

1970-1985-yillar davomida viloyat jamoa va davlat xo'jaliklarida energetika quvvatlari 6 baravarga ko'paydi, qishloq xo'jaligidagi o'rtacha yillik bir xodimning energiya bilan qurollanganlik darajasi 2 baravarga oshdi. Bu esa mexanizatsiyalashgan ishlar hajmini 78 foizga yetkazish imkonini berdi [11].

To'qqizinchi (1971-1975-yy) va o'ninchi (1976-1980-yy) besh yilliklar viloyat sanoati va energetikasi rivojlanishida yangi bosqich bo'ldi. Shu davr ichida 15 ga yaqin yirik sanoat korxonalari, jumladan Urganch ipak-yigiruv fabrikasi, yog'-ekstraksion va ekskavator remont zavodi, Xiva gilam kombinati qurilib, ishga tushirildi. Bu davrning eng yirik inshootlaridan biri Tuyamo'yin gidrotexnik kompleksi qurilishi bo'ldi.

XX asrning 60–80-yillari Xorazm viloyatida ishlab chiqarish kuchlarini modernizatsiya qilish va yanada rivojlantirish borasida sezilarli o'zgarishlar yuz berdi. Ushbu davrda sovet tizimida ma'muriy-hududiy qayta tashkil etish, agrar sohani yiriklashtirish va sanoat inshootlarini qurish kabi keng qamrovli islohotlar amalga oshirildi. Boshqaruv tizimini modernizatsiya qilish, yangi yerlarni o'zlashtirish va infratuzilmani mustahkamlash kabi tashabbuslar viloyat iqtisodiyotining intensiv rivojlanishiga turtki bo'ldi. Biroq, ushbu islohotlar bilan birga muhim qiyinchiliklar va salbiy oqibatlar ham kuzatildi. Kimyoviy

moddalarni haddan ziyod ishlatish natijasida tuproq sifati yomonlashib, suv resurslari cheklanishi, oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirish salohiyatining pasayishi va aholi sog‘lig‘iga zarar yetishi kabi muammolar yuzaga keldi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston tarixi (Xorazm tarixi). 11-jild. / Bosh muharrir: A.S.Sagdullaev. Toshkent, 2023.
2. Yunusova X, XX asr 60-80 yillari Sovet davlati yagona xalq xo‘jaligida O‘zbekiston: qishloq xo‘jaligi, sanoatni rivojlantirishning ekologik holatga ta‘siri haqida ba‘zi mulohazalar. // O‘tmishga nazar, №12, 2021. - B. 9-17.
3. Toirova Z. Sovet hokimiyatining Ikkinchi jahon urushidan so‘ng O‘zbekistonda olib borgan iqtisodiy rayonlashtirish siyosati // Jamiyat va innovatsiyalar. 2023. – T. 4. – №6. – B. 261-269.
4. Jumaniyozov M. Esimda qolgan onlar. Toshkent: “Musiq”, 2008.
5. Jumanazarov R., Sobirov A. Tuyamo‘yin va tuyamo‘yinliklar. Urganch: “Xorazm”, 2003.
6. ФЕНОМЕН КОРЕЙСКИХ КОЛХОЗОВ // «РЫБАК САХАЛИНА» №31 ОТ 8 АВГУСТА 2013 Г.
7. Xushvaktov X. O. Mirzacho‘lni o‘zlashtirish uchun aholi ko‘chirilishi va ularning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli (1946-1970 yillar): Tarix fanlari buyicha falsafa doktori (Phd) diss. Avtoref. T., 2018.
8. Xorazm viloyati davlat arxivi, 276-f, 1-r, 371-ish, 35-varaq.
9. Mahmudov M. Xorazm: tarix, odamlar, voqealar. - Urganch, 2001.
10. Муртазаев О. История развития кооперативов в Узбекистане и их преобразование на современном этапе // Discussion Papers, 2018. №178. – 49 с.
11. O‘zbekiston Kommunisti, № 10. 1987.

TARIX**YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDA XORAZM VILOYATINING
MADANIY-GUMANITAR YO'NALISHDAGI XALQARO
ALOQALARI**

**SAN'AT
XUDAYBERGANOV,
Tarix fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD)**

UO'K 512.71

Annotatsiya: Maqolada mamlakatimizda madaniy-gumanitar yo'nalishlarda amalga oshirilgan keng ko'lamli, jadal islohotlar haqida so'z boradi. Xususan, Xorazm viloyatida madaniyat sohasida amalga oshirilgan xalqaro tadbirlar hamda xorijiy delegatsiyalar, nufuzli mehmonlarning tashriflari viloyat turizm salohiyatini oshirishga xizmat qilganligi ko'rsatilgan. Viloyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga yo'naltirilgan qator loyihalar haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Аннотация: В статье рассматриваются масштабные и динамичные реформы, осуществлённые в стране в сфере культуры и гуманитарного развития. В частности, акцентируется внимание на международных мероприятиях, проведённых в культурной сфере Хорезмской области, а также на визитах уважаемых зарубежных делегаций и почётных гостей, которые внесли значительный вклад в повышение туристического потенциала региона. Кроме того, в статье представлена подробная информация о ряде инициатив, направленных на содействие социально-экономическому развитию области.

Annotation: The article examines the extensive and dynamic reforms undertaken in the country in the spheres of culture and humanitarian development. In particular, it emphasizes the international events organized within the cultural sector of the Khorezm region, as well as the visits of esteemed foreign delegations and distinguished guests, which have significantly contributed to the enhancement of the region's tourism potential. Furthermore, the article presents detailed information on a series of initiatives aimed at fostering the socio-economic advancement of the region.

Kalit so'zlar: Xalqaro festivallar, xorijiy delegatsiyalar, madaniyat va san'at, madaniy meros, ilmiy-amaliy konferensiyalar, festival, sanitariya va salomatlik, mintaqaviy loyihalar.

Ключевые слова: Международные фестивали, зарубежные делегации, культура и искусство, культурное наследие, научно-практические конференции, фестиваль, санитария и здоровье, региональные проекты.

Key words: *International festivals, foreign delegations, culture and arts, cultural heritage, scientific and practical conferences, festival, sanitation and health, regional projects.*

Mamlakatimizda 2017-yildan boshlab amalga oshirilgan keng ko‘lamli, jadal islohotlar natijasida madaniyat hamda san‘at sohasida ham yangilanishlar yuz berdi. Bu borada so‘nggi yillarda viloyat musiqali drama teatrining ish faoliyati yana qaytadan rivojlana boshladi. Respublikamiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017-yil 14-15-oktabr kunlari Xorazm viloyatiga tashrifi chog‘ida teatrga tashrif buyurib, ijodiy jamoa bilan muloqotda bo‘ldi[1]. Teatr jamoasining yangilangan binosida 2018-yil 23-24-aprel kunlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Turkmaniston Respublikasining sobiq Prezidenti Gurbanguli Berdimuhamedovlarning Xorazm viloyatiga tashrifi munosabati bilan ikki davlat san‘atkorlarining katta konsert dasturi namoyish etildi[2].

Viloyat teatr jamoasining xalqaro madaniy aloqalari ham yangi bosqichga ko‘tarildi. Xususan, 2019-yil 29-30-aprel kunlari viloyat teatrining ijodiy jamoasi Turkiyaning Adana shahrida bo‘lib o‘tgan 21-Xalqaro teatrlar festivalida dramaturg E.Samandarning “Sulton Jaloliddin” tarixiy spektakli bilan ishtirok etdi[3].

2019-yil 2-4-iyul kunlari “Ipak yo‘li” X Xalqaro festivali Ozarbayjonning Baku hamda Sheki shaharlarida o‘tkazilib, unda viloyat teatrning bir guruh ijodiy jamoasi faol qatnashdi.

Qozog‘iston Respublikasining “ABISH ALEMI” I Xalqaro teatrlar festivalida 2019-yil 10-15-oktabr kunlari teatrning ijodiy jamoasi “Oshiq G‘arib va Shohsanam” musiqali dramasi bilan ishtirok etib, diplom va esdalik sovg‘alar bilan taqdirlandi[4].

Adabiyotlar tahlili va metodlar. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-maydagi “Madaniyat va san‘at sohasining jamiyat hayotidagi o‘rni va ta‘sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida[5]”gi Farmoni madaniyat va san‘at sohasida katta ahamiyat kasb etdi. Madaniyat va san‘atning hamma sohalarini qamrab olgan bu me‘yoriy hujjatda respublikada faoliyat yuritayotgan teatrlarni yanada rivojlantirish borasidagi dolzarb islohotlar belgilab berildi. Xususan, Xorazm viloyati musiqali drama teatri binosi ham qaytadan kapital ta‘mirlanib, teatr repertuari yangilandi.

2021-yil aprel oyida O‘zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish Davlat qo‘mitasi YeTTB “Orzu arz” kompaniyasi va Angliyadagi “Vatandosh” diasporasi vakillari bilan hamkorlikda tashkil etilgan onlayn festivalda Xorazm

viloyati musiqali drama teatri ijodiy jamoasi “Sulton Jaloliddin” tarixiy spektakli bilan ishtirok etdi[6]. Ushbu spektakl Angliya va Amerika qo‘shma shtatlaridagi 1500 dan ortiq tomoshabinlar e‘tiboriga onlayn tarzda namoyish etildi[7].

2021-yil 1-13-avgust kunlari Xorazm viloyati musiqali drama teatrining bir guruh ijodiy jamoasi Turkiya davlatida “III Xalqaro turk dunyosi festivali”da ishtirok etdi[8].

Keyingi yillarda viloyat qo‘g‘irchoq teatri repertuari yangi spektakllar bilan yanada boyib bormoqda. Teatr jamoasi koronavirus pandemiyasi davrida London shahrida joylashgan “Orzu Art” teatri taklifiga binoan ushbu shaharda istiqomat qilayotgan yosh tomoshabinlar uchun “Xiva Lazgisi” spektaklini onlayn tarzda namoyish etdi.


Ma‘lumki, 2020-yil 28-sentabrdagi “Lazgi xalqaro raqs festivalini tashkil etish va o‘tkazish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4843-sonli qarori[9] qabul qilinib, unga ko‘ra 2022-yildan boshlab har ikki yilda bir marotaba Xiva shahrida “Lazgi” xalqaro raqs festivali hamda festival doirasida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya o‘tkazish belgilangan. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad Xorazm “lazgi” raqsi san’atining qadimiy an’analarini saqlash hamda rivojlantirish, raqs san’ati orqali xalqlar o‘rtasidagi do‘stlik, birodarlik rishtalarini mustahkamlash, xalqaro miqyosda ijodiy hamkorlik ko‘lamini va madaniy aloqalarni yanada kengaytirishdan iborat edi. Shu munosabat bilan 2022-yilning 26-30-aprel kunlari Xiva shahrida mazkur xalqaro festival ilk bor tashkil etildi. Festivalga dunyoning 30 ta mamlakatidan 175 nafardan ziyod raqs san’ati ustalari tashrif buyurdi. Festival doirasida o‘tkazilgan tanlovda 18 ta davlatdan 160 nafar ishtirokchi qatnashdu. Ilmiy-amaliy konferensiyada ishtirok etish uchun esa 11 ta davlatdan 13 nafar san’atshunos olimlar ishtirok qildi[10].

Festival doirasida raqs san’atiga bag‘ishlangan ko‘rgazma pavilonlari, milliy cholg‘u asboblari va liboslari, hunarmandchilik buyumlari, tasviriy va amaliy san’at asarlari, haykaltaroshlik namunalari, badiiy va hujjatli filmlar, audio va video disklar, kitoblar, albomlar, fotosuratlar namoyishi hamda «Ichon qal’a» majmuasi hududida ularning savdosi tashkil etildi. Festivalning «Gran-Pri» bosh mukofoti va 7 ming AQSH dollarini xorazmlik raqqosa Dilnoza Ortiqova qo‘lga kiritdi.

BMT Bosh Assambleyasining 75-yubiley sessiyasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev “Markaziy Osiyo – jahon sivilizatsiyalari chorrahasida” mavzusidagi xalqaro forumni o‘tkazish tashabbusi bilan chiqqan edi. Tashabbus jahon hamjamiyati tomonidan qo‘llab-quvvatlanib, 2021-yilning 15-16-sentabr kunlari mazkur xalqaro madaniyat forumi Xiva shahri mezbonligida tashkil etildi. Ta’kidlash kerakki, mazkur forumning Xiva shahrida o‘tkazilishida ramziy ma’no mujassam bo‘lib, O‘zbekiston Prezidentining forum

ishtirokchilariga yo‘llagan tabrik nutqida ta’kidlanganidek: “Forum Markaziy Osiyo davlatlari va xalqlari o‘rtasida do‘stlik va hamkorlik, yaxshi qo‘shnichilik munosabatlarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Shu bilan birga, mintaq xalqlarining jahon sivilizatsiyasiga qo‘shgan ulkan hissalarini yanada chuqur anglash va o‘rganishga imkon beradi[11]”. Ushbu nufuzli tadbirda jahonning ko‘plab mamlakatlaridan olimlar, qadimshunoslar, san’atshunoslar, taniqli ilmfan nomoyondalari ishtirok qildilar. Xalqaro forumda Markaziy Osiyo ilmiy merosining jahon sivilizatsiyasidagi o‘rni va ahamiyati yana bir bora yuksak e’tirof etildi. Forum doirasida ko‘plab tadbirlar bo‘lib o‘tdi.[12] Forum akademik doiralarning faol fikr almashishiga, sohadagi yangiliklar, O‘zbekistonning ilmiy salohiyati bilan jahon hamjamiyatining kengroq tanishishiga imkoniyat yaratdi.

Muhokama. Keyingi yillarda Jaloladdin Manguberdi tarixini o‘rganish va buyuk sarkardaning tarixiy xizmatlarini yosh avlod qalbiga singdirishga qaratilgan amaliy ishlar jadallashdi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan Urganch shahri markazida Jaloladdin Manguberdi haykali o‘rnatildi. Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 23-iyuldagi 336-f sonli farmoyishiga asosan 2021-yilning noyabr oyida Xorazm viloyatida “Jaloliddin Manguberdi tarixining yangi sahifalarini o‘rganish” mavzusida xalqaro konferensiya bo‘lib o‘tdi. Shuningdek, Jaloliddin Manguberdi tarixining yangi sahifalari bilan bog‘liq ilmiy-tadqiqot ishlari qo‘llab-quvvatlanib, xorijiy mamlakatlarga ekspeditsiyalar tashkil etildi. Xususan, 2022-yil 10-18-may kunlari Turkiya davlatining Dijle universiteti olimlari Xorazm viloyatiga tashrif buyurgan. Bir hafta davomida mehmonlar ishtirokida turli uchrashuvlar, davra suhbatlari tashkil etildi[13]. Shuningdek, 2022-yilning 8-15-noyabr kunlari



Turkiyaning Istanbul va Diyorbakr viloyatlariga “Jaloladdin Manguberdi izidan” ilmiy-ma’rifiy ekspeditsiya uyushtirildi.

2022-yilning 4-5-iyun kunlari Xiva shahrida “Pahlavon Mahmud – Bahodirlar o‘yini” II Xalqaro turniri bo‘lib o‘tdi. Unda 14 ta davlatdan eng kuchli sportchi va pahlavonlar ishtirok qildilar. Ikki kun davom etgan turnirda eronlik pahlavon Reza Geytasi oliy o‘rinni egalladi[14].

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, BMT, MDH, SHHT, YEXHT va boshqa nufuzli xalqaro hamda mintaqaviy tuzilmalar doirasida O‘zbekiston Respublikasi xorijiy mamlakatlar bilan madaniy hamda gumanitar soha bo‘yicha aloqalarni keng ko‘lamda amalga oshiryapdi. Gumanitar hamkorlik aloqalari haqida gapirganda Orolbo‘yi hududida ekologik fojeaning salbiy ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini yumshatishga qaratilgan xalqaro gumanitar aloqalarni alohida ta’kidlash kerak.

“EKOSAN” xalqaro tashkiloti tomonidan mintaqada bir qator ijtimoiy va ekologik loyihalar, jumladan, 1995-yilda “ASPERA” Orolbo‘yi mintaqasidagi onalar va bolalarga mintaqaviy yordam ko‘rsatish loyihasi amalga oshirildi[15].

Hududda 1994-1996-yillarda “Orol dengizi – O‘zbekiston: toza suv, sanitariya va salomatlik” loyihasi amalga oshirildi. Unga ajratilgan 117 mln. AQSh dollarilik mablag‘ning 75 mln. dollari Jahon bankiga, 20 mln. dollari Quvayt arab iqtisodiy taraqqiyot fondiga, 9,4 mln. dollari Kreditancalt fur wiederaudu banki (Germaniya)ga tegishli edi. Loyiha doirasida Qoraqalpog‘istonda suv quvurlari qurilishi hamda Xorazm viloyatida qishloqlarni iqtisodiy rivojlantirish ishlari amalga oshirildi[16].

Respublika Sog‘liqni saqlash vazirligi va Hindistonning Nefroplyus kompaniyasi o‘rtasida 2021-yil 15-yanvar kuni tuzilgan davlat-xususiy sheriklik shartlari asosidagi bitim natijasida Xorazm viloyatida ijtimoiy sohaga kompaniya tomonidan 2 mln. AQSh dollari miqdorida investitsiya kiritilib, Urganch va Bog‘ot tuman tibbiyot birlashmalari hududida 58 ta o‘ringa ega 2 ta zamonaviy Gemodializ markazlari qurildi hamda yetakchi xorijiy davlatlarda ishlab chiqarilgan tibbiy asbob-uskunalar bilan taminlandi[17].

Xulosa: O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so‘ng madaniyat sohasidagi xalqaro aloqalar Xorazm viloyatining turizm sohasini rivojlantirishda ham muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Shuningdek, xalqaro darajada buyuk ajdodlarimizning tavallud sanalarining nishonlanishi hamda ularning ilmiy merosini keng targ‘ib qilish va o‘rganish imkonini berdi. Orol va orolbo‘yi muammolariga xalqaro hamjamiyatning e’tiborini qaratish natijasida viloyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga yo‘naltirilgan qator loyihalar amalga oshirildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xorazm viloyati musiqali drama teatrining joriy arxiv ma'lumotlari. – Urganch, 2018.
2. “Xalq so‘zi” gazetasi, 2018-yil, 25-aprel.
3. Xorazm viloyati musiqali drama teatrining joriy arxiv ma'lumotlari. – Urganch, 2021.
4. Xorazm viloyati musiqali drama teatri Adabiy bo‘lim boshlig‘i Gulnora Qurbonovaning intervyusi. – Urganch, 17-dekabr, 2022-yil.
5. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 27.05.2020 y., 06/20/6000/0673son//<https://lex.uz/docs/4829149?ONDATE=27.05.2020%2000>
6. Buyuk Britaniyada “Navro‘z” bayramiga bag‘ishlangan onlayn festival o‘tkazildi. 28.04.2021// <https://yuz.uz/uz/news/buyuk-britaniyada-navroz-bayramiga-bagishlangan-onlayn-festival-otkazildi>
7. Xorazm viloyati musiqali drama teatrining joriy arxiv ma'lumotlari. – Urganch, 2022.
8. Xorazm viloyati musiqali drama teatrining joriy arxiv ma'lumotlari. – Urganch, 2022.
9. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.09.2020 й., 07/20/4843/1334-son // <https://lex.uz/docs/-5020216>
10. “Yangi O‘zbekiston” gazetasi, 2022-yil, 27-aprel.
11. “Xorazm haqiqati” gazetasi, 2021-yil, 16-sentabr.
12. “Xorazm haqiqati” gazetasi, 2021-yil, 22-sentabr.
13. Abdirimov B., Atajonov G‘. 791 yil o‘tib. – Urganch: “Ogahiy” nashriyoti, 2023. – B. 24.
14. “Xorazm haqiqati” gazetasi, 2022-yil, 10-iyun.
15. Davletov S. Quyi Amudaryo hududidagi ekologik vaziyat va uni sog‘lomlashtirishning ijtimoiy muammolari. – Xivaa: ХМА НБ, 2007. – Б. 76.
16. Бекимбетов Б. История общественно-политического движения за спасение Аральского моря (1960-1990)
17. Бекимбетов Б. История общественно-политического движения за спасение Аральского моря (1960-1990 гг.). автореф. канд. ист. наук. – Нукус, 2006.

TARIX**MUSTAQILLIK DAVRIDA XIVA SHAHRINING IQTISODIY VA
MADANIY YUKSALISH BOSQICHLARI****UO‘K 512.71**

**GULZIRA
MADRIMOVA,
Urganch davlat
universiteti tayanch
doktoranti**

Annotatsiya: Mazkur maqolada 1991–1994-yillarda Xiva shahrining ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy rivojlanish jarayonlari tahlil qilingan. Unda mustaqillikning dastlabki yillarida shahar hayotida yuz bergan tub o‘zgarishlar-sog‘liqni saqlash, ta’lim, madaniyat va sanoat sohalaridagi yangilanishlar asosida o‘rganilgan. Shuningdek, sovet davridan keyingi o‘tish davrida iqtisodiy muvozanatning buzilishi, byudjet kamomadi va ta’minotdagi qiyinchiliklarga qaramay, mahalliy hokimiyat tomonidan ijtimoiy infratuzilmani saqlab qolish, aholining bandligini ta’minlash va madaniy merosni asrab-avaylashga qaratilgan chora-tadbirlar tahlil qilingan.

Аннотация: В данной статье проанализированы процессы социального, культурного и экономического развития города Хивы в 1991–1994 годах. Исследованы коренные изменения, произошедшие в жизни города в первые годы независимости, в частности, обновления в сферах здравоохранения, образования, культуры и промышленности. Также рассмотрены меры, предпринятые местными властями по сохранению социальной инфраструктуры, обеспечению занятости населения и защите культурного наследия, несмотря на экономические трудности переходного периода, дефицит бюджета и нарушения хозяйственного баланса.

Annotation: This article analyzes the processes of social, cultural, and economic development in the city of Khiva during the years 1991–1994. It examines the fundamental changes that occurred in the city’s life in the early years of independence, particularly the reforms in healthcare, education, culture, and industry. The study also explores the measures taken by local authorities to preserve social infrastructure, ensure employment, and protect cultural heritage despite the economic difficulties, budget deficit, and supply disruptions typical of the post-Soviet transition period.

Kalit so‘zlar: Xiva shahri, mustaqillik davri, iqtisodiy rivojlanish, madaniyat, sog‘liqni saqlash, ta’lim, sanoat, byudjet kamomadi, ijtimoiy infratuzilma, islohotlar, bandlik, madaniy meros.

Ключевые слова: Город Хива, период независимости, экономическое развитие, культура, здравоохранение, образование, промышленность,

бюджетный дефицит, социальная инфраструктура, реформы, занятость, культурное наследие.

Key words: *Khiva city, independence period, economic development, culture, healthcare, education, industry, budget deficit, social infrastructure, reforms, employment, cultural heritage.*

O'zbekiston mustaqillikka erishgan dastlabki yillarda mamlakatning barcha hududlarida, jumladan Xiva shahrida ham, iqtisodiy va ijtimoiy hayotda sezilarli o'zgarishlar kuzatildi. Bozor munosabatlariga o'tish jarayoni shahar byudjeti, mehnat bozori va ijtimoiy infratuzilma sohalarida turli qiyinchiliklarni keltirib chiqargan. Aynan 1991-yil ushbu jarayonlarning boshlang'ich bosqichi sifatida Xiva shahrining iqtisodiy holatini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

1991-yil Xiva shahrining favqulodda byudjeti tasdiqlangan bo'lib, unga ko'ra daromadlar qismi 12 988,0 million so'mni, xarajatlar qismi esa 15 840,6 million so'mni tashkil etgan. Shunday qilib, byudjetda 2 852,0 million so'mlik kamomad qayd etilgan. Shu yilning oktabr holatiga ko'ra shahar bo'yicha mehnatga layoqatli aholi soni 20 321 kishini tashkil etgan [1]. Shundan 387 nafari I–II guruh nogironlari, 313 nafari imtiyozli pensiya yoshidagilar, 19 621 nafari esa ishga layoqatli yoshdagilar bo'lgan. Mehnatga layoqatli aholining 440 nafari ish bilan band bo'lmagan[1]. Ushbu ko'rsatkichlar Xiva shahrida 1990-yillar boshlarida mehnat bozori va byudjet muvozanati o'rtasidagi iqtisodiy muammolar mavjudligini ko'rsatadi. Byudjet kamomadi, asosan, ijtimoiy sohalar — ta'lim, sog'liqni saqlash va madaniyat muassasalarini moliyalashtirish hajmiga salbiy ta'sir ko'rsatgan. Shunga qaramay, mahalliy hokimiyat tomonidan mavjud resurslarni samarali taqsimlash orqali ijtimoiy infratuzilmani qo'llab-quvvatlash, aholini ish bilan ta'minlash va ijtimoiy barqarorlikni saqlab qolish choralari ko'rilgan.

Xiva shahrining iqtisodiy hayotida murakkab, ammo o'tish davriga xos jarayonlar kechgan. Byudjet kamomadining mavjudligiga qaramay, shahar ma'muriyati tomonidan amalga oshirilgan ijtimoiy dasturlar, qurilish ishlari va infratuzilma loyihalari keyingi yillarda shahar iqtisodiy rivojlanishining poydevorini shakllantirgan.

Mazkur davrda Xiva shahrida 7 ta sanoat korxonasi faoliyat ko'rsatgan bo'lib, ularning 6 tasi joriy yilning birinchi yarim yilligi davomida asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlarga erishgan. Shu davr mobaynida sanoat korxonalari tomonidan 156 million 138 ming 600 so'mlik mahsulot ishlab chiqarilgan bo'lsa-

da, bu natijalar ishlab chiqarishning to'liq salohiyatidan foydalanilmaganini ko'rsatadi. Shunga qaramay, mustaqillikning ilk yillarida sanoat tarmog'ining barqaror faoliyat yuritgani bilan Xiva shahrining iqtisodiy hayotida ijobiy o'zgarishlar kuzatilgan. Korxonalarda ishlab chiqarish hajmi oshgan bilan, texnik jihozlanish, xomashyo bazasi va energetika ta'minotidagi muammolar o'z yechimini to'liq topmagan. Shu bois 1991-yil Xiva sanoatining rivojlanishida o'tish davri bosqichi sifatida baholanishi mumkin. 1991-yilda Xiva shahrida 7 ta sanoat korxonasi faoliyat ko'rsatgan bo'lib, shundan joriy yilning 1-yarim yilligida 6 tasi asosiy iqtisodiy ko'rsatgichlarga erishgan. Shu yilning o'tgan 6 oyi davomida sanoat korxonalari 156 mln 138 ming 600 so'mlik mahsulot ishlab chiqargan [2].

Shu yili aholiga savdo xizmati 49 million 619 ming so'm o'rniga 56 million 417,9 ming so'mlik hajmda amalga oshirilgan bo'lsa-da, kundalik iste'mol tovarlari bilan ta'minlashda uzilishlar kuzatilgan. Savdo hajmining oshgani bilan, aholining ehtiyojlarini to'liq qondirish imkoniyati mavjud bo'lmagan. Bu holat o'tish davrida iqtisodiyotda yuz bergan tarkibiy o'zgarishlar va ta'minot tizimidagi muammolar bilan izohlanadi [3].

Bu davrda Xiva shahrida 280 o'rinli bolalar bog'chasi, Mirsharap maktabiga qo'shimcha o'quv xonasi, 380 nafar bemorni qabul qilish quvvatiga ega bo'lgan poliklinika, shuningdek 11,5 ming kvadrat metr turar joy binolari qurilib, foydalanishga topshirilgan. Mazkur ijtimoiy ahamiyatga ega obyektlarning barpo etilishi shahar aholisi uchun ta'lim, sog'liqni saqlash va turar joy sharoitlarini yaxshilashga xizmat qilgan hamda Xivaning ijtimoiy infratuzilmasini mustahkamlashda muhim bosqich bo'lib xizmat qilgan [3].

1992-yilda Xiva shahrida ijtimoiy, madaniy va ta'lim sohalarida muhim islohotlar amalga oshirildi. Jumladan, Qasmobod mahallasida yangi poliklinikaning ish boshlashi sog'liqni saqlash tizimida aholiga yaqin, zamonaviy tibbiy xizmat ko'rsatish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qildi. Bu jarayon mustaqillik yillarida sog'liqni saqlash sohasida olib borilgan islohotlarning dastlabki natijalaridan biri sifatida e'tirof etilishi mumkin. Shu yili shahar mahallalari va ishlab chiqarish korxonalariga milliy ruhda yangi nomlarning berilishi — Leninobod mahallasining "Kalta Minor", Krupskaya nomli gilamchilik fabrikasining esa "Umid" deb nomlanishi jamiyat hayotida ma'naviy yangilanish jarayonining boshlangani, milliy qadriyatlar va tarixiy merosga qaytish siyosatining kuchayganidan dalolat beradi [4].

Bundan tashqari, 1992-yil may oyida Ichan qal'ada "Xorazm musiqa san'ati" muzeyining tashkil etilishi shahar madaniy hayotida yangi bosqichni boshlab berdi. Mazkur muzey nafaqat Xorazm musiqa merosini saqlash va targ'ib

qilish, balki milliy san'atni o'rganish va xalqaro miqyosda tanitish uchun ilmiy-amaliy baza sifatida ham ahamiyatli bo'ldi. Shuningdek, 1-qishloq xo'jalik bilim yurtining qishloq xo'jalik litseyiga aylantirilishi ta'lim tizimida amaliy yo'nalishlarni kuchaytirish, yoshlarni kasbiy tayyorgarlikka jalb etish borasida muhim qadam bo'ldi[4].

1992–1994-yillarda esa Xiva shahrining sanoat ishlab chiqarishida sezilarli o'sish jarayoni kuzatilgan. Ayniqsa, gilamchilik sohasida faoliyat yuritgan Xiva gilam ishlab chiqarish birlashmasining ishlab chiqarish quvvatini kengaytirish bo'yicha muhim tashabbus amalga oshirildi. Ushbu korxonaning 6 million kvadrat metr gilam mahsulotlari ishlab chiqarish imkoniyatiga ega bo'lgan, 100 ga yaqin yangi ish o'rinlarini yaratgan ikkinchi navbati ishga tushirilishi rejalashtirilgan[5]. Bu tashabbus nafaqat shahar iqtisodiyotini jonlantirish, balki aholini ish bilan ta'minlash, milliy hunarmandchilik an'alarini davom ettirish va ichki bozorni mahalliy mahsulotlar bilan to'ldirishda muhim rol o'ynadi. Umuman olganda, 1992–1994-yillar Xiva shahrida iqtisodiy faollikni tiklash, madaniy hayotni rivojlantirish va ijtimoiy sohalarini barqarorlashtirish yo'lida muhim bosqich bo'ldi.

Shahar taraqqiyoti mustaqillikdan keyingi yangi ijtimoiy-siyosiy sharoit, iqtisodiy islohotlar va milliy tiklanish jarayonlari bilan chambarchas bog'liq holda kechdi. Shu bilan birga, ta'lim tizimida amalga oshirilgan islohotlar, xususan, qishloq xo'jalik bilim yurtining litseyga aylantirilishi, yosh avlodni zamonaviy bilim va amaliy ko'nikmalar bilan ta'minlashga qaratilgan yangi yondashuvlar shakllandi.

Madaniy sohada esa mustaqillik davrining dastlabki yillarida milliy qadriyatlarni tiklash, tarixiy xotirani saqlab qolish va ma'naviy uyg'onishni ta'minlashga alohida e'tibor berilgan. Leninobod mahallasiga "Kalta Minor", Krupskaya gilam fabrikasiga esa "Umid" kabi nomlarning berilishi jamiyat ongidagi ideologik o'zgarishlarni, sovet davridan meros qolgan nomlarni milliy ruhdagi yangilanish bilan almashtirish jarayonining faol boshlanganini ko'rsatadi.

Sanoat sohasida, xususan, gilamchilik ishlab chiqarishning kengaytirilishi iqtisodiy faollikni tiklashda muhim o'rin tutdi. Xiva gilam ishlab chiqarish birlashmasining 6 million kvadrat metr mahsulot ishlab chiqarish quvvatiga ega yangi navbatining ishga tushirilishi nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshirdi, balki 100 ga yaqin yangi ish o'rni yaratish orqali aholi bandligini ta'minlashda ham muhim ahamiyat kasb etdi. Bu jarayon Xivaning xalq amaliy san'ati va hunarmandchilik an'alarini rivojlantirishda ham alohida o'rin egalladi.

Umuman olganda, 1992–1994-yillarda Xiva shahrida amalga oshirilgan islohotlar mamlakat mustaqilligining ilk bosqichida iqtisodiy inqiroz, ta'minotdagi uzilishlar va moliyaviy qiyinchiliklarga qaramay, shaharni barqaror rivojlantirishga, mahalliy resurslarni samarali boshqarishga va ijtimoiy sohalarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar tizimi shakllanayotganidan dalolat beradi. Aynan shu davrda Xiva o'zining tarixiy va madaniy qiyofasini saqlab qolgan holda yangilanish va modernizatsiya sari yo'l oldi. Bu esa keyingi yillarda 1990-yillarning ikkinchi yarmi va 2000-yillarda shahar iqtisodiyotining tiklanishi, xizmat ko'rsatish sohasining kengayishi va turizm infratuzilmasining rivojlanishi uchun mustahkam poydevor yaratdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.Фонд 237. Оп 1. Хр. 568. Протокол 10.Заседения исполнительного комитета Хивинского городского Совета народных депутатов. 30 октября, 1991 года.

2. Фонд 237. Оп 1.Хр.566. Протокол 8.Заседения исполнительного комитета Хивинского городского Совета народных депутатов. 28 августа, 1991 года.

3.Фонд 237. Оп 1. Хр.579. Протокол № Заседания исполнительного комитета Хивинского городского Совета народных депутатов. 29 января, 1992 года.

4.Sh. Masharipov. To'plovchi. Xiva solnomasi.(1991-2001). "Xorazm" nashriyoti.2001-yil. 6-bet.

5.Фонд 6. Оп 37. Хр 92. О'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi arxivining Xorazm viloyati bo'limi.1987-yil. 72-bet.

TARIX

YANGI O‘ZBEKISTON YOSHLARINING IQTISODIY HOLATI: YANGILIKLAR VA TENDENSIYALAR



Xurshid Davletov,
Urganch innovatsion
universiteti Yoshlar
bilan ishlash,
ma’naviyat va ma’rifat
bo‘limi boshlig‘i



Sobirova Shohida,
Toshkent shahar Mirzo
Ulug‘bek tumani
Yoshlar ishlari bo‘limi
“Sho‘rtepa” MFY
yoshlar yetakchisi

UO‘K: 947 (575.1)

Annotatsiya: Maqolada Yangi O‘zbekiston yoshlarining iqtisodiy holati va yangiliklari, tadbirkorlik sohasidagi faoliyati o‘rin olgan. Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya davrida har bir davlat o‘z taraqqiyotini ta‘minlashda inson kapitaliga, xususan, yoshlar salohiyatiga tayanishi tahlil etilgan.

Аннотация: В статье речь идёт об экономическом положении и новостях молодежи Нового Узбекистана, а также ее предпринимательская деятельность. В эпоху глобализации и цифровой трансформации каждая страна опирается на человеческий капитал, в частности, на потенциал молодежи, для обеспечения своего развития.

Annotation: The article covers the economic situation and news of the youth of New Uzbekistan, as well as their entrepreneurial activities. In today's era of globalization and digital transformation, each country relies on human capital, in particular the potential of youth, to ensure its development.

Kalit so‘zlar: Iqtisodiy barqarorlik, moliyaviy salohiyat, tadbirkorlik, innovatsion loyiha, moliyaviy qaror.

Ключевые слова: Экономическая стабильность, финансовая состоятельность, предпринимательство, инновационный проект, финансовое решение.

Key words: Economic stability, financial capacity, entrepreneurship, innovative project, financial decision.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatining izchil amalga oshirilishi ularning turmush darajasini, ijtimoiy va iqtisodiy faolligini oshirishga xizmat qilmoqda. “Yangi O‘zbekiston” g‘oyasi doirasida yoshlar nafaqat ijtimoiy qatlam sifatida, balki mamlakatning iqtisodiy va intellektual salohiyatini belgilovchi asosiy kuch sifatida e’tirof etilmoqda. Prezident Shavkat

Mirziyoyev ta'kidlaganidek, “Yoshlar – bizning eng katta boyligimiz va strategik kuchimizdir.”

Ayniqsa, 2024–2025-yillarda qabul qilingan “Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili” Davlat dasturi doirasida minglab yoshlar tadbirkorlikka jalb qilindi, grantlar, kreditlar va subsidiyalar orqali iqtisodiy faoliyat yuritish imkoniyatiga ega bo'ldi. Shu bilan birga, hali ham ishsizlik, norasmiy mehnat, moliyaviy savodxonlikning pastligi kabi bir qator muammolar mavjud.

Aholining 64 foizdan ortig'ini 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar tashkil etgan O'zbekiston hukumati o'z yoshlari, qolaversa, mamlakatning iqtisodiy barqaror kelajagini ta'minlashga harakat qilmoqda.

1. Nazariy asos va adabiyotlar sharhi.

Yoshlarning iqtisodiy holatini baholashda bir necha asosiy indikatorlarga e'tibor qaratiladi: ishsizlik darajasi, bandlik ko'rsatkichlari, daromad manbalari, tadbirkorlikda ishtirok, moliyaviy savodxonlik darajasi va ijtimoiy himoya bilan qamrab olinganlik. Jahon banki, Xalqaro mehnat tashkiloti (ILO) va BMT ma'lumotlariga ko'ra, yoshlarda iqtisodiy faollik darajasi bevosita mamlakatning umumiy iqtisodiy rivojlanish darajasiga bog'liqdir.

O'zbekiston sharoitida esa bu indikatorlar nafaqat iqtisodiy, balki siyosiy va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda muhim o'rin tutadi. So'nggi yillarda olib borilgan islohotlar, jumladan, “Yoshlar daftari”, “Temir daftar” kabi dasturlar orqali minglab yoshlarga iqtisodiy yordam ko'rsatilmoqda.

Ilmiy adabiyotlarda yoshlarning iqtisodiy holati ikki asosiy omil orqali tahlil qilinadi:

- **Strukturaviy yondashuv:** iqtisodiy tizimdagi makroiqtisodiy omillar, davlat siyosati, bandlik bozori holati;
- **Individ yondashuv:** yoshlarning malaka darajasi, ta'lim olgan sohasi, shaxsiy motivatsiyasi va innovatsion salohiyati.

O'zbekiston iqtisodiyotida yoshlarga ko'proq foyda keltiruvchi eng muhim o'zgarishlardan biri bu tadbirkorlikni rivojlantirishdir. Bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyotda tadbirkorlik qobiliyati iqtisodiy resurs hisoblanib, inson omilining tarkibiy qismini tashkil etadi. Tadbirkorlik – bu mahsulot ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishga ijodkorlik, yangilik yaratish asosida yondashish bilan bog'liq faoliyatdir. Biznes esa unga nisbatan keng tushuncha bo'lib, umuman foyda olish nuqtayi nazaridan yuritiluvchi faoliyatdir.

2025-yilning birinchi yarmida O'zbekistonda ishsizlik darajasi 5,1 foizgacha pasaydi. Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi 6 oy ichida ishsizlik darajasi 5,5%dan 5,1%ga tushganini ma'lum qildi. Iyun yakunlariga

ko‘ra, O‘zbekistonda 781,6 mingdan ortiq ishsiz fuqaro qayd etildi. Mehnatga layoqatli aholi soni 20,3 mln kishini tashkil etdi. Shundan 14,6 mln kishi band aholi hisoblanadi.



2025-yil O‘zbekistonda yoshlar ishsizligiga barham berish ishlari yangi bosqichga ko‘tarildi. Yoshlarni kasb va tilga o‘qitib, yuqori daromadli ishlarga joylashtirish maqsadida bu yil bandlik bo‘yicha katta dastur qabul qilindi. Buning uchun jami 126 trillion so‘m yo‘naltirilmoqda. Rahbarlar yoshlar ishsizligining salbiy oqibatlaridan, o‘z vaqtida band bo‘lmagan yoshlar bilib-bilmay nomaqbul ishlarga qo‘l urishi, diniy radikalizm ta‘siriga tushib qolishi, jinoyat ko‘chasiga kirishi mumkinligidan ogohlantirildi.

Yoshlar bandligi muammolari global miqyosda dolzarb masalalardan biri bo‘lib, ko‘plab davlatlar yoshlarni bandlikka jalb qilish bo‘yicha turli dasturlarni ishlab chiqib, amaliyotga joriy qilmoqda. Jahon Bankining ilmiy tadqiqotlar hujjatlari to‘plamida yoshlar bandligi masalalariga keng qamrovli yondashuvning samaradorligi tahlil qilingan, shuningdek, talab va taklif yo‘nalishidagi yondashuvlarning qiyosiy natijalari keltirilgan.

O‘zbekiston Respubliaksi Prezidentining 2025-yil 14-fevraldagi PQ 60-son qarori asosida yoshlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash tizimiga oid Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 10-iyuldagi 426-son qarori qabul qilindi. Qarorga

muvofiq “Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish davlat maqsadili jamg‘armasi” tomonidan imtiyozli kreditlar berilmoqda.

Davlat-xususiy sheriklikni kengaytirish.

O‘zbekiston hukumati o‘zining uzoq muddatli iqtisodiy o‘shish strategiyasining bir qismi sifatida iqtisodiy o‘shishni rag‘batlantirish uchun davlat-xususiy sheriklikni (DXSh) rivojlantirish zarurligini ham ta’kidladi. PPP yoshlarga korporativ kompaniyalar, xususiy shaxslar va davlat idoralari bilan o‘z biznes doirasini kengaytirishda hamkorlik qilish imkoniyatini taklif qiladi. Darhaqiqat, DXShlarning kuchi ular yosh tadbirkorlarning o‘shishi va muvaffaqiyatiga hissa qo‘shishi mumkin bo‘lgan keng imkoniyatlarni o‘rganish uchun taqdim etayotgan imkoniyatlardadir. Xuddi shunday, DP World kompaniyasi O‘zbekiston bilan Toshkent yaqinida joylashgan mamlakat dengiz portida logistika ob’ektlarini rivojlantirish bo‘yicha shartnoma tuzdi. Bunday hamkorliklar O‘zbekiston yoshlariga yuqori sarmoya kiritish uchun istiqbolli imkoniyatlar yaratadi.

O‘zbekiston yoshlari oldida turgan eng muhim muammolardan biri bu imkoniyatlar tengsizligidir. Bu muammo global miqyosda iqtisodiy farovonlik uchun eng muhim tahdidlardan biri sifatida tan olingan. Agar O‘zbekiston yoshlari ta’lim olish, tadbirkorlik ko‘nikmalarini o‘rgatish va resurslardan foydalanishda teng imkoniyatlarga ega bo‘lmasa, ijtimoiy harakatchanlik chegaralanadi va natijada yuqori tengsizlik paydo bo‘ladi.

Bu muammoni hal qilish O‘zbekiston hukumatidan yanada kengroq yondashuvni talab qiladi, bu esa barcha yoshlarning hayotda oldinga siljishi uchun zarur bo‘lgan resurslar va ta’limdan foydalanish imkoniyatini ta’minlashi kerak. Ayni paytda, ayniqsa, qishloq joylarida ayollar imkoniyatlari bo‘yicha tafovutlar mavjud. Hukumat ayollarning erkaklar kabi imkoniyatlardan foydalanishiga ishonch hosil qilishi kerak.

Kredit olish imkoniyatining cheklanganligi butun dunyo bo‘ylab yangi korxonalar ochishni hohlovchi yoshlar uchun keng tarqalgan muammo bo‘lib, O‘zbekiston ham bundan mustasno emas. Muvaffaqiyatli startaplarni yo‘lga qo‘yishda yoshlar uchun moliyaga ega bo‘lish juda muhim va O‘zbekiston hukumati yosh tadbirkorlar uchun ishonchli kapital manbalaridan foydalanish imkoniyatini yaxshilashi kerak.

Hukumat bunga venchur kapitali mavjudligini kuchaytiruvchi tizimlarni yaratish va banklar va investorlar uchun tartibga solish muhitini yaxshilash orqali erishishi mumkin. Bundan tashqari, yosh tadbirkorlarni past foizli kredit mexanizmlari orqali moliyalashtirish boshqa yechim bo‘lishi mumkin.

Yoshlar ishsizligini hal qilish.

Hukumatning sa'y-harakatlariga qaramay, ishsizlik O'zbekiston yoshlari uchun muhim muammo bo'lib qolmoqda. Dunyo bo'ylab hukumatlar bu borada katta mas'uliyatni o'z zimmlariga olishlari kerak, bu esa korporativ korxonalarni yosh mutaxassislarni, ayniqsa bitiruvchilarni yollashga undaydigan rag'batlarni taqdim etishi kerak. Qolaversa, O'zbekiston ko'proq stajirovka va shogirdlarni yo'lga qo'yishga sarmoya kiritishi kerak, chunki ular yoshlarni ish joyida o'qitib, amaliy tajriba bilan ta'minlaydi va ularning ish bilan ta'minlanish imkoniyatlarini oshiradi.

O'zbekiston tashabbusi, xususan, tadbirkorlikni rivojlantirish, texnologiya yutuqlari, davlat-xususiy sheriklikni kengaytirish, ijtimoiy himoya tarmoqlari yoshlar iqtisodiyoti uchun optimistik istiqbollarni taqdim etadi. Biroq imkoniyatlar tengsizligi, ayollar tadbirkorligining yetarli darajada ishtirok etmasligi, kredit olishning yetarli emasligi, yoshlarning ishsizligi kabi jiddiy muammolarni faol hal etish zarur.

Ushbu muammolarni bartaraf qilish orqali O'zbekiston hukumati o'zining yosh aholisi salohiyatini yanada ochib berishi va mamlakat iqtisodiyotini yuksaltirishda hal qiluvchi rol o'ynashi mumkin. Siyosatchilar, xususiy sektor, akademik va fuqarolik jamiyatining birgalikdagi sa'y-harakatlari natijasida O'zbekiston yoshlar iqtisodiyoti iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi markaziy o'rinni egallagan kelajakni yaratishi mumkin.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Norqulov S. Fuqarolik jamiyati va ijtimoiy ongda transformatsiya jarayonlari. – Toshkent: “Navro‘z”, 2015.
2. Umarova F., Norqulov S. Modernizatsiya va o'zbek etnotafakkuridagi yangilanishlar. – Toshkent: “Fan va texnologiyalar” nashriyot-matbaa uyi, 2021.
3. Komilov N. Komil inson –millat kelajagi. – Toshkent, “O'zbekiston”, 2001.

TARIX**XORAZM MATEMATIKA MAKTABI ILMIY AN'ANALARINING
DAVOMCHISI**

**Ismailova Intizor,
Urganch davlat
universiteti
mustaqil tadqiqotchisi**

UO'K: 947 (575.1)

Annotatsiya: Maqolada o'zbek matematika ilmida o'ziga xos o'ringa ega bo'lgan Xorazm matematika maktabining davomchisi, fizika-matematika fanlari doktori, professor, akademik Azimboy Sa'dullayevning ilmiy faoliyati, uning xalqaro miqyosdagi yutuqlari va O'zbekiston fan-matematika sohasidagi hissasi haqida so'z boradi. Azimboy Sa'dullayevning "Funksiyalar nazariyasi" sohasidagi ilmiy maktabi va plyuripotential nazariyasi sohasidagi yutuqlari ushbu maqolada alohida ta'kidlanadi.

Аннотация: В данной статье рассматривается научная деятельность академика, доктора физико-математических наук, профессора Азимбая Садуллаева — выдающегося представителя Хорезмской математической школы, обладающего значительным вкладом в развитие математики и физико-математических наук в Узбекистане. Особое внимание уделяется научной школе Азимбая Садуллаева в области теории функций и достижениям в теории плюрипотентов.

Annotation: This article discusses the scientific activity of Azimboy Sadullaev, an academician, Doctor of Physical and Mathematical Sciences, and professor, who is a prominent representative of the Khorezm Mathematical School and has made significant contributions to the development of mathematics and physical-mathematical sciences in Uzbekistan. Special emphasis is placed on Sadullaev's scientific school in the theory of functions and his contributions to the theory of pluripotentials.

Kalit so'zlar: Azimboy Sa'dullayev, Xorazm matematika maktabi, funksiyalar nazariyasi, plyuripotential nazariyasi, ilmiy maktab, matematika, xalqaro olimpiadalar, ilmiy rahbarlik.

Ключевые слова: Азимбой Садуллаев, Хорезмская математическая школа, теория функций, теория плюрипотентов, научная школа, математика, международные олимпиады, научное руководство.

Key words: *Azimboy Sadullaev, Khorezm Mathematical School, theory of functions, pluripotential theory, scientific school, mathematics, international Olympiads, scientific leadership.*

Oʻrta asrlarda Oʻzbekiston mintaqasi, xususan Xorazm ilm-fan markazlaridan biri hisoblanar edi. U islom olimlari va mutafakkirlari uchun muhim ilmiy makon boʻlib, bu yerda matematika, astronomiya, fizika, kimyo kabi fanlar yuqori darajada rivojlangan. Xorazmlik olimlar keyingi asrlarda ham bu fanning taraqqiyotiga zamin yaratdilar. Mustaqillik yillarida Oʻzbekistonning matematika va fizika-matematika fanlarining rivojida Xorazm matematika maktabi muhim oʻringa ega boʻldi. Bu maktab anʼanalari va zamonaviy ilmiy maktablar milliy va xalqaro darajada koʻplab yosh olimlarni tarbiyalab, oʻz ilmiy makonini bugun ham kengaytirib kelmoqda. Akademik Azimboy Saʼdullayev ushbu maktabning eng buyuk vakili sifatida nafaqat ilmiy yutuqlari, balki ilmiy maktablarni tashkil etish, yoshlarga rahbarlik qilishda ham katta xizmat qilgan olimlardan biridir.

Olimning hayot yoʻliga nazar solar ekanmiz, 1947-yil 9-yanvarda Xorazm viloyati Shovot tumanida tavallud topgan Azimboy Saʼdullayevning ilmiy yoʻli 1963-yilda Toshkent Davlat universitetining mexanika-matematika fakultetida tahsil olishdan boshlanganini koʻramiz. 1966-yildan Moskva Davlat universiteti (MDU)da tahsil olishni [1.] davom ettirgan matematik olim 1968-yilda oʻzining ilk ilmiy natijalarini taniqli “Математические заметки” jurnalida eʼlon qiladi, bu uning ilmiy salohiyatining ilk namoyon etilishi boʻldi.



Rus matematigi Ye.M. Chirko oʻz xotiralarida akademik A.Saʼdullayevning ilmiy faoliyatiga baho berar ekan, shunday yozadi; “1966-yili Azimboy Saʼdullayev Toshkent davlat universitetidan Moskva davlat universitetining (MDU) mexanika-matematika fakultetiga 3-kursga oʻtdi. U oʻzining ilmiy rahbari sifatida MDU professori Boris Vladimirovich Shabatni tanladi. Oʻsha paytda mashhur matematiklar V. A. Zorich, Ye. M. Chirka, G. M. Xenkin, S. I. Pinchuk, Ye. A. Poleskiy Shabatning talabalari boʻlib, A. Saʼdullayev shu ilmiy guruhga darhol qoʻshildi” [2. 5]. Aytish joizki, olim toʻrtinchi kursda talaba boʻlgan paytida oʻzining ilk ilmiy ishini amalga oshirdi va golomorfik xarijatning yangi konstruksiyasini taklif qildi, bu ochiq joyni tarqatuvchi xarita edi. Bu ish “Математические заметки” nomli nufuzli jurnalda chop etildi. Universitetni tamomlaganidan soʻng, u aspiranturada qolib, butun

funksiyalar va ularning kompleks chiziqlar bo'yicha nollari ustida ishladi. U butun funksiyalarning kanonik tarqalishlari to'g'risida teoremani isbotladi va shu natija asosida Lelon—Shtollning fundamental teoremasining sodda isbotini taqdim etdi. Akademikning keyingi ishlari kompleks potensial nazariyasi va Monj—Amper tenglamalariga bag'ishlangan.

O'tgan asrning 30-40-yillarda geometrik kompleks tahlil nazariyasining jadal rivojlanishi kuzatildi. Ko'pgina tadqiqotlarda an'anaviy potensial nazariyasining kompleks tuzilmani hisobga olgan analogining yetishmasligi sezilarli edi. Yangi nazariya plyurisubgarmonik funksiyalar va Monj—Amper operati bilan bog'liq bo'ladi. Bremerman, Sichak, Bedford, Teylor, Zaxaryuta, Kiselman, Aleksander, Segrel, Zaryaxa, Sadullaev kabi olimlar Monj—Amper tenglamalari bilan bog'liq ekstremal plyurisubgarmonik funksiyalarni va ularning ko'p o'lchamli kompleks tahlilda qo'llanilishini ilmiy ravishda o'rgandilar.

Azimboy Sa'dullayev o'lchov (ekstremal funksiya) yordamida plyuripolyar to'plamlar bilan bog'liq bo'lgan kenglikni birinchi marta aniqladi. Bu kenglik, uning aytishicha, u-kenglik deb nomlanib, an'anaviy kenglik xususiyatlarining ko'plariga ega bo'lib, u-kenglik nolga teng bo'ladi, agar va faqat agar to'plam plyuripolyar bo'lsa. Keyingi tahlillarda bu kenglik Nevanlinna nazariyasining asosiy teoremlaridan birini isbotlashda qo'llanildi: kompleks ko'pqirrali xaritalarda Valron nuqtai nazaridan nuqsonli divizorlar to'plami plyuripolyar to'plamdir. Bu Griffiths va King tomonidan qo'yilgan muammoning ijobiy javobi bo'ldi.

1979-yili A. Sa'dullayev kondensatorning kengligini u yoki bu holatda faqat uzluksiz plyurisubgarmonik funksiyalar yordamida kiritdi va kenglikning bir qator xususiyatlarini isbotladi hamda kenglik nolga teng bo'lishi uchun kerak va kifoya shart — to'plam plyuripolyar bo'lishi lozimligini ko'rsatdi [3. 26]. Ushbu kenglik metodi bilan muallif lokal plyuripolyar to'plamlarning har qanday Shtayn ko'pqirralida global plyuripolyarligini sodda isbotladi. Bu natija Yevgeniy Yozefson tomonidan $\mathbb{C}^n$ fazosida isbotlangan edi. Shu vaqtda Ye. Bedford va A. Teylor kompleks potensial nazariyasidagi muhim masalani — $\mathbb{C}^n$ operatorlarining cheklangan plyurisubgarmonik funksiyalar sinfida uzluksizligini isbotladilar. Bu Luzin—Kartanning $\mathbb{C}^n$ -xususiyatining analogini tasdiqladi, Lelonning plyuripolyar to'plamlari plyuripolyar ekanligini va kenglikning hajmini aniqladi. Bu markaziy muammolarning yechimi bilan yangi nazariya — kompleks potensial nazariyasining asoslari yaratildi.

Bu nazariyaning keyingi taraqqiyoti uning analitik funksiyalar nazariyasining turli sohalarida qo'llanilishi bilan bog'liq. Azimboy Sa'dullayevning ko'plab ishlarida bu nazariyani analitik davom ettirish, ratsional

yaqinlashtirishlar, golomorfik va plyurisubgarmonik funksiyalarning chek nazariyalari masalalarida qo'llanilishi namoyon etildi. Ushbu metodika hozirgi kunda Z. Bloskiy, B. Abdullaev va boshqa olimlar tomonidan ham muvaffaqiyatli qo'llanilmoqda.

A.Sa'dullayev 1972-yilda nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilib, Toshkent davlat universitetiga katta o'qituvchi sifatida ishga qabul qilindi[4. 26]. Keyingi yillarda u nafaqat ilmiy tadqiqotlar bilan shug'ullandi. Shuningdek Urganch davlat universitetida rektor vazifasida ham faoliyat yuritdi. Olimning samarali ilmiy faoliyatiga xorij olimlari yuksak baho berganlar.

1980-90-yillarda A.Sa'dullayev Yevropa va Amerika mamlakatlaridagi ilmiy markazlar bilan faol hamkorlik o'rnatdi, xalqaro konferensiyalar va olimpiadalarda ishtirok etdi. Bu tajribalar uning pedagogik va ilmiy rahbarlik salohiyatini oshirishga yordam berdi. 1985-1992-yillarda Toshkent davlat universiteti fakulteti dekani bo'lib ishladi, 1992-2007-yillarda esa Urganch davlat universiteti rektori lavozimida faoliyat yuritdi. Bu davrda u yosh olimlarni qo'llab-quvvatlash, ilmiy maktablar tashkil etish va rivojlantirishga katta e'tibor qaratdi. Shuningdek, bir vaqtning o'zida Xorazm Ma'mun akademiyasi raisi sifatida ham o'z ilmiy va uyushtiruvchilik salohiyatini namoyon etdi.

Azimboy Sa'dullayev funksiyalar nazariyasi sohasida O'zbekistonda faoliyat yurituvchi ilmiy maktabning asoschilaridan biri hisoblanadi. Ushbu sohadagi ilmiy maktab Plyuripotentlar nazariyasi [5] kabi yangi va dolzarb yo'nalishlarni ham rivojlantirdi. A.Sa'dullayev rahbarligida tarbiyalangan shogirdlar bir qator xalqaro olimpiadalarda g'oliblikka erishdilar, 5 nafar shogirdi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti stipendiyasini olgan, ko'plab yosh olimlar Yevropa universitetlarida doktorlik dissertatsiyalarini himoya qilishmoqda. Olimning maktabi 12 ta nomzodlik, 7 ta doktorlik ishida o'zining aksini topgan.

Bilim olish, o'qib-o'rganishning o'ziga yarasha mashaqqatlari borki, xalqimiz bu jarayonni bejiz igna bilan quduq qazishga qiyoslamaydi. Bunday o'xshatish, ayniqsa, matematika fani uchun juda joizdir. Fikrimizni asoslash uchun bir misol keltirsak: yaxshi bilasiz, Yer yuzidagi barcha fanlar oliy ta'lim dargohida eng avvalidan, ya'ni "alifbe"sidan boshlab o'qitiladi, birgina matematika quyi ta'lim bosqichlarida kelgan joyidan — oliy matematika fanlari bilan davom ettiriladi. Shuning uchun ham bunda "igna bilan chuqurroq quduq qaziladi", ushbu "quduqdan topilgan" ilm durlari esa bashariyatning ilm xazinasidan mustahkam o'rin egallaydi.

Buyuk ajdodimiz Muhammad Xorazmiy joriy qilgan hisoblash algoritmlari, qadimgi yunon matematiklari ixtiro qilgan geometriya teoremlari, Yevropa olimlari ishlab chiqqan matematik tahlil usullari buning namunalaridir.

Darvoqe, XVIII asrda I. Nyuton bilan V. Leybnis yaratgan differensial va integral hisob “ko‘hna qit’a”da texnika taraqqiyotiga asos bo‘lgan. Bungacha matematikada oddiy sonlar ustidagi amallar qo‘llanilgan bo‘lsa, yangi hisob o‘zgaruvchi kattaliklar va ular o‘rtasidagi bog‘lanish — funksiyalarni har tomonlama tahlil qilish imkonini bergan. Bino va inshootlar qurilishida mazkur tushunchaga u qadar ehtiyoj tug‘ilmagan, ammo harakatlanuvchi mashinalarni loyihalash, dinamik jarayonlarni o‘rganish funksiya tushunchalarisiz mumkin bo‘lmagan.

XIX asrda matematiklar sonlarning ancha umumiy, muhimi, haqiqiy sonlarga qaraganda ma’lum ma’noda mukammallik xossasiga ega toifasini — kompleks sonlarni ixtiro qildilar. Dastavval, ular matematikaning o‘zidagina tatbiq qilindi — o‘ta murakkab muammolarni yechishni osonlashtirdi. Masalan, yosh nemis matematigi K. F. Gauss kompleks sonlar yordamida qadimgi Yunoniston davridan ochiq qolib kelgan geometriya muammosi — muntazam ko‘pburchaklarni yasash masalasini hal qilishga muvaffaq bo‘ldi. XX asr boshlarida suyuqlik va gaz oqimini aynan kompleks funksiyalar vositasida tekshirish qulayligi aniqlandi. Natijada N. Ye. Jukovskiy samolyotlar qanotining ko‘tarish va vintning tortish kuchini kompleks funksiyalar yordamida hisoblashga muvaffaq bo‘ldi hamda bu uchuvchi apparatlarni sanoat asosida ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yishga zamin yaratdi.

Keyinchalik elektr, magnit, gravitatsiya kabi ta’sir maydoni hosil qiluvchi obyektlarni o‘rganishda asosiy qurol bo‘lgan potentsiallar usuli aynan kompleks funksiyalar bilan ifodalanishi ma’lum bo‘ldi. Natijada bu nazariya gidromexanikada, geofizik qidiruv ishlarida, jumladan, yer osti foydali qazilmalarining zahirasini hisoblashda tatbiq qilina boshlandi. Mumtoz potentsiallar nazariyasi jahonning ko‘plab ilmiy markazlari, yirik matematiklarning sa’y-harakatlari bilan o‘tgan asrning o‘rtalarida to‘la shakllandi.

Shundan so‘ng matematiklar yanada yuqoriroq natijalarga erishish ilinjida bir necha kompleks o‘zgaruvchilar o‘rtasida bog‘liqlikni ifodalovchi (qisqacha plyurigarmonik) funksiyalarni tekshirishga o‘tishdi. Biroq bunday funksiyalar fazosi o‘ta tor bo‘lib chiqdi va bu soha boshi berk ko‘chaga kirib qoldi. Shu davrda o‘zbek matematiklaridan A.Sa’dullayev ana shunday funksiyalarni o‘z ichiga oladigan, ammo beqiyos darajada keng bo‘lgan funksiyalar sinfi bilan ishlay boshladi. Bu izlanish matematikaning turli sohalari, ayniqsa, fizikada

muhim tatbiqlarga ega bo'lgan potentsiallar nazariyasida yangi yo'nalishni yaratishga olib keldi.

A. Sa'dullayev ushbu yo'nalish rivojiga eng ko'p hissa qo'shgan olimlardan biri sifatida e'tirof etiladi. Uning eng nufuzli horijiy ilmiy jurnallarda chop qilingan natijalari, monografik maqolalari yangi nazariyaning yaratilishida hal qiluvchi o'rin egalladi, chet ellik olimlarning monografiyalari va o'quv qo'llanmalaridan joy oldi. Bugun bu yo'nalish "Plyuripotentsiallar nazariyasi" degan nom bilan matematika fanidan joy olgan va dunyoning yirik ilmiy markazlarida tatbiq etilmoqda. Hech shubhasiz, mazkur nazariya matematikaning istiqbolli yo'nalishlaridan biri bo'lib, jadal rivojlanishda davom etmoqda, uning yangidan-yangi tatbiqlari topilmoqda. Shuni qoniqish bilan qayd etish joizki, A. Sa'dullayev nazariyasi jahondagi yirik matematik ilmiy markazlar: Indiana (AQSh), Parij va Tuluza (Fransiya), Stokgolm (Shvesiya), Yagellon (Polsha) universitetlari, Rossiya Fanlar akademiyasi Matematika instituti olimlari tomonidan e'tirof etilgan. Masalan, 2011-yilda Yevropa matematiklar jamiyati tomonidan nashr etilgan M. Yarniski bilan P. Pflyugning "Separat analitik funksiyalar" kitobida bayon qilingan natijalarning talay qismi plyuripotentsiallar usuli bilan olingan, uning dastlabki ikki bobi, asosan, A. Sa'dullayevning ishlaridan tashkil topgan, jumladan, Sa'dullayev—Chirka teoremasi, Tuychiev (A.Sa'dullayevning shogirdi) teoremasiga alohida bo'limlar ajratilgan [6]. Amerikalik olimlar Dauvey Ma va Tejinder Nilonlarning 2015-yilda chop etilgan "Formal qatorlarning yaqinlashish sohalari" maqolasida esa shunday e'tirof so'zlari keltirilgan: "Quyidagi teorema Sa'dullayevga tegishli. Hali chop qilinmagan qo'lyozmasidagi natijani taqdim qilgani uchun biz unga minnatdorlik bildiramiz va maqolamizda bu teoremadan foydalanganligimiz uchun uning to'liq isbotini beramiz" [7].

Plyuripotentsiallar nazariyasi mamlakatimiz ilmiy markazlarida ham o'rganilmoqda. Iqtidorli yosh matematiklarni jalb etish maqsadida Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti, Samarqand, Urganch va Qoraqalpog'iston davlat universitetlarida maxsus kurslar o'qitilib, ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu nazariya asoslari birinchi bo'lib A. Sa'dullayevning Germaniyaning Palmarium Academic Publishing nashriyotida 2012-yilda chop qilingan "Plyuripotentsiallar nazariyasi. Qo'llanishi" monografiyasida izchil bayon qilindi [2.7].

Olimning ilmiy merosi 3 ta monografiya, 6 ta darslik hamda 200 dan ortiq ilmiy maqolalarni o'z ichiga oladi. U o'z faoliyati davomida ko'plab davlat mukofotlari bilan taqdirlangan: "O'zbekiston Respublikasi faxriy yorlig'i"

(1990), “Oliy va oʻrta maxsus taʼlim fidoiysi” (1999), “Oʻzbekiston belgisi” (2000), shuningdek, 2020-yilda “Mehnat shuhrati” ordeni va 2022-yilda 1-darajali “Mehnat faxriysi” koʻkrak nishoni bilan mukofotlangan [8].

Xulosa. Azimboy Saʼdullayev oʻzining ilmiy va pedagogik faoliyati bilan Xorazm matematika maktabining ilmiy anʼanalarini mustahkamlab, ularni yangi bosqichga koʻtargan mashhur olimdir. U xalqaro hamkorlik va yoshlarni tarbiyalashdagi xizmatlari bilan Oʻzbekistonda matematika fanining rivojlanishiga katta hissa qoʻshgan. Azimboy Saʼdullayevning ilmiy maktabi va pedagogik anʼanalari kelajakda ham yurtimiz fanini boyitishda muhim rol oʻynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Urganch davlat universiteti arxivi. 56-papka.
2. Olim, ustoz va doʻst. Toshkent. 2017. -B.98.
3. А.Садуллаев. “Валироновские дефектные плоскости голоморфного отображения”, ДАН УзССР, 1979, №1, С.3-4; А.Садуллаев. “Псевдоалгебраическая зависимость функций многих переменных”, Изв. АН УзССР, сер. Физ-мат. наук. 1979, №1, С.78-80; А. Садуллаев. “Дефектные дивизоры в смысле Валирона”, Мат. сб. АН СССР, 1979, 108(150), №4, С.567-580.
4. Садуллаев А.С. “Каноническое произведение и аналитические множества”. Ав.т дис. кан.физ.-мат.наук.-М. 1972.
5. Садуллаев А.С. “Плюрисубгармонические функции (коллективная монография)”, Современные проблемы математики. Изд-во ВИНТИ, 1985, т.8, С.65-114.
6. А. Садуллаев, С. И. Пинчук, Е. М. Чирка. “Геометрические вопросы продолжения голоморфных отображений и аналитических множеств”, Тезисы докладов: «Актуальные вопросы комплексного анализа»; Ташкент 1985, С.85.
7. Olim, ustoz va doʻst. Toshkent. 2017. -B.98.
8. “Nuroni” gazetasi.2022-y. Maxsus son.

TARIX

FARG‘ONA VODIYSI TIBBIYOT MUASSASALARIDA MUTAXASSIS SHIFOKORLAR FAOLIYATINING YO‘LGA QO‘YILISHI (1991-2001-yillar)



**Mamasoliyeva
Guldon ,
Andijon davlat
universiteti
Jahon tarixi
kafedrasida katta
o‘qituvchisi**

UO‘K: 947 (575.1)

Annotatsiya: Maqolada istiqlolning dastlabki o‘n yilligida, 1991-2001-yillarda Farg‘ona vodiysi viloyatlarida sog‘liqni saqlash sohasida malakali tibbiyot shifokorlarining faoliyati tahlil qilingan.

Аннотация: В статье проанализирована деятельность квалифицированных медицинских врачей в области здравоохранения в первые десять лет независимости, в 1991-2001 годах в областях Ферганской долины.

Annotation: The article analyzed the activities of qualified medical doctors in the field of health in the first ten years of independence, in 1991-2001 in the areas of the Ferghana Valley.

Kalit so‘zlar: Farg‘ona vodiysi, kasallik turlari, malakali shifokorlar, tibbiyot muassasalari, Qishloq vrachlik punkti.

Ключевые слова: Ферганская долина, виды заболеваний, квалифицированные врачи, медицинские учреждения, сельский врачебный пункт.

Key words: Ferghana valley, types of diseases, qualified doctors, medical institutions, rural medical center.

Ma‘lumki, har bir yo‘nalishda o‘zining yetuk mutaxassislari asosiy o‘rin egallaydi. Tibbiyot tarixiga nazar soladigan bo‘lsak, qadimdan tabiblarning deyarli barchasi bemorlarga ko‘p qirrali yordam ko‘rsatganlar. Lekin XIX asrdan boshlab tibbiyot yo‘nalishi turli tor mutaxassisliklarga bo‘lindi va bu jarayon bugungi kunda ham davom etmoqda.

Hozirda O‘zbekiston sog‘liqni saqlash tizimida 78 dan ortiq yo‘nalish bo‘yicha mutaxassisliklar mavjud, Rossiya Federatsiyasida esa ular soni 173 ga teng. Insonlarda 10 mingdan ortiqroq kasallik turlari uchrab, ular 100 mingdan ko‘proq belgilar bilan namoyon bo‘ladi va tashxislash uchun 400 ga yaqin turli laborator sinamalardan foydalaniladi[1.15]. Demak, o‘tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab dunyodagi rivojlangan mamlakatlarda vujudga kelgan tibbiy va

iqtisodiy sabablar hamda shart-sharoitlar umumiy amaliyot shifokorlarini tayyorlashga o'tishni taqazo qildi.

Biroq, mamlakatda bu jarayon istiqbolning dastlabki yillarida ancha qiyin kechgan. Bu davrda tibbiyot kadrlariga bo'lgan talab ortib, aholi soniga nisbatan shifokorlarning yetishmaslik holatlari kuzatilgan. Tibbiyot mutaxassislarining yetishmasligi tizimdagi asosiy muammolardan biri edi.

O'zbekistonda 1990-yillarda shifokorlar va o'rta tibbiyot xodimlari sonining kamayishi, birinchidan, migratsiya masalasi bilan bog'liq bo'lgan. Mamlakat mustaqillikni qo'lga kiritganidan so'ng yevrey, armani, mesxeti turklari, rus va boshqa ko'plab millat vakillari o'z vatanlariga ko'chib ketgan. Ikkinchidan, mahalliy o'zbek millatiga mansub mutaxassislar uchun xorijiy davlatlar, jumladan, Afrika va arab mamlakatlarida katta maosh evaziga ishlash uchun keng yo'l ochilgan. Uchinchi sabab esa tibbiyot o'quv yurtlariga qabul sonining qisqarishi bilan bog'liq edi.

Shuningdek, sog'liqni saqlash sohasi mutaxassislarining mintaqaviy taqsimlanishida ham ba'zi nomutanosibliklar ko'zga tashlandi. Malakali shifokorlar asosan viloyat va shahar markazlarida faoliyat olib borishi natijasida, tumanlarda, olis, chekka hududlarda yetishmovchiliklar vujudga kelgan. Agar vodiy viloyatlari aholisining qariyb yarmidan ko'pi qishloqlarda istiqomat qilishini hisobga olsak, bu nomutanosiblik aholining katta qismiga ta'sir qilganligini ko'rish mumkin[2.84].

Bu davrda vodiy viloyatlarida boshqa sohalarda bo'lgani singari tibbiyot tizimida ham qator kamchiliklarga yo'l qo'yilgan. Masalan, Andijon viloyatida joylashgan tibbiyot muassasalarida faoliyat yuritayotgan xodimlarning o'z ishlariga sovuqqonlik bilan qarashi, vazifasini suiste'mol qilish hollari kuzatilgan.

Bu borada mas'ullar tomonidan klinik va bioximik laboratoriyalarda tahlillarning noto'g'ri olib borilishi, diagnostik asbob-uskunalaridan foydalanishlardagi kamchiliklari uchun Asaka shahar poliklinikasi mudiri o'rinbosari, Komsomolobod (hozirgi – Ulug'nor) tumani Markaziy kasalxonasi bosh shifokorlarining o'rinbosarlari, Qo'rg'ontepa tumani poliklinikasining mudiri va boshqa xodimlarga tegishli choralalar ko'rilgan[3.62].

Mazkur davrda Farg'ona viloyatida bir vaqtning o'zida 5 ming 945 nafar malakali shifokorlar mehnat qilgan[4.27]. Bu bir qaraganda respublikada yaxshi ko'rsatkich hisoblansada, tizimda ko'plab mutaxassislar yetishmagan.

1992-yilda tibbiyot muassasalarining mutaxassislar bilan ta'minlanishini talab darajasiga yetkazish uchun viloyatdagi 366 nafar shifokordan 257 nafariga (70 foiz) ishlash uchun qishloq joylaridagi davolash-profilaktika muassasalariga yo'llanma berilgan. Bundan tashqari, 135 ta Qishloq vrachlik

ambulatoriyalarining bosh shifokorlari o'z lavozimlaridan bevosita davolash ishiga qaytarilgan. Natijada qishloq aholisining shifokorlar bilan ta'minlanishi bir muncha yaxshilandi.

1993-yilda Farg'ona viloyati sog'liqni saqlash boshqarmasi tomonidan aholiga ko'rsatilayotgan tibbiy yordam sifatini yaxshilash maqsadida viloyat shifoxonalarining imkoniyatlaridan foydalangan holda yil davomida 36 marta joylarga chiqishlar tashkil etilib, tibbiy ko'riklar o'tkazilgan. Yetuk malakali mutaxassislar tomonidan 5 ming nafardan ko'proq fuqarolarga malakali tibbiy yordam ko'rsatilgan. 1 ming nafardan ortiq murakkab xastaliklari bor bemorlarga viloyat shifoxonalariga yo'llanmalar berilgan[4.21].

1994-yil holatiga Namangan viloyatida jami 5 ming 220 nafar shifokorlar faoliyat yuritgan bo'lib, har 10 ming aholiga taqqoslaganda o'rtacha 30,3 nafarga to'g'ri kelgan. Respublikada esa bu ko'rsatkich 33,9 nafarni tashkil etib, viloyat bu borada ortda qolgan edi. Ushbu holatda viloyatdagi ichki hududiy tafovutlar muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Masalan, Norin tumanidan 30,1 nafar bo'lgani holda, Namangan tumanida 12,6 nafar va To'raqo'rg'on tumanida 17,0 nafarni tashkil etib, viloyat ko'rsatkichidan deyarli 2 barobar kam edi. Bunday vaziyat mazkur tumanlarning viloyat markaziga tutashganligi bilan izohlanishi mumkin. Chunki bu tumanlarda istiqomat qiluvchi aholi vakillari bir vaqtning o'zida Namangan shahrida joylashgan tibbiyot muassasalari xizmatidan foydalangan. Aholining kichik tibbiyot xodimlari bilan ta'minlanishi borasida ham yuqoridagi holatlar kuzatilgan[5.86].

1995-yilga kelib mamlakatda barcha ixtisosliklar bo'yicha 75 ming 117 nafar shifokor, 246 ming 124 nafar o'rta ma'lumotli tibbiyot xodimlari, 2 ming 571 nafar farmatsevtlar faoliyat yuritdi. Respublikada shifokorlarning o'zi bu davrda istiqolning dastlabki yiliga qaraganda 106 baravar ko'paydi. 5 ming 608 nafar oliy ma'lumotli, jumladan, 2 ming 517 nafar davolash, 2 ming 83 nafar pediatriya, 321 nafar gigiena, sanitariya va epidemiologiya, 328 nafar stomatologiya, 359 nafar farmatsiya yo'nalishi bo'yicha mutaxassis kadrlar tayyorlandi[6.143]. Lekin shunga qaramay aholining demografik o'sib borishi hisobiga tibbiyot xodimlarining yetishmasligi asosiy muammo sifatida dolzarbligicha qoldi.

Ayni shu davrda Andijon viloyati hokimligi, sog'liqni saqlash tashkiloti va muassasalari aholiga sifatli hamda talab darajasida tibbiy yordam ko'rsatish, qishloq infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha ijobiy ishlarni amalga oshirdi. Davlat va idoralarning uylarida yashagan 1 ming 448 nafar tibbiyot xodimlaridan 245 nafarining uylari xususiylashtirildi. 1 ming 604 nafari esa tomorqa bilan

ta'minlandi. Bozor iqtisodiyoti talablaridan kelib chiqqan holda tibbiyot tizimida chuqur tarkibiy o'zgarishlar ro'y berdi[7.55].

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 1997-yil 19-fevraldagi 77-son buyrug'i va Sog'liqni saqlash vazirligining 1997-yil 10-noyabrdagi Moliya Vazirligi bilan kelishilgan 1-6/650-sonli "Sog'liqni saqlash vazirligiga qarashli muassasa va tashkilotlarda shtatlar normativi" to'g'risidagi buyrug'ida har 1 ming 500 nafar o'smirlar 1,0 stavka o'smirlar shifokori ko'rsatilgan. Shunga ko'ra Namangan viloyatida 123,3 stavka o'smirlar terapevt shifokori shtat birligi ajratilishi kerak edi. Biroq, 89,25 stavka shtati ajratilgan, xolos. O'smirlar shifokorlari bilan ta'minlanish viloyat bo'yicha 72,4 foiz bo'lgan holda, To'raqo'rg'on, Namangan, Pop, Yangiqo'rg'on tumanlari va Namangan shahrida o'rtacha 46,2 foizga ta'minlangan. Bu davrda 89,25 stavkada 111 nafar o'smirlar shifokori mehnat qilgan. Ularning 50 nafarining ish staji 5 yildan kam bo'lgan. Buni tumanlar kesimida tahlil qilsak, Norin, Mingbuloq tumanlaridagi o'smirlar shifokorining birortasida ham toifasi bo'lmagan, Kosonsoy va To'raqo'rg'on tumanlarida 1 nafardan shifokorlar toifaga ega edi.

Bu davrda tumanlardagi Qishloq vrachlik punktlarida mehnat qilgan shifokorlar soni tahlil qilinganda quyidagi ko'rinishda bo'lgan: To'raqo'rg'on tumani "Yangiobod", "Gulqishloq", "Oq tosh" va Shoxidon" QVP larda 2 nafardan, Kosonsoy tumani "Sharq Yulduzi" QVPda 1 nafar, "Yoshlik" QVPda 2 nafar, Uychi tuman "Daxiota" QVPda 1 nafar, "G'alaba" QVPda 3 nafar, "Yakka tut" QVPda 5 nafar, Chust tumani "Olmos" QVPda 3 nafar, "Chust non", "Axcha" va "Yorqishloq" QVPlarda 1 nafardan, Namangan tumani "Qoratepa" QVPda 1 nafar, "G'alcha" QVPda 2 nafar, Uchqo'rg'on tumani "Chorvador" va "Yangi yer" QVP larda 3 nafardan, Yangiqo'rg'on tumani "Mamay" va "G'ovazon" QVP larda 2 nafardan, Norin tumani "Uch tepa" "Polvonqul" va "Qozoqovul" QVP larda 2 nafardan, Pop tumani "To'da", "Paxta-kanar" va "Nayman" QVPlarda 3 nafardan shifokorlar aholiga xizmat ko'rsatgan. Mazkur davrda o'smir qizlarga tibbiy xizmat ko'rsatish holati o'rganilganda viloyatning barcha tumanlaridagi tibbiyot muassasalariga o'smir ginekologlar shtatlari kiritilgan bo'lib, qizlarni davolash-sog'lomlashtirish ishlari olib borilgan. Lekin ayrim sabablarga ko'ra Namangan shahrida joylashgan poliklinikalarda o'smir ginekolog shtati kiritilmagan.

Viloyatda 15-17 yosh o'smir qizlar 60 ming 547 nafar bo'lib, o'smir - yoshlarning 50,2 foizini tashkil etgan. O'smir ginekologlari ishtirokida ularning 95 foizi tibbiy-profilaktik ko'rikdan o'tkazilgan. Biroq, Uychi, Yangiqo'rg'on va Namangan shaharlarida bu boradagi ishlarda sustkashlik yo'l qo'yilgan.

O'smir qizlar o'rtasida o'tkazilgan tibbi-profilaktik ko'rikda genital kasalligi aniqlanganlar viloyat bo'yicha 4 ming 131 nafar bo'lib, dispanser nazoratiga olingan. To'raqo'rg'on, Uchqo'rg'on va viloyat o'smirlar dispanserida ish tashkil qilish samarali yo'lga qo'yilmaganligi bois dispanser nazoratiga kam olingan. Natijada o'smir qizlarni sog'lomlashtirish ishlari viloyat bo'yicha 28,8 foizga bajarilgan, xolos.

O'rganilayotgan yillarda Namangan viloyati bo'yicha jami 375 ta kardiologik o'rin-joylari mavjud bo'lib, unda 71 nafar shifokor kardiologlar xizmat qilgan. Ularning 20 nafari oliy toifali, 17 nafari 1-toifali, 11 nafari 2-toifali mutaxassislardir. 22 nafari toifaga ega emas yoki institutni keyingi 2-3 yil ichida tamomlagan yosh mutaxassislardan iborat bo'lgan.

1998-yilda Namangan viloyatida stomatologlar assotsiatsiyasi tuzildi. Unga 145 nafar stomatolog shifokor va tish texniklari a'zo bo'lgan[8.19].

Mazkur davrda oliy tibbiyot o'quv yurtlarida tibbiy mutaxassislar tayyorlashning milliy tizimi yaratilgan. Unga ko'ra, amaliy mashg'ulotlar uchun o'quv vaqtini ko'paytirish, o'quv vaqtining deyarli 30 foizini talabalarning mustaqil ishlashlariga berish bo'yicha taklif kiritilgan. Mamlakat sog'liqni saqlash tizimida o'tkazilayotgan islohotlar natijasida tibbiyot kadrlari tayyorlashni quyidagi ikki bosqichda olib borish yo'lga qo'yilgan.

1998-yilda Farg'ona viloyatida shifokorlarning malakasini oshirish Vrachlar malakasini oshirish instituti mutaxassislari tomonidan emas, balki Pediatriya ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan 10 kunlik qisqa muddatli sikllar shaklida amalga oshirilgan [2.139].

Sohada 15 – 20 yillab faoliyat ko'rsatgan shifokorlarning ayrimlarida toifa bo'lmagan. Bu esa tizimda malakali kadrlar tayyorlash bo'yicha yangicha yondashuvni talab qilgan.

Namangan viloyatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998-yil

10-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish Davlat dasturi to'g'risida"gi PF-2107-sonli farmoni va shu farmon yuzasidan Respublika Sog'liqni saqlash vazirligining 1998-yil 23-dekabrdagi 598-sonli buyrugi, viloyat hokimligining 1998-yil 30-noyabrdagi 298-sonli qarori bo'yicha qabul qilingan qarorlarining ijrosini ta'minlash maqsadida tizimli ishlar tashkil qilindi[9].

1998-yil 10-noyabrda "Sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish to'g'risida" Prezident Farmoni e'lon qilindi[2.97]. Mazkur Farmon va Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan qarorlar asosida shifokorlar tayyorlashning ikki

bosqichli tizimiga o'tildi. Uning birinchi bosqichi bakalavriat hisoblanib, o'qish muddati 5 yildan 7 yilgacha qilib belgilandi. O'qishning ikkinchi pog'onasi magistratura bo'lib, bunda ayrim tor yo'nalishlar bo'yicha mutaxassislarning tayyorlanishi yo'lga qo'yildi. Magistraturada o'qish muddati 3 yil qilib belgilandi[2.26].

Istiqlolning dastlabki yilida mamlakatda jami 71 ming 131 nafar shifokorlar faoliyat yuritgan bo'lsa, 2000-yilga kelib 73 ming 389 nafarga ortgan. Bu ko'rsatkich Andijonda 670 nafarga, Namanganda 590 nafarga, Farg'onada 733 nafarga ko'paygan[9].

Namangan viloyati bo'yicha 1999-yilda QVP larda jami 1 mln 40 ming 7 nafar bemorlar qatnovi bo'lgan. Yil davomida 1 ta QVPga 13 ming 700 nafar bemorlarning qatnovi amalga oshirilgan. Bu ko'rsatkich Norin tumanida 9,9 nafar, Uchqo'rg'on tumanida 11,1 nafar, Namangan tumanida 11,9 nafar, To'raqo'rg'on tumanida 12,1 nafarga to'g'ri kelgan.

Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan barcha QVP lardagi 392 ta kunduzgi shifo o'rinlarida 15 ming 986 nafar bemorlar davolangan bo'lsa, yil davomida bir shifo o'rinda 40-41 nafardan bemor davolanishiga to'g'ri kelgan, bemorlarning o'rtacha davolanishi 8,8 kunni tashkil etadi[10].

QVP larda ishlash uchun malakali shifokorlarni tanlab, ularning o'qitilmaganligi hamda kerak bo'lgan bosh mutaxassislar tomonidan amaliy yordam berilmaganligi sababli QVP larida bemorlar qatnovi kam bo'lib, patronaj va targ'ibot ishlari sust olib borilgan. Kunduzgi shifo o'rinlarida bemorlarning davolanishi va ularni kuzatish jarayoni, laborator tahlillar va diagnostik tekshiruvlar yetarli darajada olib borilmagan. Ayrim joylarda mutaxassislarning fizioterapevtik va elektrokardiogramma apparatlarini ishlatishni bilmaganliklari sababli mazkur vositalardan umuman foydalanilmagan[8.19].

2000-yilda Namangan viloyatidagi jami tashkil etilgan QVP va SHVP soni 177 taga yetdi. QVP va SHVP lar uchun viloyat bo'yicha jami 555 ta shifokorlik lavozimlari ajratilgan bo'lib, bularning 554 tasi 509 nafar shifokorlar bilan band etilgan. O'rindoshlik koeffitsienti 1,09 ni, tashkil qilgan[11.115].

Farg'ona viloyatida shifokorlar bilan ta'minot har 10 ming aholiga

2002-yilda 23 nafarga to'g'ri kelgan bo'lsa, 2003-yilda 22,6 nafarni tashkil etgan. Bu holat Qo'qon, Farg'ona va Marg'ilon shaharlarida viloyat ko'rsatkichidan yuqoridir. Farg'ona, So'x, Toshloq, Bog'dod, Yozyovon va Oxunboboyev tumanlarida viloyat ko'rsatkichidan 2 barobar past bo'lgan.

Davolash-profilaktika mussasalaridagi mavjud shifokorlik shtatlari 8 ming 59 ta, shundan band lavozimlar 7 ming 49 tani tashkil etgan. Shifokorlik

lavozimining mutaxassislar bilan ta'minoti viloyatda 87,5 foiz bo'lgani holda Toshloq, Farg'ona va Oxunboboyev tumanlarida 80 foizni tashkil qilgan.

O'rindoshlik koeffitsienti viloyat bo'yicha 1,4 foiz bo'lgani holda bu ko'rsatkich Quvasoy, Marg'ilon shaharlarida va Farg'ona tumanida viloyat ko'rsatkichidan yuqori bo'lsa, So'x, Toshloq, Furqat, O'zbekiston, Quva, Dang'ara, Bog'dod tumanlarida viloyat ko'rsatkichiga yetmagan.

Toifali shifokorlar 2 ming 618 nafar yoki umumiy shifokorlarning 41,4 foizini tashkil qilgan. Ulardan 25,7 foizi oliy, 71,0 foizi birinchi va 13,3 foizi ikkinchi toifali hisoblangan.

Istiqlolning dastlabki yillarida mamlakatda bo'lgani singari vodiy viloyatlarida ham mutaxassis shifokorlarga bo'lgan talab yuqori bo'lgan. Mamlakat mustaqillikni qo'lga kiritganidan so'ng o'z sohasining yetuk bilimdoni bo'lgan boshqa millat vakillariga mansub shifokorlar o'z vatanlariga ko'chib ketdilar. Natijada respublika sog'liqni saqlash tizimida tibbiyot kadrlari bilan bog'liq vaziyat yanada og'irlashdi. Mazkur yo'nalishdagi mavjud muammolarga yechim topish maqsadida hukumat tomonidan islohotlar amalga oshirila boshladi.

Bu borada Andijon, Namangan va Farg'ona viloyatlarida ham aholiga birlamchi, shoshilinch va ixtisoslashgan tibbiy xizmatlar ko'rsatishda shifokorlarning malakasini oshirish va qayta tayyorlash ishlari muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Har bir shahar, tumanlardagi tibbiyot muassasalari, shifoxonalar, tez tibbiy yordam shaxobchalarida faoliyat yuritayotgan shifokorlarda zamonaviy tibbiy talablar asosidagi bilim va ko'nikmalar shakllantirildi.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Gadoyev A. Umumiy amaliyot vrachlarini hozirgi zamon talablari asosida tayyorlash / Viloyat va tuman shifoxonalarining bosh vrachlari uchun seminar kengash materiallari. – Toshkent, 1998.
2. O'zbekiston Respublikasi ilmiy-texnika va tibbiyot hujjatlari milliy arxivi. M-372-fond. 1-ro'yxat, 164-yig'majild, 482-yig'majild, 526-yig'majild.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi arxivi Andijon viloyati bo'limi. 4141-fond, 1-ro'yxat, 99-yig'majild.
4. Farg'ona viloyat davlat arxivi. 1220-fond, 1-ro'yxat, 5-yig'majild, 60-yig'majild.
5. Nazarov M.I. Qishloq joylarida aholiga tibbiy xizmat ko'rsatishning hududiy tashkil etilishi. (Namangan viloyati misolida): geog. fan. nomz. diss.– Toshkent, 1996.

6. Fayzullaev T., Sarimsoqov A. Mustaqil O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi. – Namangan, 2012.
7. Abduxalimov A.A. O‘zbekiston qishloq aholisining ijtimoiy hayoti tarixidan. (Farg‘ona vodiysining Andijon, Farg‘ona va Namangan viloyatlari misolida, 1991-2020-yillar.) O‘quv qo‘llanma. – Toshkent, “Nurafshon biznes”. 2022.
8. Namangan viloyati davlat arxivi. 908-fond, 1-ro‘yxat, 277- yig‘majild, 334-yig‘majild.
9. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi joriy arxivi.
10. Namangan viloyati Sog‘liqni saqlash boshqarmasi joriy arxivi.
11. Abduxalimov A.A. Farg‘ona vodiysi sog‘liqni saqlash tizimidagi modernizatsiya jarayonlari tarixi (1991–2023-yillar). Monografiya. Toshkent: “Nurafshon biznes”, 2024.

FILOLOGIYA

JOY NOMLARI – MUHIM TARIXIY-LISONIY MANBA SIFATIDA



**Zaribboy Do'simov,
Abu Rayhon Beruniy
nomidagi
Urganch davlat
universiteti
professori, filologiya
fanlari doktori.**

UO'K: 947 (575.1)

Annotatsiya: Ushbu maqolada joy nomlari xalq tarixi, urf-odatlar, dunyoqarashi, orzu-maqсадlari, tili xususida boy va muhim ma'lumotlarni saqlagan bebaho manba sifatida dalillangan.

Аннотация: В статье утверждается, что топонимы являются бесценным источником богатой и важной информации об истории, обычаях, мировоззрении, стремлениях и языке народа.

Annotation: This article argues that place names are an invaluable source of rich and important information about the history, customs, worldview, aspirations, and language of a people.

Kalit so'zlar: joy nomlari, toponimlar, onomastika, onomastic birliklar, geografik xarita.

Ключевые слова: топонимы, ономастика, ономастические единицы, географическая карта.

Key words: place names, toponyms, onomastics, onomastic units, geographical map.

Dunyoda hamma narsaning nomi bor. “Tog” deganda, balandmi-pastmi, kattami-kichikmi umuman tog tushuniladi. Ko‘l ham shunday umumiy atama, turdosh ot. Bunday so‘zlarni hohlagan tilga tarjima qilish mumkin. Atoqli ot esa qandaydir bir narsani, predmetni, obyektini bildiradi va odatda tarjima qilinmasdan hamma tillarda deyarli bir xil yoziladi va talaffuz qilinadi. Bir joyni ikkinchisidan, bir jilg‘ani boshqa bir jilg‘adan, bir ko‘chani yonidagi ko‘chadan, tog‘-adirnlarni, shahar va qishloqlarni bir-birlaridan farq qilish uchun ham kishilar nomlar o‘ylab topganlar. Joy nomlari geografik nomlar yoki toponimlar deb ataladi. Toponimlarni toponimika fani o‘rganadi [1.:5]. Joy nomlari, ya’ni toponimlar oddiy so‘zlar emas. Ular xalqning tarixi, urf-odatlar, dunyoqarashi, orzu-maqсадlari, tili xususida boy va muhim ma'lumotlarni saqlagan bebaho manbadir. Geografik nomlar, ya’ni toponimlar lug‘at tarkibining bir qismi bo‘lib, til qonuniyatlariga bo‘ysunadi. Albatta, so‘zni tilshunoslik - lingvistika fani o‘rganishi kerak. Demak, toponimika atoqli otlarni o‘rganadigan onomastika fanining bir qismi bo‘lib, tilshunoslik fanlari qatoriga kiradi. Ikkinchi tomondan, geografik nomlar xaritaning eng muhim elementi sifatida biron mamlakat yoki

o'lkta tabiatining xususiyatlarini aks ettiradi. Shu nuqtayi nazardan toponimikani geografik fanlar jumlasiga kiritish mumkin [1.:6]. Shu bilan birgalikda, joy nomlari jamiyat tarixi bilan chambarchas bog'liq. Joylarga qanday nom berish, avvalo, jamiyatning muayyan bosqichdagi ehtiyojlari bilan belgilanadi. Joy nomlari tarixini bilmasdan turib, toponimika bilan shug'ullanish kutilgan natijani bermaydi. Shu boisdan ham toponimika tarix fanlari qatoridan o'rin oladi.

Dars jarayonida ushbu manbadan foydalanish bir tomondan, darsning samaradorligini oshirsa, ikkinchi tomondan, o'quvchilar o'zlari yashayotgan muhit va qo'llayotgan nomlarning yuzaga kelish tarixi, qanday ma'no anglatishi, xalqimiz o'tmishining qaysi davrida, kimlar tomonidan va qay tarzda yaratilganligi haqidagi g'oyat qiziqarli ma'lumotlarga ega bo'ladilar. Eng asosiysi, o'quvchilar nomlarga sinchkovlik bilan munosabatda bo'ladi. Ularda tahlil ko'nikmalari rivojlanadi.

O'quvchilar quyi sinflardanoq nomlar bilan ish ko'ra boshlaydi. Darsda ularning ma'lum obyekt bilan bog'liqligi, yozilishi haqida dastlabki tasavvurga ega bo'ladilar. Mashg'ulotlarda geografik xaritalardagi nomlar, tarixiy voqealar bilan bog'liq nomlar, mahalliy joy nomlarining kelib chiqishi bilan tanishtirib borish samarali uslubiy vositalardan biri hisoblanadi.

O'quvchilarda so'z yasalishi haqida, so'zning morfologik tarkibi va qo'shimchalar haqida, shuningdek, etimologik tahlil ko'nikmalarini taraqqiy ettirishda toponimik material muhim vositadir.

Ma'lumki, toponimlar juda uzoq davrning mahsuli. Ayniqsa, tarixiy nomlar bizning davrimizga yetib kelguncha qator lisoniy (fonetik, ma'noviy, tarkibiy) o'zgarishlarga uchraganligi tabiiydir. Avvalo, o'quvchilarga ushbu o'zgarishlarning xususiyatlari haqida ma'lumot berish lozim. Nomlarni qo'llash jarayonida ularning tarkibiy o'zgarishiga turli faktorlar sabab bo'ladi.

1. Geografik nomga asos bo'lgan so'z eskirib, shu tilda umuman iste'moldan chiqib qoladi. Natijada toponimning ma'nosi ham unutiladi.

So'g'onchi toponimi piyozchi demakdir. Chunki so'g'on qadimgi turkiy tillarda piyoz degan ma'noni bildirgan. Demak, piyozchilar qishlog'i. Yoki Tovshonqir nomini ko'ring: Tovshon//Tovushqon qadimgi "quyon" degani bo'lib, Tovshonqor "Quyonli qir" demakdir. Yozyovon nomi **yoz** (yoki yozi) - cho'l, **yovon** -dasht, cho'li biyobon degani.

Bunday misollar tilimizda ko'plab uchraydi.

Obyektning mazkur nomni olishga sabab bo'lgan belgilari o'zgarib ketadi yoki butunlay yo'qoladi. Bu esa nomning asl ma'nosi unutilishiga sabab bo'ladi.

Yetti terak, *To‘qqiz qayrag‘och* kabi nomlar shu joyda qayrag‘och yoki terakning mavjudligiga ishora qiladi. Nomshunoslikda yetti, to‘qqiz, qirq, yuz kabi sonlar ayni shu raqamning qiymatini ifodalamaydi, balki ifodalangan predmetning ko‘pligi yoki kamligini bildiradi. Shuning uchun yuqoridagi nomlarni “terakli qishloq”, “qayrag‘ochzor”, “qayrag‘ochi bor joy” deb tushunmoq kerak. Ammo vaqt o‘tishi bilan na terak, na qayrag‘och qolmasligi mumkin. Qiyos qiling: Krivoy Rog shahrining nomi sirtdan qaraganda “qiyshiq shox” deb o‘qiladi. Lekin V.A.Nikonovning tekshirishicha, Krivoy ovrag, ya’ni “qiyshiq jar”dir. Shahar jar yonida yoki xandaqlarga yaqin joyda qurilgan. Ammo hozir bu jar yo‘q [4.]. Natijada shahar nomining ma’nosi unutilgan.

O‘zbekistonning barcha viloyatlarida uchraydigan *Do‘rmon* nomini olaylik. Bu toponim ham o‘zbek xalqining bir urug‘i nomi bilan bog‘liq bo‘lib, mo‘g‘ulcha “to‘rt” demakdir.

Qadimda shu urug‘ vakillarining ko‘chib yurishi natijasida ularning nomi bilan ataladigan joylar vujudga kelgan.

Nomlarning aksariyat ko‘pchiligi shu joyning geografik tuzilishi bilan bog‘liq holda vujudga keladi. Masalan, Shahrisabz “Ko‘k shahar”, “Yashil shahar”, ya’ni bog‘i ko‘p shahar degan ma’noni bersa, Sibir toponimi S.Qorayevning tekshirishicha “botqoqlik”, “zax joy” demakdir.

Toshkentdagi Salor arig‘i qadimda Rudak deb yuritilgan. Bu so‘z forscha Rud “kanal” + ak (kichraytirish qo‘shimchasi) “kichik ariq, ariqcha” ma’nosini bildiradi. Denov shahri nomi ham ikki qismdan iborat bo‘lib, Dehi nav (deh “qishloq”, nav “yangi”)forschada “yangi qishloq”dir.

Bunday misollar tilimizda anchagina. Nomlar turli xil fonetik o‘zgarishlarga uchraydi. Bu ko‘pincha nomning asl ma’nosini bilishni qiyinlashtiradi. H.Hasanovning ko‘rsatishicha, Toshkent juda ko‘p nomlar bilan atalgan va har xil o‘zgarishlarga uchragan. U O‘rta asrlarda Tarkan arab manbalarida Shosh, tojik-fors tilida Choch va Joj, Xitoy manbalarida, Chje-je va Ta-shi-xan shaklida yozilgan. Mahmud Qoshg‘ariy mazkur nomni “toshdan qurilgan shahar” deb izohlaydi. Grek avtorlari shahar nomini Lifivos – Petros “Tosh qal’a” deb tilga oladilar. Aslida bularning hammasi Toshkent so‘zining buzilgan shakllaridir.

Beruniy tumanida Qilichinoq deb ataluvchi qishloq bor. Mahalliy aholi uning ma’nosini “qil” so‘zi yoki “qul” elementi bilan bog‘laydi (Qul+chinoq shevada laqab). Aslida nom ikki qismdan Qilich (kishi ismi) va “inoq” (Xeva

xonligidagi mansab nomi) soʻzlaridan iborat boʻlib, Qilich inoqdir. Nom tarixdagi birinchi komponent oʻz urgʻusini yoʻqotish natijasida tizim oʻzgarish sodir boʻlgan.



Agar shu nom asos boʻlgan soʻz boshqa tildan kirgan boʻlsa, mazkur tilda oʻz maʼnosini yoʻqotadi. Masalan, koʻpincha qabila nomlari toponimik nom uchun asos boʻlgan. Bularning baʼzilari aslida moʻgʻul tilidan kirgan.

Nayman – moʻgʻulcha sakkiz demakdir. Oʻzbekistonda Nayman, Naymancha, Naymanariq kabi nomlar koʻplab uchraydi. Mangʻit – myangayet tojik-fors tilidan oʻtgan “besh suv, besh ariq” degani.

Fikrimizcha, ushbu bayon qilingan masalani oʻrganish ularni dars jarayoniga tatbiq etish uchun avvalo oʻqituvchi bu soha boʻyicha bilimga ega boʻlishi lozim. Shunday ekan, oliy oʻquv yurtlarining

filologiya, geografiya, tarix kabi boʻlimlarida onomastika ilmi boʻyicha maxsus kurslar oʻqitilsa, maqsadga muvofiq boʻlar edi. Hamda bu oʻquvchilarga yuksak bilim berish uchun muhim qoʻshimcha manba sifatida xizmat qiladi.

Geografik nomlar muayyan hududda ajralgan holda emas, balki oʻsha hudud bilan, u yerdagi tabiiy-tarixiy hamda ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar bilan bogʻliq holda oʻrganiladi. Ayni vaqtda tevarak-atrofdagi hudud, oʻlkalarning tabiati, tarixi hamda toponimiyasi ham hisobga olinishi kerak. Chunki geografik nomlar uzoq davrlar mahsuli boʻlgani bois vaqt oʻtishi bilan ozmi-koʻpmi shaklan va mazmunan oʻzgarishi, xalqlarning koʻchib yurishi natijasida esa bir joydan ikkinchi bir joyga oʻtib qolishi mumkin.

Demak, toponimika uchta katta soha: tilshunoslik, geografiya, tarix oraligʻidagi fandir. Shu bois toponimikaning talaygina faktlari xarakter jihatdan xilma-xil boʻlgan lingvistik, tarixiy va geografik material jalb qilingandagina toʻgʻri izohlab berilishi mumkin.

Ko‘rinib turibdiki, biron-bir geografik yoki bir guruh nomning kelib chiqish tarixini mumkin qadar aniqroq tushuntirib berishni maqsad qilib olgan toponimik tadqiqot oson ish emas, u talay vaqt hamda katta kuch talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qorayev S. Toponimika. – Toshkent: “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti”, 2006. – 304-b.
2. Do‘simov Z., Tillayeva M. Xorazm onomastikasining shakllanishi va Avesto. – Toshkent: “Fan”, 2010-yil.
3. Do‘simov Z. Xorazm shevalari leksikasida substrat qatlam haqida. Tilshunoslikning dolzarb masalalari to‘plami. - Toshkent, 2008-yil.
4. Никонов В.А. Краткий топонимический словарь. – М., с. 216.

FILOLOGIYA**ANTROPONIMLAR LEKSIK ASOSLARINING NOMLANISHIDA
O'XSHATISH TAMOIYILINING AHAMIYATI**

**Miyassar Tillayeva,
Abu Rayhon Beruniy
nomidagi
Urganch davlat
universiteti dotsenti,
f.f.n.**

UO'K: 946

Annotatsiya: Mazkur maqolada antroponimlar leksik asoslarining nomlanishida o'xshatish tamoyilining ahamiyati asosan ayol ismlari misolida isbotlab berilgan.

Аннотация: В данной статье демонстрируется значение принципа аналогии при наименовании лексических баз антропонимов, преимущественно на примере женских имён.

Annotation: This article demonstrates the importance of the principle of analogy in the naming of lexical bases of anthroponyms, mainly on the example of female names.

Kalit so'zlar: antroponimlar, ayol ismlari, o'xshatish tamoyili, leksik asos, nomlanish tamoyillari.

Ключевые слова: антропонимы, женские имена, принцип аналогии, лексическая база, принципы наименования.

Key words: anthroponyms, female names, principle of analogy, lexical base, naming principles.

Tilda mavjud bo'lgan so'zlar kabi ism (antroponim)lar ham tilda turli vazifalarni bajaradi. Tilda birorta ism yo'qki, u muayyan maqsad, istaksiz berilgan bo'lsin. Ism tanlangach, u o'zining asosiy vazifasi atoqli otlik vazifasini, ya'ni shaxsni o'zgalardan farqlash vazifasini o'tay boshlaydi. Ammo uning boshqa vazifalari ham bor: kishi ismlari jamiyat a'zolari ichida, shuningdek, avloddan-avlodga ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-madaniy, tarixiy-etnografik, etikaviy-estetik xabarlarini tashiydi. Har bir inson jamiyatga o'z ismi bilan kirib keladi. Umri davomida unga mana shu ism hamrohlik qiladi. Bir so'z bilan aytganda, ism – insonning yuzi. Qachondir va qaysidir davrada ismimizdagi qusur yoki xatolik bizni uyaltirib qo'yishi mumkin. Shu o'rinda, mashhur hadisni ham eslatish joiz deb topdik. Abu Dardo roziyallohu anhu Rasululloh sollallohu alayhi va sallamdan rivoyat qiladi: "Albatta sizlar Qiyomat kuni o'z ismlaringiz va otalaringiz ismi bilan chaqirilasisizlar. Bas (shunday ekan), ismlaringizni chiroyli qilinglar!". Ham diniy, ham dunyoviy qonuniyatga ko'ra shaxsga ism qo'yish muhim jarayondir.

Hech bir ota-ona o'zi yashayotgan muhit, davr, ijtimoiy-iqtisodiy sharoit, madaniy-ma'naviy turmush talablaridan tamoman chetga chiqib keta olmaydi. Chunki bu omillar kishi ismlarining yuzaga kelishi, o'zgarishi va rivoji uchun doimo sezilarli ta'sir o'tkazib turadi. Chunonchi, ibtidoiy jamoa va urug'chilik davrida ijod qilingan turkiy ismlarda ko'proq botirlik, jasurlik ramzi bo'lgan tushunchalar; chaqaloqning hayoti, uning sog'ligi, ulg'ayishini orzu qilish bilan aloqador tasavvurlar; go'zallik, o'ktamlik, chevarlik bilan bog'liq estetik qarashlar; xo'jalikning ko'p qirralari tomonlarini ifoda etuvchi tushunchalar yetakchi o'rin tutgan [1.:595]. Nominatorlar ismlarni turli go'zal gullar, o'simliklar, daraxtlar yoki osmon jismlari, turli shirin narsalarga qiyosan va boshqa sabablar bilan qo'yadilar.

Ayol ismlari o'zligimiz va madaniyatimizning muhim qismidir. Ularda kelib chiqishimiz, urf-odatlarimiz va qadriyatlarimiz aks ettirilgan. Ayol ismlarining o'ziga xos xususiyatlari quyidagi jihatlarda namoyon bo'ladi:

1. Jins: ayol ismlari ayollar va qizlarga nisbatan qo'llaniladi. Ular erkak ismlaridan tovush, shakl va ma'no jihatidan farq qiladi.

2. Hissiy ma'no: ayol ismlari ko'pincha go'zallik, noziklik, muhabbat va boshqa ayollik fazilatlari bilan bog'liq hissiy ma'noga ega bo'ladi.

3. Tarixiy-madaniy meros: ayol ismlarini tarixiy va madaniy hodisalar, an'analar va ramziy ma'nolar bilan bog'lash mumkin. Ular millatni aks ettirishi yoki diniy, mifologik shaxslar bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Ismlarning leksik-semantik ma'nosi idrok bilan bog'liq bo'lib, qabul qiluvchi, ifoda etuvchi, tinglovchining psixologik yoki ma'naviy tafakkuri laboratoriyasida qanday jarayonlarni o'tashi va kommunikatsiyada qanday ta'sir o'tkazishi noma'lum bo'ladi. Ismlarning kayfiyat baxsh etishi ham sir emas. Shunday ekan, negativ semalik ismlardan, nomaqbul shakllardan voz kechish muhim ahamiyat kasb etadi [1.: 28].

Professor E.Begmatov o'z monografiyasida dunyoning bir qancha olimlarining fikrlarini umumlashtirib, atoqli otlarning 23ta semantik xususiyatlarini sanaydi va shunday xulosaga keladiki: atoqli otlarning semantik xususiyatlari haqidagi tadqiqotlar davom ettirilishi mumkin.

Masalan, "Avesto"dagi osmon jismlari ilohlari nomlariga o'xshatib qo'yilgan bir qancha ayol ismlarini uchratish mumkin. Avvalo, *Xurshida*, *Xurshidxon*, *Xurshidmomo* – kabi ayol ismlari mavjud bo'lib, ularda "*quyoshdek zebo, oftobmonand qiz, quyosh farzandi*" [1.:473] tarzida izohlanadi va ushbu

ismlar “Avesto” asridagi *Xurshid* – Quyosh va iloh nomi bilan aloqador deb o‘ylaymiz. U “Avesto”da “abadiy”, “barhayot” kabi sifatlar bilan qo‘llaniladi.

Nohida - ravshan, yorug‘, musaffo kabi ma’nolarni bildirib, (Nohid - yorug‘ yulduz, Zuhro - Venera planetasi), qadimda bu sayyora pishiqchilik, to‘qchilik ma’budasi hisoblangan, bu “Avesto”dagi *Ardivisura – Anahita* nomi bilan ham bog‘liq [2.:565]) yulduziga qiyoslanib qo‘yiladi.

Parvina ismi aynan “*hulkar yulduzidek oliy martabali, toleyi baland bo‘lsin*” ma’nosida qo‘yiladi [1.:337].

Pari, Parivash, Parigul, Parijahon, Parizod, Pariniso, Pariruh, Parichehra, Farida kabi ayol ismlarini uchratamizki, ushbu ismlar (*Pari* – “Avesto”da *pairika* tarzida qo‘llangan) latif, juda go‘zal, odamni yo‘ldan uruvchi vujud ma’nosini anglatadi [3.:34].

Gul – *guldek ko‘rkam, go‘zal; zebo*; hayoti guldek yashnagan, obod bo‘lsin degan ma’nolarni anglatadi. *Gul* – nafosat, noziklik, ma’sumlik, sohibjamollik ramzidir. Shuning uchun ham o‘zbek adabiy tilida, shuningdek, mintaqaviy ayol ismlarida aynan gulga o‘xshatib qo‘yilgan ayol ismlari ko‘pchilikni tashkil qiladi. Masalan, Xorazm dostonlarida uchraydigan gul komponentli ayol ismlarida ham yuqoridagi kabi ma’nolarda keladi: *Gulshirin, Gulixiromon, Gulruxpari, Gulandom, Guljon, Gulqiz, Gulsarvi, Gulchaman, Gulsutun, Guljamila* va boshqalar. Xorazmda *Gulshan, Gulasal, Gulrux, Gulruxsor, Gulnora, Gulchehra, Gulnoza, Guli, Gulbonu, Guljanoy, Guljahon, Guliston, Gulbahor, Gulzira, Gulzoda, Gulzamon, Guljamol, Gulsum, Gulchiroy* kabi bir qator ismlar aynan ushbu o‘xshatish tamoyiliga asoslanadi. Yoki oxirgi komponenti “gul” bo‘lgan ismlarni olaylik: *Ro‘zigul, Anorgul, Oygul, Anagul, Safargul, Norgul, Tojigul, Chamangul* va hokazo.

Shuningdek, Xorazm mintaqasida gullarning nomlari ham ism sifatida, ya’ni “shu gulga o‘xshash qiz” ma’nosida qo‘yiladi. Masalan, *Lola, Rayhon, Nilufar, Nargiza, Nastarin, Ro‘zagul, Chinnigul, Jasmina* kabi bir qancha ismlar borki, ular ham o‘xshatish tamoyiliga asoslanadi.

Oy – ba’zi ismlar tarkibida yangi oy tuqqanda yoki oy to‘lishgan kunda tug‘ilgan bola ma’nolarini ham ifodalaydi [1.:585] desa, Sh.Shoabdurahmonov uning yana antroponimlar tarkibida faol qo‘llanishini va o‘xshatish ma’nolarini ham aytib o‘tadi [4.:22].

Ammo *Boloyim, Guloyim* ismlari ham uchraydiki, ushbu ism tarkibidagi oyim komponenti – *xonim, beka; mo‘tabar oila farzandi; oydek go‘zal, zebo; bezangan yoki imonli, e’tiqodli, taqvodor* tarzida uchraydi. Boshqa ismlar

tarkibida esa *Oyimbeka* – mo‘tabar oiladan bo‘lgan, martabali qiz, *Oyimgul* – mo‘tabar oiladan guldek qiz tarzida izohlanadi.

Yana vohada buvisiga o‘xshasin yoki buvisining nomi yo‘qolib ketmasin, ism avlodlarda davom qilsin degan ma’noda buvining nomi qo‘yiladi. Xorazmda buviga o‘g‘uz lahjasida “ana”, qipchoq lahjasida “ena” tarzida murojaat qilinadi. Buvisining ismi qo‘yilgan qizga o‘g‘uz lahjasida *Ana*, *Anagul*, *Anaxon*, *Anajon*, *Anash*, *Anaqiz*; qipchoq lahjasida esa *Enabibi*, *Enajon*, *Enagul* tarzida murojaat qilish hollari uchraydi.

Yana shuni aytish mumkinki, ot turkumidan ko‘chgan ismlar qatorida *Boljon* (*asaldek shirin qiz*), *Anorgul*, *Anorposhsha* (*qizil xolli, anor gulidek chiroyli qiz*), *Nuquljon*, *Nuqulposhsha* (*nuqul – o‘rik turidek shirin qiz*), *Qunduz*, *Qunduzoy*, *Qunduzposhsha* (*qunduzdek, go‘zal, zebo*), *Qumrijon*, *Qumriposhsha* (*qumridek yuvosh, beozor*) kabi ismlarda predmetlarga qiyosan qo‘yilgan ayol ismlariga guvoh bo‘lamiz.

Chinor, *Chinora*, *Sadaboy*, *Archaboy* kabi yashovchanlik, chidamlilik, uzoq umr ramzi bo‘lmish daraxtlar, narsalar nomidan yasalgan ismlar ham shular jumlasidandir. Xorazmda *Gujum* ismi *umri sadaqayrog‘ochdek mustahkam, chidamli bo‘lsin* degan ma’noda qo‘yiladi [1.:91].

Pechakgul – Xorazmda *Pechakguldek go‘zal qiz* yoki *pechakguldek chirmashib, yopishib olsin, ya’ni yashasin, o‘lmasin* degan ma’noda *Pechakgul* qo‘yilgan ekan.

Zummi (*Zumrat*) – *yashil tusli qimmatbaho tosh; zumraddek qimmatli, bebaho qiz* yoki *ko‘k ko‘zli qiz*.

Sana (*Sanobar*) – *tik o‘suvi daraxt nomi bo‘lib, sanavbardek xushqomat qiz*.

Sarbish, *Sarvish* (*Sarviniso*) – *sarv daraxtidek tik qomatli qiz*.

Durposh (*sha*) – *inju donasidek, zebo, sohibjamol qiz*.

Zo‘(h)ra – *Zuhro yulduzidek nurli, ko‘rkam, baxt-saodat sohibasi va Muhammad (s.a.v)ning qizi Fotimaning sifati bo‘lgan*.

O‘zbeklarda qadim-qadimdan chaqaloqning ismi baxt va omadga bog‘liq, ism inson hayotida muhim ahamiyatga ega deb qaraladi. Ism bola tabiatiga mos tushmasa, u kasallikka chalinaveradi, yaxshi inson chiqmaydi, degan qarashlar ham mavjud bo‘lgan. Vaqtlar o‘tib avlodlar almashib, fikrlar ham, odatlar ham zamonga va odamlar dunyoqarashiga mos tarzda o‘zgarib boradi va, albatta, bu o‘zgarishlar ham tilda namoyon bo‘ladi. Antroponimlar semantikasi ana shu

tarzda diniy motivli antroponimlardan tortib, tabiat bilan bog‘liq yoki an‘anaviy ismlar singari muayyan mantiqiy asoslarga ko‘ra tavsiflanadi.

Xullas, ismlar turli go‘zal gullar, o‘simliklar, daraxtlar yoki osmon jismlari, turli shirin narsalarga qiyosan va o‘xshatishlar bilan bog‘lab qo‘yiladi. Chunki o‘xshatish tamoyili ism qo‘yishda eng asosiy tamoyillardan hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kadirova X. O‘zlashgan o‘zbek ismlarining leksik-semantik muammolari. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 2023.
2. Begmatov E. O‘zbek ismlari ma’nosi. Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 2010. –B. 473.
3. Do‘simov Z.D, Tillaeva M.B. Xorazm onomastikasining shakllanishi va “Avesto”. - Toshkent: Fan, 2010. – B. 565.
4. Tillaeva M, Maxmudov R. O‘zbek tilida mifologik tasavvurlar bilan bog‘lik avestoviy so‘zlar // Filologik tadqiqotlar. Toshkent: Turon zamin ziyo. 2014. –B. 34.
5. Shoabduraxmonov Sh. Antroponomik formantlarning tarkibiy funksional rivoji xaqida // O‘zbek tili va adabiyoti, 2003. 4-son. –B. 22.

FILOLOGIYA

XORAZM VOHASI O‘ZBEK XALQ SHEVALARI LEKSIKASINING LUG‘AT TARKIBI XUSUSIDA



**Alimova Shahnoza,
Abu Rayhon Beruniy
nomidagi
Urganch davlat
universiteti dotsenti,
PhD.**

UO‘K: 946

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xorazm vohasi o‘zbek xalq shevalari hamda o‘zbek shevalari leksik tarkibi o‘ziga xos leksik xususiyatlari bilan bir-biridan farqlanishi misollar asosida dalillangan.

Аннотация: В статье на примерах показано, что лексический состав узбекских народных говоров Хорезмского оазиса и узбекских говоров отличается друг от друга своими лексическими особенностями.

Annotation: This article argues, based on examples, that the lexical composition of the Khorezm oasis Uzbek folk dialects and the Uzbek dialects differ from each other with their own lexical features.

Kalit so‘zlar: lug‘at, fond, leksik qatlam, o‘zbek shevalari, Xorazm shevalari, o‘z qatlam, o‘zlashgan qatlam, umumturkiy qatlam.

Ключевые слова: лексика, лексический слой, узбекские говоры, хорезмские говоры, исконный слой, ассимилированный слой, общетюркский слой.

Key words: vocabulary, lexical layer, Uzbek dialects, Khorezm dialects, native layer, assimilated layer, general Turkic layer.

Ernst Begmatov ta’kidlaganidek, tilning asosiy lug‘at fondi o‘z mohiyatiga ko‘ra uzoq tarixiy davrlar mahsuli, aniqrog‘i, tilda uzoq davrlardan beri uzluksiz qo‘llanib kelayotgan so‘zlar sistemasi, zanjiridir [2]. Darhaqiqat, “Necha ming yillardan beri tilda voqعالanib kelayotgan o‘sis-h-o‘zgarishdan iborat muntazam harakat til tirikligini ta’minlaydigan, uning uzun umriga tirgak tutadigan va shu tariqa uning sohibi bo‘lgan qavmning yugurik zamon va yumaloq makondagi qadr-u qimmatini salomat saqlaydigan bemisl bir qudratdir. Shuning uchun ham tiriklik rutbasidagi til hech qachon tamoman qotib qolgan sokin holatda emas, balki hamisha harakat otlig‘ hayot ichida bo‘ladi, ana shu harakat uni zamonlardan zamonlarga to‘rt ko‘z tugal olib o‘tadi”[6].

O'zbek tilining rivojlanishi, taraqqiy etishida o'zbek shevalarining, jumladan, Xorazm vohasi o'zbek shevalarining ham o'ziga xos o'rni bor, albatta. O'zbek shevalari bo'yicha amalga oshirilgan tadqiqotlarning natijalariga ko'ra o'zbek shevalari o'zining leksik tarkibi va o'ziga xos leksik xususiyatlari bilan bir-biridan farqlanadi. Buni tadqiqot davomida Xorazm vohasi o'zbek shevalari bo'yicha to'plangan dialektal faktik materiallarning tahlili ham izohlaydi. Sh.Shoabdurahmonov ta'kidlaganidek, shevalar leksik boyligining asosiy qismi ularning shevalararo turli fonetik variantlarini hisobga olmaganda, o'zbek umumxalq tili, shuningdek, adabiy tilning leksik boyligiga mos keladi. Biroq o'zbek shevalarida shunday so'zlar ham uchraydiki, ularning bir qismining adabiy tilda yoki boshqa shevalarda paralleli yo'q bo'lib, bir qismining esa boshqa so'z bilan ifodalanadigan variantlari mavjuddir[8]. Shevalarning bunday o'ziga xos xususiyatlari har bir hudud shevalarida uchraydi.

Tadqiq etilayotgan mazkur hudud o'zbek shevalarining o'ziga xos tomonlari ushbu hududda joylashgan Xiva, Urganch, Hazorasp kabi qadimiy shaharlarda yashayotgan aholining etnik tarkibi bilan bog'liqligi, yuqorida ta'kidlanganidek, mazkur hududlar o'g'uz, qipchoq lahjalarining o'zaro muloqot hududi ekanligi, shuningdek, chegara hududlarda mavjud ikki tillilik, o'zbek-turkman, o'zbek-fors tillarining saqlanib kelinayotganligidadir. M.Mirzayev ta'kidlaganlaridek, ikki tillilik – bu ikkita mustaqil tilni (o'z ona tilini va boshqa ikkinchi bir tilni) bilish demakdir. Shuning uchun ikki tillilik o'z mohiyatiga ko'ra ikki tomonlama jarayon bo'lib hisoblanadi [7]. Vohadagi ba'zi tumanlar shevalarida ikki tillilik mavjud bo'lsa-da, mazkur hududlarda o'g'uz va qipchoq lahjasida so'zlashadigan aholi ko'pchilikni tashkil etadi.

Ma'lumki, umumxalq tilini tadqiq qilish uchun, avvalambor, shu tilda so'zlashuvchi xalqning tarixini o'rganish lozim bo'ladi. Chunki tilning taraqqiy etishi xalqning turmush tarzi, urf-odatlarini, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, fan va texnika yutuqlari, xalq xo'jaligining yangi sohalarini aks ettiruvchi yangi so'z hamda terminlarning yuzaga kelishiga ko'p jihatdan bog'liqdir.

Tadqiqot obyekti bo'lgan Xorazm vohasining tarixiy yodgorliklariga, boy madaniy merosga ega bo'lgan Xiva, Ko'hna Urganch kabi qadimiy shaharlari bor. Mazkur hududlarning o'zbek shevalari bo'yicha yuzaga kelgan tadqiqotlarda ushbu tarixiy shaharlar to'g'risida batafsil ma'lumotlar keltirilgan. Haqiqatdan ham, bu shaharlar asrlar mobaynida o'lkamizning yirik ma'rifat va madaniyat o'choqlaridan bo'lgan. Bu yerlarda buyuk allomalar, olim-u fuzalolar, shayxlar, avliyolar yashab o'tgan. Xorazm vohasida joylashgan qadimiy shaharlar Markaziy Osiyoning Shosh, Nasaf, Balx shaharlari qatoridan joy olgan qadimiy o'lkalardandir.

Turkiy xalqlar, jumladan, o'zbeklar etnik tarixini o'rganishda o'rta asr mualliflaridan Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarining alohida o'rni bor. Mahmud Koshg'ariy xalq tilini hududiy o'rganish orqali shunday xulosaga keladi. "Har bir qabilaning sanoqsiz allaqancha urug'lari bor, men bulardan asosini yozdim, shaxobchalarni tashladim" [5]. Bu turkiy tillarning juda ko'plab urug'- qabila til birliklaridan tashkil topganligini isbotlovchi dalillardir.

Shuni alohida aytish lozimki, Alisher Navoiy ham ko'pgina tillarni, xususan, turkiy (o'zbek) tili va uning sheva, lahjalarini mukammal bilgan. Shu bois ham Navoiy bu haqda "Har bir jamoaning tillari o'zgalaridan, har bir guruhning so'zlashuvlari yana birlaridan o'zgacha va bir necha xususiyatlar bilan farqlidirki, bu ayirma o'zgalarida yo'qdir"[1] – deb ta'kidlaydi.

O'zbek tilida so'zlashuvchi aholining o'tmishda turkiy va turkiy bo'lmagan etnik guruhlar bilan yaqin munosabatda bo'lishi o'zbek shevalarining lug'at tarkibining boyishiga olib keldi. Ammo o'zbek tili, o'zbek shevalari, jumladan, tadqiqotimiz obyekti bo'lgan Xorazm vohasi shevalari leksik qatlamida umumturkiy leksemalar o'zlashtirilgan so'zlarga nisbatan ko'pchilikni tashkil qiladi. Mazkur hudud shevalari lug'at tarkibida fors-tojik, arab, rus tili va u orqali G'arbiy Yevropa tillaridan o'tgan o'zlashgan so'zlar ham anchagina. Shuningdek, ushbu shevalarda o'zbekcha-mo'g'ulcha leksik parallellar ham mavjud.

Til leksik qatlamining boyishida ichki va tashqi omillarning ta'siri bo'lgan, albatta. Darvoqe, tillarda "o'z" va "o'zlashgan" so'zlarning mavjudligi tildagi ichki taraqqiyotni, shuningdek, tashqi ta'sirlarning natijalarini ko'rsatib turadi. Shu sababli tildagi muhim o'zgarishlar ichki va tashqi omillar, lisoniy qonuniyatlar hosilasidir [4]. Boshqa tillardan o'zlashgan so'zlar o'zbek tilida bo'lmagan biror yangi predmet, yangi voqelikni ifodalash ehtiyojidan kelib chiqadi. Shu bois ham o'zbek adabiy tili o'z tarixiy taraqqiyoti davomida boshqa tillardan ko'pgina so'zlarni qabul qilgan.

Tilning lug'at tarkibi etimologik jihatdan tahlil qilinganda, avvalo, o'zbek tilining o'ziniki bo'lgan so'zlar, so'ng boshqa tillardan o'zlashgan leksik qatlam o'rganiladi. Shevalardagi leksik qatlam o'rganilganda ham xuddi shunday nazariyaga asoslanadi.

O'zbek shevalari, jumladan, Xorazm vohasi o'zbek shevalarining leksik tarkibini o'rganish tilning rivojlanish tarixini, uning tayanch dialektlari taraqqiyot yo'llarini belgilashda katta ahamiyatga ega. Tilning lug'at tarkibi etimologik nuqtai nazardan tekshirilganda, avvalo, yuqorida qayd qilinganidek, tarixiy genetik jihatdan o'zbek tilining o'ziniki bo'lgan so'zlar, ya'ni umumturkiy so'zlar belgilab olinadi, so'ngra boshqa tillardan o'zlashgan so'zlar aniqlanadi. Shevalardagi leksik qatlamlar ham xuddi shunday ajratib o'rganiladi. Tilning leksik boyliklarini qatlamlarga ajratib o'rganishda Ernest Begmatovning ilmiy asarlari qimmatli ahamiyatga ega [4].

Xorazm vohasi o'zbek shevalari bo'yicha to'plangan faktik materiallarning lisoniy tahliliga ko'ra ushbu hududdagi shevalar lug'at tarkibining asosiy qismini umumturkiy so'zlar tashkil etsa, qolgan qismini fors-tojik, arab, rus va G'arbiy Yevropa tillaridan o'zlashgan so'zlar tashkil qiladi. E.Begmatov ta'kidlaganidek, „...leksikani tarixiy-etimologik nuqtai nazardan tekshirish ikki masalaga qaratiladi:

- a) o'zbek tili leksikasidagi **o'z so'zlarni** belgilash;
- b) o'zbek tili leksikasidagi **o'zlashgan so'zlarni** belgilash.

Mana shu asosga ko'ra, o'zbek tili leksikasidagi so'zlarni tarixiy-etimologik nuqtai nazardan ikki katta qatlamga bo'lish mumkin:

1. O'zbek tili leksikasidagi o'z qatlam.

2. O'zbek tili leksikasidagi o'zlashgan qatlam" [3]. Biz ham Xorazm vohasi shevalarining lug'at tarkibini o'rganishda ushbu nazariyaga tayanib, tadqiqot davomida to'plangan faktik materiallar tahlili asosida ularni ikki guruhga bo'ldik:

I. Umumturkiy leksik qatlam.

II. O'zlashgan leksik qatlam.

O'zbek tilida, jumladan, o'zbek shevalari leksikasida shunday so'zlar borki, ular boshqa tillarda ham uchraydi. Masalan: **als(olis)**, **bulag(bo'lak)**, **buuday**, **baavay**, **gunjid (kunjit)**, **salxin**, **tamg'a** kabi so'zlar o'zbek tilida ham, mo'g'ul tilida ham qo'llaniladi. Shuning uchun ham bunday so'zlar o'zbek-mo'g'ul leksik parallellar deb nomlanishi ma'lum. Xorazm vohasi shevalarining tahlillariga ko'ra mazkur hudud shevalarining lug'at fondining asosiy qismini umumturkiy so'zlar tashkil qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. Muhokamat ul-lug'atayn (Nashrga tayyorlovchi P.Shamsiev). Alisher Navoiy, III tom. – Toshkent, 1948. – B. 174.
2. Begmatov E. O'zbek tili leksikasining ijtimoiy-tarixiy asoslari // O'zbek tili leksikologiyasi. –Toshkent: Fan, 1981. – B. 41-52.
3. Begmatov E. Hozirgi o'zbek adabiy adabiy tilining leksik qatlamlari. – Toshkent: Fan, 1985. – B. 200.
4. Boduen de Kurtene I.K.A. Izobrannye trudy po ob obshchemu yazыkoznanіyu. V 2 t. – M.:1963. -T.I. – S. 384.
5. Koshg'ariy M. Turkiy so'zlar lug'ati (Devonu lug'otit turk). – Toshkent, 1960. T.I. – B. 64.
6. Mahmudov A. O'zbek tili lug'at boyligi rivojida faollashgan jarayonlar. // O'zbek tili va adabiyoti. Toshkent. 2015, № 5, – B. 3.
7. Mirzaev M. Buxoro grupp shevalari. Filol. fanlari d-ri.diss. – Toshkent, 1965. – B. 103.
8. Shoabdurahmonov Sh. O'zbek shevalari leksikasi. – Toshkent: Fan, 1966. – B. 5.

FILOLOGIYA**O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI AYRIM
ONOMASTIK BIRLIKLARNING QIYOSIY TAHLILI**

**Matyakubov
Hakimboy,
Xorazm Ma'mun
akademiyasi
doktaranti**

UO‘K: 946.20

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek va ingliz tillaridagi onomastik tarkibli frazeologik birliklar lingvokognitiv jihatdan qiyosiy tahlil qilindi va ularning ma’nolaridagi o‘xshashliklari va farqli jihatlari qardosh bo‘lmagan til gapiruvchilari orasida qanchalik yaqin ekanligi ko‘rsatildi.

Аннотация: В данной статье проводится сопоставительный лингвокогнитивный анализ фразеологических единиц с ономастическим содержанием в узбекском и английском языках, а также показывается, насколько близки и различны их значения у носителей неродственных языков.

Annotation: This article provides a comparative linguistic-cognitive analysis of phraseological units with onomastic content in Uzbek and English, and shows how close their similarities and differences in meaning are among speakers of non-related languages.

Kalit so‘zlar: Mifologik, dilemma, semantik maydon, frazeologik qatlam, ramziy chegara, neytral jarayon, evfemizm.

Ключевые слова: мифологический, дилемма, семантическое поле, фразеологический слой, символическая граница, нейтральный процесс, эвфемизм.

Key words: Mythological, dilemma, semantic field, phraseological layer, symbolic boundary, neutral process, euphemism.

Tillar o‘rtasidagi onomastik tarkiblarning qaysidir jihatdan qiyosidan oldin, o‘sha tillarning bu tip atoqli otlar qatnashgan birliklar, xususan, frazeologik birliklarini o‘zaro taqqoslash, ularning qaysidir jihatdan farqlanishiga e’tibor qaratish, umumiylik yoki xususiyliklar ko‘pligi omillariga diqqatni jalb qilish lozim ko‘rinadi. Frazeologik birliklarni yaqindan tahlil qilish, har ikkala til o‘zaro qardosh bo‘lmashligidan qat’iy nazar, inson lingvokognitiv qobiliyati bu ikki tilni qanchalik yaqinlashtirishini, umumiyashtirishini ushbu misollarda ko‘rishimiz mumkin. Masalan, *Between Scylla and Charybdis* (aynan: *Scylla* va *Xaribda* orasida): Bu ibora bizning “ikki o‘t orasida qolish” yoki “chohdan chiqib,

chuqurga tushdim” maqollarimizga yaqin ma’noni anglatadi. Rivoyatga ko’ra, dengizchilar tor bo’g’ozdan o’tayotganda bir tomonda Ssilla (*Scylla*) qoyasi ustidagi olti boshli mahluqqa, ikkinchi tomonda esa hamma narsani yutib yuboruvchi Xaribda (*Charybdis*) girdobiga duch kelishgan. Bir xavfdan qochish ikkinchisiga tutilishni anglatgan. Bu ibora jahon madaniyatida ikki birdek xavfli yoki noxush tanlov oldida qolish, bir muammodan qutulish uchun ikkinchisiga duchor bo’lish holatini ifodalovchi universal metaforaga aylangan. Ushbu iboraning ildizlari qadimgi yunon mifologiyasiga, xususan, Homerning “Odisseya” asariga borib taqaladi. Ibora manbasi dostonning o’n ikkinchi qo’shig’ida batafsil tasvirlangan sehrgar ayol Kirka (Sirseya) Troya urushidan so’ng o’z vatani Itakaga qaytayotgan qahramon Odisseyi oldinda kutayotgan xavflardan ogohlantirishi haqidagi hikoyat bilan bog’liq. Xavflarning biri ikki tik qoya orasidan o’tuvchi tor dengiz bo’g’ozidir. Bu qoyalarning birida Ssilla (*Σκύλλα, Scylla*) ismli olti boshli, o’n ikki oyoqli dahshatli mahluq yashagan. U o’z uyasidan chiqib, o’tayotgan kemalardan dengizchilarni bittadan ilib olib, yeb qo’ygan. Har bir boshda uch qator o’tkir tishlar joylashgan bo’lib, uning uvillashi yangi tug’ilgan kuchukchaning ovozigga o’xshasa-da, o’zi dengizning eng vahshiy mahluqi edi¹. Ssillaga yaqin suzish olti nafar dengizchining aniq o’limini anglatardi. Ikkinchi qoya ostida esa Xaribda (*Χάρυβδις, Charybdis*) – ulkan girdob yashiringan edi. U bir kecha-kunduzda uch marta dengiz suvini butun boshli kemalar bilan birgalikda yutib, so’ng yana qaytib chiqargan. Xaribdaga yaqinlashish kemandi butun a’zolari bilan birga halok bo’lishi xavfini tug’dirardi.

Kirka Odisseyga muqarrar tanlov oldida turganini aytadi: yo butun kemani Xaribda girdobida yo’qotish, yoki olti nafar safdoshini Ssillaga qurbon berib, qolganlar bilan omon qolish. Odissey og’ir qarorga keladi va Ssilla yashaydigan qoyaga yaqinroq suzishni afzal ko’radi. Natijada, mahluq uning eng baquvvat olti dengizchisini kemadan sug’urib olib ketadi, biroq Odisseyning o’zi va kemandi asosiy qismi omon qoladi. Aynan shu epizod “ikki yomonlikning kichigini tanlash” dilemmasining klassik namunasiga aylangan. Vaqt o’tishi bilan Ssilla va Xaribda orasida iborasi o’zining aniq mifologik va geografik ma’nosini yo’qotib, keng ramziy ma’no kasb etdi. U nafaqat dengizdagi xavfni, balki hayotning istalgan sohasida – siyosat, iqtisod, shaxsiy munosabatlarda yuzaga keladigan

¹ <https://rvb.ru/19vek/zhukovsky/01text/vol4/01odyssey/315-12.htm>

murakkab va ikki tomonlama xatarli vaziyatni ifodalay boshladi. Bu iborani Aristotel, Vergiliy kabi antik davr mutafakkirlaridan tortib, keyingi davrlardagi ko‘plab yozuvchi va faylasuflar ham o‘z asarlarida qo‘llaganlar. Masalan, fransuz yozuvchisi Viktor Gyugo “Yo‘qsillar” romanida qahramonlardan birining ahvolini tasvirlar ekan, uni “Ssilla va Xaribda o‘rtasida qolgan”, deya ta’riflaydi¹.

Insoniyatning universal tajribalari, xususan, murakkab vaziyatlar va ikki tomonlama xavfli tanlov oldida qolish holati jahon xalqlarining til boyligi va tafakkur tarzida o‘ziga xos iz qoldirgan. O‘zbek tilidagi “ikki o‘t orasida qolish” frazeologizmi ana shunday umuminsoniy dilemmaning yorqin ifodasidir. Iboraning markazida “o‘t” (olov) konsepti turadi. Olov mifologik tafakkurda ham ijobiy (poklanish, yorug‘lik, hayot), ham salbiy (vayronkorlik, xavf, o‘lim) ma’nolarni ifodalaydi. Mazkur iborada aynan uning salbiy, xavf-xatarni anglatuvchi jihati faollashgan. Ikki tomondan yopirilib kelayotgan olovdan qutulishning imkonsizligi – bu chorasizlik, muqarrar ziyon va boshi berk ko‘chaga kirib qolish holatining kuchli metaforasidir. Endi ushbu konseptning boshqa tillarda qanday obrazlar orqali voqelanganini ko‘rib chiqamiz.

Ko‘plab Yevropa tillarida bu dilemma kuch, bosim va jismoniy siquv metaforalari orqali ifodalanadi. Masalan, ingliz tilida bu holatni ifodalash uchun bir nechta yorqin ibora mavjud. Eng keng tarqalgani *between a rock and a hard place* (so‘zma-so‘z: “qoya va qattiq joy orasida”) iborasi ilk bor XX asr boshlarida AQShning Arizona shtatidagi konchilar nutqida qayd etilgan bo‘lib², u tog‘-kon sanoatidagi og‘ir va xavfli mehnat sharoitini aks ettirgan: bir tomondagi qattiq qoya va ikkinchi tomondagi ish jarayonidagi boshqa bir jismoniy to‘siq orasida qolib ketish holati ko‘chma ma’no kasb etgan. Fransuz tilida esa *être entre le marteau et l’enclume* (so‘zma-so‘z: “bolg‘a va sandon orasida bo‘lmoq”) iborasi qo‘llaniladi. Bu ibora temirchilik kasbidan olingan bo‘lib, unda inson ikki tomondan kelayotgan kuchli zarba yoki bosim ostida qolgan, ezilayotgan temir parchasiga o‘xshatiladi. Ushbu metafora o‘rta asrlardan beri qo‘llanib keladi va insonning o‘z ixtiyoridan tashqaridagi kuchlar ta’sirida qolishini ta’kidlaydi³. Nemis tilida ham shunga o‘xshash *zwischen Hammer und Amboss sein* (“bolg‘a va sandon orasida bo‘lmoq”) iborasi mavjud. Biroq, nemis tilida yanada o‘ziga

¹ Hugo, V. *Les Misérables*. – Paris: Pagnerre, 1862. – Part 5, Book 3, Chapter 10.

² Quinion, M. *Between a Rock and a Hard Place* // *World Wide Words: Investigating the English language across the globe*. – [Электрон манба]. URL: <http://www.worldwidewords.org/qa/qa-bet1.htm> (murojaat qilingan sana: 24.09.2025).

³ Rey, A., Chantreau, S. *Dictionnaire des expressions et locutions*. – Paris: Le Robert, 2007. – 960 p.

xos bo'lgan “zwischen Baum und Borke sitzen” (so'zma-so'z: “daraxt va uning po'stlog'i orasida o'tirmoq”) frazeologizmi ham bor¹. Bu ibora juda tor, siqilgan va noqulay vaziyatda qolishni anglatadi, chunki daraxt va uning po'stlog'i orasida bo'shliq deyarli yo'q³. Ispan tilida vaziyatning keskinligi va tahdid darajasi yanada kuchliroq obraz orqali beriladi: *estar entre la espada y la pared*² (so'zma-so'z: “qilich va devor orasida turmoq”). Bunda bir tomonda o'tkir tig'li qurol (aniq xavf), ikkinchi tomonda esa chekinishga yo'l qo'ymaydigan devor (chorasizlik) turadi. Bu ibora qadimgi qilichbozlik madaniyati bilan bog'liq bo'lib, raqibni burchakka siqib, unga tanlov imkoniyatini qoldirmaslik holatini tasvirlaydi.

Slavyan tillarida ham o'zbek tilidagi kabi “ikki olov” obrazi keng tarqalgan. Rus tilida *mejdú dvux ogney* (“ikki olov orasida”) iborasi o'zbek tilidagi iboraning aynan ekvivalenti hisoblanadi. Uning kelib chiqishi qadimgi harbiy taktikalar bilan bog'liq: dushman qo'shini ikki tomondan o'qqa tutilganda, ular muqarrar mag'lubiyatga uchragan³. Aksariyat turkiy tillarda ushbu dilemmani ifodalash uchun o'zbek tilidagi kabi *olov* metaforasiga asoslangan, deyarli bir xil tuzilishga ega iboralar qo'llaniladi. Bu holat turkiy xalqlarning umumiy tarixiy-madaniy ildizlari, turmush tarzi va olovning tabiatdagi eng xavfli va muhim kuchlardan biri sifatidagi universal tasavvuri bilan izohlanadi. Masalan, turk tilida *İki ateş arasında kalmak*⁴ iborasi o'zbek tilidagi ifodaning aynan o'zi bo'lib, uning qo'llanish doirasi va semantik maydoni ham bir xildir. U ham siyosiy, ham ijtimoiy, ham shaxsiy munosabatlardagi murakkab vaziyatni tasvirlash uchun faol ishlatiladi. Ozarbayjon tilida *İki od arasında qalmaq*⁵ ham o'zbek tilidagi “o't” so'zining tarixiy shakli *od* qo'llangan bo'lib, iboraning shakli va ma'nosi deyarli farq qilmaydi. Qozoqcha *Yeki ottyñ ortasında qalu*⁶ iborasi ham tuzilishi va ma'nosi jihatidan o'zbek tilidagiga to'liq mos keladi va turkiy xalqlar uchun

¹ Röhrich, L. Das große Lexikon der sprichwörtlichen Redensarten. – Freiburg: Herder, 1991. – Band 1. – S. 150-151.

² <https://dictionary.cambridge.org/es/diccionario/espanol-ingles/estar-entre-la-espada-y-la-pared>

³ Бирих А.К., Мокиенко В.М., Степанова Л.И. Словарь русской фразеологии. Историко-этимологический справочник. – СПб.: Фолио-Пресс, 1998. – 704 с.

⁴ Aksoy, Ö. A. Atasözleri ve Deyimler Sözlüğü. – İstanbul: İnkılâp Kitabevi, 1988. – Cilt 2 (Deyimler Sözlüğü). – 875 s.

⁵ Məhərrəmli, Q., & İsmayılov, R. (2015). *Azərbaycan dilinin frazeologiya lüğəti*. Bakı: Altun kitab. s. 258

⁶ Смағұлова Г. Мағыналас фразеологизмдер сөздігі /Гүлдархан Смағұлова. - Алматы: Елтаным баспасы, 2010. – Б. 59.

umumiy bo'lgan frazeologik qatlarga mansubligini ko'rsatadi. Qirg'izcha *Eki ottun ortosunda kaluu* iborasida ham to'liq muvofiqlik kuzatiladi. Ba'zi turkiy tillarda *olov* metaforasidan tashqari, boshqa obrazlarga asoslangan iboralar ham uchraydi.

Cross the Styx (Stiksni kechib o'tmoq) iborasi *o'lmoq, bu dunyoni tark etmoq* degan ma'noni bildiradi. Yunon mifologiyasida Stiks (*Styx*) tiriklar va o'liklar dunyosini ajratib turuvchi afsonaviy daryo hisoblangan. Stiks daryosi (*The River Styx*) yunon mifologiyasida tiriklar dunyosi – Oykumenani o'liklar saltanati – Aiddan ajratib turuvchi asosiy daryodir. Uning nomi qadimgi yunoncha Στύξ so'zidan olingan bo'lib, “jirkanch”, “nafratli”¹ degan ma'nolarni anglatadi. Bu daryo orqali o'tmasdan turib, marhumning ruhi oxirat diyoriga yeta olmaydi. Bu daryodan ruhlarni Xaron ismli qahrli va so'zga chechan qariya qayiqchi olib o'tadi. Xaron o'z xizmati uchun haq oladi. Shu sababli qadimgi yunonlarda vafot etgan odamning og'ziga yoki ko'zlari ustiga mayda tanga *obol* qo'yish odati bo'lgan. Agar marhumning yaqinlari buni unutishsa yoki u qashshoq bo'lsa, uning ruhi Xaronning qayig'iga chiqa olmagan va yuz yil davomida Stiks qirg'oqlarida sarson bo'lib yurishga mahkum etilgan. Mashhur Rim shoiri Vergiliyning “Eneida” dostonining VI kitobida bosh qahramon Eneyning oxirat diyoriga sayohati tasvirlangan va u yerda Xaron hamda Stiks daryosi bo'yidagi dafn etilmagan ruhlarning ayanchli taqdiri batafsil bayon qilingan². Shunday qilib, *to cross the Styx* iborasi so'zma-so'z “Stiksdan o'tish” degani emas, balki “ortga qaytmas safarni amalga oshirish”, ya'ni hayotdan o'limga o'tish jarayonining o'zini anglatadi.

Ingliz tilidagi bu yorqin mifologik obrazga o'zbek tili va madaniyatida to'g'ridan-to'g'ri mos keladigan, ammo o'ziga xos farqlarga ega bo'lgan tushuncha mavjud. Bu – *Sirot ko'prigi*. *Stiks daryosi* kabi *Sirot ko'prigi* ham ikki dunyo o'rtasidagi ramziy chegara, o'tish nuqtasi hisoblanadi. Ikkalasi ham oxirat diyoriga o'tish uchun bosib o'tilishi shart bo'lgan yo'ldir. Ikkala to'siqdan o'tish ham ortga qaytib bo'lmaydigan yakuniy jarayonni anglatadi. Lekin *Stiksdan o'tish* – bu o'limning o'zi, ya'ni neytral jarayon. Yaxshi ham, yomon ham, agar yo'l haqini to'lasa, bu daryodan o'tadi. *Sirot ko'prigidan o'tish* esa – bu imtihon, sinov va hukm jarayonidir. Bu yerda gap shunchaki o'tish haqida emas, balki

¹ <https://translate.academic.ru/cross%20the%20Styx/ru/xx/>

² Virgil. (2006). *The Aeneid* / Trans. by R. Fagles. New York: Penguin Classics. – Book VI, Lines 415-425. – P. 195.; Grimal, P. (1996). *The Dictionary of Classical Mythology*. Oxford: Blackwell Publishing. – P. 93.

insonning dunyodagi amallariga qarab qanday o'tishi haqida ketmoqda. Eng muhim farq shundaki, *cross the Styx* ingliz tilida o'z diniy-mifologik ma'nosidan uzilib, *o'lmoq* degan umumiy evfemizmgga aylangan. Uni hatto dindor bo'lmaganlar ham bermalol ishlatadi. Lekin o'zbek tilida *Sirotd ko'prigidan o'tmoq* iborasi *vafot etmoq* degan ma'noda ishlatilmaydi. Bu ibora o'z diniy-esxatologik ma'nosini to'liq saqlab qolgan va faqat Qiyomat kunidagi sinovga nisbatan qo'llanadi.

Ingliz tilida *Pile Pelion on Ossa* iborasi so'zma-so'z "Ossa tog'i ustiga Pelion tog'ini uyushmoq (qo'ymoq) bo'lib, qiyin vaziyatni yanada og'irlashtirmoq, muammoga muammo qo'shmoq, og'ir yuk ustiga yana yuk ortmoq ma'nosini anglatadi. Iboraning ildizlari qadimgi yunon mifologiyasiga, xususan, Aloadlar – Otus va Efialtes haqidagi afsonaga borib taqaladi. Aka-uka Otus va Efialtes dengiz xudosi Poseydonning o'g'illari bo'lib, ulkan jussali va cheksiz kuchga ega pahlavonlar edi. Ular shu darajada kuchli va mag'rur bo'lganlarki, hatto Olimp xudolariga ham jang e'lon qilishga jur'at etishgan. Ularning asosiy maqsadi Olimp tog'iga bostirib kirib, xudolarning hokimiyatini tortib olish, shuningdek, ma'budalar Hera va Artemidani o'zlariga xotin qilib olish bo'lgan. Olimpga yetib borish uchun ular ulkan tog'larni birining ustiga ikkinchisini qo'yib, osmonga narvon qurishga qaror qilishadi. Ular avval Ossa tog'ini, uning ustiga esa Pelion tog'ini qo'yib, Olimp cho'qqisiga chiqmoqchi bo'lishadi¹. Xudolar ularning bu harakatidan g'azabga kelishadi. Apollon ularni xiyla bilan o'ldiradi. Rivoyatning bir versiyasiga ko'ra, ma'buda Artemida oq kiyikka aylanib, aka-ukalarning o'rtasidan yugurib o'tadi. Ular kiyikni nishonga olib, bir vaqtda nayza otishadi va bexosdan bir-birlarini o'ldirib qo'yishadi.

Shunday qilib, *Ossa ustiga Pelionni qo'yish* o'zining asl ma'nosida *behuda, foydasiz, ammo ulkan mehnat talab qiladigan, manmanlik bilan qilingan harakat* demakdir. Bu harakat oqibatda falokatga olib kelgan. Iboraning *qiyin vaziyatni yanada og'irlashtirmoq* degan zamonaviy ma'nosidan kelib chiqsak, o'zbek tilida bunga juda yaqin va yorqin bir muqobili *dard ustiga chipqon (chiqmoq)*dir. Bu ibora o'zbek tilida aynan "mavjud bir muammo yoki qayg'u ustiga yana bir yangi va og'ir tashvishning qo'shilishi" holatini ifodalash uchun ishlatiladi. Ikkala ibora ham "mavjud bir narsa (dard, Ossa tog'i) ustiga yana bir

¹ Homer. (1996). *The Odyssey* / Trans. by E. Vieu. Penguin Classics. – Book XI, Lines 305-320.

qo‘shimcha, og‘irroq narsaning (chipqon, Pelion tog‘i) qo‘shilishi” formulasiga asoslanadi. Ikkisida ham vaziyatning salbiy tomonga keskin o‘zgarishi, og‘irlashishi ifodalanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Homer. (1996). *The Odyssey* / Trans. by R. Fagles. Penguin Classics. – Book XI.
2. Смаг‘ұлова Г. Маг‘ыналас фразеологизмдер сөздігі /Гүлдархан Смаг‘ұлова. - Алматы: Елтаным баспасы.
3. <https://translate.academic.ru/cross%20the%20Styx/ru/xx/>.
4. Virgil. (2006). *The Aeneid* / Trans. by R. Fagles. New York: Penguin Classics. – Book VI.
5. Röhrich, L. Das große Lexikon der sprichwörtlichen Redensarten. – Freiburg: Herder.
6. Quinion, M. Between a Rock and a Hard Place // World Wide Words: Investigating the English language across the globe.

FILOLOGIYA

XORAZM BOLALAR FOLKLOR QO'SHIQLARIDA ATOQLI OTLARNING QO'LLANILISHI



**Azatova Guliston,
Xorazm Ma'mun
akademiyasi
doktoranti.**

UO'K: 946

Annotatsiya: Mazkur maqola Xorazm vohasida bolalar tomonidan ijro etiladigan folklor qo'shiqlari va ularda qo'llaniladigan atoqli otlarning qisqacha tavsifi va tahliliga bag'ishlanadi. Shuningdek, maqolada folklor qo'shiqlarining bolalar tarbiyasi va ma'naviy hayotida nechog'lik ahamiyat kasb etishi ta'kidlab o'tilgan. Atoqli otlarning turlari izohlanib, ularga folklor namunalari misollar keltirilgan.

Аннотация: Статья посвящена краткому описанию и анализу фольклорных песен, исполняемых детьми Хорезмского оазиса, и используемых в них наречий. Также, подчёркивается значение фольклорных песен в воспитании и духовной жизни детей. Дается описание видов наречий и приводятся примеры из фольклорных образцов.

Annotation: This article briefly describes and analyzes folk songs performed by children in the Khorezm oasis and the dialects used in them. It also highlights the importance of folk songs in the education and spiritual life of children. It describes the types of dialects and provides examples from folklore.

Kalit so'zlar: bolalar folklori, qo'shiq, lirik she'r, atoqli otlar, onomastika, antroponim, toponim, gidronim, zoonim, mifonim, dialekt, madaniyat, urf-odat, ijtimoiylashuv, tarbiya.

Ключевые слова: детский фольклор, песня, лирическое стихотворение, имена собственные, ономастика, антропоним, топоним, гидроним, зооним, мифоним, диалект, культура, традиция, социализация, воспитание.

Key words: Children's folklore, song, lyric poem, proper names, onomastics, anthroponym, toponym, hydronym, zoonym, mythonym, dialect, culture, tradition, socialization, education.

Xalq og'zaki ijodi — milliy madaniyatimizning asosi bo'lib, uning muhim qismlaridan biri bolalar folkloridir. Bolalar folklori bolalar ongini

shakllantiruvchi, ularni ahloqiy, estetik va ijtimoiy jihatdan tarbiyalaydigan qudratli vositadir. Folklor namunalari turli hududda turfa xil o'ziga xoslik kasb etadi. Xorazm vohasi bolalar folklori o'zining o'ynoqiligi, jozibadorligi, estetik zavq va ahloqiy tarbiyaning uyg'unlikdagi ifodasi bilan alohida ajralib turadi. Xorazm bolalar folklorida qo'shiqlarning o'rni juda muhim bo'lib, ular nafaqat bolalarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish, balki ularning ijtimoiylashuvi, estetik didi, og'zaki nutqi va ahloqiy tarbiyasini shakllantirishda ham muhim vosita hisoblanadi. Xorazm an'anaviy madaniyatining bir bo'lagi sifatida o'yin qo'shiqlari ko'p avlodlar davomida og'zaki tarzda yashab kelgan va bolalarning ongli rivojiga katta ta'sir ko'rsatgan. Xorazm bolalar folklorida qo'shiqlarning o'rni asoslab beruvchi asosiy jihatlar quyidagilardan iborat:

1. Madaniy merosning uzviy qismi. Xorazm bolalar folklori – bu xalq og'zaki ijodining o'ziga xos bir qatlami bo'lib, o'yin qo'shiqlari uning ajralmas bo'lagidir. Ular orqali avloddan-avlodga madaniy qadriyatlar, urf-odatlar va til boyliklari uzatiladi. O'yinlar davomida aytiladigan qo'shiqlar bolalarga ona tilining go'zalligini his qilish, milliy qadriyatlarni singdirishga xizmat qiladi.

2. Bolalarning ijtimoiylashuvi va jamoaga moslashuvi. Ko'pgina o'yin qo'shiqlari guruhda o'ynaladi va bunda bolalar o'zaro muloqotda bo'ladi. Bu esa ularda jamoaviylik, do'stlik, tartib-intizom, navbat kutish, muloqot madaniyati kabi ijtimoiy fazilatlarni rivojlantiradi. Qo'shiqlarni aytish jarayonida bolalar muayyan harakatlarni bajaradilar va bu orqali o'zaro hamkorlik qilishni o'rganadilar.

3. Til va nutq rivoji. Qo'shiqlari she'riy shaklda bo'lib, ular bolalarning og'zaki nutqini boyitadi, talaffuzini o'stiradi hamda fonetik qobiliyatini shakllantiradi. Shuningdek, bu qo'shiqlar orqali bolalar yod olish, eslab qolish va takrorlash malakalarini rivojlantiradilar.

4. Did va estetik tarbiya vositasi. Xorazm qo'shiqlari o'ziga xos ritm, qofiya va ohangga ega. Ularning musiqiy va poetik tabiati bolalarda tovushlar go'zalligini, so'z ohangdorligini his etish, musiqa va she'riyatga mehr uyg'otishga xizmat qiladi.

5. Ahloqiy-psixologik tarbiya. Ko'plab folklor qo'shiqlari ahloqiy mazmunga ega bo'lib, bolalarni rostgo'ylik, mehnatsevarlik, do'stlik, mehr-oqibat kabi insoniy fazilatlarga da'vat etadi. Masalan, ba'zi qo'shiqlarda yolg'on gapirgan, uyat ish qilgan bolani jazolash yoki kulgi ostida qoldirish kabi sahnalar mavjud bo'lib, ular orqali bolaga "nima to'g'ri, nima noto'g'ri" ekani singdiriladi.

6. Harakat va jismoniy rivojlanish. Ko‘p qo‘shiqlar muayyan harakatlar bilan hamohang bo‘ladi (sakrash, yugurish, aylanish va boshqalar). Bu esa bolalarning motorik qobiliyatlarini, muvozanat va muvofiqlikni rivojlantirishga xizmat qiladi.

7. Hayotiy mavzularning aks etishi. Xorazm folklor qo‘shiqlarida dehqonchilik, chorvachilik, turmush tarzi, tabiat hodisalari kabi mavzular ham aks ettiriladi. Bu bolalarning hayot haqidagi tasavvurini kengaytiradi.

Sanab o‘tilgan bu xususiyatlar Xorazm bolalar folklor qo‘shiqlarining e‘tiborga molik jihatlari hisoblanadi. Shuningdek, ushbu betakror namunalar o‘zbek tilining boy va beqiyos ifodasi, tilimiz jozibadorligi va umrboqiyiligini ta‘minlovchi tuganmas xazina hamdir. Xususan, bolalar xalq qo‘shiqlarida qo‘llaniladigan atoqli otlar Xorazm vohasi hududida uchraydigan turli onomastik birliklarning o‘ziga xos ko‘rinishidir. **Onomastik birliklar** til tizimida atoqli otlarning barcha turlarini — shaxs, joy, suv, hayvon, o‘simlik va boshqalarning nomlarini o‘z ichiga oladi¹. Xorazm bolalar folklorida uchraydigan atoqli otlar (ya‘ni maxsus ismlar, shaxs, joy, hayvon yoki boshqa biror narsa nomlari) – bu hududga xos bo‘lgan xalq og‘zaki ijodida, ayniqsa ertaklar, qo‘shiqlar, topishmoqlar, maqollar, o‘yinlarda bolalar tomonidan ishlatiladigan nomlardir. Ushbu nomlar orqali nafaqat adabiy obrazlar, balki Xorazmning madaniy va tarixiy xususiyatlari ham aks etadi. Bolalar folklorida onomastik birliklar — qahramonlarning ismlari, joy nomlari, afsonaviy mavjudot nomlari orqali xalq tafakkurini ifodalaydi². Xorazm bolalar folklor qo‘shiqlarida ko‘p uchraydigan atoqli otlarni quyidagicha guruhlash mumkin: Antroponimlar – shaxslarga atab qo‘yilgan nomlar bo‘lib, ular qo‘shiqlarda salmoqli o‘rinni egallaydi. **“Antroponimlar** (shaxs nomlari) bolalar ertaklarida ko‘pincha ijobiy yoki salbiy obrazni yaratish vositasi bo‘lib xizmat qiladi”³. Fikrimizni ushbu misollar bilan izohlashimiz mumkin:

Ra’no-Ra’no rapichka,
Oyog’inda tapichka.
Tapichkasi muloyim,

¹ Rahmatullayev Sh. *O‘zbek tilining izohli onomastikasi*. – Toshkent: “Fan”, 1999.

² Jo‘rayev M. *Bolalar folklorida atoqli otlarning o‘rni*. – “Filologiya masalalari” jurnali, №2, 2018.

³ To‘xtayev A. *Ertak onomastikasi va xalq tafakkuri*. – Toshkent: “Akademnashr”, 2012.

*Yiqilmasin iloyim.*¹

Bundan tashqari, **Odil**, **Shirinoy**, **Qoravoy** – Xorazm bolalar qo‘shiqlarida tez-tez uchraydigan ijobiy yoki kulgili obrazlarga ega shaxs nomlari hisoblanadi.

Joy nomlari – toponimlar, asosan, voha hududida mavjud tuman, shahar nomlarining keltirilishi bilan xarakterlanadi. **Toponimlar** (joy nomlari) esa voqealarning real yoki afsonaviy makonini belgilaydi, bu esa folklor asarlarining milliy koloritini kuchaytiradi². **Urganch**, **Xiva**, **Qo‘shko‘pir**, **Bog‘ot** toponimlari bolalar qo‘shiqlarida ko‘p uchraydi. Quyida ayrim misollarni ko‘rib chiqamiz:

Kallamda toxyom bor – gulli,

***Urganchni** bozori ulli.*

Opom go‘ynak apparmasa,

*Yig‘liyman balli-kulli*³.

Hayvon va qush nomlari – zoonimlar ham Xorazm bolalar folklor namunalarida ko‘p uchraydigan onomastik birliklar qatoriga kiradi. Xususan, qo‘shiqlarda mushuk, kuchuk, ot, qushlar nomi o‘ziga xos tarzda ifodalanadi:

*Mushugim nomi - **Baroq**,*

Oyoqlari oq, yumshoq.

Kravatda yotadi,

Rosa xurрак otadi.

Mani borim, Olloyo-ollo,

Nomus-orim, Olloyo-ollo,

Boychiborlar oting bo‘lsin,

Davlatdorim, Olloyo-ollo.

Hayvon va qush nomlari (simvolik atoqli otlar): Tulki, Bo‘ri, Qarg‘a, Maymun, Ilon – bolalar folklorida antropomorfik (insonsifat) obrazlarda uchraydi. Masalan: **“Tulki bilan qush – do‘st bo‘lishar ish.”**

Bu yerda hayvon ismlari obrazli ma‘no kasb etadi.

Afsonaviy va ertak obrazlari:

¹ Xorazm viloyatida yashovchi bolalar og‘zidan yozib olingan.

² G‘ulomova Z. **O‘zbek toponimikasi asoslari**. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2005.

³ Xorazm viloyatida yashovchi bolalar og‘zidan yozib olingan

Devxona, Qorqiz, Ajdar, Zohid ota – bular afsonaviy yoki ertak qahramonlariga berilgan atoqli otlardir. Masalan: **“Qorqiz keldi, qor yog‘di...”** – bu yerda “Qorqiz” obrazli atoqli ot.

Atoqli otlarning badiiy va tarbiyaviy funksiyalari ayniqsa, bolalar folklorida nihoyatda muhim ahamiyatga ega. **Onomastik birliklarning funksional xususiyatlari** — ularning estetik, ekspressiv va identifikatsion vazifalarini belgilaydi¹. Asosiy vazifalar sifatida quyidagilarni keltirib o‘tish lozim:

- **Milliylilikni aks ettiradi** – xalq madaniyatiga xos joy, ism va belgilar orqali milliy ruhni beradi.
- **Badiiylikni oshiradi** – ertak yoki qo‘shiqni jonli qiladi.
- **Bolalarda eslab qolish va fikrlashni rivojlantiradi** – tanish joy yoki ism orqali osonroq tushunishadi.
- **Ahloqiy-tarbiyaviy ta’sir**–yaxshi ism ijobiy qahramon bilan bog‘lanadi. Xorazm bolalar folklorida atoqli otlar nafaqat obraz yaratish, balki mahalliylikni, tarixiy xotirani va bolalar tasavvurini ifodalash vositasi hisoblanadi. Bu nomlar orqali xalq donishmandligi, odob-ahloq, hayotiy saboqlar bolalarga yetkaziladi. Bolalar folklorida atoqli otlar **obraz, mazmun va ifoda vositasi** sifatida katta rol o‘ynaydi. Ular xalqning tarixiy, madaniy, va ijtimoiy hayotini bolalarga oson va zavqli tarzda yetkazishga xizmat qiladi.

Xulosa sifatida shuni aytish lozimki, Xorazm bolalar folklorida uchraydigan atoqli otlar orqali xalqimizning hayot tarzi, dunyoqarashi, ahloqiy qadriyatlari va estetik didi bolalarga singdiriladi. Bu nomlar nafaqat adabiy obrazlar, balki tarixiy va madaniy xotiraning ifodasi sifatida ham muhim ahamiyatga ega. Shu bois, bolalar folkloridagi atoqli otlarni o‘rganish va ularni asrab-avaylab, kelgusi avlodlarga yetkazish muhim vazifadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Boychechak. Bolalar folklori. Mehnat qo‘shiqlari. Ko‘p tomlik. Tuzuvchi va nashrga tayyorlovchilar: O.Safarov va K.Ochilov. – T.: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1984.

¹ Sodiqova M. **Onomastik birliklarning lingvopoetik tahlili**. – Termiz: TDPU nashriyoti, 2020

2. Ibrohimov O.A. “O‘zbek xalq musiqa ijodi” (metodik tavsiyalar 1-qism), Toshkent. 1994-y. B. 62
3. Jo‘rayev M. *Bolalar folklorida atoqli otlarning o‘rni*. – “Filologiya masalalari” jurnali, №2, 2018
4. Mirzayev T., va b. O‘zbek xalq poetik ijodi. Toshkent: “O‘qituvchi”.1990.
5. Masharipova Z. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. T., 2008
6. Panjiyev Q.B. O‘zbek xalq qo‘shiqchilik ijodiyoti. O‘quv qo‘llanma. Toshkent. 2022. B. 210.
7. Rahmatullayev Sh. *O‘zbek tilining izohli onomastikasi*. – Toshkent: “Fan”, 1999.
8. Safarova N. O‘zbek bolalar o‘yin folklori tabiati. – T.: “Fan”, 2008
9. Sodiqova M. *Onomastik birliklarning lingvopoetik tahlili*. – Termiz: TDPU nashriyoti, 2020.
10. To‘xtayev A. *Ertak onomastikasi va xalq tafakkuri*. – Toshkent: Akademnashr, 2012.
11. O‘zbek bolalar antologiyasi. She’riyat. 1-qism. – Sharq. – T.: 2006.
12. G‘ulomova Z. *O‘zbek toponimikasi asoslari*. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2005.

FILOLOGIYA

INGLIZ VA O‘ZBEK SIYOSIY NUTQIDA HISSIY IFODA VOSITALARINING LINGVISTIK MODELLARI



Yusupova Dilnoza,
Urganch Innovatsion
universiteti
“O‘zbek va xorijiy
filologiya” kafedrası
o‘qituvchisi

UO‘K: 946

Annotatsiya: Mazkur maqolada ingliz va o‘zbek siyosiy diskurslarida hissiy ifoda vositalarining lingvistik modellari chuqur tahlil qilinadi. Tadqiqotda siyosiy nutqdagi emotsional unsurlar, ularning kommunikativ, pragmatik, madaniy va ijtimoiy funksiyalari, shuningdek, hissiy semantikaning nutq strategiyasiga ta’siri o‘rganiladi.

Аннотация: В статье представлен углубленный анализ языковых моделей выражения эмоций в английском и узбекском политических дискурсах. В исследовании рассматриваются эмоциональные элементы политического дискурса, их коммуникативные, прагматические, культурные и социальные функции, а также влияние эмоциональной семантики на стратегию дискурса.

Annotation: This article provides an in-depth analysis of linguistic models of emotional expressions in English and Uzbek political discourses. The study examines emotional elements in political discourse, their communicative, pragmatic, cultural, and social functions, as well as the impact of emotional semantics on discourse strategy.

Kalit so‘zlar: siyosiy diskurs, emotsional lingvistika, hissiy ifoda, pragmalingvistika, metafora, ritorika, kommunikativ model, milliy tafakkur, emotsional strategiya.

Ключевые слова: политический дискурс, эмоциональная лингвистика, эмоциональное выражение, прагмалингвистика, метафора, риторика, коммуникативная модель, национальная идеология, эмоциональная стратегия.

Key words: political discourse, emotional linguistics, emotional expression, pragmalinguistics, metaphor, rhetoric, communicative model, national ideology, emotional strategy.

Til inson tafakkurining, hissiyotining va ijtimoiy hulqining asosiy ifoda tizimidir. Ayniqsa siyosiy diskursda til — bu qudrat vositasi, u orqali siyosatchilar

omma bilan bevosita muloqot oʻrnatadi. Shunday ekan, siyosiy nutqda emotsional ifoda faqat estetik yoki stilistik hodisa emas, balki kommunikativ strategiya sifatida qaraladi. Emotsiyalar siyosiy jarayonni mantiqiy dalillar bilan emas, balki inson his-tuygʻulari orqali boshqarish imkonini beradi (Wodak, 2009).

Masalan, Barak Obama oʻz nutqlarida hope, unity, change kabi kalit soʻzlar orqali ijobiy emotsional maydon yaratgan boʻlsa, Shavkat Mirziyoyevning chiqishlarida xalqimiz, ishonch, Vatan, yangilanish kabi tushunchalar asosiy emotsional yadroni tashkil etadi. Bu soʻzlar oddiy semantik birlik emas — ular xalqning maʼnaviy qadriyatlariga, milliy ongiga bevosita taʼsir koʻrsatadigan lingvokulturologik birliklardir.

Tilshunoslikda emotsiyalarni lingvistik jihatdan oʻrganish nisbatan yangi yoʻnalish boʻlib, u emotiv lingvistika, emotsional semantika, affektiv pragmatika kabi tarmoqlarni oʻz ichiga oladi (Crystal, 2003). Ushbu maqolada siyosiy nutqda hissiy ifodaning kommunikativ modellari qiyosiy-lingvistik yondashuv asosida tahlil qilinadi.

1. Nazariy asos: Emotsiya va lingvistik ifoda.

1.1. Emotsiyaning tilshunoslikdagi oʻrni.

Emotsiya tushunchasi lingvistika, psixologiya va kommunikatsiya nazariyasining kesishma nuqtasida turadi. G. Lakoff va M. Jonson (1980) taʼkidlaganidek, inson tafakkuri metaforik asosda ishlaydi va bu metaforalar hissiy tajriba orqali shakllanadi. Shu bois siyosiy nutqda “light vs darkness”, “battle for freedom”, “journey to progress” kabi metaforalar nafaqat tasviriy, balki hissiy taʼsir kuchiga ega.

Oʻzbek tilida esa “yorugʻ kelajak”, “Vatan ravnaqi yoʻlida kurash”, “xalq qalbidan joy olgan” kabi ifodalar emotsional-semantik ekvivalentlar boʻlib xizmat qiladi. Bu birliklar hissiy qiymatni xalq tafakkuriga singdirilgan maʼnaviy ramzlar orqali beradi.

1.2. Emotsional ifoda vositalari.

Emotsiyalar leksik, grammatik va stilistik darajalarda ifodalanadi:

- Leksik darajada: baholovchi soʻzlar, metaforalar, antonim juftliklar (good–evil, freedom–oppression);
- Grammatik darajada: modallik, zamon shakllari, undov gaplar;
- Stilistik darajada: takror, parallelizm, antitez, ritorik savollar.

Shunday qilib, siyosiy nutqda emotsional taʼsir koʻpincha tildagi strukturaviy tanlov orqali amalga oshiriladi.

2. Metodologiya.

Tadqiqot qiyosiy-pragmatik va diskursiv-analitik yondashuv asosida olib borildi. Maʼlumotlar bazasini ingliz va oʻzbek siyosatchilarining 2010–2024 yillardagi quyidagi ommaviy nutqlari tashkil etadi:

- Ingliz tilidagi manbalar: Barak Obama, Joe Biden, Winston Churchill, Tony Blair nutqlari.

- O'zbek tilidagi manbalar: Islom Karimov va Shavkat Mirziyoyevning rasmiy chiqishlari.

Tahlil quyidagi bosqichlarda amalga oshirildi:

1. Emotsional leksika ajratildi.
2. Grammatik strukturalar aniqlanib, ularning semantik yuklanishi tahlil qilindi.

3. Ritorik vositalar (metafora, antitez, parallelizm) diskursiv vazifasi jihatidan ko'rildi.

4. O'zbek va ingliz siyosiy nutqlarida emotsional strategiyalar qiyoslandi.

3. Ingliz siyosiy nutqida hissiy ifoda modellari.

Ingliz siyosiy diskursi G'arb ritorikasining klassik an'alariga tayangan holda shakllanadi. Aristotel ta'kidlaganidek, muvaffaqiyatli nutq ethos, pathos va logos uyg'unligiga asoslanadi. Aynan "pathos" — hissiyot — auditoriyani ruhlantirish vositasi hisoblanadi.

3.1. Emotsional leksika.

Obama nutqlarida "hope", "dream", "change", "believe" kabi so'zlar asosiy semantik markazdir. Masalan:

"We will rebuild, we will recover, and America will emerge stronger than before."

(B. Obama, 2009)

Bu misolda takror (we will) – qat'iyatni; lexeme "stronger" – ijobiy emotsiyani bildiradi. "We" olmoshi esa kollektiv birdamlik hissini kuchaytiradi.

3.2. Metaforik model.

Ingliz siyosiy nutqlari ko'pincha metaforik tasvirlarga boy:

"The torch has been passed to a new generation of Americans." (J. F. Kennedy)

Bu yerda "torch" metaforasi – milliy mas'uliyat, "new generation" – umid va yangilanish timsolidir. Metafora emotsional jarayonni soddalashtirib, u orqali xalqni ruhlantiradi.

3.3. Stilistik konstruktsiyalar.

Cherchillning "We shall fight on the beaches..." nutqida parallelizm va takror hissiy keskinlikni yaratadi. Bu uslub xalqning sabr-toqat va jasoratini mustahkamlovchi model sifatida ishlaydi.

3.4. Pragmatik strategiyalar.

Ingliz siyosiy diskursi ko‘proq optimistik va progressiv hissiyot uyg‘otadi.

Nutqlarda:

- kelajak zamon (will);
- mantiqiy dalillar (logos);
- hissiy metaforalar (pathos);
- ishonchlilik (ethos) uyg‘un qo‘llanadi.

4. O‘zbek siyosiy nutqida hissiy ifoda modellari.

O‘zbek siyosiy nutqi, o‘z tabiatiga ko‘ra, xalqona, ma’naviy va milliy g‘ururga asoslangan diskursdir. Unda emotsiya — xalq bilan ruhiy aloqaning ko‘zgusi sifatida xizmat qiladi.

4.1. Emotsional leksika.

Shavkat Mirziyoyevning nutqlarida “xalqimiz”, “fidoyilik”, “Vatan”, “g‘urur”, “kelajak”, “adolat” kabi birliklar eng faol ishlatiladi: “Bizning eng katta boyligimiz – bu xalqimizning ishonchi va fidoyiligi.” (Sh. Mirziyoyev, 2022)

Bu ibora hissiy jihatdan milliy birdamlik, ijtimoiy ishonch va ruhiy yuksaklikni bildiradi.

4.2. Qadriyat asosidagi metaforalar.

“Yangi O‘zbekiston – bu orzular mamlakati.”

“Har bir fuqaromizning yuragida ishonch nuri porlashi kerak.”

Bu metaforalar o‘zbek madaniyatidagi “yorug‘lik”, “nur”, “yurak” kabi hissiy timsollar bilan bog‘langan. Tilning hissiy modeli milliy ramzlar orqali shakllanadi.

4.3. Sintaktik vositalar.

O‘zbek siyosiy nutqida:

• Parallel tuzilmalar (“Har bir inson, har bir oila, har bir yurt farovon bo‘lishi kerak”);

• Takrorlar (“Bugun xalq uchun, xalq bilan, xalq yo‘lida!”);

• Undov gaplar (“Bu yo‘lda hech kim chetda qolmaydi!”)

emotsional ta’sirni kuchaytiradi.

4.4. Ritorik uslublar.

Siyosiy yetakchilar tez-tez xalq maqollaridan, hikmatli so‘zlardan foydalanadi:

“Birlik – kuch.”

“Yurt tinchligi – el farovonligining garovi.”

Bu xalqona birlik hissini mustahkamlovchi kommunikativ strategiyadir.

Ko‘rsatkich: Ingliz siyosiy diskursi, o‘zbek siyosiy diskursi.

Emotsional yo‘nalish: Ijobiy, optimistik, progressiv, ma’naviy, xalqparvar, milliy.

Dominant metaforalar: Journey, battle, light - Nur, yurak, Vatan.

Leksik yadrosi: hope, unity, freedom, change - xalq, ishonch, fidoyilik, kelajak

Ritorik strategiyalar: Parallelizm, takror, antitez, maqol, undov, xalqona timsollar

Madaniy asos: Liberal-demokratik qadriyatlar, milliy-ma'naviy qadriyatlar.

Kommunikativ maqsad: Umid uyg'otish, ruhlantirish, Ishtirokni oshirish, birlashtirish.

5. Qiyosiy tahlil: Ingliz va o'zbek siyosiy hissiyot modellari.

Bu qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, ingliz siyosiy nutqi rational pathos (mantiqli hissiyot) modeliga tayanadi, o'zbek siyosiy nutqi esa cultural pathos (madaniy hissiyot) modelini namoyon etadi.

6. Hissiy ifodaning kommunikativ va pragmatik ahamiyati.

Siyosiy nutqda hissiy komponent quyidagi kommunikativ funksiyalarni bajaradi:

1. Motivatsion funksiya – auditoriyani harakatga undaydi:
“Yes, we can!” yoki “Kelinglar, birgalikda yangilanish yo'lidan boraylik!”
2. Baholovchi funksiya – voqealarni ijobiy yoki salbiy baholaydi.
“Bu tarixiy kun!” – emotsional baho modeli.
3. Birlashtiruvchi funksiya – “biz” olmoshi orqali umumiylik hissini yaratadi.
4. Empatik funksiya – xalq dardini tushunish, ular bilan hissiy aloqa o'rnatish.

Siyosiy yetakchining nutqi shunchaki so'zlar yig'indisi emas, balki ijtimoiy emotsional maydonni shakllantiruvchi kommunikativ hodisadir.

Xulosa. Yuqoridagi tahlil shuni ko'rsatadiki, siyosiy nutqda hissiy ifoda vositalari milliy tafakkur, madaniy qadriyat va ijtimoiy mentalitet bilan uzviy bog'langan. Ingliz siyosiy diskursi optimizm va kelajak sari yo'nalgan hissiy modelni namoyon etsa, o'zbek siyosiy diskursi xalqona samimiyat, birdamlik va ma'naviy g'ururni ifodalaydi. Har ikki diskursda emotsiyalar strategik kommunikatsiyaning muhim komponenti bo'lib, ular orqali siyosiy lider xalq bilan muloqotni mustahkamlaydi, unda ishonch uyg'otadi va milliy birdamlikni kuchaytiradi.

Shunday qilib, hissiyot til orqali siyosiy ongning asosiy energiyasi sifatida namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Safarov, Sh. Pragmalingvistika. Toshkent: “Fan”, 2008.
2. Mahmudov, N., & Nurmonov, A. Til nazariyasi va lingvistik tahlil. Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2009.
3. Lakoff, G., & Johnson, M. Metaphors We Live By. University of Chicago Press, 1980.
4. Charteris-Black, J. Politicians and Rhetoric: The Persuasive Power of Metaphor. Palgrave Macmillan, 2011.
5. Wodak, R. The Discourse of Politics in Action. Palgrave, 2009.
6. Fairclough, N. Critical Discourse Analysis. Longman, 1995.
7. Crystal, D. The Cambridge Encyclopedia of the English Language. Cambridge University Press. 2003.
8. Karimov, I. A. Tanlangan nutqlar to‘plami. Toshkent: “O‘zbekiston”, 1995-2015.
9. Mirziyoyev, Sh. M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi bo‘yicha nutqlar. Toshkent, 2017-2024.

FILOLOGIYA

HABIBIY (HABIBULLO OXUND) NING TASAVVUFIIY DUNYOQARASHI VA IJODIY MEROSI



Kentayeva Gulmira,
Toshkent davlat
sharqshunoslik
universiteti tayanch
doktoranti

UO‘K: 946.20

Annotatsiya: Maqolada XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Xiva adabiy muhitida faoliyat yuritgan shoir Habibullo Oxund (Habibiy)ning ijodiy merosi va tasavvufiy dunyoqarashi ilmiy tahlil qilingan. Tadqiqot davomida shoir devonlari, qo‘lyozmalari, tazkira va tarixiy manbalari asosida uning ijodiy yo‘nalishi, she‘riyatidagi ilohiy muhabbat, tavba, ma‘rifat, faqr va kamtarlik kabi g‘oyalar ifodasi ochib berilgan. Habibiy merosi misolida XIX asr Xorazm adabiy muhitida tasavvufiy lirikaning rivojlanish jarayonlari aniqlangan.

Аннотация: В статье научно анализируются творческое наследие и мистическое мировоззрение поэта Хабибулло Ахунда (Хабибия), творившего в литературной среде Хивы конца XIX – начала XX веков. В ходе исследования на основе диванов, рукописей, тазкира поэта и исторических источников раскрывается его творческая направленность, выражение в его поэзии таких идей, как божественная любовь, покаяние, просветление, бедность и смирение. На примере наследия Хабибия выявляются процессы развития мистической лирики в литературной среде Хорезма XIX века.

Annotation: The article scientifically analyzes the creative heritage and mystical worldview of the poet Habibullo Akhund (Habibiy), who worked in the literary environment of Khiva in the late 19th and early 20th centuries. During the research, based on the poet's divans, manuscripts, tazkira and historical sources, his creative direction, the expression of such ideas as divine love, repentance, enlightenment, poverty and humility in his poetry, are revealed. Using the example of Habibiy's heritage, the development processes of mystical lyrics in the literary environment of Khorezm in the 19th century are identified.

Kalit so‘zlar: Habibullo Oxund, Habibiy, Xiva adabiy muhiti, Xorazm madaniyati, devon, g‘azal, tasavvuf, ma‘rifat, ilohiy ishq, tavba, faqr, ixlos, Jomiy an‘analari, Xorazm adabiy an‘analari, tasavvufiy lirika.

Ключевые слова: Хабибулло Ахунд, Хабибий, хивинская литературная среда, хорезмская культура, диван, газель, суфизм, просветление, божественная любовь, покаяние, бедность, искренность, традиции Джамии, хорезмские литературные традиции, суфийская лирика.

Key words: Habibullo Akhund, Habibiy, Khiva literary environment, Khorezm culture, divan, ghazal, Sufism, enlightenment, divine love, repentance, poverty, sincerity, Jami traditions, Khorezm literary traditions, Sufi lyrics.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida diniy hamda ilmiy (madrasaviy) muhit ta'sirida shakllangan Habibullo Oxund ijodi o'ziga xos go'zalligi va ma'naviy chuqurligi bilan ajralib turadi. Uning asarlari o'sha davr Xorazm adabiy muhitida muhim o'rin egallagan. Shoir Muhammad Rahimxon II davrida faol ijod qilgan bo'lib, Xiva madaniy hayotining yetuk vakillaridan biri sifatida tanilgan. Habibiyning devonidagi g'azallar asosan ilohiy ishq va kamtarlik mavzusida bo'lib, bu uning tasavvufiy yo'nalishini ko'rsatadi [2; 4; 5].

Habibullo Oxundning ijodi, garchi o'z davrida e'tiborga sazovor bo'lgan bo'lsa-da, hozirgi kunga qadar yetarlicha ilmiy o'rganilmagan. Uning nomi tilga olingan, ammo to'liq nashr etilmagan devoni O'zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutida saqlanadi. Ushbu qo'lyozma asar shoirning ijodiy merosini o'rganishda muhim manba hisoblanadi.

Habibullo Oxundning ayrim qo'lyozmalari asosida olib borilgan tadqiqotlarda uning hayoti va adabiy faoliyati haqida ma'lum ma'lumotlar aniqlangan, biroq ayrim manbalarda, xususan, tazkira va tarixiy risolalarda shoir faoliyati yuzasidan turlicha fikrlar bildirilgan.

Ba'zi manbalarda Habibullo Oxundning Xiva adabiy muhitiga ijobiy ta'siri e'tirof etilgan bo'lsa, boshqa ayrim tazkira mualliflari uning ijodiy faoliyati va shaxsiy fazilatlariga nisbatan tanqidiy fikrlar bildirgan.

Xususan, Bobojon Tarroh Azizov — Xodimning “Xorazm navozandalari” asarida XIX asr oxiri — XX asr boshlarida Sayid Muhammad Rahimxon davrida yashagan shoirlar haqidagi yodnomalarida Habibullo Oxund faoliyatiga salbiy baho berilganligi kuzatiladi. Xiva adabiy muhitida shoirning o'rni haqida Bobojon Tarroh Azizov manbasida ma'lumot beriladi [1; 6].

“Shoirning nomi Habibullo Shayton, otasining nomi Muhammad Amin Shayton bo'lgan. Habibulloning adabiy nomi Habibiy edi. U Mahmud devon

ko'yida tug'ilgan. Habibullo eski maktabni to'liq bitirgan, biroq madrasa ta'limini to'liq olmagan, xattotlik bilan shug'ullanib, devon bo'lgan. U devon tartib bergan bo'lishi kerak. Lekin bu devon kimning qo'lida qolgani ma'lum emas. Habibullo Shayton Islomho'ja vaziri Akbarning devonxonasida yozuvchilik, xattotlik hamda devonlik qilgan. U 40 yoshlaridan shoirlik bilan shug'ullana boshlagan, sababi Muhammad Rahimxonga yaqin bo'lgandir. Lekin so'z ilmida mutlaqo xabarsiz bo'lgan. Habibiy kalta bo'yli, cho'qqisoqol, ammo xushsurat odam edi. Ko'p boxayol kishi bo'lib, saxiy emas edi. Odamlar bilan munosabati unchalik yaxshi bo'lmagan, so'zlashganda odamni pisand etmas edi." Biroq bu turdagi baho va mulohazalarni o'sha davrning ijtimoiy, siyosiy va diniy muhiti nuqtai nazaridan talqin etish maqsadga muvofiqdir. Chunki o'sha davr adabiy muhitida mavjud bo'lgan mazhabiy va g'oyaviy qarama-qarshiliklar ayrim ijodkorlarga nisbatan turlicha yondashuvni keltirib chiqargan.

Shunday qilib, Habibullo Oxund XIX asr oxiri — XX asr boshlaridagi Xiva adabiy muhiti vakili sifatida o'z davrining diniy-ahloqiy tafakkurini ifoda etgan ijodkorlardan biri hisoblanadi. Uning asarlarida ilohiy ishq, ma'rifat, inson kamolotiga intilish va tavoze' kabi g'oyalar yetakchi o'rinni egallaydi. Shoir ijodini chuqur o'rganish o'sha davr Xorazm madaniy hayoti va tasavvufiy tafakkurini yanada to'liq anglashga xizmat qiladi.

Hozirgi kunda Habibullo Oxund ijodiga oid qo'lyozmalar Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharq qo'lyozmalari institutining asosiy fondida saqlanmoqda. Institut fondida shoirga tegishli to'rtta qo'lyozma mavjud bo'lib, ular 1142, 7086, 6677 va 946-inventar raqamlar ostida ro'yxatga olingan. Mazkur qo'lyozmalar ilmiy jihatdan muhim manbalardan biri hisoblanadi. 946-inventar raqam ostidagi qo'lyozmada shoirning "Devon" asari saqlanmoqda. Devon to'liq holda yetib kelgan bo'lib, aynan ushbu nusxa orqali Habibullo Oxundning boshqa devonlari bilan qiyosiy tahlil o'tkazish imkoniyati mavjud. Mazkur devon shoirning ijodiy faoliyatining muhim namunasi sifatida ilmiy jihatdan tahlil etilib kelmoqda.

Habibullo Oxundning ijod namunalari asosan g'azal janrida yozilgan bo'lib, bu uning she'riyatdagi mahorat va badiiy salohiyatini namoyon etadi. Hozirgacha olib borilgan tahlillar natijasiga ko'ra uni yuksak badiiy mahoratga ega shoir sifatida baholash mumkin.

Habibullo Oxund devoni 59 sahifadan iborat bo'lib, asarning bosh qismi g'azallardan tashkil topgan. Shuningdek, devondagi ikkinchi g'azali tahlili orqali

shoir ijodining mazmun va mohiyati, uning badiiy dunyoqarashi hamda ma'naviy-ahloqiy g'oyalari yoritilganligini ko'rish mumkin.

Kirdikor o'z vujudim jumla nuqsondir manga,
Bo'lmas mundog' jinoyat, xalq hayrondur manga.
Lutf ayla, tutg'il qo'lumni, ayla tavfiqim rafiq,
Ya'ni hidoyat aylasang, har makon osondur manga.

Ko'nglum ichra xushlading bor omonat qo'lig'a,
Ul oyatingdin o'lg'on nuri iymondur manga.
Ma'rifatingdin har sor qilg'aysen o'zing,
Qut jon qilmoqqa lozim bo'lg'on qodir azn manga.

Jomiy ulnang holima osudalig' jonimdadur,
Bo'lmasa kibr harning o'ti bir ondur manga.
Borsa ajab riyo amr sendin darmonda men,
Sidq ixlosimni nomahkam ayla, darmondur manga.

Fazlig'a tutg'il Habib, o'tun har afroz, ey Karim,
Rahmating daryosining har mavji bir qondur manga.
G'azal tahlili.

1-bayt:

Kirdikor o'z vujudim jumla nuqsondir manga,
Bo'lmas mundog' jinoyat, xalq hayrondur manga.

Shoir o'zini gunohkor banda, ya'ni "kirdikor" — "gunoh qiluvchi" deb ataydi. U o'z vujudini "jumla nuqson", ya'ni butunlay kamchilik va xato bilan to'la, deb tan oladi. Bu tasavvufiy tavozuning ifodasidir.

Shoir o'zining holatidan xalqning hayron ekanini ta'kidlaydi, bu esa uning ichki kechinmasi — tavbaga kelgan, ammo xalq nazarida "gunohkor" deb bilinayotgan inson holatini ko'rsatadi.

Ma'no jihatidan — shoir o'zini past tutib, insoniy ojizlikni, kamolot sari intilishni ko'rsatmoqda.

2-bayt:

Lutf ayla tutg'il qo'lumni, ayla tavfiqim rafiq,
Ya'ni hidoyat aylasang, har makon osondur manga.

Bu baytda shoir Ollohga iltijo qiladi: "Qo'limni tut, tavfiqimni rafiq qil", ya'ni hidoyat yo'lida yordamingni ber, deydi.

Shoirning fikricha, agar Olloh hidoyat (to‘g‘ri yo‘l) ato etsa, unda har bir makon, har qanday sinov oson bo‘ladi.

Tasavvufda bu — muridning murshidga, bandaning Robbiga itoatini ifodalovchi holat.

Tavfiq — Ollohnning marhamati bilan to‘g‘ri ishni bajarish qudratidir. Tasavvufiy falsafaning umumiy asoslari haqida Xojiyev va Vohidov asarlarida bayon etilgan [4; 5].

3-bayt:

Ko‘nglum ichra xushlading bor omonat qo‘lig‘a,

Ul oyatingdin o‘lg‘on nuri iymondur manga.

Shoir yuragiga “omonat” joylagan Zot — Ollohdrir. Bu “omonat” — iymon nuri bo‘lib, Qur‘on oyatlaridan kelib chiqadi.

“Oyat” so‘zi bu yerda ilohiy so‘z, Qur‘on kalomidir. Shoir uchun iymon — Ollohnning oyatidan yoritilgan ruhiy nurdir.

Shoir qalbini “omonat qo‘li”ga topshirganini aytib, Ollohnning ishonchiga sazovor bo‘lish orzusini bildiradi.

4-bayt:

Ma‘rifatingdin har sor qilg‘ay sen o‘zing,

Qut jon qilmoqqa lozim bo‘lg‘on qodir azn manga.

Bu baytda shoir Ollohnning ma‘rifati (bilish, tanish) orqali ruhiy najot topish istagini ifodalaydi.

“Qut joni” — hayotning asl ma‘nosi, “azn” esa ruxsat, imkoniyat demakdir.

Shoir aytmoqchi: “Ey Qodir (qudratli Zot), agar o‘zing ma‘rifat yo‘lini ochsang, ruhim najot topadi”.

Bu — tasavvufdagi ma‘rifat darajasi, ya‘ni Ollohni qalban tanish bosqichidir.

5-bayt:

Jomiy ulnang holima osudalig‘ jonimdadur,

Bo‘lmasa kibr harning o‘ti bir ondur manga.

Shoir “Jomiy ul” (ya‘ni Abdurahmon Jomiy) nomini tilga olib, uni o‘z holatiga osudalig‘ — ruhiy tinchlik manbai deb biladi.

Jomiy — mashhur mutasavvif va shoir bo‘lib, tasavvufda kamtarlik, ishq va ma‘rifatni ulug‘lagan. Jomiy an‘analari ta‘siri Habibiy she‘riyatida ham aniq seziladi [3; 4].

Shoir aytmoqchi: “Agar insonda kibr bo‘lmasa, ruhiy azob bir onlikdir”.

Bu bayt — Jomiyga ehtirom va kamtarlikka da'vat ramzidir.

6-bayt:

Borsa ajab riyo amr sendin darmonda men,

Sidq ixlosimni nomahkam ayla, darmondur manga.

Shoir “riyodan (ko‘zbo‘yamachilikdan) qutulishni” so‘raydi. U o‘zini darmon izlovchi, ya’ni Olloh yordamisiz ojiz banda deb biladi.

“Sidq ixlos” — sof niyat va samimiyat; shoir so‘raydi: “Ey Parvardigor, agar ixlosim sust bo‘lsa, uni mustahkamla”.

Bu bayt — riyodan poklanish va ixlosda sobitlik istagini ifodalaydi.

7-bayt (xotima):

Fazlig‘a tutg‘il Habib, o‘tun har afroz, ey Karim,

Rahmating daryosining har mavji bir qondur manga.

Shoir o‘z taxallusi “Habib”ni keltiradi. U Ollohning fazlidan, marhamatidan o‘zini tutib turishni so‘raydi.

“Rahmating daryosi” — Ollohning cheksiz inoyati; “har mavji bir qon” — har to‘lqini bir ne‘mat, bir najot manbaidir.

Xotimaviy baytda shoir o‘zini rahmat daryosiga tashlagan banda sifatida ko‘rsatadi. Bu — ilohiy ishqqa to‘liq taslimlik ramzidir.

Habibullo Oxund (Habibiy)ning ushbu g‘azali tasavvufiy lirikaning yorqin namunasi bo‘lib, unda: tavba va ojizlik, hidoyat va ma‘rifat istagi, kamtarlik va ixlos, ilohiy rahmatga suyanib yashash kabi mavzular markazda turibdi.

Shoir o‘zini kamtar, lekin Olloh fazliga umid bog‘lagan solih (tasavvuf yo‘lidagi inson) sifatida tasvirlaydi.

Shu jihatdan bu g‘azal Habibiyning ruhiy yetuklik, ilohiy ishq va tasavvuf falsafasini ifoda etuvchi muhim asarlaridan biridir.

ADABIYOTLAR RO‘YHATI:

1. Azizov, B. T. Xorazm navozandalari. – Xiva: “Fan”, 1910. – 54-b.
2. Habibullo Oxund. Devon. – O‘zbekiston FA Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondi, inv. №946.
3. Jomiy, Nuriddin Abdurahmon. Nafahotul-uns min hazarotil-quds. – Tehron: “Ibn Sino”, 1987. – 412-b.
4. Vohidov, H. Tasavvuf va o‘zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: “Fan”, 1997. – 276-b.
5. Xojiyev, A. Sufizmning ma‘naviy-falsafiy asoslari. – Toshkent: “Istiqbol”, 2003. – 198-b.
6. Mirzayev, S. Xiva adabiy muhiti va uning namoyandalari. – Toshkent: “Universitet” nashriyoti, 2015. – 189-b.

FILOLOGIYA

BADIIY MATNDA GIPERBOLA SAN'ATINING ISTIFODA ETILISHI



**Masharipova Farida,
Abu Rayhon Beruniy
nomidagi Urganch
davlat universiteti
2-bosqich tayanch
doktoranti**

UO'K: 946

Annotatsiya: Maqolada Erkin Samandar nasriy asarlarida qo'llanilgan mubolag'a san'ati (giperbola)-ning badiiy matndagi o'rni va ahamiyati haqida fikr-mulohazalar misollar bilan yoritilgan.

Аннотация: В статье рассматривается роль и значение искусства преувеличения (гипербола) в художественном тексте на примере прозаических произведений Эркина Самандара.

Annotation: The article discusses the role and significance of the art of exaggeration (hyperbole) in the literary text, as used in the prose works of Erkin Samandar, with examples.

Kalit so'zlar: mubolag'a, giperbola, tablig', ig'roq, g'uluvv, lingvistik vositalar, mifologik obraz.

Ключевые слова: преувеличение, гипербола, таблг, игрок, гулувв, языковые средства, мифологический образ.

Key words: exaggeration, hyperbole, tabligh, igroq, guluvv, linguistic means, mythological image.

O'zbek adabiyoti xazinasida Erkin Samandarning nasriy asarlari o'ziga xos o'rin egallaydi. Yozuvchi asarlari nafaqat o'zining murakkab sujeti va qahramonlar xarakterlari orqali o'quvchilarni o'ziga jalb qiladi, balki unda foydalanilgan lingvistik vositalar, shuningdek, mubolag'a (giperbola) san'atining mahorat bilan qo'llanilishi orqali ham ajralib turadi.

Badiiy matnda qo'llaniluvchi ko'chimlardan biri mubolag'a (giperbola) ham asarning badiiy qimmatini, ifodaliligini, ekspressivligini kuchaytirish uchun xizmat qiladi. Bu usul asarning ta'sirchanligini, obrazlilik darajasini oshiradi, o'quvchiga kuchli emotsional ta'sir ko'rsatadi.

Tadqiqot jarayonida mubolag'aning ahamiyatini o'rganish uchun qator ilmiy manbalarga tayanildi.

Mubolag'a so'zi arab tilidan olingan bo'lib, "kattalashtirish", "kuchaytirish" ma'nosini bildirib, badiiy asarda tasvirlanayotgan badiiy timsol holati yoki harakatini bo'rttirib, kuchaytirib ifodalash san'ati demakdir. Bunday

xildagi tasvirda badiiy timsol xususiyatlari yaqqolroq namoyon bo'ladi, o'quvchi ko'z oldida yorqinroq gavdalanadi [7;160].

“O'zbek tilining izohli lug'ati” da mubolag'a so'zi kuchaytirish, bo'rttirish, giperbola so'zlari bilan izohlangan. Tasvirlanayotgan yoki ta'riflanayotgan kimsa, narsa, hodisa va shu kabilarni o'quvchilarga yaqqol, ta'sirli qilib yetkazish uchun ularning sifatlarini orttirib, bo'rttirib ko'rsatish maqsadida ishlatilgan so'z yoki ibora mubolag'adir [1;623].

Narsalarni, voqea va hodisalarni, his-tuyg'ularni, belgi-xususiyatlarni o'ta bo'rttirib tasvirlashga mubolag'a (yoki giperbola) deyiladi. Mubolag'a ham tasvirning ta'sirchan chiqishiga, obrazli ifodalanishiga xizmat qiladi [8;67].

Mubolag'aga asoslangan ko'chim badiiy matnga nutq predmetiga nisbatan tinglovchi yoki kitobxon e'tiborini tortish va nutqning emotsional-ekspressivligini ta'minlash maqsadi bilan olib kiriladi. Mubolag'ada ifodalanayotgan axborot tabiiyki, hayot haqiqatiga mos kelmaydi [5;71].

F.Salayev, G.Qurboniyozovning “Adabiyotshunoslik atamalarining izohli so'zligi”da “Mubolag'a – (arabcha – lof urish, bo'rttirish) shaxs, narsa va hodisaning muayyan xususiyatlarini bo'rttirib, kuchaytirib tasvirlashga asoslangan she'riy san'at. Badiiyat nazariyasida mubolag'a uch turga ajratilgan holda o'rganiladi: a) tablig' – aqlan ishoniladigan va hayotda yuz berishi mumkin bo'lgan mubolag'a; b) ig'roq – belgi va harakatni aqlan ishonish mumkin bo'lsa ham, hayotda ro'y berishi mumkin bo'lmagan tarzda kuchaytirib, oshirib tasvirlash; v) g'uluvv – aql ham bovar qilmaydigan, hayotda ham yuz berishi mumkin bo'lmagan darajada bo'rttirib tasvirlash san'ati” tarzida izohlanadi [6;140].

Mubolag'a asarda muallifning badiiy niyatini ochib berish, voqeani jonlantirish, obrazni yuksak darajada ko'rsatish imkonini beradi. Shu bilan birga, u milliy mentalitet, xalq dunyoqarashi va madaniyatiga xos obrazlilikni ham aks ettiradi.

Erkin Samandar o'z nasriy asarlarida mubolag'a san'atidan faol qo'llangan. Bilamizki, yozuvchi nasriy asarlarida tarixiy shaxslar hayoti va ijodi yetakchilik qiladi. Shu sababli, adib asar qahramonlarining obrazini yaratishda mubolag'adan o'rinli foydalanadi. Mubolag'a qahramonning his-tuyg'ularini, kuchini, go'zalligini yoki fojiasini yanada ta'sirli ifodalash uchun qo'llaniladi. Ma'lumki, o'zbek adabiyotida xalq qahramonlari obrazida millatning mardlik, poklik va jasorat kabi qadriyatlari mujassamlanadi: Zohiri (tashqi ko'rinishi) ertaklardagi pahlavonlarga mengzaydi. Bo'yi minorday, belidagi qanjirg'asi o'ttiz quloqdan

uzun bo'lsa uzun, kam emas. Chorig'ining og'irligi bir botmon, qilichini o'zidan boshqa odam ko'tarolmaydi [2;43]. Bu matn parchasida mubolag'a – tilning sehrli quroli sifatida namoyon bo'ladi: u oddiy tasvirlarni afsonaviy ulug'vorlikka aylantirib, qahramonni ertak pahlavonlari qatoriga qo'shadi. Bo'yi minorday, belidagi qanjirg'asi o'ttiz quloch, qurollari botmon og'irligida va faqat o'zi ko'tara oladigan qilich – bu elementlar nafaqat jismoniy kuch-qudratni oshirib ko'rsatadi, balki o'zbek folklorining chuqur qatlamlarini – milliy o'lchovlar (quloch, botmon), arxaik leksika (qanjirg'a, chorig') va epik ritmlarni jonlantiradi. Poetik mazmunda esa u o'quvchida hayrat va hurmat uyg'otib, haqiqatni tasavvur olamiga ko'chiradi. Shoir yoki yozuvchi taassurotni kuchaytirish, hayajonni oshirish, majoziy ma'noda bo'rttirish maqsadida mubolag'a ishlatadi. Mubolag'ali tasvir, asosan, ikki tamoyilga (harakat va holatni bo'rttirishga qaratilgan) asoslangan bo'ladi. Bunday belgi va xususiyatlarni kuchaytirishga xizmat qiladigan mubolag'a zamirida tashbehli bog'lanish bo'ladi. Mubolag'a tabiatan adabiy janrlarga bog'liqdir. Ushbu san'at og'zaki nutqda ham, folklor asarlarida ham, yozma adabiyotda ham ko'p uchraydi.

Urganjni bosib olishda ular to'kkan qonlar daryo bo'lib oqdi. Kallalardan minoralar yasadilar [3;248]. Jumladagi mubolag'a (giperbola) tarixiy fojiani tasvirlash orqali o'quvchida emotsionallik uyg'otadi. To'kkan qonlar daryo bo'lib oqdi gapi qonni daryo bilan taqqoslab, vahshiylikni cheksiz miqyosda tasvirlaydi, bu orqali urushning dahshatini metaforik ravishda kuchaytiradi va o'zbek adabiyotining epik an'analarga mos keladi.

Yo'g'iy baloi azim, o'tda kuymas, suvda oqmas, tanalari bamisoli temir, o'q tesha bilmas. Tagidagi otlari-da bo'lakcha. Oyoqlari kalta, yag'rini keng, yollaridan olov sachraydir. Qilichlari tog'larni kesishga qodir. Yo'llarida ne uchrasa yamlab-yutarlar. Olar ya'juj-ma'jujlardir [4;8]. Bu misolda ig'roq sifatida Chingizxon qo'shinlari haqida g'uriylar tomonidan tarqatilgan afsonaviy tasvirlar keltirilgan. "O'tda kuymas", "suvda oqmas", "tanasi temirday", "qilichlari tog'larni kesadi" kabi sifatlari tasavvurda mumkin bo'lib ko'rinsa-da, amalda insoniy imkoniyatlardan ancha yuqori va imkonsizdir. Bu tasvirlar mubolag'ali tarzda Chingizxon askarlarini g'ayritabiiy, deyarli yovuz mahluqotlar (ya'juj-ma'juj) sifatida ko'rsatadi, bu esa qo'shin ichida qo'rquv va vasvasa tarqatish uchun ishlatilgan. Ig'roq orqali muallif dushmanning qudratini bo'rttirib, xiyonatkorlarning niyatini fosh qiladi. Bu tasvir kinoyali tarzda dushmanning haqiqiy qudratidan ko'ra, uning obro'sini oshirishga xizmat qilgan

xiyonatkor harakatlarni tanqid qiladi. O'quvchiga dushmandan qo'rqmaslik, aksincha, unga qarshi birlashib kurashish kerakligi haqida ishora qilinadi.

Yozuvchi asar qahramonlarini tasvirlashda o'zbek adabiyotining qadimiy doston an'alarini aks ettiradigan holatlarni ham ko'plab qo'llaydi. Misol uchun, Pahlavon Mahmud tasvirini quyidagicha ifodalaydi: Yo qudratingdan, devning naq o'zi, bo'yi chamasi yetti yuz gaz, ko'kragi besh yuz gaz, boshi bir botmon, ikki tomonga buralib ketgan mo'ylovi sakson-yuz qarich, oyoqlari yuz yillik gujumning tanasidan yo'g'onroq, fil panja, tuya bo'yin bir baloi azim [3;258]. Ushbu gap Pahlavon Mahmudning xalq orasidagi shon-shuhratini, kuch-quvvatini va ma'naviy pokligini ifodalovchi badiiy matndir. Jumladagi mubolag'a (giperbola) badiiy jihatdan "Pahlavon Mahmud Piryorvaliy" qissasining epik janrini kuchaytirib, asar qahramonini mifologik obraz sifatida ulug'laydi va voqeani ramziy darajada boyitadi. Natijada, giperbola nafaqat tasvirni jonlantiradi, balki qahramonlik va yovuzlik o'rtasidagi kontrastni kuchaytirib, matnning badiiy qimmatini yuksaltiradi.

Erkin Samandar asar qahramonlarining fazilatlari yoki imkoniyatlarini tasvirlashda uning ulug'ligini va ilmiy qudratini ifodalagan misollarni keltirib o'tadi. Quyida berilgan misolda mubolag'a mifologik obraz yaratadi, ya'ni Najmiddin Kubro oddiy inson emas, balki karomatli, ilohiy bilimga ega avliyo sifatida talqin qilinadi: Daryoni ters oqizarmish, devlarni jilovlay olarmish, o'zganing qo'lidagi yopig' kitobni betma-bet o'qirmish qabilidagi gaplarni avom tarqatgan deb birda ishonsa, birda ishonmas, ammo buyuk Xoqonning man-man degan shamanlari shayxning ilmiga tan berishlarini ko'rib, dilidagi gumon o'rmini ishonch egallay boshlagan edi [3;340]. Bu yerda mubolag'a poetik giperbola sifatida ishlatilgan bo'lib, qahramonning ilmiy va ruhiy qudratini badiiy ifodalagan. Bunday ifoda shakli tasavvufiy matnlar uchun xos bo'lgan mantiqiy emas, balki ramziy-estetik idrokni aks ettiradi. Natijada Najmiddin Kubro obrazi tarixiy shaxs, shuningdek, ramziy-avliyo sifatida matnning semantik qatlamini chuqurlashtiradi. Yana bir tahlilda esa Pahlavon Mahmud obrazi xalqning kuch, poklik va jasorat haqidagi qadriyatlari til vositasida badiiy ifoda topgan: To'y-tomosha bo'lsa Xorazmda polvonman degani qurga chiqar, ana shunda Pahlavon Mahmudning oldiga tushadigani topilmas, topilib qolguday bo'lsa, kuragi yerga tegmay qolmas, ul zoti pokning kuch-quvvatlari shu qadar ediki, yursalar yer larza berar, ursalar tog' talqon bo'lar, bu sifatlar lofdan uzoq, haqiqatning o'zginasidir [3;250]. Matnda kuch, jasorat, poklik, halollik kabi qadriyatlar ulug'lanadi. "Lofdan uzoq, haqiqatning o'zginasidir" degan jumla orqali xalq donoligi,

haqiqatni qadrlash madaniyati aks etadi. Shuningdek, Xorazmda polvonlik, ya'ni kuch va jasorat xalq orasida qadrlanishi, to'y-tomoshalarda eng kuchli polvonlar o'z mahoratini namoyish etishi ko'rsatilgan. Xalq hayotida polvon – nafaqat kuchli, balki halol, mard, so'zida turadigan inson sifatida hurmat qilinadi. Shuning uchun Pahlavon Mahmud obrazida xalq o'zining orzu qilgan mukammal insonini ko'radi. Ushbu qissa nafaqat adabiy, balki madaniy-ma'naviy jihatdan ham xalq ruhini, milliy g'ururni ifoda etuvchi yuksak badiiy namuna hisoblanadi.

Erkin Samandar nasriy asarlarida qo'llangan giperbola adabiy asarda so'zning badiiy kuchini oshirishga, obrazlarga hayot baxsh etishga va o'quvchini estetik zavqqa chorlagan. U orqali yozuvchi reallikni san'at darajasiga ko'targan, ya'ni hayotiy hodisalarni o'zgacha badiiy ko'lamda ifodalab, inson ruhiy olamining qatlamlarini ochishga xizmat qilgan. Albatta, ushbu jihat yozuvchining til imkoniyatlarining o'ta kengligi va ona tili boyliklaridan ustalik bilan foydalanish mahoratidan guvohlik beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Begmatov E., Madvaliyev A., Mahkamov N. v.b. O'zbek tilining izohli lug'ati. II jild. – Toshkent: Yangi O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 2006. – B. 672.
2. Erkin Samandar. Quyun izlari yohud Ogahiy. – Toshkent: "MUMTOZ SO'Z", 2009. – B. 252.
3. Erkin Samandar. G'ayb qushlari: Roman, qissa va hikoyalar. – Toshkent: Sharq, 2009. – B.368.
4. Эркин Самандар. Султон Жалолиддин. – Тошкент: Г'афур Г'улом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2007. – Б. 288.
5. Qurbonova M., Yo'ldoshev M. Matn tilshunosligi. – Toshkent: Universitet, 2014. – B. 115.
6. Salayev F., Qurboniyozuv G. Adabiyotshunoslik atamalarining izohli so'zligi. – Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2010. – B. 331.
7. Xojiaxmedov A. She'riy san'atlar va mumtoz qofiya . – Toshkent: Sharq. 1998. – B. 160.
8. Yo'ldoshev M., Isaqov Z., Haydarov Sh. Badiiy matnning lisoniy tahlili. – Toshkent, 2010. – B. 112.

FILOLOGIYA**INGLIZ VA O‘ZBEK ADABIYOTIDA MIFOLOGIK
OBRAZLARING QIYOSIY TAHLILI**

Sobirova Nilufar,
Urganch innovatsion
universiteti
“O‘zbek va xorijiy
filologiya” kafedrası
o‘qituvchisi

UO‘K: 811.111:8.80

Annotatsiya: Ushbu maqola ingliz va o‘zbek adabiyotidagi mifologik obrazlarning o‘xshash va farqli jihatlarini qiyosiy-tahliliy usulda o‘rganadi. Tadqiqotda xalq og‘zaki ijodi, yozma manbalar va zamonaviy adabiyot namunalari tahlil qilindi.

Аннотация: В статье рассматриваются сходства и различия мифологических образов в английской и узбекской литературе с использованием сравнительно-аналитического подхода. В исследовании анализируются устные народные традиции, письменные источники и образцы современной литературы.

Annotation: This article provides a comparative analysis of mythological images in English and Uzbek literature. By examining folklore, classical texts, and modern literary works, the study identifies both common archetypes and unique cultural differences.

Kalit so‘zlar: mifologik obraz, ingliz adabiyoti, o‘zbek adabiyoti, qiyosiy tahlil, arxetip.

Ключевые слова: мифологический образ, английская литература, узбекская литература, сравнительный анализ, архетип.

Key words: mythological image, English literature, Uzbek literature, comparative analysis, archetype.

Mifologik obrazlar qadimdan insoniyat tafakkurida chuqur iz qoldirgan bo‘lib, ular milliy adabiyot va madaniyatning ajralmas qismiga aylangan. Mifologik timsollar nafaqat qadimiy rivoyat va afsonalarning asosiy tarkibiy qismi, balki xalqning dunyoqarashi, qadriyatlar va tarixiy xotirasini avlodlardan avlodga yetkazuvchi kuchli ma’naviy vositadir. Shuning uchun ham mifologik obrazlar turli xalqlarning og‘zaki ijodi, yozma adabiyoti hamda zamonaviy badiiy tafakkurida davomli va izchil ravishda namoyon bo‘lib kelmoqda. Adabiyotshunoslikda mifologik obrazlarni o‘rganishda turli nazariy yondashuvlar shakllangan. J.Campbellning mashhur “The Hero with a Thousand Faces” (“Qahramonning ming yuzi”) asarida qahramon arxetipi butun dunyo miflarida uchraydigan umumiy struktura sifatida tahlil qilingan. K. Levi-Strossning mif strukturalizmi miflarni inson tafakkurining universal modeliga aylantirib, ular

orqali insonning borliqni tushunish mexanizmini izohlab berdi. N. Fryening arxetip nazariyasi esa mifologik obrazlarni adabiyotdagi to‘rt asosiy syujet doirasi (romantik, fojiali, komik va satirik) bilan bog‘lab, ularning badiiy asarlarda qanday shaklga kirishini ko‘rsatadi. M. Eliade tadqiqotlari esa mifologiyaning diniy-falsafiy ildizlariga e‘tibor qaratib, insoniyat ruhiyatida miflarning muqaddas vaqt va makon konsepsiyasi bilan bog‘liqligini asoslab berdi.

O‘zbek adabiyotshunosligida ham mifologik obrazlarni o‘rganish muhim ilmiy an‘anaga ega. Hodi Zarif o‘zbek xalq og‘zaki ijodida uchraydigan mifologik tushunchalarning folklor asoslarini chuqur tahlil qilgan. To‘ra Mirzaev xalq ertaklari va dostonlarida mavjud mifologik qatlamlarni tizimli ravishda tadqiq etib, ular orqali xalq mentaliteti va tarixiy xotirasini yoritishga harakat qilgan. Ozod Sharafiddinov va Izzat Sulton singari olimlar esa mifologik obrazlarning badiiy adabiyotdagi qayta talqinini o‘rganib, mif va zamonaviy adabiyot o‘rtasidagi bog‘liqlikni ochib berganlar.

Metodlar: Ushbu maqola qiyosiy-tahliliy yondashuv asosida yozildi. Tadqiqotda ingliz va o‘zbek adabiyotida uchraydigan mifologik obrazlar matnshunoslik va adabiyotshunoslik metodlari orqali o‘rganildi. Asosiy metodologik tamoyillar quyidagilardan iborat:

1. Qiyosiy tahlil metodi – ingliz va o‘zbek adabiyotidagi mifologik obrazlar (ajdarho, qush timsollari, qahramon arxetiplari, dev va pari) o‘xshashlik va farqlari nuqtayi nazaridan qiyoslandi.
2. Arxetip tahlili – J. Campbell va N. Frye nazariyalariga tayangan holda mifologik obrazlarning umumiy arxetipik ildizlari aniqlanib, ularning adabiyotdagi ramziy ma’nolari yoritildi.
3. Madaniy-kontekstual yondashuv – mifologik timsollarning talqini ularning milliy, diniy va tarixiy konteksti asosida izohlandi. Masalan, ingliz mifologiyasi kelt va german afsonalariga, o‘zbek mifologiyasi esa turkiy va zardushtiy an‘analarga tayanadi.
4. Manbashunoslik yondashuvi – tadqiqotda dastlabki yozma manbalar (“Beowulf”, “Alpomish”), xalq og‘zaki ijodi namunalari tashqari, zamonaviy yozuvchilarning asarlari (Tolkien, Isajon Sulton, Ulug‘bek Hamdam) ham o‘rganildi.

Mazkur metodologik yondashuv orqali mifologik obrazlarning o‘xshash va farqli jihatlari aniqlanib, ularning ingliz va o‘zbek adabiyotidagi funksional roli izchil tahlil qilindi.

Natijalar: Tadqiqot davomida ingliz va o'zbek adabiyotidagi mifologik obrazlarning o'xshashliklari va farqlari qator jihatlar asosida tahlil qilindi. Olingan natijalar quyidagicha umumlashtirildi:

1. Qahramon arxetipi.

- Ingliz adabiyotida qahramon obrazlari ko'pincha epik janglarda namoyon bo'ladi. Masalan, Beowulf ajdarhoga qarshi kurashar ekan, xalqini himoya qiluvchi jasur arbob sifatida tasvirlanadi.

- O'zbek adabiyotida esa qahramonlar ko'proq ijtimoiy adolat va ma'naviy poklik ramzi sifatida namoyon bo'ladi. Alpomish obrazi nafaqat xalqini himoya qiladi, balki oilaviy sadoqat, vatanparvarlik va insoniylik fazilatlarini o'zida mujassamlashtiradi.

- Shunday qilib, har ikki adabiyotda qahramonlar markaziy obraz bo'lsa-da, ularning vazifasi turlicha: ingliz mifologiyasida qahramon – jangchi, o'zbek mifologiyasida esa – ahloqiy ideal.

2. Ajdarho va dev obrazlari.

- Ingliz mifologiyasida ajdarho yovuz kuchning eng asosiy timsoli bo'lib, odatda qahramon bilan to'qnash keladigan asosiy dushman sifatida talqin etiladi. Ajdarho ko'pincha xazina qo'riqllovchisi, tartibsizlik va vayronkorlik ramzidir.

- O'zbek mifologiyasida esa dev obrazlari ko'proq insonning ichki nafsini, xudbinlik va yovuz istaklarini ifodalaydi. Dev ko'pincha qahramonning sinovidan o'tuvchi to'siq sifatida gavdalanadi.

- Ingliz mifologiyasida ajdarhoga qarshi kurash xalqni qutqarish ramzi bo'lsa, o'zbek mifologiyasida dev ustidan g'alaba – insonning o'z nafsini yengishi bilan bog'liq.

3. Qush timsollari.

- O'zbek adabiyotida Humo qushi – baxt va ozodlik ramzi, Semurg' esa donishmandlik, yordam va najot timsoli hisoblanadi.

- Ingliz mifologiyasida qushlar ko'proq folbinlik va ilohiy xabar olib keluvchi vosita sifatida namoyon bo'ladi. Masalan, qarg'a yoki boyo'g'li ko'pincha kelajakni bashorat qiluvchi obrazdir.

- Bu o'rinda farq shundaki, o'zbek mifologiyasida qushlar ijobiy va najotkor obraz sifatida talqin etilsa, ingliz mifologiyasida ular ko'proq ogohlantiruvchi, hatto ba'zan salbiy belgilar bilan bog'liq bo'ladi.

4. Ayol obrazlari: pari va sirenalar.

- Ingliz mifologiyasida sirenalar va pari obrazlari vasvasa, joziba va xavf ramzi sifatida ko‘rinadi. Ular ko‘pincha erkak qahramonni sinovdan o‘tkazadi.

- O‘zbek mifologiyasida esa parilar ko‘proq ezgulik, go‘zallik va ma’naviy tozalik timsoli sifatida tasvirlanadi. Ular qahramonga yordam beradi yoki unga yo‘l ko‘rsatadi.

- Bu jihatdan ingliz mifologiyasidagi ayol obrazlari sinovchi, o‘zbek mifologiyasida esa qo‘llovchi vazifasini bajaradi.

5. Zamonaviy adabiyotdagi davomiylik.

- Ingliz adabiyotida J. R. R. Tolkienning “Uzuklar hukmdori” asarida elf, gnom va ajdarho singari mifologik obrazlar yangi shaklda talqin qilinib, o‘quvchini qadimiy miflar olamiga qaytaradi.

- O‘zbek yozuvchilari Isajon Sulton va Ulug‘bek Hamdam asarlarida ham mifologik ramzlar yangi zamonaviy talqinlarda gavdalanadi. Masalan, insonning ichki dunyosidagi iztiroblar va ijtimoiy muammolar mifologik obrazlar vositasida badiiy ifodasini topadi.

- Bu davomiylik mifologik obrazlarning faqat tarixiy meros emas, balki zamonaviy badiiy tafakkur uchun ham dolzarb ekanligini ko‘rsatadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ingliz va o‘zbek adabiyotidagi mifologik obrazlar mazmun jihatidan turlicha talqin etilgan bo‘lsa-da, ularning asosiy vazifasi bir xil – xalqning tarixiy xotirasi va ma’naviy qadriyatlarini saqlashdir. Ingliz mifologiyasida ajdarho, sirena va qahramon obrazlari ko‘proq jangovar, epik va sinovchi tusga ega bo‘lib, xalqni jasoratga undash, kurashchanlik ruhini shakllantirishga xizmat qiladi. O‘zbek mifologiyasida esa dev, pari va qush timsollari ko‘proq ichki dunyo, ahloqiy poklik va ma’naviy o‘zlikni ifodalash bilan bog‘langan. Shuningdek, har ikkala adabiyotda ham mifologik obrazlarning zamonaviy yozuvchilar asarlarida qayta talqin qilinishi milliy xotira va folklorning davomiyligini ko‘rsatadi.

Xulosa: Yuqoridagi tahlillar ingliz va o‘zbek adabiyotidagi mifologik obrazlarning nafaqat umumiy ildizlarga ega ekanini, balki har bir xalqning milliy tafakkuri, dunyoqarashi va madaniy qadriyatlari asosida shakllangan o‘ziga xos jihatlari borligini ko‘rsatadi. Qahramon, ajdarho, dev, pari va qush singari timsollar har ikki xalq adabiy merosida muhim o‘rin egallasa-da, ularning semantik yuklamasi va badiiy vazifasi madaniy kontekstga ko‘ra turlicha talqin etiladi. Ingliz adabiyotida bu obrazlar ko‘pincha sinov, kurash va inson

irodasining kuchini namoyon etuvchi epik ramzlar sifatida namoyon bo'lsa, o'zbek adabiyotida ular ezgulik, ma'naviy poklik, muhabbat va milliy o'zlikni anglatuvchi ma'nolar bilan boyitiladi. Shuningdek, zamonaviy o'zbek va ingliz yozuvchilari ijodida ham mifologik unsurlar yangi badiiy shakllar va ramziy qatlamlar orqali qayta talqin qilinayotgani kuzatiladi. Bu holat mifologiyaning adabiy tafakkurda hanuz faol estetik va falsafiy manba sifatida yashayotganini isbotlaydi. Demak, mifologik timsollar xalq xotirasi va madaniy merosining ajralmas qismi bo'lib, ularning vositasida milliy qadriyatlar, tarixiy tajriba va ruhiy izlanishlar avloddan avlodga yetkaziladi. Bundan tashqari, mifologik obrazlarning o'rganilishi faqat adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan emas, balki madaniyatshunoslik, semiotika va psixologiya fanlari bilan ham chambarchas bog'liqdir. Har bir mifologik timsol inson ongining arxetipik qatlamlarida shakllangan ramz sifatida jamiyatning ma'naviy holatini, orzu-umidlarini va qadriyat tizimini ifodalaydi. Shu ma'noda, ingliz va o'zbek adabiyotidagi mifologik obrazlarni qiyosiy tahlil qilish nafaqat ularning badiiy mohiyatini ochib beradi, balki har bir xalqning ruhiy olami, milliy xotirasi va ijodiy tafakkurini chuqurroq anglash imkonini ham yaratadi. Bu yo'nalishdagi izlanishlar kelgusida madaniyatlararo muloqotni yanada mustahkamlash, adabiy tafakkurdagi umumiylik va farqlarni chuqurroq tahlil etish uchun mustahkam ilmiy zamin bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Campbell, J. The Hero with a Thousand Faces. Princeton, 1949.
2. Frye, N. Anatomy of Criticism. Princeton, 1957.
3. Eliade, M. Myth and Reality. Harper & Row, 1963.
4. Tolkien, J.R.R. Beowulf: The Monsters and the Critics. London, 1936.
5. Sharafiddinov, O. Adabiyot va mifologiya. Toshkent, 1990.
6. Komilov, N. Mif va qadimiy turkiy adabiyot. Toshkent, 2005.

FILOLOGIYA

O'zbek she'riyatida “sen” va “men” so'zlari ishtitokida tazodning tadriji



Elnur Niyozmatov,
Urganch innovatsiya
universiteti o'zbek va
xorijiy filologiya
kafedrasi o'qituvchisi

UO'K: 821

Annotatsiya: Ushbu maqolada badiiy san'atlardan tazodning tadrijiy takomili XV asrdan hozirgi zamon shoirlari ijodigacha bo'lgan davrda yozilgan she'rlarda qo'llanilgan “sen” va “men” olmoshlari vositasida yaratilgan poetik tasvir ifodalari tahlil qilib ko'rsatilgan.

Аннотация: В статье анализируется поэтическая образность, созданная местоимениями «ты» и «я», используемыми в стихотворениях, написанных с XV века, в творчестве современных поэтов, показывая постепенное развитие контраста в изобразительном искусстве.

Annotation: This article analyzes the poetic imagery created by the pronouns “you” and “me” used in poems written from the 15th century to the work of contemporary poets, showing the gradual development of contrast in the visual arts.

Kalit so'zlar: she'riy san'at, qarshilantirish, tazod, tardi aks, tashbeh, zid ma'noli so'zlar, poetik mahorat.

Ключевые слова: поэтическое искусство, контраст, противопоставление, обратное отражение, сравнение, слова с противоречивыми значениями, поэтическое мастерство.

Key words: poetic art, contrast, contrast, reverse reflection, simile, words with contradictory meanings, poetic skill.

O'zbek she'riyatida she'riy san'atlarning o'ziga xos va mos o'ringa ega ekanligi bu mavzudagi tadqiqot ishlarida ko'p ta'kidlangan. Biz ham shakliy, ham ma'naviy xususiyatlarni o'zida mujassamlashtirgan tazod san'ati tadrijini XV asr, ya'ni Navoiy ijodidan to hozirgi zamon she'riyati namunalari misoligacha bo'lgan davrlarda kengroq o'rganib chiqishni maqsad qildik. Lirik asarlarda alohida ajralib turadigan obrazlar ma'shuqa (sen) hamda oshiq (lirik qahramon, men) obrazlarini tasvir va tavsiflarini keltirishda she'rlarda “sen” va “men” olmoshlarining alohida ahamiyat kasb etishiga e'tibor qaratdik.

Alisher Navoiy gʻazallarida yor, asosan, ikkinchi shaxs birlikda, baʼzan uchinchi shaxs birlikka murojaat tarzida qoʻllanilgan. Lirik qahramon – oshiq koʻngil kechinmalari, ishq iztirobi, vasl umidi, hijron azoblarini maʼshuqaga bayon etishi, uning holati va boshqalar tasvirlanadi. Sen koʻpincha gʻazallarda ishlatilmaydi, biroq uning mavjudligi, oʻrni ikkinchi shaxs egalik qoʻshimchasi vositasida yaqqol bilinib turadi. Bu shoirning ishqiy mavzuda yozilgan deyarli barcha janrlardagi sheʼrlariga xos xususiyatdir.

Masalan: ***Orazing hajrida zor erdim quyosh botqon chogʻi,***

Kim sabo payki manga yetkurdi bir gul yaprogʻi. (1. 557.)

Bu baytda sen qatnashmagan boʻlsa ham, lirik qahramon sen (yor)ga bevosita murojaat etayotgani va uning yuzi hajrida visol umidini sabo gul yaprogʻi orqali xabar yetkazgani tasvirining hayratlanarli tarzidagi ifodasi manzara-lavha hamda tazod vositasida yuzaga keltirilgan. Baytdagi hajr (hijron) oʻz ziddi - visol maʼnosini ifodalashga xizmat qilgan. Bu yerda shamol xat tashuvchiga gul yaprogʻi yor maktubiga mahorat bilan qiyoslanganligini koʻrish mumkin.

Sanga ish javlon qilib maydonda chavgon oʻynamoq,

Manga ollinda boshimni goʻy etib, jon oʻynamoq. (1.342.)

Yuqoridagi misrada shoʻx-shodon yor holati hamda uning ishqiga parvo qilmay chavgon oʻynashi tasviri berilgan. Shu bilan birga yor uchun jonini berishga tayyor turgan oshiq obrazi gavdalantirilgan.

Senga ne gʻam men kibi majnuni shaydodin yiroq,

Ish mengadur sen parivash hur siymodin yiroq. (355-b.)

Yor oldida oʻzini kamtarlik bilan yerga urib, undan oʻzini bir pogʻona pastda koʻrsatish mumtoz sheʼriyatda anʼanaga aylangan usullardan sanaladi. Xususan, Bobur ijodidan keltirilgan quyidagi misralar fikrimizga asos boʻlishi uchun hozirgi shoirlarimiz ijodiga qiyosan tahlil qilishni joiz deb bildik.

Sen gulsen-u men haqir bulbuldirmen,

Sen shuʼlasen-u ul shuʼlaga men kuldirmen.

Nisbat yoʻqtur deb ijtinob aylamakim,

Shahmen elga, vale senga quldirmen.¹

Shoir ruboiyning birinchi, ikkinchi misralarida “sen” va “men” (oshiq va yor)ni boshqa predmetlarga qiyoslaydi. Qiyoslangan soʻzlar juftligi oʻzaro qarama-qarshilikni yuzaga keltirgan. Birinchi misrada gul – bulbul, ikkinchi

¹ www.kh_davron.uz

misrada shu'la – kul, to'rtinchi misrada shoh o'z ma'nosida qo'llanilib, qulga qiyoslangan hamda tashbeh va tazod san'atlarini yuzaga keltirgan. Mumtoz she'riyatimizda keng tus olgan men (lirik qahramon, oshiq), sen (ma'shuqa, yor) zidligi hozirgi o'zbek she'riyatimizda ham an'anaga aylanib, mazmun-mohiyatiga, tasvir obyektiga, ifoda usullariga ko'ra ancha kengayayotganligi ijodkorlarning salohiyati, badiiy mahoratidan dalolat beradi.

She'riyatimiz namoyondalaridan biri Abduvali Qutbiddin ijodida “sen” va “men” olmoshlari zid ma'noli so'zlar vositasida o'zgacha talqinda tasvirlanadi:

***Meni** balo ko'rdilar, **seni** a'lo ko'rdilar,
Yuragimiz ustida chapak chalib turdilar.
Seni ko'kka surdilar, **meni** yerga urdilar,
Ikkimizning ishq to'la jomimiz sindirdilar. (5.23; 88-b.)*

She'r parchasida oshiq va ma'shuqaga boshqalarning munosabati o'zaro zid ma'noli so'zlar orqali ijobiy hamda salbiy baho berilganday ko'rinsa-da, aslida sevishgan qalblar uchun buning ahamiyatsiz ekanligi mahorat bilan tasvirlangan. Yorni *a'lo ko'rib, ko'kka sursalar* (ko'tarsalar) ham, ularning muhabbatiga rahna solishsa ham, muhabbatlarining boqiyliqi, har ikkisining qalbiga ozor yetganligi misralar mazmunidan sezilib turibdi. Bandning birinchi, uchinchi misralaridagi barcha so'zlar (balo –a'lo, meni–seni, yerga urmoq – ko'kka surmoq) o'zaro zid ma'noda qo'llanilgan va “meni”, “seni” so'zlarining o'rni almashib kelib, tardi aks hamda tazod san'atining betakror namunasini yuzaga keltirish bilan birga poetik ifoda yaratilgan. Har ikkiala she'rdagi o'xshashlik oshiqning mavqei yor oldida past ekanligida hamda “men”, “sen” so'zlari qatnashgan misralarda barcha so'zlarning zid ma'noli ekanligidadir. Ruboiyda lirik qahramonning o'zi ham oshiq, ham ijodkor bo'lsa, Abduvali Qutbiddin she'rida uchinchi shaxslar oshiq-ma'shuqni bir-biridan ayirish uchun harakat qilganliklari tasvirlangan. Har ikki shoir she'rida individual uslub, chuqur mushohada va badiiy vositalardan mahorat bilan unumli qo'llanishgani e'tiborga loyiq jihatlardan hisoblanadi.

Faqat o'zaro zid ma'noli so'zlar asosida yozilgan quyidagi she'r bandi misolida ham tazodning go'zal va betakror jilosini ko'rish mumkin:

***Sen** yaxshisan, **men** yomondirman,
Sen borsanki, **men** omondirman.
Meni qattol yaratdi hayot,
Seni qilgan ojiz, benajot.*

Sen niholsan, zavoling o‘zim,

Sen tiriklik – men esa o‘lim. (5. 134-6.)

Erkin Vohidovning olti misralik bu she‘rida boshidan oxirigacha tazod qo‘llangan. lirik qahramon “men”ni *yomon, qattol, o‘limga* qiyoslar ekan, “sen”ni *yaxshi, ojiz, nihol va tiriklikka* nisbatlab, yorning borligi uchun o‘zi omonligini, uning zavoli ham o‘zi ekanligini alohida ta’kidlaydi. Ijodkor yuqorida keltirilgan xalq maqollaridan ozuqa olib, ijod qilganligi yaqqol seziladi. Yigirma to‘rtta so‘zdan tashkil topgan she‘rda deyarli barcha so‘zlar o‘zaro zidlikni tashkil etgan. She‘rda mazmun, shakl uyg‘unligi bilan birga falsafiy mushohadaga ham alohida urg‘u berilgan.

“Men” va “sen” olmoshlari vositasida qarshilantirish ozarbayjon shoiri Baxtiyor Vahobzodaning juft misralari o‘rnida takrorlanadigan “*biri sensan, biri men*” nomli mashhur she‘ri qardosh xalqlar adabiyoida ham tazodning yorqin namunalari yaratilgan va yaratilayotganligidan dalolat beradi:

Bir buloqning ikki ko‘zi –

Biri sensan, biri men.

Bir olmaning ikki yuzi, yor –

Biri sensan, biri men.

O‘zbek xalqining sevimli qo‘shig‘iga aylangan bu she‘rni dastlab O‘zbekiston xalq hofizi Ortiq Otajonov ma‘romiga yetkazib kuylagan bo‘lsa, keyinchalik hofizning nevarasi Ali Otajonov yangicha talqinda ijro etgan. Oshiq va yor timsollarining zid ma’noli so‘zlarga sodda, ravon tilda qarama-qarshi ma’noga ega so‘zlarga qiyoslanishi va bir nuqtada birlashishi o‘zgacha joziba kashf etgan:

Bu hayotda ikki rangdir –

Biri sevinch, biri g‘am.

Sevinch kimdir, qayg‘u kimdir –

U ham sensan, hamda men.¹

Hayotning ikki rangdan iborat ekanligi, bu ranglarning sevinch va g‘am deb atalishi hamda o‘sha ikki rang deya atalayotgan sevinch va qayg‘u tuyg‘ulari ikki sevishgan qalbdan iborat ekanligi juda chiroyli tarzda tasvirlab berilgan. Zid ma’noga ega tushunchalarning bir qalbdagi birlashishi chin muhabbat egalariga xos hodisadir. Aynan shu an’ananing hozirgi o‘zbek she‘riyatida turlicha talqinlarda aks etganligi va tadriji takomillashayotganligi ahamiyatlidir:

¹www.kh_davron.uz

*Zamin bilan osmon – **sen-u menman**,*

*Sahar bilan oqshom – **sen-u menman**. (7. 89-6.)*

Bu misralarda barcha soʻzlar qarama-qarshi maʼnoga ega. Shoir “sen-u men”ni zamin bilan osmonga, sahar bilan shomga qiyoslar ekan, uni qalb kengliklari poyonsiz, hijronli tunlari esa uyqusiz ekanligiga ishora sifatida tasvirlagan. Zamin va osmon orasidagi masofa qanchalik uzoq boʻlsa, sahar bilan shom shunchalik oʻxshash. Bu bilan biz koʻrinishdan bir-birimizga juda oʻxshash boʻlsak ham oramiz uzoq, lekin sevgimiz bepoyon va beqiyos demoqchi. Fikrimizni keyingi misradagi ifodalar toʻla tasdiqlaydi.

Quyida **sen – men** olmoshlari vositasida Xurshid Davron oshiq va yorni yer va osmonga oʻxshatgan boʻlsa, Aziz Said misralarida yer-osmon orasidagi ishqdan paydo boʻlgan hijronga qiyoslash orqali yangicha topilma kashf etilgan:

Yer-u osmon aro bir ishq bordir,

*Ishqdan bunyod hijron – **sen-u menman**.*

*Kuzdagi ikki yaproq – **sen-u menman**,*

*Bargdagi mitti firoq – **sen-u menman**.*

Jonim aro bir sevgi bor,

*Firoqda qolgan chiroq – **sen-u menman**. (5.15; 11-b.)*

Shoir yer va osmon oraligʻidagi ishqdan bunyod boʻlgan hijronga, kuzdagi ikki yaproqqa, bargdagi mitti firoqqa va firoqda qolgan chiroqqa oʻxshatilgan sen-u men zidligi takrori zamirida ikki qalbning birlashib ketishini, yaʼni bir butun hamda farqlanmaydigan bir xilligini mahorat bilan tasvirlaydi. Mumtoz adabiyotimizda boshlangan anʼanani bugungi kun sheʼriyatida yanada kengayib, kutilmagan va ijodkor tasavvur olami kengliklari mahsuli natijasida jilvalanishi orqali estetik zavq berishi maqtovga sazavor yutuqlardan sanaladi.

*Tugʻilgan boʻlsam **men** oʻzga oʻrniga,*

***Sen** oʻlgan boʻlsang gar begona uchun,*

***Men** – goʻdak, tikan boʻlay ilon inida,*

***Sen** – keksa, qopqoq boʻl ilon iniga. (3. 36-b.)*

Abduvali Qutbiddinning ushbu bandning dastlabki ikki misrasida oʻquvchi shoirning nima demoqchiligini tushunganday boʻladi, ammo keyingi ikki misra chuqur mushohada yuritishga undaydi. Tikan, qopqoq ilon iniga nega kerakligini tushunmaydi. “Ilon ini” birikmasi tasviri orqali nima demoqchi boʻladi? Bizningcha, shoir umr yoʻlini ilon iniga qiyoslagan. U “men tikonday ozor bergan umrni sen qopqoq boʻlib yopib qoʻy”, yaʼni mening xato va ayblarimni yopib

qo'y, deyapti. Abduvali Qutbiddin ijodida men-sen juftligi nisbatan ko'proq qo'llanilgan. Uning "*Men qulman. Sen xoja*", "*Men daryo, Sen har yon...*" "*hech kim suygan emas meni senchalik*" kabi misralari fikrimiz dalili bo'la oladi.

*Endi **men** jim yashay olmayman,*

Hayqiraman o'zimni chorlab.

***Meni** olib ketarkan to'lqin,*

*Uzoqlarda **sen** turgin chorlab.*

(5. 47-b.)

Lirik qahramon o'zligiga, asliyatiga qaytishni istab, ichidan o'ziga qarshi isyon ko'tarib, o'zligi (o'zi!) ni chorlab hayqirar ekan, uning ovozi hech kim eshitmaydi. Aksincha, to'lqin (bizningcha, olomon g'ovur-g'uvuri) uzoqlarga olib ketganida sen chorlab tur, deya ta'kidlaganida "sen" inson emasligi ma'lum bo'ladi. "Sen" – erkinlik, kurashchanlik yoki komillik kabi xislatlar timsolida gavdalantirilgan. Yuqoridagi misralar muallifi Aziz Said ijodida "Sen yuborgan surat", "Telefon haqida tush", "Sen dengizga boraylik deding", "Men bir bozingarman...", "Qo'y, meni qiynama...", "Uchrashdik" kabi o'nlab she'rlarida **men** – **sen** zidligi vositasida yaratilgan turli xil poetik obrazlar, manzara-lavhalar, insonning samovot jismlari, tabiat, hayvonot olami bilan uyg'un holdagi tasvirlari, chuqur falsafiy mushohadalar o'quvchi diqqatini tortadi.

***Sen** qismat qo'lida zanjirband,*

***Men** taqdir shahrida nigoron.*

***Sen** somon yo'lida bir bekat,*

***Men** armon yurtida bir karvon.*

(5.18-b.)

Ko'rinib turibdiki, "sen" va "men" so'zlari zidligi vositasida boshqa qarama-qarshi so'zlarni qo'llash orqali lirik asar yozish hozirgi o'zbek she'riyatida ham keng an'anaga aylanib ulgurgan. Vafo Fayzullohning har bandi sakkiz misralik, o'n bir bandli "Tajriba" she'rida lirik qahramon "men"ga zid qo'yilgan "sen" yor ma'nosida kelmagan, balki kitobxon, o'quvchi, o'zidan boshqalar ma'nosini anglatib tazodning yangicha jilolarini yaratgan. Bunday go'zal misralarni boshqa ijodkorlar ijodida, xususan, yosh ijodkorlar she'riyati misolida ham uchratish mumkin:

***Sen** ketib borarsan, beg'am, betashvish,*

***Men** senga termilib behush qaytaman.*

***Sen** mendan uzoqlab ketganing sayin,*

***Men** senga shunchalar bo'larman yaqin.*

(6.25.)

Ikkiliklar shaklida yozilgan bu she'riy misralar yosh shoir Islom Ali qalamiga mansub. Yuqoridagi an'anani o'ziga xos yangicha talqinida ham tazodning asosiy badiiy vosita sifatida qo'llanilgani ko'rinadi. Birinchi ikkilik misralarida “sen” – yorning beg'am, betashvish holatiga oshiq – “men”ning behushligi, ya'ni yor ishqidan, visol dardidan behushligi zidlikni ifodalab, matniy (kontekstual) tazodni yuzaga keltirgan. Ikkinchi ikkilikda “sen” va “men” so'zlarining o'rin almashib qo'llaniishi tardi aks (ters qo'llash) san'atini ham yuzaga keltirgan bo'lsa, uzoq-yaqin so'zlarining o'zi tazodga asos bo'la olgan.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, mumtoz adabiyotdan to hozirgi o'zbek she'riyatigacha bo'lgan (zamon va makondan qat'iy nazar) davrda an'anaga aylangan badiiy tasvir vositalarini yaratishda ko'plab so'z va so'z birikmalari o'z o'rniga ega. Tazod san'ati ana shunday kengayib, bosqichma-bosqich o'z takomiliga yetishishida va uning betakror, hayratlanarli namunalarini yuzaga kelishida “sen”, “men” olmoshlarining o'rni beqiyos ekanligini ta'kidlash muhim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy “Qora ko'zum”. Toshkent: G'afur G'ulom nashriyot matbaa birlashmasi, 1998.
2. Bobur. Ko'zidin boshda navodur. Toshkent: “Zabarjad Media”, 2023.
3. Abduvali Qutbiddin. So'z chamani. Toshkent, “Akademnashr”, 2020.
4. Aziz Said. Vaqt manzili. Toshkent: “Akademnashr”, 2021.
5. Vafo Fayzulloh. Oq laylak. Toshkent: “Muharrir”, 2020.
6. Erkin Vohidov. Muhabbat. Toshkent: G'afur G'ulom nashriyot matbaa birlashmasi, 1998.
7. Xurshid Davron. Bahordan bir kun oldin. Toshkent: “Sharq”, 1997.
8. Islom Ali. https://t.me/Adabiyot_olami. WWW.kh_davron.uz

FILOLOGIYA**Shoir adabiy-estetik qarashlarida
davr ruhi**

**Matnazarova Saida,
Abu Rayhon Beruniy
nomidagi
Urganch davlat
universiteti
mustaqil
tadqiqotchisi**

UO‘K: 821.10

Annotatsiya: Ushbu maqolada Omon Matjon adabiy-estetik qarashlarida ijtimoiy-tarixiy va adabiy-falsafiy lirikaning o‘rni haqida so‘z boradi. Ijtimoiy-falsafiy lirika rivoji, takomili haqida ba’zi fikrlar keltirilgan. Shoirning ushbu mazmundagi she’rlaridan namunalar beriladi.

Аннотация: В статье рассматривается роль социально-исторической и литературно-философской лирики в литературно-эстетических воззрениях Амана Матжана. Приводятся некоторые мысли о развитии, совершенствовании социально-философской лирики. Приведены примеры стихотворений поэта такого содержания.

Annotation: This article will talk about the role of socio-historical and literary-philosophical lyrics in the literary and aesthetic views of Omon Matjon. Some ideas are presented about the development of socio-philosophical lyrics, evolution. Examples of poems of this content are given by the poet.

Kalit so‘zlar: adabiy-estetik qarashlar, ijtimoiy-falsafiy lirika, Omon Matjon, “devor” obrazi, ramz, timsol.

Ключевые слова: литературно-эстетические взгляды, общественно-философская лирика, Амон Матжон, образ «стены», символ, эмблема.

Key words: literary and aesthetic views, socio-philosophical lyrics, Omon Matjon, the image of the “wall”, symbol, symbol.

Ijtimoiy-tarixiy va adabiy-falsafiy lirika o‘z zamonida ham, undan keyingi davrlarda ham hamisha ahamiyatli bo‘lgan. Chunki ma’lum davrlarda adabiyot jamiyat hayotiga oyna tutish vazifasini ham o‘z gardaniga olgan. Yuragida vataniga kuchli muhabbati bo‘lgan, o‘z qismatini yurt qismatiga aloqador deb bilgan iste’dod egasi borki, bu mavzuni tasvir qilgan.

Omon Matjon ijodi ham ijtimoiy-falsafiy lirikaning yorqin namunasi hisoblanadi. Uning ijodida ham ijtimoiy-tarixiy jarayonlar yuksak poetik tasvirlar orqali kuylanadi. Chunki shoir “she’riyatda har qanday boshqa mavzular kabi

ijtimoiylikning ham yashashga haqqi bor” (1) – deb hisoblagan. Shoirning deyarli barcha she’rlarida ijtimoiy mavzular va ramziylik orqali jamiyat qiyofasini tasvir qilinishining guvohi bo‘lamiz.

“60-yillarning oxiri va 70- yillar boshida xalqning ko‘nglidagini topib aytgan shoir salkam payg‘ambardek mo‘tabar, nondek aziz edi odamlar uchun. 70-yillarning shoirlar avlodi ham o‘z gardanida ana shunday ijodkor baxtini tatib ko‘rdi. Endi bu avlod 60-yillar avlodi an‘analarini ham davom ettirib, ham qisman ulardan farq qilib, **poetik urg‘uni ijtimoiy adolat masalalariga berdi**” (1). Aynan Omon Matjon ijodi va shaxsiyatining buyukligi sabablari, nazarimizda, yuqoridagi ma’lumotlarda keltirilganday.

Omon Matjon ijodidagi “Devorlar”(4) she’rida ham ijtimoiy-falsafiy tasvir, jamiyatning bir bo‘lagi bo‘lgan insonlarning xarakter xususiyatlaridagi kamchiliklar ko‘rsatib berilgan deyish mumkin. “Devorlar” she’rida shoir devorlarni niqob sifatida tasvirlaydi. Chunki ko‘p hollarda ikkiyuzlamachilik, qabohat odatda niqob taqish orqali amalga oshiriladi, razilliklar boshqalardan yashirin tarzda bajarilishida niqob detalidan foydalanilgan. Omon Matjonning esa niqob detali o‘rniga devor detalidan foydalanganligi ijodkorning badiiy yangilik yaratishdagi mahorati bilan belgilanadi. Bilamizki, Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostonidagi Iskandar devori himoya qalqoni vazifasini bajargan. U ya’juj-ma’jujlardan himoya qalqoni sifatida tasvirlangan. Omon Matjon esa devor detaliga boshqa bir xususiyatni yuklaydi. She’rda devorlar shoirga boshpana emas, ularning panohlik shuhrati ketib, niqobga aylanib qolganday tuyiladi. Yozuvchining riyokor kimsalardan nafratlanishi, ularning devor orqasida yashirin qilayotgan nomaqbul ishlarini “Devorlar” she’rida quyidagicha fosh qilishi ifodalangan:

Xayoliy bir kuchni tusar goh qonim,
Bir siltab ko‘tarsam yerdan barisin!
Butun boshli dunyo devorsiz qolsa,
Ichkar tashqariga aylansa bir zum
Va bu sirli qurshov niqobin olsa,
Shu qiziq!

She’r yakunidagi poetik xulosa insonlarni halol yashashga, har qanday vaziyatda ham vijdoni pok insonlarni hech narsadan qo‘rqmasdan ko‘ngil xotirjamligiga erishishi haqida bo‘ladi:

Va faqat eng halol kishilar buni

O'tkazardi tinch-u tushmasdan terga.

Shoirning devor obrazi haqidagi fikrlari boshqa ko'plab she'rlarida ham davom qiladi:

O'zga sayyorada ko'rdim bir qasr,

Gavjum bozor ichra shisha uy, na sir?!

Atrof oldi-sotdi, beg'am alalo,

Oqillar ish ichra, oqillar – asir.

Yuqoridagi she'rda ham "Shisha uy" deya devorlar o'rnida shishaning tasvir etilishida devorning to'siqlik vazifasidagi ahamiyati yuzaga chiqadi. "Shisha uy" shoirning g'oyaviy-badiiy maqsadini ochish uchun xizmat qiluvchi poetik vosita. Nega u shisha uy? Devorlar bilan o'ralgan oddiy uy emas? Agar shunday bo'lganida uy ichida kechayotgan jarayondan xabar topish amrimahol bo'lardi.(3) Ushbu tasvirda ham devorning niqob va to'siq bo'lishi munimkinligi haqidagi fikrlari davom qilayotganligini kuzatamiz.

Devor mavzusi "Ha, bu bir xayol-da!"(4) she'rida yana davom qiladi. Ushbu she'r falsafiy-ma'naviy ruhda yozilgan bo'lib, insonning erkinlik, ichki uyg'onish va ruhiy uyg'onish istagini ifodalaydi. Shoir "xayol" timsoli orqali ruhning ozodlikka intilishini, "devor" orqali esa jamiyatdagi, inson tafakkuridagi to'siqlar va chegaralarni ramziy ifodalaydi. Bu she'rda ham devorga salbiy ma'no yuklanganini, devorni ramziy to'siq ma'nosida ko'rishimiz mumkin. "Ramz, ishora - badiiy ijodning bosh belgisidir. Hayotni boriday aks ettirishga qaratilgan odmi so'z badiiyatga tegishli emas. Ta'sirli, hissiy so'zgina ko'rkamlik"(2) yaratishini inobatga oladigan bo'lsak, shoirning ramzlardan o'rnida, ko'lamli foydalanganini ko'rishimiz mumkin. Shoirning murojaati — odamzod o'zini o'zi cheklemasin, yuragidagi "bahor"ni his etsin, "devorlar"ni buzsин degan chaqiriqdir.

She'r dialogik shaklda qurilgan: lirik qahramon o'ziga yoki insoniyatga murojaat qiladi. Birinchi bandda xayol bilan bahs ketadi, ikkinchi qismda bahor timsoli orqali uyg'onish, yangilanish, erkinlik g'oyasi kuchayadi. Shoirning "Ha, bu bir xayol-da!" she'ri ham ijodining falsafiy lirika yo'nalishiga mansub. Unda inson tafakkuri va ruhining ozodlikka intilishi haqida falsafiy-ramziy ma'nolar ifodalangan. Ushbu she'rda shoir ramziy ifoda, ichki monolog, tabiat va inson holatini uyg'un tasvirlagan. She'r g'oyasi orqali shoir ichki ozodlik va falsafiy

mushohada mavzusini chuqur yoritadi. Bu she’rda devorga — odamning o’zini o’rab olgan ruhiy chegarasi sifatidagi ma’no yuklangan.

“Bahormi –bahor!

Oftob, shabada, qushlar, gul, anhor...”

She’rdagi bu band esa hayotning bahor faslida abadiy yangilanish jarayonini, tabiatning uyg’onishini, shuningdek, inson qalbining ruhiy uyg’onish davrini bildiradi. Lekin baland devorlar orqasiga, ya’ni tashqi dunyo go’zalliklarini ko’rolmaydigan to’siqlar orqasidagi kimsalarga bahor ham, oftob ham, gullar ham begona, deydi shoir.

She’rda ramzlar, timsollar yuksak badiiy mahorat bilan tasvirlangan. She’rdagi xayol obrazi inson tafakkuri, orzular, ruhiy dunyo ma’nolarida tasvirlangan. Devor esa **ichki to’siq, jamiyatdagi ruhiy yoki mafkuraviy chegaralarning ramzi** sifatida, bahor esa uyg’onish, yangilanish, ozodlik, ijodiy ruh ma’nolarini, oyna - o’zini anglash, tafakkur oynasi timsolida, qorlarning erishi esa ruhiy muzliklarning erishi, ezgulikning uyg’onishi tarzida ifodalashni vazifa qilgan so’zlar tarzida keltiriladi. She’rdagi **“devor”** va **“bahor”** o’rtasidagi kontrast she’rning badiiy markazi hisoblanadi. “devor” obrazi — muz, sovuqlik, to’siq ma’nolarida, “bahor” obrazi esa— issiqlik harorati, erimoq, erk ma’nolarini ifodalaydi. Bu qarama-qarshilik orqali inson tafakkurining muzlagan joylari ham issiqlik, ya’ni muhabbat, haqiqat, erkinlik orqali eriydi, degan xulosa beriladi. Shoir obrazlar orqali falsafiy g’oyani juda tabiiy va hissiy ifoda etadi. Omon Matjon bu she’rida badiiy vositalardan ham unumli foydalangan. She’rda devor va xayol xuddiki jonlantiriladi, ular bilan suhbat qilinishi orqali tashxis san’ati namunasi yuzaga keltirilgan. She’rda qat-qat devorlar va bahor o’zaro matn tarkibida tagmatnda qarama-qarshilikni - tazodni yuzaga keltirgan. She’rdagi “devorga bosh urib turibman nechun?” takroridagi ritorik so’roq lirik qahramonning ichki iztiroblarini kuchli tasvirlash manbaiga aylanishini ko’rsatadi. She’r yakunidagi “Xavfli” bo’lib qolar eng zo’r devorlar” – misrasida poetik xulosa chiqariladi, ya’ni insonning ichki qo’rquvi, bu devor kabi to’siqlar bora-bora xavfli kuchga aylanib borishi mumkinligidan kitobxonni ogohlantiradi. Omon Matjon yuqoridagi she’r orqali shunday fikrni ilgari suradi: Inson hayotining eng katta devorini atrofdagilar emas, har kimning o’zi quradi. Bahor esa har doim keladi — lekin uni sezish uchun yurakni ochish kerakligini

ta'kidlaydi shoir. Bu she'ri orqali shoir insonlarni ruhan bahorga, qalban uyg'onishga, tafakkur erkinligiga chorlaydi.

Omon Matjonning o'zbek adabiyotida ramziy-falsafiy lirikaning yirik namoyondalaridan biri ekanligini "Xayolimda yashar bir nargis..." she'ridan ham anglash mumkin. Shoir ijodida tasvirlangan yoki ifodalangan hodisalar, kechinmalar oddiy voqelik tarzidan ancha yiroq. Ularda asosan ruhiyat, ichki dunyo, falsafiy qarashlar ifodasi beriladi. "Xayolimda yashar bir nargis..." she'ridagi nargiz obrazi aslida ezgulik, go'zallik, orzu va maqsadlar timsoli ekanligini sezamiz. "Omon Matjonning go'zallik haqida bitilgan she'rlarining har bittasi o'ziga xos xususiyatga ega bo'lsa-da, lekin ularni ich-ichidan bir-biri bilan bog'lab, payvandlab turadigan bir rishta bor. Bu she'rlar zamiridagi ijtimoiy mazmun, mohiyat" (3) ekanligi inobatga olinsa, bu she'rdagi go'zallik tushunchasi ham aynan ijtimoiy mazmunga aloqadorligi kuzatiladi.

Ushbu she'rda shoir "nargis" obrazi orqali go'zallik, poklik, orzular va ilohiy sevgi timsolini yaratgan. She'r inson xayoli, ruhiy dunyosi va orzularining daxlsizligi haqida. She'rdagi bosh g'oya — go'zallik va orzular faqat xayolda yashab, haqiqiy dunyoda daxlsiz qolishi mumkinligi haqida. Shoir she'ridagi lirik qahramon "xayolimda yashar bir nargis" deya orzudagi timsolni — go'zallikni, muhabbatni, ideallarini nazarda tutadi. Ammo bu go'zallik real hayotga o'tganda, "tongda quyosh olar-da ketar", ya'ni haqiqat va vaqt uni o'chiradi tarzida beriladi.

"Xayolimda yashar bir nargis,

Alvon-alvon tong va'da etar.

Lekin uning alvon rangini

Tongda quyosh olar-da ketar" (4).

Bu misralar orqali shoir xayolning go'zalligi va haqiqiy hayotning shafqatsizligini qarama-qarshi qo'yadi. Go'zallik, orzu va muhabbat — xayolda abadiy, ammo hayotda foniy, degan fikrlari she'rning birinchi bandining poetik mazmuni hisoblanadi.

She'rda Omon Matjon ijodi badiiyatiga xos bir nechta san'at vositalari mahorat bilan qo'llanadi: "Tongda quyosh olar-da ketar", "Daydi yellar olar-da ketar" misralarida tabiat hodisalari odamga xos harakat ifodalagani holda tashxisning go'zal namunasini yuzaga keltirgan. "Xayolimda yashar bir nargis" misrasi esa har bir band boshida takrorlanib, markaziy g'oya — xayoldagi go'zallikni mustahkamlaydi. She'rda hayol va hayot o'zaro zidlantirilishi tazodni, "Nargiz"ning esa ilohiy ilhomga qiyoslanishi metaforani yuzaga

keltiradi. Shoir tafakkur chuqurligini his-tuygʻulari orqali mahorat bilan uygʻunlashtirgan. Lirik qahramon oʻz xayolida yashayotgan “nargis”ni dunyoviy haqiqatdan himoya qiladi — chunki u biladi, sheʼr yaralgan vaqtlardagi muhit real dunyo goʻzalligini buzadi, orzularini yoʻq qiladi. Shuning uchun oxirgi badda shunday deyiladi:

“Xayolimda yashasa ham u,
Yasholmadi dahlsiz butkul”.

Sheʼrning xulosa qismida shoir inson xayolining ham toʻliq daxlsiz emasligini achchiq bir haqiqat sifatida tan oladi. Yaʼni, hatto xayol ham hayotning shafqatsizligi taʼsiridan butunlay ozod emas. Omon Matjonning falsafiy lirikasida bu fikrlar tez-tez uchraydi: u uchun xayol — bu ruhiy boshpana, insonning eng soʻnggi daxlsiz joyidir. Shoirning “Xayolimda yashar bir nargis” sheʼri — inson xayolining goʻzallik va orzu timsoli sifatidagi kuchi haqida. U orzularning oʻtkinchi dunyoda yoʻq boʻlishini, lekin hech boʻlmaganda inson ruhida abadiy yashashini istaydi. Sheʼrning poetik xulosasi orqali xayollarga ham daxl qilayotgan narsa bu jamiyat va undagi muhitligini sezish qiyin emas. Shu oʻrinda adabiyotshunos Ulugʻbek Hamdamning “Ijodkorlar oʻz zamonlarining tilmochlaridir”, deya oʻxshatishini Omon Matjon ijodida nima uchun ijtimoiy-falsafiy lirika yetakchilik qilishiga javob tarzida keltirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Hamdamov U. Yangilanish ehtiyoji. – Toshkent: “Fan”, 2007, 194-b.
2. Yoʻldoshev Q. Soʻz yolqini. – Toshkent: Gʻafur Gʻulom nashriyot matbaa birlashmasi, 2018, 496-b.
3. Jumaboyeva J. El bilsa boʻldi. – Toshkent: “Istiqbol”, 2018, 95-b.
4. Omon Matjon. Tanlangan asarlar. – Toshkent: “Adabiyot”, 2023, 41-6.

FILOLOGIYA

IKKI QARDOSH ADABIYOT – BIR ONANING IKKI DILBANDI



**Anvar
ALLAMBERGENOV,**
**Filologiya fanlari
bo'yicha falsafa doktori**

*Ozarbayjon Milliy Ilmlar akademiyasi
Nizomiy Ganjaviy nomidagi adabiyot
institutining bo'lim mudiri, filologiya fanlari
doktori, professor **Almaz Ulviy**
bilan suhbat*



SAVOL: Almaz xonim, o'zbek-ozarbayjon adabiy aloqalari juda uzoq davrlarga borib taqaladi. Mumtoz adabiyot tarixi, xususan, XX asr adabiyoti va bugungi kundagi adabiy munosabatlarning nechog'lik ekani, bundan tashqari, bu jarayonning ertangi holati qanday bo'lishi mumkinligi haqidagi fikrlaringizni bildirsangiz?

JAVOB: To'g'ri ta'kidlaganingizdek, o'zbek-ozarbayjon adabiy aloqalarining tarixi qadim zamonlarga tegishlidir. Hatto aytish mumkinki, bu tarixga chuqurroq nazar solsak, u adabiy obidalarimizga – mushtarak badiiyat namunalarimizga borib taqaladi. Demak, bu ikki qardosh adabiyotni bir onaning ikki dilbandi kabi ko'rmoq oradagi mashaqqatlarni va masofa uzoqligini ham yo'qqa chiqaradi. Bu aloqalar shu qadar yaqinlashib ketganki, bir-birining ta'siri ostida shakllanib, mazkur jarayon adabiy an'ana ko'rinishini oldi va yangi epik janrni adabiy janrlar majmuasiga muhrlab qo'ydi. Nizomiyning ilhomi, she'rlarining nafosati Navoiy ruhoniyyatiga shu qadar o'rnashdiki, uning adabiy faoliyati nainki o'zbek adabiyoti tarixiga, balki butun umumturkiy adabiyot tarixiga Uyg'onish davri bo'lib kirdi, u yashagan zamon "qizil asr" sifatida xarakterlanib kelinadi.

U o'zbek tilida "Xamsa" yozish bilan turkiy til va adabiyot tarixida yangi imkoniyatlar eshigini ochib berdi. Shuning uchun ham Navoiy merosiga nisbatan hayratini yashira olmagan, uni o'ziga Ustod deya asarlarida qayd etgan Fuzuliy

she'riyatining eng yuqori cho'qqisini zabt etdi. Ko'ryapsizmi, shu zaylda bir adabiy tarixni bosib o'tgan ozar va o'zbek adabiyotlarini bir-biridan ayricha tahlil etmoq, tadqiq qilmoq mumkin emas. Allohga shukurlar bo'lsinki, mushtarak adabiy namunalari bilan adabiyotlarimiz keyingi davrlarda yelkama-yelka turib, juda yuqori cho'qqilarni fath etdi. Ayni vaqtda ham bir-biriga ko'prik bo'lib, bir-biridan ta'sirlangan holda adabiy do'stligini, qardoshligini unutmaganlari yo'q. Birgina savol doirasida javob berish yoki kichik hajmdagi matn orqali butun boshli ikki millatning adabiy aloqalari tarixi haqida gapirish bilan masalaning asl mohiyatiga putur yetkazish mumkin, bunga esa bizning haqqimiz yo'q.

SAVOL: Adabiy aloqalar haqida gap ketganda, tarjima sohasiga alohida to'xtalmasdan bo'lmaydi. O'zbek ijodkorlari, xususan, shoir va yozuvchilarining asarlarini o'z ona tili, ya'ni ozarbayjon tilida gapirtirilgan ozar tarjimonlari haqida gapirsangiz?

JAVOB: adabiy namunalar kontekstida shakllangan yangi adabiyotlarning yaratilishi endi boshqa talablarni o'rta qo'ydi: adabiy ta'sir, adabiy an'ana, adabiy aloqalar uchun tarjima maydonini yuzaga keltirish zarurati tug'ildi. Bu zaruratni amalga oshirmoq esa yozuvchilarning zimmasiga yangi bir mas'uliyatni yukladi. Chunki bu adabiyotlarning ruhiyati bir bo'lganidan bir-birini o'rganmasdan turib, yangi yo'nalishlarga asos sola olmas, o'ziga xos yo'l ocha bilmas edi. Alifbolarning o'zgarishi ham aloqalarning inkishofida sustkashlikni yuzaga keltirardi. Ammo adabiy do'stlik aloqalari yangi ko'priklar qurdi: shoir va yozuvchilarimiz o'zaro hamkorlikda tarjimachilik ishlariga bel bog'ladilar va bu aloqalarni qurmoq uchun mavjud imperiyaning "alifbo siyosati" puchga chiqdi.

Moziyning o'zi yaratgan bog'larni bu kundan olib tashlashga ularning qurbi yetmadi. XX asrga bir qur boqaylik: aytish mumkinki, o'zbek adabiyoti oz bo'lsa-da uzluksiz ravishda Ozarbayjonda, xuddi shunday ozar adabiyoti o'zbek o'quvchilarining, tadqiqotchilarining tadqiq doirasida bo'lishdi. To'g'ri, sovet davrida tarjimalar faqat rus tili orqaligina qilinar edi. Bu qonun sifatida amalda edi. Chunki tarjima jarayoni rus tili orqali amalga oshirilganda, umumturkona ruh barbod etilar, aslida maqsad ham shu edi. Ular qancha makr qilmasin, ammo falakning bitigida yozilgani bo'ldi. Mustaqillik yillarida tarjimachilik yangi ufqlarni egalladi. Yoshlar bir-birini o'rgana boshladilar, turli-tuman adabiy o'tirimlar, badiiy kechalar orqali ko'rishishib, yangi ko'priklar qurmoqqa tutindilar, bir so'z bilan aytganda, yangi tamoyillar dunyo yuzini ko'rdi. Endi O'zbekistonda ham, Ozarbayjonda ham ko'plab adabiy almanaxlar, alohida shoir va yozuvchilarning asarlari tarjima qilinib, kitobxonlarga taqdim etiladi.

Men Ozarbayjon misolida ayta olamanki, O‘zbekistonning klassik shoirlari qatorida bugungi kunimizning eng yosh o‘zbek shoir va nosirlarini taniydilar, ularning ijod namunalari xilma-xil gazeta-jurnallarda, almanax va to‘plamlarda chop etiladi, xususan, alohida mualliflik kitoblari ham nashr qilinadi. Demak, an‘ana muvaffaqiyat bilan davom etmoqda. Hatto, adabiy aloqalar yaqin qarindoshlik iplarini bog‘lashga ham sabab bo‘layotir. O‘zbek shoira qizi Shohista Ortiqovanning ozar shoir yigiti Sarvar Komronli bilan turmush qurgani fikrimizning dalilidir. Ular adabiy faoliyatlarini birgalikda davom ettirmoqdalar, she‘riyat yig‘inlarida bir-biriga hamrohlik qiladilar. Ozarbayjon shoirlarining she‘rlarini o‘zbek tiliga tarjima qilib, birgalikda kitoblar nashr etadilar. Hozirda Shohista qizimiz davlat buyurtmasi va mening rahbarligim ostida “Ozarbayjoncha-o‘zbekcha lug‘at” ustida ishlamoqda. Aloqalarimiz shu qadar yaqin va tabiiydir.

SAVOL: Bugungi kunda ozarbayjonlik adabiyot ixlosmandlari o‘zbek shoir-u yozuvchilaridan qaysilarini o‘z ijodkorlaridek sevib o‘qiydi?

JAVOB: Ha, qiziqarli savol bo‘ldi. Bunga avvalgi so‘rovingizning mantiqiy davomi sifatida qaragim kelyapti. Bundan ikki kun oldin o‘zbek shoirlarining she‘rlaridan iborat yangi bir almanax nashr etish xabari e‘lon qilindi, ya‘ni “O‘zbek she‘riyatidan guldasta” nomli kitobda 40 dan ortiq ijodkorning she‘rlari tarjima qilinadigan bo‘ldi. Mazkur kitobni hozirlash tashabbuskorlari Dunyo yosh turk yozuvchilari birligining raisi, shoir Akbar Qo‘shali, taqrizchilar esa akademik N.Ja‘farov va kamina. Adabiy namunalarni tarjima qilganlar esa o‘zbekistonlik do‘stlarimiz Shohmamat Tog‘lar o‘g‘li va Shahlo Qosimovadir. Shunday tashabbuslar natijasida ayni mazmundagi olti yoki yettita almanax bosmadan chiqdi. Jamiki adabiyotga maxsuslashtirilgan jurnallarimizda – “Ozarbayjon”, “Yulduz”, “Qobustan”, “Dunyo adabiyoti”, “Xazor”, Adabiyot gazetasi”, “525-gazeta” va shu kabi adabiy nashrlarni sanashim mumkin. Yoshlarimiz zamonaviy o‘zbek ijodkorlarining aksariyatini taniydilar.

Ozarchaga o‘girilgan “XX asr o‘zbek she‘riyati antologiyasi”da Cho‘lpon, Elbek, Botu, G‘afur G‘ulom, Oybek, Maqsud Shayxzoda, Mirtemir, Zulfiya, Shukrullo, Miraziz A‘zam, Hamid Olimjon, Usmon Nosir, Tohir Qahhor singari Ozarbayjonda mashhur va sevib o‘qiladigan shoirlar bilan bir qatorda Faxriyor, Iqbol Mirzo, Salim Ashur, Eshqobil Shukur va boshqa shoirlar haqida ham ma‘lumotlar berilgan. Umuman olganda, chop etilgan bu kitobga 50 nafar o‘zbek shoirining nazmi va tarjimayi hollari haqida ixcham shaklda ma‘lumotlar ilova qilingan.

Yana bir masalani ta‘kidlashni istardim. Internet sahifalarida ijtimoiy tarmoqlar yetakchi rol o‘ynamoqda. Fayzibog‘(Facebook)da ham xuddi yuzmayuz ko‘rishib turgandek gaplashiladi, munoqasha va mubohasa qilinadi,

yangidan yangi yuzaga keladigan suhbatlarga yo'l ochish imkoni bo'ladi va hokazo.

SAVOL: Shu navbatda o'zingiz qaysi o'zbek ijodkorlarini sevib o'qiysiz va ular qay jihatlar bilan sizda qiziqish uyg'otadi?

JAVOB: Men deyarli barcha o'zbek shoirlari, yozuvchi va ijodkorlarini o'qiyman. Bugun men o'zimni Ozarbayjon adabiy muhiti ila yonma-yon o'zbek adabiyoti olamiga ham tamomila bag'ishlaganman. Har kunim o'zbek adabiyotining tadqiqi, tahlili ila band bo'ladi. Uni seva-seva mutolaa qilaman, zavq olaman. Qalbidagi hazrat Navoiyga bo'lgan ishqim meni bu muhitdan yiroq ketishimga yo'l bermaydi. Uyimdagi kitob javonidagi 3000 dan ortiq kitoblarning qariyb 1000 dan ortig'i o'zbek adabiyotiga oid, desak yanglishmagan bo'laman. Navoiy, Boyqaro, Fitrat, Cho'lpon... XX asr klassiklarining hammasi (Zulfiya, G'afur G'ulom, Hamid Olimjon, Oydin Hojiyeva...) haqida maxsus yirik hajmdagi maqolalarim bor. Tasavvur qiling, doktorlik tadqiqotim o'zbek adabiyoti xususida, demak, barcha o'zbek yozuvchi, shoirlari haqida ma'lumotlar qo'limda bo'lmog'i shart. Va, tabiiyki, ularni mutolaa qildim, o'rganib chiqdim va ishimda istifoda etdim.

Bugungi adabiy jarayonda ijod etayotgan O'ktamoy Xoldorova, Xosiyat Rustamova, Munavvara Usmonova, Dilbar Haydarova, Xurshidabonu Vahobjon qizi... bu ro'yxatni yana ko'p davom ettirish mumkin. Navoiy ijodiga muhaabbatim ila shunday bir oshiqlik maqomidamanki, bu ishqdan ayro ketolmayman.

SAVOL: Almaz xonim, siz ayni paytda Ozarbayjon Ilmlar akademiyasi Nizomiy Ganjaviy nomidagi Adabiyot institutining "Ozarbayjon – Turkmaniston – O'zbekiston adabiy aloqalari" bo'limi mudirisiz, sizningcha bu uchala adabiyotni birlashtiradigan mushtaraklik va bularning faqatgina o'ziga xos bo'lgan jihatlar nimalardan iborat?

JAVOB: Ozarbayjon Ilmlar akademiyasi Nizomiy Ganjaviy nomidagi Adabiyot institutida 2008-yilda Turkiy xalqlar adabiyoti bo'limi tashkil etildi. Jamiki turkiy xalqlar adabiyotini yangilangan davr ko'zi bilan tadqiq etishni reja qildik. Tadqiqotlarimiz shu qadar yiriklashib ketdiki, endi birgina bo'lim doirasida izlanishlarni davom ettirish mumkin bo'lmay qoldi. Shunga ko'ra, ushbu bo'limni ikki qismga ajratdik. Ulardan biri bizning bo'lim bo'ldi. Bo'lim mudiri o'laroq ushbu bo'lim tashkil etilishida bosh-qosh bo'ldim va ancha chuqur tanish bo'lganim uchun Turkmaniston va O'zbekiston adabiyotlarini yangi bo'lim o'laroq ko'rishni istadim. Tadqiqotlarimiz bisyor. Hozirda o'zimning ham 5 dissertantim bor. Ikki nafarini O'zbekistondan qabul etdik. Ozarbayjon davlati

ularning butun xarajatlarini o'z bo'yniga oldi. “G'afur G'ulom va Ozarbayjon”, “Samad Vurg'un va o'zbek adabiyoti”, “Mulla Nasriddin satira maktabi va o'zbek satirik adabiyoti”, “Ozarbayjon va 60-yillar o'zbek adabiyotining o'zaro qiyosiy tadqiqi”, “Mustaqillik yillarida ozar-o'zbek adabiy aloqalari”, “Ozar-o'zbek adabiyotidagi milliy o'zlikni anglash masalalari (A.Fitrat va H.Jovid ijodi misolida)” va shu kabi jiddiy tadqiqotlar kontekstida dissertatsiyalar yozilmoqda. Navoiy va bir qancha klassik o'zbek shoirlari, yozuvchilari haqida 300 ga yaqin ilmiy va ilmiy-ommabop maqolalarim bor. Bugunga qadar 8 ta kitob ham chop ettirdim. Tadqiqotlar, izlanishlarim davom etmoqda.

Bo'limimiz faoliyatining so'nggi ikki yilida “Alisher Navoiy – 575”, “Bobur – 535”, “Jamol Kamol – 80”, “Samad Vurg'un va turk dunyosi” mavzularida xalqaro ilmiy konferensiyalar o'tkazdik va ularning materiallar kitobini ham chop etdik. Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti bilan o'zaro ikki tomonlama Hamkorlik memorandumini imzoladik. 2016-yilda Afg'onistonning uch shahrida – Kobul, Mozori sharif va Hirotda ilmiy safarda bo'lib qaytdim. Abdurahmon Jomiy, Gavharshodbegim, Xoja Ansoriy, Alisher Navoiy, Boburlarning daxmalarini, Mozori sharifning ulkan Jome'sini ziyorat qildim.

Hozirda Maqsud Shayxzodaning 110 yillik yubileyiga tayyorgarlik boshlash arafasidamiz. Noyabr oyida shu maqsadda xalqaro ilmiy anjuman tashkil etish orzusidamiz. Turkmaniston adabiyoti bo'yicha Maxtumquli Firog'iyning yaqinda topilgan va qo'limizga tekkan Buxoro toshbosma shaklidagi “Devon”ini nashr etdik, mazkur klassik mutafakkir sharafiga xalqaro yig'in ham o'tkazdik.

Adabiy aloqalar sohasidagi xizmatlarini e'tiborga olib, bir guruh o'zbek shoir, yozuvchi va ilm ahlini Institutimizning “Faxriy diplom”lari bilan taqdirladik: Usmon Qo'chqor (vafotidan so'ng), tarjimon-shoir Boboxon Sharipov, ilmiy tadqiqotchi Sirdaryoxon O'tanova, tarjimon Rustam Jabborov, shoira Xosiyat Rustamova, shoira Shahlo Qosimova, shoir Olimjon Bo'riyev va boshqalar.

Ushbu xalq adabiyotlarini birlashtirgan mushtarak jihatlar: biz bu masalaga shunday prinsip bilan yondashdik. Bir onaning uch farzandi va ularning o'ziga xos xarakterli chizgilari bor. Yangi umumturk adabiyotimizning bir-biridan ayrilmas qo'llaridir. Bu adabiyotlarning mushtarakligi umumiy turkiylik ruhiga egaligidadir.

O'ziga xos jihatlarini esa faqat adabiyotlarga ko'chirilgan xarakterli milliy chizgilar bilan ajrata bildik. Fikr-mulohazalarimni Ozarbayjon xalq yozuvchisi, akademik Mirza Ibrohimovning bir jumlasini umumlashtirishni istardim: “Ozarbayjon va o'zbek adiblari uslub va san'atkorlik nuqtai nazaridan bir-biriga

juda yaqin va qardoshdir. Ular bir-birini takrorlamaydilar, har kishining o‘z ovozi, o‘z yozish uslubi bor. Adabiyot yakka, alohida xarakter tashisa-da, mundarijalarida aynilik ko‘rish mumkin bo‘ladi. Sababi esa, ularning bitta manbadan taralganliklari bilan bog‘liqdir”. Ustozimizning bu qarashlarini turkman adabiyotiga ham aloqador deb bildik. Uyg‘unlik va farqlilik misolida bir hodisani xotirladim: Ashxabodning markazida muhtasham bir shoirlar bog‘i bor. U yerda ozar, o‘zbek va turkman adabiyotlarining namoyandalari deya muayyan millatga tegishliligi jihatidan ayirib kelayotganimiz jamiki shoirlarning haykallari bor: Nizomiy, Navoiy, Fuzuliy, Boyqaro, Maxtumlul va ro‘yxatning davomida biz tanigan, biladigan barcha klassik shoirlar. Yanada ahamiyatlisi, ularning bari turkman shoirlari tarzida taqdim etilishidir. Men ularning g‘oyalariga qo‘shildim, e’tiroz qilmadim, to‘g‘ri deb bildim, chunki ularning ijodida shunday bir uyg‘unlik borki, ayirishning aslo imkoni yo‘q. Ya’ni bu shunday deganiki, biz bir-birimiznikimiz, bir-birimizning avvalimiz va davomimiz.

SAVOL: *Bilasizmi, o‘zbek o‘quvchilari uchun bugungi ozarbayjon adabiyotidagi qahramon qay tarzda talqin qilinayotgani qiziq, shu haqda to‘xtalsangiz?*

JAVOB: *Biz garchi hududlari ayri-ayri mustaqil davlatlar bo‘lsak-da, turli xil o‘lkalarda yashasak-da, ruhimiz, tilimiz, dinimiz, ishqimiz bir bo‘lganidan adabiy qahramonlarimiz ham bir-biriga o‘xshaydi. Biz bir oila kabi yashaganimiz tufayli ham na adabiyotimizda va na hayotimizda farqli qahramonimiz bor.*

FILOLOGIYA

JADID DRAMATURGIYASIDA PRAGMATIK MANZARA: NUTQIY AKTLAR, SUKUT STRATEGIYALARI VA MA'RIFATPARVAR DISKURSNING SOTSIOKOGNITIV ASOSLARI



**Rustamov Doniyorbek,
Toshkent amaliy fanlar
universiteti. Filologiya
fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD)**

UO'K: 821. 324

Annotatsiya: Maqola jadidiy dramaturgiyaning vujudga kelishini xalq hayotidagi og'riqli muammolarni sahnaga olib chiqish, ma'rifatni ommalashtirish va ijtimoiy ongni uyg'otish zarurati bilan bog'liq hodisa sifatida talqin qiladi. Jadid pyesalariga nisbatan keyingi davrlardagi noto'g'ri talqinlar va siyosiy bosimlar esga olinadi hamda bu merosni obyektiv tahlil qilishning ilmiy ahamiyati asoslanadi. G. Leech, J. L. Austin va J. Searle konsepsiyalari asosida assertiv, direktiv, komissiv, ekspressiv va deklarativ aktlarning jadid sahna matnlaridagi funksional yuklamasi tahlil qilinadi; qatlamlararo muloqot (ziyo-li, ruhoni, boy, amaldor, xizmatchi, yoshlar)da kuch, maqom, masofa va gender omillarining ta'siri aniqlanadi. Statistik kuzatuvlar bo'limlar kesimida (kirish, konflikt, yakun) so'roq, buyruq, tasdiq va taklif aktlari nisbatini dinamik ko'rsatadi.

Аннотация: Статья интерпретирует возникновение джадидской драматургии как явление, связанное с необходимостью вынесения на сцену болезненных проблем народной жизни, популяризации просвещения и пробуждения общественного сознания. Вспоминаются неверные толкования и политическое давление в более поздние периоды в отношении пьес джадидов, а также обосновывается научная значимость объективного анализа этого наследия. На основе концепций G. Leech, J. L. Austin и J. Searle анализируется функциональная нагрузка ассертивных, директивных, комиссивных, экспрессивных и декларативных актов в джадидских сценических текстах; определяется влияние силы, статуса, расстояния и гендерных факторов в межслоевом общении (интеллигенция, священнослужители, богатые, чиновники, служащие, молодежь). Статистические наблюдения показывают динамику соотношения актов опроса, приказа, утверждения и предложения в разрезе разделов (введение, конфликт, заключение).

Annotation: The article interprets the emergence of Jadid dramaturgy as a phenomenon associated with the need to bring painful problems of people's lives to the stage, to popularize enlightenment, and to awaken public

consciousness. The misinterpretations and political pressures of later periods in relation to Jadid plays are recalled, and the scientific significance of an objective analysis of this heritage is substantiated. Based on the concepts of G. Leech, J. L. Austin, and J. Searle, the functional load of assertive, directive, commissive, expressive, and declarative acts in Jadid stage texts is analyzed; the influence of power, status, distance, and gender factors in interlayer communication (intellectuals, clergy, wealthy, officials, employees, youth) is determined. Statistical observations show the dynamics of the ratio of interrogative, imperative, affirmative, and propositional acts in the context of sections (introduction, conflict, conclusion).

Kalit soʻzlar: pragmatlingvistika, nutqiy akt nazariyasi, assertiv, direktiv, komissiv, ekspressiv, deklarativ, noverbal indikatorlar.

Ключевые слова: прагматлингвистика, теория речевого акта, ассертивный, директивный, комиссивный, экспрессивный, декларативный, невербальные индикаторы.

Key words: pragmalinguistics, speech act theory, assertive, directive, commission, expressive, declarative, nonverbal indicators.

Jadidiy dramaturgiya xalqning mavjud ogʻriqli muammolarini hamda millatning moddiy–maʼnaviy qiyofasini bevosita koʻrsatish niyatidan tugʻilgan hodisadir. Bu pyesalarni birlashtiruvchi bosh belgining oʻzi — maʼrifatparvarlik amaliyoti, yaʼni xalqni ilmga chorlash, ijtimoiy ongini uygʻotish va islohiy harakatni sahna orqali ommalashtirishga qaratilgan qatʼiy intilishdir. Oʻtgan asrda amalga oshirilgan qatagʻon siyosatining tub motivlaridan biri aynan jadidlarning ijtimoiy–maʼnaviy faoliyatini toʻxtatish va jamiyat hayotida zarur oʻzgarishlar sodir boʻlishiga yoʻl qoʻymaslik edi. Shuning oqibatida jadid dramalarida ilgari surilgan maqsad va gʻoyalar koʻp bora notoʻgʻri talqin qilindi, buzib koʻrsatildi, hattoki mohiyatidan butkul uzoq tahlillar ham paydo boʻldi; bu holat esa, tabiiy ravishda, bu merosning obyektiv ilmiy tahliliga sezilarli toʻsiq tugʻdirgan.

Turkistonda “jadidchilik”, boshqacha aytganda “milliy uygʻonish” boshlanganiga oid qarashlar adabiyotshunoslikda keng uchraydi. Xususan, professor B.Qosimov taʼkidlaganidek, jadidlar harakatining bosh maqsad-vazifasi — Turkistonni savodli va maʼrifatli, farovon va barqaror, ozod va obod vatanga aylantirish, eng avvalo mustaqillikka erishish hamda mustamlakachilik iskanjasidan xalos boʻlish gʻoyalaridan tarkib topadi [1.21–22].

Nutq ijodi jarayonida uchraydigan pauza, sukut, ikkilanish singari hodisalar ichki kognitiv mexanizmlarning ko‘rinishi ekani ma’lum. Biroq ular faqat “ichki tafakkur” belgisi emas, balki kommunikativ maqsadni ifodalashga xizmat qiluvchi strategik vositalar ekanini ham unutmash lozim. Aslida, nutqiy hamkorlikning bosh maqsadi — axborot almashinuvi; bu maqsadga erishish uchun esa suhbatdoshlar o‘zaro tushunish imkonini yaratishlari shart [2.258].

Umuman olganda, muloqot matnida mazmun–shakl munosabatini o‘rganish pragmatik tadbirlarning eng dolzarb yo‘nalishlaridan biridir. Pragmatikaning substansional (mazmuniy) va formal (tuzilish) yo‘nalishlari bilan tutashishi bir tomondan lisoniy birliklarning ma’no-mohiyatini chuqurroq yoritishga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan formal tilshunoslikka “harakat” va “jon” bag‘ishlaydi [3.257].

Mazkur tadqiqotda sifat va miqdoriy (kvalitativ–kvantitativ) metodlar uyg‘unligidan foydalanildi. Jadid dramaturgiyasiga mansub pyesalar korpusi tanlanib, ularning sahna dialoglari pragmatik nuqtayi nazardan tahlil qilindi. Tahlil jarayonida J. L. Austin va J. Searle nutqiy aktlar nazariyasi, shuningdek G. Leechning pragmatik tamoyillari metodologik asos sifatida qabul qilindi. Nutqiy aktlar (assertiv, direktiv, komissiv, ekspressiv, deklarativ) kontekstual tahlil, funksional-semantik ajratish va diskursiv yondashuv orqali aniqlanib, ularning ijtimoiy qatlamlar, sahna qismlari va kommunikativ vaziyatlar bo‘yicha taqsimoti statistik kuzatuv usuli yordamida umumlashtirildi. Shuningdek, remarka va noverbal ko‘rsatkichlar sotsio-kognitiv yondashuv asosida izohlanib, nutqiy strategiyalarning ijtimoiy va madaniy omillar bilan bog‘liqligi aniqlashtirildi.

Pragmatika – insonning ijtimoiy faoliyati doirasida sodir bo‘ladigan nutq jarayonini, muayyan aloqa vaziyatida voqelanuvchi muloqot mexanizmlarini o‘rganadi. Lingvopragmatikaning o‘zi aniq tashqi shaklga ega bo‘lmasa-da, uning doirasiga so‘zlovchi (adresant), tinglovchi (adresat), ularning o‘zaro munosabatlari, muloqot sharoiti va shu kabi ko‘plab parametrlar kiradi. So‘zlovchi sub’ekti bilan bog‘liq ravishda quyidagi masalalar muhim: bayonning oshkora yoki yashirin niyati (axborot yetkazish, so‘roq, buyruq, iltimos, maslahat, va’da, uzr, tabrik va h.k.), nutq taktikalari va nutq odobi turlari, suhbat qoidalari, so‘zlovchining kommunikativ maqsadi, adresatning bilim zaxirasi, dunyoqarashi va qiziqishlariga berilgan baho, shuningdek so‘zlovchining o‘z xabariga modallik orqali bildirgan munosabati. Xuddi shuningdek, adresatning maqomi va o‘zaro aloqa shakllari, vaziyatning turli omillari bilan bog‘liq ko‘plab masalalar ham pragmatika doirasida tadqiq qilinadi. Bu g‘oyalar nafaqat nazariy ahamiyatga ega: ular evristik dasturlash, mashina tarjimasi, axborot–qidiruv tizimlarini ishlab chiqishda ham bevosita qo‘llanadi.

Sh.Safarov qayd etganidek, pragmatika amerikalik faylasuf Ch.S.Peirce tomonidan barcha bilim sohalarini qamrab oluvchi semiotika doirasida shakllangan va rivojlangan [3.31]. Pragmatika semiotikaning maxsus qismi ekanligi haqidagi fikrni birinchilardan bo'lib Ch. Morris ilgari surgan; u lisoniy belgilar tizimini semantika (belgi–predmet munosabati), sintaktika (belgi–belgi munosabati) va pragmatika (belgi–foydalanuvchi munosabati)ga ajratishni taklif qilgan [4.47]. Darhaqiqat, jadid dramalari o'z davrining ijtimoiy–siyosiy manzarasi, til xususiyatlari, madaniy–etnik ko'rsatkichlarini tahlil etishda ishonchli manba vazifasini bajaradi. Jadidlarning boshqa janrlaridan farqli ravishda, pyesalarda lingvokulturologik, lingvopragmatik, lingvopsixologik va sotsiolingvistik qatlamlar bir vaqtning o'zida verbal hamda nonverbal vositalar orqali kuzatish va leksik birliklar semantikasini tizimlashtirish imkonini beradi. Shu sabab, jadid dramalarini muntazam o'rganish va tahlil qilish ilmiy jihatdan dolzarbdir.

Jadid sahna asarlarining pragmatik tahlili orqali o'sha davr tili va uslubining ijtimoiy–madaniy kontekstdagi o'zni, nutqiy aktlarning ifodalanishidagi xarakterli xususiyatlar aniqlanadi; bu esa nazariy hamda amaliy tilshunoslik uchun qimmatli ma'lumotlar beradi.

Pragmalingvist olim G. Leech pragmatikani nutq kontekstiga nisbatan ma'noni tekshiruvchi vosita sifatida talqin qiladi: demakki, masala til tizimining o'zida emas, balki odamlar undan qaysi vaziyatda va qanday foydalanayotganidadir. Aniqroq qilib aytsak, muloqotda kommunikativ maqsad so'z va tuzilmalarning formal belgilaridan emas, balki kontekstdan kelib chiqadi [5]. D. Crystal nutq akti nazariyasini shaxslararo muloqotning tayanch poydevori sifatida ko'rsatadi: bu yondashuvda muloqot oddiy bayon emas, balki so'zlovchining illokutsion niyati va tinglovchi ongida yuzaga keladigan perlokutsion natijalar bilan belgilanadigan lokutsion faoliyatdir [6]. Gricening implikatura haqidagi qarashlari — hamkorlik tamoyili va suhbat maksimlari (miqdor, sifat, munosabat, uslub) — Leech izohlagan tarzda, so'zlovchi qo'shimcha ma'noni qanday yetkazishini tushuntiradi. Tomas esa nutqiy aktlarni o'zaro munosabatni boshqaruvchi hayotiy tamoyillarga bog'laydi[7].

Nutqiy akt nazariyasi dastlab J. L. Austin tomonidan shakllantirildi. U avval konstatativ (haqiqat qiymatiga ega) va performativ (til orqali amalni bajarish) farqlanishini bersa-da, keyinchalik bu dichotomiyadan voz kechib, har bir so'zlashning ijroi o'lchami borligini ko'rsatadi va lokutsion, illokutsion, perlokutsion uchlikni ajratadi. J. Searle esa nutqiy aktlarni besh turga bo'ladi: tasdiqlovchilar (assertives), ko'rsatmalar/undovchilar (directives), komissivlar (commissives), ekspressivlar (expressives) va deklaratsiyalar (declarations). Bu

yondashuv tilni faqat “axborot uzatuvchi vosita” sifatida emas, balki ijtimoiy harakatlarni amalga oshiruvchi mexanizm sifatida tushuntiradi [4.47].

Jadid sahnasida islomiy e’tiqod, ma’naviy–ma’rifiy kemal, qoloqlik va mutaassiblikni fosh etish g’oyalari yetakchi. Shu bois assertiv aktlar mazmuniga ko’ra bir necha semantik turga ajraladi:

Presuppozitiv ishora orqali ishontirish: “Hazratimning buyruqlari bilan borib ko’rgan edim. Hazratim marhamat etsalar, hammasini arz qilay”. “Hazratning buyruqlari bilan” formulasi oldinroq berilgan ko’rsatmaga nozik isoradir.

Duo va pand–nasihat vositasida ishontirish: “Jon bolam, oppog’ bolam, tuproq olsang — oltin bo’lsin; mendan qaytmasa — farzandlaringdan qaytsin. Ilojini qil, xudo xayrini bersin” [Advokatlik osonmi].

Holatni tasdiqlash: “Yomg’irdan keyingi bog’ qanday chiroyli bo’lsa, yig’ining ortidan kelgan kulgi ham shunchalik yarashadi. To’g’ri ish qildingiz, domla; lekin farzand — meniki, ixtiyor ham menda”.

Direktivalar (buyruq, so’rov, taklif)da so’zlovchi tinglovchini harakatga undaydi:

Mulla Do’st: “Jim turing, bugun ham ozlik qilmasin!” (qat’iy buyruq).

Mulla Ro’zi: “Tezroq bo’ling, qazosi ham, jazosi ham qursin!” (talab/so’rov).

Norboyvachcha: “Keling, xola, hammaga siporish qilsangiz ham menga ochiq savdo qiling” (taklif) [Yallachilar ishi].

Jadid pyesalarida buyruq mazmunli gaplar asosan yuqori ijtimoiy qatlam nutqida faollashadi; so’rovlar ko’proq quyi qatlamga xos; tasdiq va taklifning ulushi o’rta qatlamda ustun. Umumiy tendensiya quyidagicha ko’rinish oladi:

NUTQIY AKT	Yuqori qatlam (%)	O’rta qatlam (%)	Past qatlam (%)
So’roq	20	30	50
Buyruq	45	35	20
Tasdiq	30	40	30
Taklif	35	45	20

Buyruq qoliplari ko’pincha quyidagi morfologik–sintaktik andozalar orqali yuzaga chiqadi:

[Imperativ fe’l + -sin/-sun/-gay/-ing]: *gumdon qiling, dorga osilsin, bajaring, itoat eting, uzr so’rang, tavba qiling, borsun, yetkazsun, o’lturmasin, tik qarama...*

[Imperativ + -ma]: *shoshilma, isyon etma, so’zimni olma...*

[Muloyimlik + imperativ + -mi/-g‘ay/-g‘aysiz]: *ma‘zur tutg‘aysiz, iltimos, uzrimizni qabul qilg‘aysiz, hozir eta olursizmi...*

[Modal–obyekt konstruktsiya]: *bajarmog‘imiz shart, bormog‘ingiz darkor...*

[Shart mayli]: *ishni bitirsangiz, iltimosni yerda qoldirmasangiz...*

Komissivlar (kelajak harakati bo‘yicha majburiyat)

Moddiy foyda va‘dasi: Nor: “Xola, meni ko‘p aylantirmang; narxingizni ayting. Uch kun ichida og‘zingizga yarasha xizmat qilaman.”

Itifot–mehmondo‘stlik taklifi: Zulayho: “Samovar qaynadi; xon hazratlari choyni bog‘chada ichadilarmi?” [A. Fitrat, *Chin sevish*].

Uzoqboy: “Bir piyola choyimiz bor edi — ichib keting” [Xoji Muin, *Mazluma xotin*].

Ekspressiv aktlar shaxsning ichki holatini yuzaga chiqaradi va ijtimoiy aloqalardagi empatiyani kuchaytiradi. Remarka va kinoyasimilar: *yuzi qizaradi, kiprik pirpiraydi, tez-tez yurib keladi, asabiy ohangda, g‘oyat iltifot bilan, ko‘zlari yoshga to‘ladi* va b.

Shukronalik: *rahmat, Allohga shukur, minnatdorman, duolari ijobat bo‘lsin...*

Qayg‘u: *attang, esiz, kunim qoraydi, uyi kuysin, sharmandayi jahon bo‘ldim...*

G‘azab: *mal‘un, Jahannamga giriftor bo‘l, qarg‘ish tekksin...*

Quvonch–hayajon: *mashaalloh, subhanalloh, oh-ho, voy...*

Hayrat: *iye, nechuk, yo Alloh, vah...*

Ekspressiv aktlarning pragmatik komponentlari: (i) hissiy maqsadni yetkazish, (ii) empatiyani qo‘zg‘atish, (iii) interaktivlikni oshirish (bir ifoda boshqasida javob hissini keltiradi).

Deklarativ aktlar ma‘lum holatni tasdiqlaydi, izohlaydi va ko‘pincha institutsional doirada real oqibat keltiradi:

Xon: “Yaxshiyamki, ularning o‘limi bizning qo‘limizda — aks holda tez orada ustimizdan minishga urinurlar edi.” [A. Fitrat, *Abulfayzxon*]

Ulfat: “Podshohimiz bilurlar: saltanat — qon bilan sug‘oriladigan daraxtdir.” [o‘sha asar]

Mulla Ro‘zi: “Ha, gap shudir, lekin boshqa ishga ham qo‘l uring.” [H. H. Niyoziy, *Paranji sirlari. Maysaraning ishi*]

Mastura: “Mayli, gavhar; kechqurun pochchangiz bilan maslahatlashib, ertaga javobni tayyorlayman.”

Deklarativlar ko‘pincha modal so‘zlar va so‘z–gaplar orqali tasdiq ruhini kuchaytiradi.

Jadid pyesalari tahlilida Quyidagi umumiy taqsimot kuzatiladi:

Nutqiy akt	Dram qismi	Ulushi (%)	Kontekst
So‘roq (Interrogative)	1-parda	25	Qahramonlar o‘zaro aloqani savollar orqali ochadi
Buyruq (Imperative)	2-parda	35	Kuch, talab va zo‘rlik ohanglari
Tasdiq (Assertive)	3-parda	20	Holat va haqiqatni bildirish
Taklif (Commissive)	Boshqa qism(lar)	15	Kelishuv va kelajak rejalari
Ijobiy/salbiy javob	To‘liq tahlilda	5	Tahlil nuqtalarida yuzaga keladi

Demak, so‘roq aktlari asosan kirish bo‘limlarida muloqot maydonini ochadi; buyruq 2-pardalarda konfliktni kuchaytiradi; tasdiq va taklif esa yakuniy bo‘limlarda yoki asar davomida tarqoq holda uzluksiz ishtirok etadi.

Vaqt bo‘yicha dinamik kuzatuv

Yillar	So‘roq %	Buyruq %	Tasdiq %	Taklif %	Ijobiy/salbiy javob %
1900–1910	20	30	25	15	10
1911–1920	22	33	20	18	7
1921–1930	25	35	18	14	8
1931–1940	23	32	22	17	6
1941–1950	27	28	21	18	6

Bu ko‘rsatkichlar jadid dramaturgiyasi taraqqiyotida savol–javob strukturasi barqaror o‘sib borishini, buyruq ohanglari esa davr kesimida turlicha fluktuatsiya qilganini anglatadi.

Personajlar nutqidan namunalar:

“So‘zimga kirmading.”

— *Kommunikativ vazifa*: tanqid

— *Pragmatik usul*: so‘roq–tanbeh intervyuziya

Komilboy: “Bunda aybdor men emas; aybdor — johil zamona, johil ota-ona.”

— *Vazifa*: o‘zini oqlash

— *Pragmatik belgi*: ijobiy niyatni oldinga surish

Uzoqboy: “Yaxshi, ammo murosqa qilasan — kundoshinga zulm qilmaysan.”

— *Vazifa*: shart qo‘yish

— *Pragmatik belgi*: bajarilishi zarur bo‘lgan shartni aniqlash

Dramaning qismlarida funksional–pragmatik portret:

Qism	Pragmatik xususiyat	Kommunikativ vazifa	Til belgilari
1-qism	Tanishtirish	Informativ	Formal–aniq ifoda, passiv konstruktsiyalar
2-qism	Konflikt	Argumentativ	Keskin savol–javoblar, yuqori tensiya
3-qism	Tension/Stress	Emotsional	Affektiv ohang, qat’iy nutq

Jadid dramaturgiyasining pragmatik tarkibi qahramonlarning kommunikativ maqsadlariga muvofiq quriladi. Nutqiy dastur — sotsial mansubiyat, gender xoslik, shuningdek hissiy–affektiv holatlarga bevosita bog‘liq. Sahna matnlarida assertiv, direktival, komissiv, ekspressiv va deklarativ aktlarning rang-barang ko‘rinishlari, ularning morfologik qoliplari, sintaktik konstruktsiyalari va noverbal ko‘rsatkichlar bilan qo‘shma ishlatilishi jadid pyesalarini sotsiopragmatik laboratoriyaga aylantiradi. Natijada, bu asarlar nafaqat tarixiy–ijtimoiy ongning badiiy aks-sadosi, balki til amaliyotining real jarayonlarini, kontekst–ma’no dialektikasini va nutq strategiyalarining ijtimoiy omillar bilan o‘zaro bog‘liqligini izchil namoyon etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Б. Қосимов Жадидчилик // Миллий уйғониш ва ўзбек филологияси масалалари. –Тошкент. 1993.
2. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006.
3. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Жиззах: Сангзор. 2007.
4. Арутюнова Н.Д., Падучева Е.В. Истоки, проблемы и категории прагматики // Новое в зарубежной лингвистике. Вып. 16. Лингвистическая прагматика. – М.: Прогресс, 1985.
5. Leech G. N. (1983). Principles of pragmatics. Longman.
6. Crystal, D. (2011). A dictionary of linguistics and phonetics (6th ed.). Blackwell Publishing.
7. Leech G., Short M. (1981). Style in fiction. Longman.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
URGANCH INNOVATION UNIVERSITETI NTM

INNOVATSIYA VA TARAQQIYOT

10 (31)
2025-yil, oktabr.

Bosh muharrir:	M.Eshmurodov
Bosh muharrir o‘rinbosari:	S.Samandarova
Mas’ul kotib:	U.Bekmuhammad
Texnik muharrir:	A.Xushnudov
Navbatchi:	A.Xushnudov

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2023-yil 2-noyabr kuni №0154405 raqamli tasdiqnoma berilgan.

Bosishga topshirilgan vaqti: 10:00. Ruxsat etilgan vaqti: 11:00

Qog‘oz bichimi: A4. Adadi: 200 nusxa.

Hajmi: 11,375 b.t. Buyurtma №1/25.

Nashr ko‘rsatkichi: 1404.

Bahosi kelishilgan narxda.

“Milleniumus print” MCHJda ofset usulida chop etildi.

Urganch tumani, “Shermatlar” MFY, Tadbirkorlar ko‘chasi, 69-uy.

Tel: (+998) 91-994-24-00

Urganch innovatsion universiteti
220100, Urganch shahri, “Mustaqillik” MFY,
Gurlan ko‘chasi, 2-uy.
Tel: (+998) 90-436-20-22